

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FALSAFA
fanidan
MA'RUZALAR MATNI**

(Sirtqi ta'lif yo'nalishlari uchun)

Namangan – 2019

Ushbu ma’ruzalar matni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, oliy va o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018 yil 18 avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 18 avgustdagi № БД_____ bilan ro‘yxatga olingan va 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan ro‘yxati tasdiqlangan “Falsafa” fani dasturi hamda shu dasturda tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yhatidagi darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Abdullahayev Sh.R. – NamDU “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Mirzaxolov N.T. – NamDU “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o‘qituvchi

Mas’ul muharrir:

Raximboyeva D.A. – f.f.n., NamDU “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Mamatov O.V. – f.f.n., NamDU “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti

Zaynobiddinova N.I. – f.f.n., NamDU “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ma’ruzalar matni Namangan davlat universiteti Kengashining 2019 yil “___” maydagi “___” - son yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda Vatanimiz o‘tmishi, tarixi, ilmiy tafakkuri, boy madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada ortmoqda va bu borada ulkan yutuqlar dunyo miyosida qo‘lga kiritilmoqda. Yangi jamiyat qurilishi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda chuqur o‘zgarishlarni taqozo etmoqda, buni biz bugungi yurtimiz qiyofasini yanada gullab-yashnab chiroy ochayotganligi misolida, uning amaliy tasdig‘ining ifodasi sifatida jonli guvohi bo‘lib baxtiyor yashamoqdamiz. Bu o‘zgarishlarni ajib mezoni milliy-ma’naviy qadriyatlar, sharqona ruhiyat va yangicha dunyoqarash hisoblanadi, albatta.

Falsafa qadimiy fanlardan bo‘lib, jamiyat tarixida uch ming yildan ko‘proq davr mobaynida o‘rganib kelinmoqda.

Jamiyat tarixiy-taraqqiyoti boshlangan davrdan boshlab, ya’ni insoniy jamoa shakllana boshlangan paytdan ijtimoiy ong turi sifatida tafakkur, axloq-odob, go‘zallik va san’at tushunchalari shakllana boshladи.

Falsafa fani tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishi, taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Fanning diqqat markazidagi asosiy masalani olam va odam o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlar tizimi tashkil qiladi.

Falsafiy qadriyatlar, davlatlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik, hamkorlikni ta’minalash, komil inson va barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqillikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Axloqshunoslik (etika), estetika (nafosatshunoslik) va mantiq qadimiy falsafiy fanlardan bo‘lib, jamiyat tarixida ikki uch ming yildan ko‘proq davr mobaynida o‘rganib kelinadi. Jamiyat tarixiy-taraqqiyoti boshlangan davrdan boshlab, ya’ni insoniy jamoa shakllana boshlangan paytdan ijtimoiy ong turi sifatida tafakkur, axloq-odob, go‘zallik va san’at tushunchalari shakllana boshladи.

Mantiq falsafiy fan sifatida inson tafakkuri uning aqliy qobiliyatini o‘rgansa, axloqshunoslik insonning xulq-odobini, estetika fani esa inson hissiyotini o‘rganuvchi fan.

Axloqiy va estetik qadriyatlar davlatlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik, hamkorlikni ta’minalash, komil insonni tarbiyalash, mustaqillikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

1-mavzu: Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G‘arb falsafasi. (2 soat)

Reja:

- 1. Falsafa fanining tadqiqot sohasi va predmeti.**
- 2. Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari.**
- 3. Falsafa fanining bahs mavzulari va muammolari.**
- 4. Falsafiy bilimlar tizimi va falsafaning ijtimoiy vazifalari.**
- 5. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi.**
- 6. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G‘arb falsafasi.**

Tayanch so‘z va iboralar: *Falsafa, faylasuf, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, idrok, metafizika, ong, tafakkur, ruh, materiya, tabiat, borliq, fan, ontologiya, gnoseologiya, aksiologya, materializm, idealizm, dualizm, monizm, pluralizm, substansiya, agnostitsizm, gnostiklar, buddaviylik, “Tavrot”, “Veda”, astika, nastika, dao qonuni, “Avesto”, zardushtiylik, chorvaka, daosizm, panteizm, so‘fizm, shariat, tariqat, Milet maktabi, Eley maktabi, Antik falsafa, deizm, antroposentrizm, sxolastika, apologetika, realizm, nominalizm, utopiya, renessans, inkvizitsiya, mutlaq ruh, geosentrizm, geleosentrizm, ssiyentizm, antissiyentizm, pragmatizm, germenevtika, strukturalizm, ekzistensializm, neotomizm, neopozitivizm.*

Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va maorif beqiyos rivojlandi. Odamzod o‘zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko‘p yangiliklar yaratdi. Dunyoning ko‘plab sir-asrori kashf etildi, buyuk ixtiolar qilindi.

Ma’naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to‘plangan hikmatlar xazinasi eng muhim o‘rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari bo‘ladi. Ular o‘z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-tilishlarini falsafiy ta’limotlarida, muayyan darajada, ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g‘oyalarni o‘rtaga tashlaganlar. Oalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bayroq sifatida namoyon bo‘ladigan bu g‘oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, **falsafa o‘zi nima**, degan masalaga to‘xtalib o‘taylik. U insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o‘zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo‘qlik kabi ko‘plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir.

Falsafa asoslari bayon qilingan aksariyat darsliklarda **ushbu atama qadimgi yunon tilidagi «filosofiya» so‘zidan olingani va u «donishmandlikni sevish»** («filo» — sevaman, «sofiya» — donolik) degan ma’noni anglatishi ta’kidlanadi. Bu — ushbu so‘zning, atamaning lug‘aviy ma’nosи bo‘lib hisoblanadi. Asrlar davomida filosofiya so‘zining ma’no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o‘rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar bo‘lgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o‘zgarib borgan.

«Filosofiya» atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII-III asrlarda yuz bergen buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. O‘sha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda «Filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma’lum bo‘lgan, buyuk alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi Aflatun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to‘g‘rirog‘i, «fanlarning otasi», ya’ni asosiy fanga aylangan.

Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug‘ullanishidan qat’i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to‘g‘risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma’noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o‘rni haqidagi qarashlar tizimi bo‘lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi. Bundan tashqari, qadimgi Yunonistonda yuz bergen buyuk uyg‘onish davri o‘ziga xos falsafiy mafkurani ham yaratganligi shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin hayot

to‘g‘risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos bo‘lganini aksariyat olimlar alohida ta‘kidlaydi.

Sharqda «Ikkinch Arastu», «Ikkinch muallim» deya e’tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobi filosofiya so‘zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e’zozlash ma’nosida ishlatilgan.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o‘tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab yetgan, o‘zi va o‘zgalar qadrini to‘g‘ri tushunadigan kishi hech qachon «Men — donishmandman» deya ochiq e’tirof etmaydi. Ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo, Farobi ta’kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga yetish — boshqa gap. Shu ma’noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko‘pdan-ko‘p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuhrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan. XIX asr nemis qadriyatshunosi I. Rikkert ham shunga o‘xhash fikrni quyidagicha bayon qilgan: «Odamzod olam va odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf, kim bo‘lganidan qat’i nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo‘lgani shubhasiz».

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzilkesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Chunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo‘lish ilmiy bilimlarni egallah orgali ro‘y beradi. Eng muhim, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid‘at va cheklanishlarga muxolif bo‘lgan hurfikrlikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

«Falsafa» atamasi «filosofiya»ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma’nolarda qo‘llanadi. Xususan, keng ma’noda uni antik — qadimiy falsafada «donishmandlikni sevish» deb tushunilganini aytib o‘tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T. Gobbs (1588—1679) uni «to‘g‘ri fikrlash orqali bilishga erishish», nemis faylasufi Hegel «umuman predmetlarga fikriy yondashish», Lyudvig Feyerbach «bor narsani bilish», pragmatizm ta’limoti namoyandalari esa, «foydali narsalarни bilish jarayoni» deya talqin etgan.

«Falsafa» tushunchasi tor ma’noda madaniyat, san’at, aqliy yoki hissiy bilish usuli, vositasi tarzida ta’riflanadi. Falsafaga bo‘lgan munosabatning xilma-xilligiga asoslangan holda, unga yaxlit, umumlashgan ta’riflar ham berilgan. Falsafaga ijtimoiy ong shakli bo‘lgan madaniyat, san’at, qadriyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, uning milliyligini aks ettirish imkoniyati tug‘ildi. Ammo ontologiya, gnoseologiya, naturfilosofiya, antropologiya kabi fan sohalari nuqtai nazaridan qaralsa, ushbu ta’rifda **umuminsoniylik** va universallik falsafaning asosiy xususiyati ekanini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Endi **Faylasuf** kim, degan savolga javob beraylik. Filosof so‘zini, yuqorida aytganimizdek ilk bor buyuk matematik va mutafakkir **Pifagor** qo‘llagan. **Bu tushunchaning ma’nosini u Olimpiya o‘yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergen:** anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya’ni o‘zi va o‘zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh - savdo-sotiq qilish, boyligini ko‘paytirish uchun, uchinchisi esa, o‘yindan ma’naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko‘ra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va jo‘n misolga o‘xshaydi. Ammo uning ma’nosini nihoyatda teran. Chunki, inson umrining o‘zi ham shunday. «Dunyo teatrga o‘xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va o‘z rolini o‘ynab dunyoni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari to‘g‘risida bosh ham qotirmsadan kelib ketadi, umrini yeyish-ichish, uyro‘zg‘or tashvishlari bilan o‘tkazadi. Boshqasi - nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qo‘yadi. Uchinchisi esa, olam hikmatlarini o‘rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo‘larli hayot kechiradi.

Qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, inson ma’naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlarga falsafa bilan shug‘ullanganlar. Aslida, o‘sha davrlarda falsafani o‘rganish deyilganda, ilmnning asoslarini egallash ko‘zda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Do‘stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o‘tkazmay desang, falsafani o‘rgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470-399 yillarda yashagan) bu haqiqatni quydagicha ifoda etgan: «O‘z-o‘zingni yerga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, o‘zligingdan yuqori turish esa - faylasuflikdir».

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida ta’kidlab, shunday yozgan: «Ular, avvalo, boshqalarga bergan maslahatlariga o‘zлari amal qiladilar; ikkinchidan, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar; uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar».

Huddi shuningdek, Sharqda ham Konfusiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o‘z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to‘plangan bilim va tajribalarni o‘zlashtirish orqali faylasuf darajasiga ko‘tarilganlar.

Kezi kelganda shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi davrda bizda falsafa ixtisosligi bo‘yicha ma’lumot olgan mutaxassisni faylasuf deyish odat tusiga kirib qoldi. Aslida, faylasuf so‘zi ana shu tarzda ishlatilganida ushbu sohaning zamonaviy mutaxassisi, uning asoslarini egallagan, mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib boradigan yoki ilmiy darajaga ega bo‘lgan kishilar tushuniladi, xolos.

Falsafa fanining muammolari, o‘z xususiyatlariga ko‘ra, azaliy va yoki o‘tkinchi bo‘lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo‘lgan davrdayoq vujudga kelgan bo‘lib, toki odamzod mavjud ekan, yashayveradi. Chunki insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo‘yilaveradi. Ularni o‘rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etib boradi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqelegi, undagi o‘zarlo aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagi adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog‘liq ko‘pdan-ko‘p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliy muammolari sirasiga kiradi.

Falsafada olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu masala «**Substansiya**» tushunchasi va uning mazmunini qanday tushunilishiga qarab o‘ziga xos ifodalangan. Substansiya deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to‘g‘risidagi fikr tushunilgan. Yunoniston faylasufi va matematigi Pifagor hamma narsa sonlardan tashkil topgan degan bo‘lsa, Aflatun substansiya — g‘oyalardir degan, Demokrit esa, olamning asosida atomlar (atom tushunchasi o‘sha davrda bo‘linmas zarracha ma’nosida ishlatilgan) yotadi deb tushuntirgan.

Falsafa fanining bosh mavzusi bu olam va odam muammosi bo‘lib, uning asosiy muammolarini o‘rganadigan asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat.

Ontologiya – (yunoncha - borliq to‘g‘risidagi fan ta’limot). Bu talimot borliq, olam to‘g‘risidagi, insonning olamga bo‘lgan munosabati haqidagi falsafiy bilimlar sohasidir.

Gnoseologiya – (yunoncha - bilish to‘g‘risidagi talimot) bilish nazariyasi hisoblanib, olamni anglash, bilish, ilmiy bilishning darajalari (bosqichlari) shakli, usullari va imkoniyatlari to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Aksiologiya – qadriyatlar to‘g‘risidagi ta’limot. **Praksiologiya** – insonning amaliy faoliyatini tadqiq etadi. **Metodologiya** – bilish va o‘zgaruvchan faoliyat usullarini o‘rganadi. **Falsafiy antropologiya** – inson to‘g‘risidagi ta’limot. **Ijtimoiy falsafa** – jamiyat to‘g‘risidagi ta’limot. **Etika** – axloq to‘g‘risidagi ta’limot. **Estetika** – go‘zallik to‘g‘risidagi ta’limot. **Logika** – tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganadi.

Bu masalalarni qay tarzda hal qilinishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo‘nalishlar ham yo‘q emas. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha — monos, ya’ni yakka ma’nosini anglatadi) — olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya, ya’ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plural, ya’ni ko‘plik degan ma’noni anglatadi) — olamning asosida ko‘p narsa va ideyalar yotadi deb e’tirof etadigan ta’limotdir.

Materializm — olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta’limot.

Idealizm — olamning asosida ruh yoki g‘oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarни ustuvor deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limot.

Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog‘liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bilan falsafaning **gnoseologiya** (gnosis — bilish, logos — ta’limot) degan sohasi shug‘ullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni - **gnostiklar**; olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to‘g‘ri va aniq haqiqat darajasiga ko‘tarila olmaydi deyuvchilar esa - **agnostiklar** (yunoncha — bilib bo‘lmaydi degan ma’noni anglatadi) deb yuritiladi.

Dunyoqarash tushunchasi. *Har bir kishining dunyoga nisbatan o‘z qarashi, o‘zi va o‘zgalar, hayot va olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, xulosalari bo‘ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma’noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rnii haqidagi qarashlar; tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.*

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig‘indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Dunyoqarash nima? Hamma zamonlarda ham inson oldida uning atrof muhitga, boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatini belgilovchi savollar ko‘ndalang turadi. Har birimiz unday yoki bunday tarzda ularga duch kelamiz. Bizni o‘rab turgan dunyo nimadan tashkil topgan? Uni bilib bo‘ladimi va agar bilish mumkin bo‘lsa, qay darajada? Insonni o‘zi nima? U qanday bo‘lishi kerak? O‘limdan so‘ng bizni nima kutadi? Dunyoni nima boshqaradi? Dunyoda yovuzlik muqarrarmi? Inson dunyoni o‘zgartira oladimi?

Mana shunday savollarga javoblardan inson dunyoqarashi shakllanadi. **Dunyoqarash - bu insonni o‘rab turgan dunyo va uning unda tutgan o‘rniga nisbatan qarashlar majmuidir.** Dunyoqarashning asosiy masalasi - «Men» (subyekt dunyosi) va «Men - emas» (subyektga nisbatan tashqarida bo‘lgan dunyo) o‘rtasidagi munosabatdir.

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o‘z-o‘zicha rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo‘lgan qarashlar, tushunchalar, g‘oyalar shakllanadi. Bu - dunyoqarashning o‘z-o‘zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko‘pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar.

Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo‘lib, ongning sodda namoyon bo‘lish shakllarini ham, oqilona va sog‘lom fikrlarni ham o‘z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o‘ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalaridagi bilim va tajribalar ta’sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. «Har kimning o‘z falsafasi bor» deyilganida ana shu hol anglashiladi. Demak, dunyoqarash o‘zining kundalik ommaviy shakllarida chuqur va yetarli darajada asoslanmagan stixiyali xarakterga ega. Shuning uchun ham ko‘p hollarda kundalik tafakkur muhim masalalarni to‘g‘ri tushuntirish va baholashga ojizlik qiladi. Buning uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish zarur.

Dunyoqarashning tarixiylik tamoyili. Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma'lum dialektik jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida dunyoqarash nihoyatda oddiy bo'lgan. Agar shunday bo'lmaganida, har qanday jism o'z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi Arximed hammomdan yalong'och holda chiqib, «Evrika!», ya'ni «Topdim!», deya qichqirmagan bo'lar edi.

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgan. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko'rsatadi. Bunda vorislik an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g'oyasi o'tmishda yaratilgan ma'naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini, ilg'or va ijobiyalarini o'zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo'lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug' mashinasidan kosmik raketalargacha bo'lgan fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Falsafiy dunyoqarash. Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqeja va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Fanda ijtimoiy borliqning barcha jihatlari aks etadi. Dunyoqarashning shakllanishida his-tuyg'u, aql-idrok va tafakkur ham muhim o'rin tutishi tabiiy. Uning shakllanishi kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog'liq bo'lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Muayyan davr dunyoqarashida zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o'z ifodasini topadi. Masalan, bugungi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash zarurati istiqlol dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda.

Falsafiy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega. U muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Bularning ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'rilinga, orzu-umidlarining asosli ekaniga, faoliyati va xatti-harakatining umumiyligi maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Falsafiy dunyoqarash tarkibida hissiyot va aql muhim o'rin tutadi. Hissiyot dunyoqarashning emotisional-ruhiy jihat bo'lib, dunyonи tushunish esa, dunyoqarashning aqliy shaklidir. Hissiyot - quvonch, shodlik, zavqlanish, hayot va kasb-kordan mamnunlik yoki norozilik, hayratlanish, xavotirlanish, asabiylashish, yolg'izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-g'ussa, nadomat, o'z yaqinlari va vatani taqdirini o'ylash kabi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ana shular barchasining uyg'unligi dunyonи his etishga olib keladi. Dunyonи his qilish esa, uni aqliy tushunishga, muayyan dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

Inson aqli unga xos hissiyot va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va takomillashtiradi. Har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e'tiqod, intilish va kayfiyat, orzu-umid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning shakllanishida bilim g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimda dunyoqarashning barcha belgilari mayjud. Lekin, bilim va dunyoqarash aynan bir narsa emas.

Olamni tushunish bilimlar paydo bo‘lishi uchun asosdir. Bilim inson ongida hissiy va aqliy bilish jarayonida hosil bo‘ladi, u dunyoqarashning asosi, uning uzviy qismidir.

Falsafa azal-azaldan dunyoqarash bo‘lgan. Chunki, uning o‘zi hayot nima uchun berilgan, dunyoga kelishdan maqsad nima, umrni mazmunli o‘tkazishning qanday yo‘llari bor, degan talay savollarga javob topish zarurati tufayli vujudga kelgan. Falsafiy dunyoqarash o‘zining nazariy asoslangani va puxta ishlangani bilan ajralib turadi. Shu ma’noda, u boshqa fan yoki faoliyat sohasi uchun umumiyl uslub vazifasini ham bajaradi. **Agar nazariya bilish jarayonining natijasi bo‘lsa, usul (metod) shu bilimga erishish yoki uni amalga oshirish yo‘lini anglatadi. Falsafiy nazariya esa, bir vaqtning o‘zida usul vazifasini ham bajara oladi.** Tarixning burilish davrlarida o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari nechog‘li to‘g‘ri ekani falsafiy dunyoqarash tamoyillariga solishtirib aniqlanadi. Bunda muayyan falsafiy nazariya umumiyl usul (metod) sifatida qabul qilinadi. Shu sababdan ham bunday davrlarda falsafiy nazariyalarga e’tibor kuchayadi, taraqqiyot yo‘llaridan borish falsafiy modellarining ahamiyati ortadi.

Inson ongli ijtimoiy mavjudot bo‘lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o‘z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g‘oyalilar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy xolat va e’tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo‘lishidir.

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko‘ra, ma’naviy faoliyat bo‘lgani bois, u borliqqa bo‘lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari - axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari - huquqiy, siyosiy munosabatlari - siyosiy, diniy munosabatlari - diniy, ekologik munosabatlari - ekologik dunyoqarash shakllarida o‘z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo‘lsak, quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

1. Axloqiy. 2. Diniy. 3. Huquqiy. 4. Siyosiy. 5. Ekologik. 6. Estetik.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o‘zaro bog‘liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. Bundan tashqari, har bir tarixiy davrda millatning rivojlanishi, uning mentaliteti va dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyoqarash tizimi va ularning xususiyatlari muayyan inson, ijtimoiy guruh, tabaqa va butun millatning ma’naviy qiyofasini belgilab beradi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, ma’naviy barkamollik kabi tuyg‘u va tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo‘lagiga aylanadi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo‘lib, jamiyat rivojlanishining ma’naviy mezoni sifatida namoyon bo‘lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o‘zlarining ijtimoiy hayotiga bo‘lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o‘z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. Yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi. Xususan, o‘zbek xalqi sivilizatsiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og‘zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday ma’naviy qiyofaga ega bo‘lganini hanuz ko‘rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi - «Avesto»da yaxshilik ramzi - Axuramazda va yomonlik timsoli - Axriman o‘rtasidagi kurash tarixi misolida oxir-oqibatda ezgulik baribir g‘alaba qozonadi, ya’ni yorug‘lik zulmat ustidan g‘alaba qiladi, degan g‘oya asosiy o‘rinni egallaydi va hayotbaxsh g‘oyalilar ilgari suriladi.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamон kishilarining o‘zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash g‘oyalaring ifodasi bo‘lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, keljakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Dunyoqarashning mifologik mohiyati bugungi fan-texnika taraqqiyoti, insonning aqliy salohiyati bag‘oyat yuksalib ketgan davrda juda jo‘n va ibtidoiy bo‘lib ko‘rinadi. Ammo afsona va rivoyatlar o‘zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g‘oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta’sirchan va samarali omili bo‘lib qolmoqda.

Diniy qarashlar. Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo‘lgan e’tiqodi bilan bog‘liq bo‘lib, vujudga kelishiga ko‘ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e’tirof etish bilan bog‘liq bo‘lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e’tiqod qo‘yish bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bu dunyoqarash shaklini inson **qalbidagi quyidagi holatlar belgilaydi:**

- emotsiyonal-ruhiy holatlar; - iymon-e’tiqod; - iymon-e’tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o‘rganadi. **Teologiya** olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o‘lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e’tiqod tushunchalari bilan bog‘lab tahlil qilish hamda o‘ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog‘liq regulyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy yo‘nalishlari. Dunyoqarash tizimi va unga xos nisbatan mustaqil yo‘nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo‘lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir. Unga inson borlig‘ining mohiyati nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsa, moddiy yoki ma’naviy jihatlari nechog‘lik mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida materialistik va idealistik dunyoqarash yo‘nalishlari mavjudligini ko‘ramiz.

Agar borliq va uning xossalariiga mavjudlik, bog‘liqlik, o‘zgarish va taraqqiyot nuqtai nazaridan bildirilgan munosabatlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, uning tarkibida metafizik va dialektik, sofistik va sinergetik kabi qator dunyoqarashlar mavjudligini ko‘ramiz. Bular sof nazariy-falsafiy masalalar bo‘lib, ular to‘g‘risida «Olam va odam», «Dunyoni falsafiy tushunish» bo‘limlarida maxsus to‘xtalib o‘tamiz.

Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o‘z-o‘zicha shakllangan (mekanik) yig‘indisi emas, balki ularning umumiylar qonuniyatlar asosidagi tizimidir. Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi tamoyillar namoyon bo‘ladi:

- turli dunyoqarash shakllarining o‘zaro aloqadorligi kuchaymoqda;

- muayyan dunyoqarash shakllanish va rivojlanish jarayonida insonga munosabatning ahamiyati ortib bormoqda;

- milliy dunyoqarash umuminsoniy dunyoqarash shakli va uning tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan.

Falsafiy dunyoqarashning bu umumiylar qarashlar tizimining o‘z-o‘zicha shakllangan (mekanik) yig‘indisi emas, balki ularning umumiylar qonuniyatlar asosidagi tizimidir. Falsafiy dunyoqarash tarkibida quyidagi tamoyillar namoyon bo‘ladi:

Shu bilan birga, uning yana quyidagi tamoyillari ham bor:

- ilmiylik; - tarixiylik; - mantiqiylik; - universallik; - maqsadlilik; - g‘oyaviylik; - nazariya va amaliyotning birligi.

1. *Falsafiy dunyoqarash ilmiydir*, chunki u narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli obyektiv olamdagilari narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

2. *Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili* jamiyatning o‘tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. *Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili* har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalaniishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi.

4. *Falsafiy dunyoqarashning universalligi* boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya’ni har qanday dunyoqarash shakli o‘ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. *Falsafiy dunyoqarash maqsadga mavofiq* bo‘lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o‘z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. *Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviylik tamoyili*, uning asosida muayyan g‘oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o‘zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o‘zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqlol g‘oyasiga tayanishi bilan xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g‘oyani e’tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri *nazariya va amaliyat birligidir*. Dunyoqarashning nazariya sifatida mayjudligi ijtimoiy amaliyat tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo‘l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida uning usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarashning vazifalari (funksiyalari). Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. Ya’ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddaolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasıdir. Shu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko‘zga tashlanadi.

Bu — **falsafiy dunyoqarashning baholash vazifasini** anglatadi. Ya’ni, inson, o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi. Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya’ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o‘zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslashtiriladi. Orzu-havaslarga erishishning usullari, vositalari, amaliy yo‘nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me’yor, diniy qadriyat, xuquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar orqali **boshqarish vazifasini** ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o‘zicha nisbatan mustaqil bo‘lgan har bir yo‘nalishi o‘ziga xos boshqarish usuliga ega bo‘ladi. Masalan, insonni ezzulikka yo‘naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din — iymon-e’tiqodiga; huquq — qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funksiyalariga tayanadi va o‘ziga xos ta’sir yo‘nalishlariga ega bo‘ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini **nazorat qilish vazifasi** ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidagi ko‘rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o‘zbek xalqining tarixiy rivojlanishi va ma’naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko‘rsatgan.

Falsafiy dunyoqarashning **birlashtirish (kommunikativ) vazifasi** turli dunyoqarash yo‘nalishlarini milliy va umuminsoniy g‘oyalari atrofida uyg‘unlashtirishi bilan xarakterlanadi. Turli manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgani bois dunyoqarashlar o‘rtasida muayyan ziddiyatlar ro‘y berishi tabiiy. Bunday sharoitda falsafiy dunyoqarash ularni murosaga keltirishga xizmat qiladi.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning **tarbiyaviy vazifasini** yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu — kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag‘rikenglik, murosa, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo‘l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

Falsafaning predmeti. Ko‘rib turibmizki, falsafa turli jihatlarga va ko‘p vazifalarni bajarishga qodir. Ma’naviy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida unga dunyoqarash, bilim, nazariyasiga doir, uslubiy, integrativ-sintetik, aksiologik, tanqidiy, bashoratlash, loyihalash, evristik va mafkuraviy vazifalar xosdir. Falsafaning turli tomon va vazifalarini aniqlash negizida uning predmeti sohasini ham belgilash mumkin.

Falsafaning mavzu sohasi «dunyo-inson» tizimi hisoblanadi: a) **«dunyo» tizimi**, b) **«inson» tizimi** va v) ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tizimi. Bu tizimlarning o‘zi turli darajada tasavvur etilgan. «Dunyo» tushunchasida bir butun dunyo, uning tarkibiy qismlari (megadunyo, makrodunyo, mikrodunyo; anorganik dunyo, organik dunyo, ijtimoiy dunyo va hokazolar), ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro munosabat tushuniladi. «Inson» tushunchasida alohida olingan shaxs, turli darajadagi ijtimoiy jamoalar, bir butun jamiyat tushuniladi.

Falsafani «dunyo» va «inson» tizimidagi hamma narsa va «inson»ni «dunyo»ga bo‘lgan har qanday munosabati qiziqtiravermaydi. Falsaфа eng avvalo *umumiylıkka*, «*dunyo-inson*» *tizimidagi universal munosabatlarga* yo‘nalgan. Bularga ontologik (borliq haqida), gnoseologik (bilish haqida), aksilogik (qadriyatlar haqida) va *praksiologik munosabatlar* kiradi. Bu munosabatlarning umumiyligi ularning zarur tarzdaligini bildiradi. Insonlar qaerda va qanday davrda yashamasinlar albatta mana shu munosabatlar orqali atrof muhit bilan bog‘liqdir: ular - shu dunyoning mahsuli, ular shu dunyoni o‘rganadilar, uni baholaydilar va o‘zgartiradilar.

Shunday qilib, falsafa - bu ijtimoiy ongning o‘ziga xos shakli, nazariy dunyoqarash turidir. Bunda insonning dunyoga bo‘lgan universal munosabatlari (ontologik, gnoseologik, aksilogik va praksiologik) kategoriyalarning muayyan tizimi orqali umumiylashgan shaklda aks etadi va inson madaniyati yutuqlari sintezlanadi. Shu bilan bir qatorda, falsafa umumnazariy, dunyoni yaxlitligi va bir butunligicha o‘rganadigan fandir.

Sharq qadimiy madaniyat o‘chog‘i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta’riflanmagan. G‘arb madaniyati tarixini o‘rganish jarayonida Ovruposentrizm nazariyasiga og‘ib ketish g‘ayriilmiy bo‘lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog‘liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g‘oyalari ta’siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o‘ziga xosligi, unga mansub bo‘lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo‘shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e’tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiyasi quchog‘ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o‘zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko‘pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o‘tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo‘lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o‘ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo‘lishi bilan tavsiplanadi.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Eramizdan avvalgi to‘rtinchı ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya’ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yo‘nalishda borgan. Birinchi yo‘nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, rivojligi bilan bog‘liq ekanini, ikkinchi yo‘nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiyasi bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqe-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o‘rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu - o‘sha davr uchun tabiiy hol edi, ya’ni u - davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo‘lsa-da, aksariyat hodisalarining falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo‘lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida niyoyatda ojiz bo‘lgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqe-hodisalarini mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mayjudlik xossalari va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko‘nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o‘sha qadim zamonalarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkonи ham yo‘q edi. Bu - o‘sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbati», «Arfist qo‘shig‘i», «O‘z hayotidan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z joni bilan suhbati» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni, o‘sha davrdagi odamlarga xos tuyg‘ular bayon qilingan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat ediki, ularda, bir tomonidan, xudolarga ishonch, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, afsona va rivoyatlar tarzida bo‘lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizatsiyalarga xos deyish mumkin.

Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar yozma manba — «Veda»larda o‘z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo‘lib, mutaassib dindor hindu uchun oliv muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliv tangri Braxma tomonidan aytilgan so‘zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to‘rtta to‘plam (samxitlar) shaklida yetib kelgan. Bular — «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adxarvaveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo‘lgan manbalarda ham o‘z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma’noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo‘lmay, balki turli vaqtida turli mavzuda ijod etgan noma’lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o‘rab turgan borliq, uning hayotdagi o‘rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiatini, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me’yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhgaga bo‘linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni **astika** va **nastika** deb ataydi. Vedanta, sankxya, yoga, vaysheshika, n’yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. 1.Ushbu maktablarning tarafdarlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. 2. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-lokayata tarafdarlari materialistik ta’limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta’kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo‘lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankxya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo‘lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo‘nalishga, asosan, olamdagagi barcha narsalar ikki unsurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo‘lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroficha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o‘ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o‘rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo‘jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo‘liga o‘tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtida diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo‘lishini o‘ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g‘oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi **Konfusiy** (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya’ni aforizmlari juda mashhur. Konfusiy ta’limotida umuminsoniy qadriyatlarning xitoy xalqi turmush tarzida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, bu xalqqa xos ma’naviy mezonlar aks etgan. Bu ta’limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g‘oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma’naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. u hozirgi Xitoyda ham o‘zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfusiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. **Osmon irodasi — taqdirdir.** Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfusiy nuqtai nazariga ko‘ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. u, ya’ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlardan biridir. Konfusiyning ta’kidlashicha, shaxs faqat o‘zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfusiy ta’limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o‘rni nihoyatda ulug‘, u o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rmasligi, o‘ziga ravo ko‘rgan narsani boshqalariga ham ravo ko‘rishi lozim.

Konfusiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida,adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rinn tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri **Lao-Szidir** (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'yusunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. **Dao qonuni** — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «**Si**», ya'ni beshta unsur — olov, suv, havo, yer va yog'och yoki metall olamdag'i barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-Szining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikinchi holatga o'tib turadi. Qaramaqarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni in va Yan' orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fofia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Zardushtiylik ta'limoti. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri zardushtiylikdir.

Bu ta'limotga Zardo'sht asos solgan bo'lib, Sharq va G'arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardo'sht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanli haqida aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy asosga ega emas. Ya'ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. U o'z davrida xalqni ezgulik vaadolat g'oyalari da'vat etish, hayotbaxsh an'analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Zardushtiylikning bosh kitobi «**Avesto**»dir. unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlari aks etgan. Unda olamning azaliv qarama-qarshi kuchlari- yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski o'zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosи va Yunon-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rinn tutgan. Manbalarda Aleksandr qo'shini mahalliy xalqlarning qattiq qarshiligiga uchragani, u «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma'lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmagani, uni o'qiy olmagani sababli bu kitobning qadr-qimmatini tushunmagan va uni yoqish to'g'risida ko'rsatma bergen, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida unday emas. Bu — tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo'lsa-da, xaspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o'z zamonida fanlarning otasi deb nom olgan falsafani fan darajasiga ko'targan, buyuk donishmand sifatida yetti iqlimda tan olingen Arastidan 20 yil mobaynida muttasil ta'lim olgan edi. Binobarin, Shoh Filippning o'g'li Aleksandrni savodsiz, kitobning qadrini tushunmaydigan bir kimsa deb ta'riflash tarix haqiqatiga to'g'ri kelmaydi.

To'g'ri, u «Avesto»ni o'tda kuydirgan bo'lishi mumkin. Lekin buni kitobning qadrini tushunmagani uchunmas, balki yerli xalqlarni birlashishga da'vat etib turuvchi, ular e'tiqod qo'ygan milliy g'oyalari timsoli bo'lgan va o'z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi

vatanparvarlarni tarbiyalaydigan manba ekanini nazarda tutib, shu ishni amalga oshirgan. Qolaversa, o‘zini dunyodagi eng rivojlangan hudud madaniyatini jahonga yoyish uchun mas’ul deb bilgan, to‘g‘rirog‘i, o‘sha madaniyatdan boshqasini tan olmagan mashhur jahongir uchun zabit etilgan xalqning «Avesto»dek buyuk kitobi bo‘lishi kutilmagan hol edi. U, yuqorida ta‘kidlanganidek, mazkur kitob omon tursa, u ushbu zamin farzandlari uchun o‘zlikni anglash, binobarin, kuch-qudrat manbai bo‘lib qolaverishini nihoyatda yaxshi tushungan. Aleksandrdan keyin yashagan Rim imperatorlari ham Misr va Vizantiyaga qarshi urush qilib, yahudiylarning yerini bosib olganida tub aholining madaniy boyliklarini yo‘q qilgani, «Zabur» va «Tavrot»ning qadimgi nusxalarini kuydirib yuborgani yuqoridagi misolning tasodifiy emasligidan dalolat beradi.

Moniy ta’limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. u zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Moniy hatto «Monyilik yozuv» nomli alifbo ham tuzgan. uning ta’limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi - yaxshilik va zulmat dunyosiyovuzlik bo‘lgan. Ular o‘rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (ruh — nur farzandi, jism — zulmat mahsuli) iborat. Moniyilik xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta’limot bo‘lgani sababli hukmron mafkura qarshiligiga duch kelgan.

Monyilik ta’limoti asosida **Mazdak ta’limoti** yuzaga kelgan. U eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470-529 yillar) bo‘lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o‘z qarashlarida halq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo‘lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko‘payib ketgan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo‘lida kurashga da’vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Unda asosiy yovuzlik-boylikka hirs qo‘yish va o‘ta kambag‘allik qoralanadi. Bu insonparvar harakatdan cho‘chigan shoh Mazdakni turli hiylalar bilan o‘limga mahkum etadi. Mazdakiylar harakati, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. O‘rta Osiyoda Muqanna, Ozarbayjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag‘allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo‘ladi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta’limotlar, ular ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatiga ega. Sanab o‘tilgan qadimgi diniy-falsafiy ta’limotlar, ya’ni zardushtiylik, uning bosh kitobi — «Avesto», Moniy ta’limoti, «Monyilik yozuv», mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishiga da’vat etgan. Vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O‘rta Osiyoda, balki jahonning boshqa o‘lkalarida ham aks-sado bergen. Vatanimizning o‘sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma’naviyatimiz, falsafamiz jahon sivilizatsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Arab bosqini va islom dini. Movarounnahr arablar tomonidan zabit etilishi arafasida Turk qog‘onoti tizimiga kirar edi. U mayda amirliklardan iborat bo‘lib, ular o‘rtasida tinimsiz to‘qnashuvlar ro‘y berib turar edi. Ayniqsa, Turk qog‘onoti bilan sosoniylar Eroni o‘rtasidagi to‘qnashuvlar o‘ta shiddatli tusda yuz berar edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida bu hudud arab xalifaligi tomonidan bosib olindi. Bunga Movarounnahr hududida yashovchi halqlar, ijtimoiy kuchlar orasida siyosiy hamjihatlikning yo‘qligi, o‘zaro qirg‘in-barotlarning avj olishi sabab bo‘ldi.

Movarounnahrga arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so‘zi arabcha tangriga o‘zini topshirish, itoat, bo‘ysunish, tinchlik kabi ma’nolarni anglatadi. Islom dini bayrog‘i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, mavjud tarqoqlikka chek qo‘yilgan, yagona markazlashgan arab xalifaligi tashkil topgan.

Qur’on va hadislarda islomiy ta’limotning asosi bayon qilingan. **Qur’on** — muqaddas kitob. Unda islom qonun-qoidalari, iymon-e’tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me’yorlar o‘z ifodasini topgan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

«**Sunna**» esa hadislар majmui bo‘lib, Qur’ondan keyin turadi va uni to‘ldiradi. Unda Muhammad payg‘ambarning so‘zlari, xatti-harakatlari naqllar va hadis shaklida jamlangan.

Qur’on va sunnadan keyingi muhim manba — shariatdir. **Shariat** (to‘g‘ri yo‘l, ilohiy yo‘l demakdir) — islomda huquqiy, axloqiy me’yor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy

yo‘nalishlar — sunniylik, shialik va xorijiylit. Ular diniy ta’limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy me’yorlarga oid masalalarda o‘zaro farqlanib turadi.

Abu Mansur Moturidiy (melodiy 944 yilda vafot etgan) kalom ilmining aql maqomiga alohida e’tibor qaratgan Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Mu’taziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudolikning adolatli ekanini, Qur’onning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini yoqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Atodir (699-748 yillar). Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohiyotining o‘ziga xos falsafiy ta’limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qur’onga tayanib, jannat va do‘zaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yo‘qligini, lekin insonning Olloh oldida o‘z qilmishlari uchun mas’ul ekanligini asoslab berishga harakat qilgan.

Bunday ma’naviy jarayonlar bilan yonma-yon islomda **mashshoiyunlar va tabbiiyunlarning** (Arastu falsafasi va tabiatni o‘rganishga ahd qilganlarning) falsafiy qarashlari shakllana borgan. Bu islomiy ma’naviyatning dunyoviy va diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida ro‘y berayotgan jarayonlarga nisbatan tashabbuskor bir kuch ekanini ko‘rsatib turibdi.

Qadimgi Yunon falsafasi an’analarida siyosiy faoliyat va donishmandlik ko‘p hollarda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lsa, islom falsafasida siyosatga, aksincha, inson faoliyatining yuksak bir shakli sifatida qaraladi. Islomda davlatni boshqarish — bu san’at, ammo u ijtimoiy adolat taomiliga amal qilmog‘i zarur, ijtimoiy adolat esa teng huquqiylikka amal qilish tufayli barqaror bo‘la oladi, deb hisoblanadi.

Islom falsafasiga ko‘ra, insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali yuzaga keladi, axloq-odob esa inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismidir. Musulmon Sharqi mutafakkirlarini aql maqomi, mantiq ilmi avvaldan qiziqtirib keladi, chunki mantiqqa tayanmagan xar qanday bilim ishonchli va samarali bo‘la olmaydi. Bu masala ham islom falsafasida o‘z o‘rniga ega.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma’naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko‘pgina ichki sabablar va ba’zi tashqi unsurlar — buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta’siri ostida) paydo bo‘ldi. Ushbu ta’limot VIII asrda Iroqda vujudga kelgan . Tasavvuf uchun vahdoniyat — Ollohnинг birligi, Olloh va olamning porlab turishi, fano bo‘lish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdarlarini so‘fiylar, deb ataganlar va «so‘fizm» atamasi shundan paydo bo‘lgan. Ilk so‘fiylar aholining kambag‘al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi,adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan.

Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohiyotchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-Fazzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» asarida bayon etilgan. Ul zot dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilishni e’tirof etgan, lekin Ollohn ni aql bilan anglash mumkin emasligini ta’kidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar — iltijo-ibodatlar ko‘magida bilib boriladi. Mantiq, tabiatni bilish Ollohn ni tanishga xalal bermasa, ular ahamiyatlidir, agar aksincha bo‘lsa, ularning maqomi chegaralanadi.

Rasmiyatçilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymone’tiqodning mohiyati Ollohdan boshqa narsaga muhtoj bo‘imaslik, hech qanday mulkning quliga aylanmaslik, boriga sabr-qanoat qilib yashashdir. Ollohga yetishish uchun qalbni poklash, nafs balosidan ozod bo‘lish darkor. Ana shundagina inson dili nur bilan to‘ladi, nuqsonlarni boshqalardan emas, o‘zidan izlaydigan darajaga ko‘tariladi, Haq sari yaqinlashadi, bema’ni qarash va tushunchalarning quyllik kishanidan o‘zini ozod qiladi, chunki inson qalbi hurdir.

Tasavvufda **kubraviya, yassaviya, naqshbandiya** tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Diniy bag‘rikenglik va dunyoviy bilimlar takomili. Musulmon Sharqi, jumladan islom joriy etilganidan keyin Vatanimiz hududidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ijodida Olloh, inson va tabiat masalalari ilohiyot va dunyoviy falsafaning muhim muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Bironta buyuk alloma va mutafakkir islomiy qadriyatlar mavzuini chetlab o‘tmagan.

Diniy ilmlar sohalarida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Abu Hanifa, imom Moturidiy va imom Burhoniddin Marg'inoniyalar peshqadamlik qilganlar.

Imom Buxoriy (810-870yillar) yirik ilohiyotchi, muhaddis sifatida 60 mingga yaqin hadis to'plagan, ulardan ishончли deb topganlirini maxsus to'plam holiga keltirgan. Bu to'plam «Sahihi Buxoriy» nomi bilan mashhurdir.

Imom iso Termiziydan (824-892) «Payg'ambarning alohida fazilatlari», «Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola», «Tarix» va boshqa asarlar meros bo'lib qolgan. Imom Termiziy hadislarni muntazam ravishda to'plab, muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob shakliga keltirgan.

Abu Hanifa an-Nu'mon hanafiya mazhabiga asos solgan, barcha islam tarqalgan hududlarda o'z mavqeiga ega bo'lgan. Bu mazhabning muhim jihatlari kalom va ilohiyot sohalarining piri Abu Mansur Moturidiy (vafoti 944 y.) ning «Tavhid» va «Ta'vilot» asarlarida va Burhoniddin al-Marg'inoniy (1123-1197) ning «Hidoya» to'plamida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ularning asarlarida aql maqomi va mantiq ilmiga, ilm va dalilga keng o'rinn berilgan.

Muhammad al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Farg'oniy (taxm. 797-865) butun musulmon Sharqi va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalardir. Muhammad al-Xorazmiy arab xalifaligining poytaxti Bag'dodda «Donishmandlik maskani» («Bayt ul-hikma») ga rahbarlik qilgan. Uning «Astronomiya jadvali», «Hind hisobi to'g'risida risola», «Quyosh soati to'g'risida risola», «Musiqa haqida risola», «Tiklash va qarshi qo'yish hisobiga oid muxtasar kitob» kabi asarlarida algebra sohasiga asos solindi.

Sharq xalqlari orasida «Buyuk matematik» unvoniga sazovor bo'lgan Ahmad al-Farg'oniy (taxm. 798 y. da Quvada tug'ilgan) astronomiya va matematika sohalarida nom taratdi. Uning «Samoviy jismlar harakati va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «Astronomiya asoslari», asarlarida koinot xaritasi tuzildi. Yer va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, jo'g'rofiy kengliklar to'g'risida kuzatuvchilar orqali asoslangan yangi ma'lumotlar berilgan, ilm-fanning yangi yo'nalişlariga asos solingan. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda hissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida dunyoqarashni shakllantirishning muhim omillari bo'lib keldi va undan keyin yashagan ilm ahliga ta'siri sezilib turdi.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. **Abu Nasr Forobiy** (873-950) - musulmon Sharqida Arastudan keyin «ikkinci ustoz» unvoniga tuyassar bo'lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo'lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mutafakkir olamni ikki ko'rinishda: «Vujudu vojib» (olloh) va «vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar «vujudi vojib» tufayli yashash huquqiga ega bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog'lanadi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy.

Olam sifat, miqdor, javhar, aksidensiya (muhim bo'lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ular fazoviy jismlar, aqli mahluq (inson), aqlsiz jonivorlar, o'simliklar, minerallar va to'rtta unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi oltita ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali yuzaga keladi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib beriladi. Har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mutafakkir o'z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo'llari, davlatning xususiyatlari, ahloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to'g'risida ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Forobiyning Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri rivojiga bo'lgan ta'siri sezilarli bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, Yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma — xil olamlar

to‘g‘risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta‘sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e‘tibor bergan.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo‘lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o‘ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar yetkazib bergen ma’lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o‘ziga xos ko‘makchi va asos bo‘lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov — tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashylarning muhim jihatlari o‘rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi.

Beruniyga ko‘ra, inson qiyofasi tabiat ta’sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa’y-harakatlar oqibatida tubdan o‘zgartirishi mumkin. Har bir kishi o‘z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o‘zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g‘amxo‘rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug‘i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma’naviy me’ros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag‘ishlangan. Olimning «Shifo kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e‘tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo‘lganligi uchun yaratilgan «vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e‘tiborga molikdir. Unga ko‘ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o‘zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog‘langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir.

Temur va Temuriylar davrida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikr (XIV-XV asrlar).

Mavoraunnahr mo‘g‘ullardan ozod bo‘lgandan keyin, 1370 yildan boshlab mamlakatda Amir Temur (1336-1405) hukmron bo‘ladi. Buyuk Temur kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Feodal tarqoqlikka chek qo‘yildi, ishlab chiqarish kuchlari, qo‘shni mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari rivojlandi, yer ishlari va shahar hunarmandchiligidagi yuqoriga ko‘tarilish kuzatildi. Qadimgi dunyo madaniyati, Mavoraunnah, Hindiston, arab mamlakatlari xalqlarining ilk o‘rtasidagi falsafiy merosiga qiziqish ortib bordi. Bu davrning falsafiy fikri uchun xos narsa dunyoviy va diniy fanlarga murojaat, tabiatni o‘rganishga intilish, inson aqli va qobiliyatlarining ko‘tarilishi, insonning axloqiy sifatlarini qadralash, insonparvalik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish edi.

Ulug‘bek. XV olimlaridan biri Amir Temurning nevarasi *Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek* (1394-1449) edi. Movaraunnahr hukmdori bo‘lgan sulton Ulug‘bek, Fan va madaniyat taraqqiyotiga kata e‘tibor qaratdi. Uning ilmiy qiziqishlari riyoziyot, astronomiya, geometriya, kimyo, tarix va boshqa fan sohalarini qamrab olgan edi. Mutafakkir dunyoqarashining shakllanishida Aflatun, Arastu, Ptolemy, Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy va boshqa olimlarning asarlari katta o‘rin tutdi.

1428 yilda Ulug‘bek boshchiligidagi Samarqandda o‘sha zamondagi eng katta rasadxona qurildi. U 1437 yilda o‘zining astronomiya sohasidagi asari bo‘lgan «Zije Ko‘ragoniy» («Ko‘ragoniyning yulduzlar jadvali») risolasini yozib tugatdi. Ushbu risolada yil hisobi, sayyoralar nazariyasi, astronomiya muammolari bayon etilgan bo‘lib, 1018 yulduzning jadvali ham berilgan edi. Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» nomli asari ham borki, unda mo‘g‘ullar imperiyasining tarixi bayon etilgan. Bundan tashqari, Ulug‘bek mantiq, fiqh, musiqa nazariyasi va adabiy uslub nazariyasini yaxshi bilar edi.

Ulug‘bekning tadqiqotlari *astronomiya* taraqqiyotida muhim davr ochdi. U Yer yuzining har qanday nuqtasining koordinatlarini aniqlaydigan vosita ishlab chiqishga intildi, quyosh va oy tutilishlarini oldindan aytib berish usuli, yil hisoblarining biridan ikkinchisiga o‘tish qoidalari, yil

fasllari o‘zgarishlarining qonuniyligini ochib berish, osmoniy jismlar harakatining qonunlarini tushuntirishga harakat qildi. Asosiy kuzatish vositasi sifatida sekstant (burchak o‘lchash asboblaridan biri) xizmat qildi. Masalan, ushbu asbob yordamida quyosh yilining aniq miqdori o‘lchandi -365 kecha va kunduz 6 soat 10 daqiqa 8 soniya.

Ulug‘bek tomonidan asos solingan astronomiya maktabi o‘sha zamon ilmiy qarashlari shakllanishida katta o‘rin tutdi. Boshqa mamlakatlardan astronomiya bo‘yicha eng yaxshi mutaxassislarini taklif qilgan Ulug‘bek, o‘z atrofiga iste’dodli olimlarni to‘pladi. Eronning Koshon shahridan yirik riyozidon va astronom bo‘lgan G‘iyosuddin Jamshid al-Koshiy (vaf. 1430) taklif qilingan edi. O‘nli kasrni kashfiyoti al-Koshiyga mansubdir. Chunonchi, undan keyingina, XVI asrdan boshlab, Ovrupo riyozidonlari asarlarida o‘nli kasr qo‘llanila boshladidi. Ulug‘bek o‘ldirilgandan keyin uning ishini shogirdlari davom ettirdilar. Ulardan eng mashhuri - mashhur riyozidon va astronom Ali Qushchi (1403-1474) edi. Uning asosiy asari – «Astronomiya haqida risola» edi. Ali Qushchi obyektiv dunyoning mavjudligiga, moddiy ashyo va hodisalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning soddadan murakkabga o‘tib turishligiga ishonar edi.

Alisher Navoiy. Ulug‘ o‘zbek shoiri, davlat arbobi, buyuk mutafakkir *Alisher Navoiy* (1441-1501) Hirotda tavallud topadi. Maktabda u Xurosonning bo‘lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan tahsil oladi. Shoир turli davrlarda Iroq, Mashhad va Samarqandda yashaydi. 1469 yili taxtga Husayn Boyqaro o‘tirgandan so‘ng, Navoiy Hirotda qaytib keladi. 1472 yili ul zot bosh vazir etib tayinlanadi. Navoiy vazirlik davrida shoiru olimlarga homiylik qiladi, jamg‘argan boyligini ilm-fan, madaniyat va obodonchilik ishlariga sarflaydi, beva -bechora va muhtojlarga xayr-ehson qiladi, rabotlar, suv inshootlari, kasalxonalar qudiradi, kanallar o‘tkazadi.

She’riyat mulkinining sultoni bo‘lmish bu adib 30 ga yaqin asarlar muallifidir. Ular adabiyot, nasr va nazm, falsafa, axloqshunoslik, pedagogika, tilshunoslik, musiqa, nafosatshunoslik, tarix, tabiiy fanlar muammolariga bag‘ishlangan. Navoiy asarlari jumlasiga «Xazoyinul-maoniyy», «Devoni foni», «Lisonut-tayr», «Majolis un-nafois», «Holoti Sayid Hasan Ardashe», «Vaqfiya», «Munshaot», «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Tarixi muluki Ajam» va boshqalar kiradi. Mutafakkirning shoh asari «Xamsa» besh dostondan iborat: «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor», «Xayrat ul-abror», «Farhod va Shirin» va «Saddi Iskandariy».

Navoiy falsafiy qarashlari *vahdati-vujud* va *tasavvuf* ta’limotiga asoslangan. Mutafakkir o‘zining dunyoqarashida Olloh, tabiat va inson birligidan kelib chiqadi. Uning e’tiqodiga ko‘ra, inson baxt-saodatiga bu dunyoda erishishi mumkin. Buning uchun u tinmay mehnat qilishi, kasbhunar egallashi, tabiatning siru asrорini idrok qilishi, uning noz-ne’matlaridan foydalanishi darkor. Xudo, allomaning fikricha, borliqning, shu jumladan insonning yaratuvchisidir. Mavjudotlarning eng yaxshisi, a’losi va gultojisi insondir.

Turkistonda ma’rifatparvarlikning rivojlanishi va isloxoitchilik. Turkistonda ma’rifatparvarlik uzoq tarixiy ildizga ega. XIX asrda ma’rifatparvarlik falsafasining kuchayishi XVI asrda Buyuk ipak yo‘lining o‘z faoliyatini to‘xtatishi, dengiz yo‘llarining ochilishi hamda XVIII-XIX asrlarda Yevropa mamlakatlarida sodir bo‘lgan shiddatli texnologik rivojlanish natijasida O‘rta Osiyo xonliklarining obyektiv sabablarga ko‘ra taraqqiyotdan orqada qolishi bilan bog‘liqligi hech kimga sir emas. Xalq xo‘jaligi va umumiyy taraqqiyotga katta zarar yetkazgan ichki o‘zaro urushlar esa bu qoloqlikning subyektiv sabablari hisoblanadi. Shunday sharoitda ilg‘or ziyorilar mazkur qoloqlik sabablarini teran tahlil qilib, taraqqiyotga erishish yo‘llarini izlay boshladilar va keng xalq ommasini ma’rifatli qilishni bu yo‘ldagi birlamchi vazifa deb bildilar. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, Buxoro va Xivaning unga tobe’ bo‘lishi mintaqani markazning xom ashyo manbaiga aylantirib, vaziyatni yanada chuqurlashtirdi. Shu bilan birga, bir tomonidan - bank sarmoyasi, ikkinchi tomonidan - Yevropa va Osiyodan demokratik g‘oyalarning kirib kelishi dunyo bilan iqtisodiy aloqa o‘rnatish imkoniyatlarini namoyon etdi, mintaqada hurfikrlilikning rivojlanishiga imkon yaratdi. Bu asosiy maqsadlaridan biri ma’rifatparvarlik bo‘lgan milliy ozodlik falsafasining shakllanishidagi ilk qadamlar edi. Uning tarafдорлари mintaqaning turli burchaklarida ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlarini boshqarish, tashkil qilish yoki qo‘llab-quvvatlashdan hali uzoq bo‘lsalar-da, lekin ularning kelib chiqish sabablarini yaxshi anglar edilar va bu toifaning mavjud tuzumga tanqidiy munosabati, islohot o‘tkazish

zarurligini tushunishi -o'sha davr uchun katta yutuq edi. Taniqli olim Ahmad Donish islohotlar o'tkazishning eng faol tarafdarlardan biri edi. Keyinchalik Muqimiy, Furqat, Hamza, Berdaq, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi shoirlar o'z she'rlarida xalqni ilm va ma'rifatga chaqirdilar. Abay, Cho'qon Valixonov kabi taniqli arboblar demokratik g'oyalar bilan qurollangan bo'lib, ular bu mushkul ahvoldan chiqishning yo'lini nafaqat ma'rifatda, balki turkiy xalqlarning birlashuvida ko'rар edilar. Xuddi shu zaminda ma'rifatparvarlikdan siyosiy talablarni ko'tarib chiqishga qadar yuksalgan jadidchilik o'sib chiqdi.

Jadidchilik. Jadidchilik - XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko'plab Sharq mamlakatlaridagi milliy-taraqqiyparvar ziyorilarning islohotchilik harakati. Bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. «*Jadidlar*» degan nomning o'zi «*usuli jadid*» («Yangi usullar») tushunchasi asosida kelib chiqqan. Bu atama ostida o'qitishning yangi usullari tushunilar, yangi usuldagagi maktablar shu asosda qurilgan edi. Jadidchilik harakatining vazifalari kengayishiga muvofiq ravishda keyinchalik mazkur atamaning mazmuni ham kengaydi. Ma'rifatparvarlik bilan bir qatorda, jadidlar ijtimoiy va siyosiy huquqiy holatlarning eski tizimini taraqqiyotning ilg'or usullari bilan almashtirmoqchi bo'ldilar. Jadidlar harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi siyosiy kuchlar murakkab bir tarzda chigallashib ketgan Turkiston jamiyatining eng ilg'or yo'nalishi qarashlarini o'zida aks ettirdi. U dunyo ahamiyatiga molik insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyat taraqqiyotining yetilgan ehtiyojlari va o'lkaning tub aholisi manfaatlariga javob berdi. M.Behbudiy, A.Fitrat, U.Asadullaxo'jaev, Munavvar Qori, A.Avloniy, S.Ayniy, F.Xo'jaev, T.Norbo'taev va boshqa mashhur nomlar ushbu harakat bilan bog'liq.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin milliy falsafani shakllantirish uchun imkoniyatlar ochildi. Bugun ulug' ajodolarimiz tamal topishi qo'ygan o'zbek milliy falsafasini rivojlanirishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjud..

Shu bilan birga, bugungi o'zbek falsafasining rivojini ta'minlashda quyidagi jihatlar alohida o'rin tutadi:

- xalqimizning o'z milliy an'analariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi;
- mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar.

O'zbek falsafasini yanada taraqqiy ettirish vazifalarini amalga oshirish quyidagi muammolarning echimini topishga bog'liq:

- **birinchidan**, mustamlakachilik sharoitida soxtalashtirilgan tariximizni haqqoniy yoritish falsafiy g'oyalar, qarashlar tarixini ham xolis ko'rsatib berishni taqozo qiladi. O'z davrida qimmatli tarixiy manbalarning yo'q qilingani yoki ayovsiz talon-taroj etilgani bu ishni qiyinlashtirmoqda;

- **ikkinchidan**, mavjud manbalar arab yoki fors tillarida ekanligi, ularni biladigan faylasuf olimlarning, malakali tarjimonlarning kamligi umuminsoniy ma'naviy merosdan bahramand bo'lish va ulardan ijodiy foydalanishga to'siq bo'lmoqda;

- **uchinchidan**, odamlar ongidan mustabid tuzumning soxta g'oyalarini, ular qoldirgan asoratlarni siqib chiqarish, mafkuraviy bo'shliqni yangi g'oyalar bilan to'ldirish, istiqlol mafkurasini Shakllantirish muayyan vaqtini taqozo qiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bugungi falsafa masalalari bilan shug'ullanuvchi olim va tadqiqotchilar zimmasiga nihoyatda katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda, eng avvalo, mazkur sohaga aloqador har bir yurtdoshimiz dunyoqarashining milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan o'zgarishi nihoyatda muhimdir. Mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etilayotgan hozirgi davrda bu jarayonning qanday borishi yangi falsafiy ongning shakllanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflatun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy — ilmiy, ijtimoiy — ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi **Fales** (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo 'g'rofi, faylasufi bo'lган. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lган va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. **Anaksimandr** (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yotib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. **Anaksimen** (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuqlashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lган.

Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idiagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqr suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat — abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyon bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandası **Ksenofan** (eramizdan avvalgi YI — V asr) shoir va faylasuf bo'lган. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofan «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. u ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi». Biz hammamiz yerdan tug'ilganmiz va yerga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofan ilgari surgan g'oyalari uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida **sofistlar falsafasi** katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan.

Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya’ni o‘qituvchilar, diplomatlar, notiqlar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo‘lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o‘rnatishga xizmat qilgan. ularning ta’limoti Suqrot falsafasiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullangan, hurfikrli inson, kambag‘aldan chiqqan, tosh yo‘nuvchining o‘g‘li, o‘ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo‘lgan.

Uning hayoti fojiali tugagani to‘g‘risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O‘z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidalariga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo‘yilgan. Garchand qutilish imkonni bo‘lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o‘lgan. Suqrot va uning tarafдорлари jamiyat qonunlariga, ular qanday bo‘lishidan qat’i nazar, so‘zsiz itoat etishni targ‘ib etganlari g‘oyatda ibratlidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto‘g‘ri vaadolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, shunday bo‘lsa-da, ularga bo‘ysungan. Shu ma’noda, Suqrot o‘zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o‘zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Aflatun mening do‘stim, ammo qonun do‘stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o‘sha davr ma’naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrot o‘z ta’limotini og‘zaki ravishda ko‘cha-ko‘yda, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin biron ta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta’limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofan, Aristofan va Aflatunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofan «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o‘z ustozi haqida iliq so‘zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta’riflagan. Yoshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo‘yish — tuhmat ekanini alohida ta’kidlagan. Aflatun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug‘lovchi donishmand, deya ta’riflagan, uning falsafiy qarashlarini o‘z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog‘i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog‘liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o‘rin tutganli bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi **Aflatun** (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san’atkor, shoir va dramaturg bo‘lgan, o‘z g‘oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflatun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug‘ilgan. O‘zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma’lumotlarini birdan-bir to‘g‘ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflatunning eng yaqin do‘sti va shogirdi bo‘lgan.

Aflatunning «G‘oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta’limotining asoschisidir. Uningcha, g‘oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o‘zgarish va taraqqiyot g‘oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. G‘oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo‘ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi.

Aflatunning jamiyat va davlat to‘g‘risidagi ta’limoti uning dunyoqarashida markaziy o‘rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi — ontologiya va gnoseologianing klassigi bo‘lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo‘lgan. Aflatun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to‘g‘risidagi qarashlarini markaziy ta’limoti — g‘oyalar nazariyasi bilan uzviy bog‘liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to‘rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflatunning ideal davlat to‘g‘risidagi orzulari negizida adolat g‘oyasi yotadi. Aflatun aytganidek, jamiyat barcha a’zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo‘ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Aflatunning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384 — 322 yillar) (asli — Arastu) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o‘zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. O‘n yetti yoshida o‘z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflatun asos solgan

akademiyaga o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflatunning o'limiga qadar) shu yerda tahlil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrga 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin, keyinchalik dunyoni zabit etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lган. Filippning o'limidan keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayplashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebafo asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qartilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» («Qurol») nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga — nazariy va amaliy fanlarga bo'lган. Amaliy fanlar shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga - falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan.

Faylasuf olamdagagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular — moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lган maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lган. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti «Davlat», «Siyosat» kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxtli hayot mazmuni faqat moddiy mo'l-ko'Ichilik bilan belgilanmaydi, balki seroblik ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgan dagina, jamiyat baxtli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Arastuning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

Yunon falsafasida **Demokrit**ning qarashlari ham muhim o'rinn tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rinn tutadi. Uning bu boradagi qarashlari siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqidir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat — buyuk qo'rg'onadir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishhadadir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrash; yaxshi so'zlash; yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga da'vat etadi.

Epikur (341-270 yillar) — qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lган. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lган. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. uning fikricha, davlat

kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g‘oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma’rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta’limotini rimlik **Lukretsiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiatni to‘g‘risida» nomli asari bilan mashhur bo‘lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o‘z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o‘z davri va o‘rta asr falsafasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib, shaklini o‘zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkiga — oddiy va murakkab turga bo‘linadi. Lukretsiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o‘tgani. Bular — narsaning og‘irlikka ega bo‘lgani uchun to‘g‘ri chiziqli harakati, narsaning o‘zicha og‘ish harakati, narsaga turtki bo‘lgan asosga qaratilgan harakat. Lukretsiyning nazariyasi mohiyatan sodda bo‘lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Biz xorijiy Sharq va antik dunyo falsafasi haqida juda qisqa ma’lumot berdik. Ularga mansub ayrim oqim va mashhur faylasuflar ta’limoti to‘g‘risida nihoyatda muxtsasar fikr yuritdik. Aslida bu mavzular o‘ta keng qamrovli bo‘lib, ularning mohiyatiga yetib borish uchun ko‘p va xo‘b o‘qib-o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Ishonchimiz komilki, siz, aziz talabalar ularni mustaqil o‘qib-o‘rganish jarayonida to‘liq o‘zlashtirib olasiz.

Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o‘rta asrlar falsafasigacha, ya’ni miloddan ilgarigi 1 asrdan milodning X1V asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo‘ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko‘rish mumkin: 1. Xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi; 2. O‘rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustivor yo‘nalishga aylanishi. Gnostika, apogetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o‘sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Gnostiklar. Bu davr falsafasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan gnostisizm eramizning 150 yillarida o‘zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta’limot yaratdilarki, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o‘z tabiatinnig ruhiy jihatni bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostisizm g‘alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo‘lib qolar edi va shunday bo‘ldi ham. 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e‘lon qildi.

Dualizm — gnostitsizmnинг asosiy yo‘nalishi, bu oqim tarafdarlari moddiy va ruhiy dunyo o‘rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta’kidlaydilar. Ular ta’limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy dunyonni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e‘lon qilingan darveshlik (asketizm) o‘rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Apogetlar xristianlik tarixida 1 va III asrlarda vujudga keldi. Apogetika so‘zining lug‘aviy ma’nosи «himoya qilish», — demakdir. Apogetlar hukumatning xristianlikka bo‘lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta’qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o‘z asarlarida mushriklik (ko‘p xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan, yoki apogetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar.

Apogetlar asarlarida ikki an‘ana yaqqol sezilib turadi. Ya’ni inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qo‘ylgan ayblar — g‘ayriodatiy harakatlar, dabdbabozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning «Birinchi apologizeya», «Ikkinci apologizeya» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta’kidlash lozim.

«Patristika»- so‘zi «ota» («padre») so‘zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G‘arbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo‘lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640 ta da’vatlaridan ko‘pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qo‘llash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G‘arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo‘lgan Avreliy Avgustin (354-430) bo‘lib hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi bo‘lgan. Avgustin o‘z hayotini

yepiskoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bag‘ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da’vat va 200 ga yaqin nomalar yozadi. Uning o‘sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig‘inish» 401 yilda yozilgan. Bu asarda u o‘zining xristianlikkacha bo‘lgan hayotini yozadi. Muqaddas kitob «Bibliya» oyatlari ramziy — timsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

«**Sxolastika**» - so‘zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingen bo‘lib, «o‘qish joyi», «maktab» ma’nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o‘qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o‘qituvchilarini sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o‘rganishda falsafani tatbiq qilgan o‘rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma’lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo‘lgan intilish deb ham baholash mumkin. O‘sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalarini asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e’tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo‘lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberiyskiy (1038-1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug‘ilgan, 1093 yilda Ketterberiysk shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o‘zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchisi «Monopoliya» — xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko‘p ne’matlardan foydalanadi. Bu ne’matlar esa eng oliv ilohiy ne’matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo‘lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo‘lishi kerakki, biz uni xudo deb ataymiz.

Angelmning ikkinchi asari «Prologion» xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta’kidlashicha, har bir odam uchun oliv va komil mohiyat haqida g‘oya mavjuddir. Bu g‘oya esa obyektiv mavjudlikka ega bo‘lgan reallikka mos keladi. Chunki agar borliq mavjud bo‘lmaganda edi, narsa komil bo‘lmas edi. Agar xudodan yuqoriroq oliv narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, xudo reallikda mavjuddir.

Arastu ta’limotining ko‘p tomonlarini qabul qilgan o‘rta asr sxolastlari mo‘tadil realistlar deb atalganlar. Ularning yirik vakillari Per Abelyar va Foma Akvinskiylar bo‘lgan.

Britaniyada tug‘ilgan **P. Abelyar** (1079-1142) juda yoshligidanoq o‘z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar — mo‘tadil realistdir. Uning ta’kidlashicha, reallik yoki universaliy dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o‘zida mavjuddir va niyoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e’tiqod qilish uchun bilaman» degan g‘oyani ilgari surgan. Ya’ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko‘ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o‘rgangan kishi abzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o‘zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta’kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta’kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yo‘llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o‘limi xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni xudoga bo‘lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga ahloqiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida sodir bo‘ladi. Bu bilan odamlar o‘z hayotini xudoga bo‘yso‘ndiradilar. Bu qarash ahloqiy ta’sir qilish nazariyasi deb ataladi.

Foma Akvinskiy (1224-1292) mo‘tadil realizmnning yana bir yirik vakili bo‘lib hisoblanadi. Foma o‘sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo‘tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasini bo‘lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta’limoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo‘lib, 600 masalani yoritishga bag‘ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borlig‘i masalasida bahs yuritadi. Ikkinci qismi «xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi.

Akvinskiy ta’limoticha, dunyo ierarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida yer va 4 elementdan iborat bo‘lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o‘rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. Yerdan

uzoqlashgan sari u ilohiyashib boradi. Sayyoramiz dunyosinning tepeasida farishtalar dunyosi mavjuddir. Butun koinot tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida g'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri **Vilyam Okkamdir** (1309-1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari rasional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, shuningdek, universaliylarning obyektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universaliylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirilar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjer Bekon (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XYII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300 yillarda — Foma Akviniyskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladи. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (rasionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

Yevropa falsafasining rivojida universitetlar muhim o'rinn tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chog'i sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib, Yevropada 23 ta universitet mavjud bo'lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug'ullanish tashkil etar edi.

Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Iteriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolonya shahri universiteti muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi shuhrati ko'p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Universitetlar, shuningdek, talabalarning chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembridj universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209 yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko'chib o'tishlar natijasida vujudga keldi.

Universitetlar Qadimgi Yunoniston va Rimda, shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham mashhur bo'lgan ustoz va shogirdlar to'planib ilm o'rganadigan, o'rgatiladigan va ilmiy bahslar olib boriladigan maktablar tarzida shakllangan bo'lsalar-da, ammo fan sohalarining ko'pligi tufayli alohida ilm o'chog'iga aylanib qoldilar. Ularning tajribasi keyinroq butun dunyoga tarqalib ketdi.

Uyg'onish davri falsafasi. Bu insoniyat tarixida yuz bergen eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uyg'onish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis **Nikolay Kuzanskiydir** (1401-1464). Kuzanskiy ta'limoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinci masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar bo'yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi **Nikolay Kopernik**dir (1473-1543). Ma'lumki, fan tarixida Kopernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliosentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarmas deb tanilgan ta'limotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi talimot asossiz bo'lib qolardi.

Kopernikning geliosentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik **Jordano Brunodir** (1548-1600). U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur bo'ladi. Uzoq vaqt Shvesariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592 yilda Bruno italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o'zining ta'limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga hukm qilinadi, 1600 yil 17 fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o'ldiriladi.

Bruno geliosentrik nazariyani himoya qilish va targ'ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular filosofiyani yana ham boyitdilar. Bruno ta'limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. uning ta'lomoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko'p dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz ko'rib turgan narsalar koinotining eng kichik bir qismidir. Yulduzlar — bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi. Yer — cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy — ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta'limotini quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

Uyg'onish davrining natijasi sifatida namoyon bo'lgan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Niderlandiyada XVI asrning 60-70 yillarda, Angliyada XVII asrning 40-50 - yillarda bo'lib o'tdi. Bu davrga kelib, Yevropada alohida millatlarning shakllanishi yuz berdi, milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilg'or tabaqalari nazarida faqat tarixan o'z umrini o'tab qolmasdan, balki g'ayritabiyy, g'ayriaqliy bo'lib ko'riva boshladidi. O'sha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini o'rtaga qo'ydilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yo'g'i 50-60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-mim demagan Yevropa, endi o'zining hayotida markaziy o'rinni inson huquqlari egallashi kerakligini his eta boshladidi. Hatto xudoning nomidan bo'lsa-da, inson umriga zomin bo'lishga hech kimning haqqi yo'qligi, odamzodning yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglab olina boshladidi. Albatta, bungacha ikviziysi bir necha asrlar bu hududni aqidaparstlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni o'z domiga tortib ulgurgan edi.

Ingliz falsafasi. O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561-1626) yuqorida masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chegaralar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit beradi. Ular inson aqlini o'rab tashlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshi ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiatini bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshi, buzuq ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamning o'z spesifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor

doirasi bilan o‘lhash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari, bo‘lib, u ma’lum bo‘lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto‘g‘ri yoki noaniq termonologiyalarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u shuni ta’kidlaydiki, real borliqni ifodalamaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so‘zlar soxta tushunchalarni tug‘diradiki, ular tafakkurga teskari ta’sir qiladi. To‘rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko‘r-ko‘rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metotologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining bиринчи bosqichi esa tajribadir, иккинчи bosqichi aqldir. U tajriba ma’lumotlarini rasional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta’limoticha, olim chumoliga o‘xshab faqat yig‘ish va yig‘ilganlar bilan kifoyalanmasligi kerak, o‘rgimchakka o‘xshab hayotdan ajrab, faqat o‘zining shaxsiy aqli bilan o‘zining makrli falsafasini to‘qimasligi kerak. Bekon ta’limoticha, olim asalariga o‘xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim.

Bekon o‘zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo‘yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo‘lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san’at va savdo rivojlanishi o‘ynaydi.

Uning ta’limotini **Tomas Gobbs** (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materianing abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshishining tarafdori bo‘lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo‘lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko‘proq empirik jihatlarga o‘z e’tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o‘rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko‘proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk** (1632-1704) qarashlari alohida o‘rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko‘rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tug‘ma g‘oyalar» to‘g‘risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g‘oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko‘ra Lokk davlatning o‘ziga xos quyidagi tamoyillarini ta’riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi; 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari; 3. Ittifoq federativ hokimiyyati. Ana shu tamoyillar uyg‘un bo‘lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

Fransuz falsafasi. O‘rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o‘rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Lametri, Gelvessiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R. Dekart (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o‘rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo‘ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo‘lib hisoblanadi. Bilihda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R. Dekart rasionalizm ta’limotining asoschisi bo‘lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo‘lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o‘sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo‘lib, o‘z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim bo‘lib hisoblanadi.

Lametri va Gelvessiy, Didro va Golbax o‘z davrida fransuz hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-huquqlari muammolariga alohida e’tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma’naviy jihatdan yuksaklikka ko‘tarish va ma’rifatli xalqqa aylantirish uchun o‘z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishishning yo‘llari va usullarini ko‘satib bergenlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko‘p tomlik «Ensiklopediya» o‘sha zamonning ma’naviy muammolarini ma’rifatli yo‘l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan «Yevropa qomusi» darajasiga ko‘tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko‘pgina ma’rifatparvar fransuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo‘lib, o‘zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy nuqtai nazaridan yechilishi, xalqchilligi va tilining fransuz millati hayot tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr Yevropasining tengi yo‘q kitobi edi. Aynan ana shu kitob mualliflari o‘zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan 1789-1884 yillardagi Fransuz inqilobi qabul qilgan «Inson va grajdalar huquqlar dekloratsiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotining eng ustivor ma’naviy mezonlariga aylantirdilar.

Nemis falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta’siri ostida shunday falsafiy ta’limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o‘rinni egalladi. Fizika va ximiya fanlari yutuqlarga erishdi, tabiatni o‘rganishga katta e’tibor berila boshlandi. Matematika fanida yangi ixtiolar qilindi. Bu ixtiro va yutuqlar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borliqni o‘rganishning uslubi va nazariyasi bo‘lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g‘oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo‘ydi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqazosi bilan XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri **Immanuil Kant** (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo‘lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta’limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta’limotlarga zarba berdi. Kant o‘z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqlarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant ta’limoti bo‘yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo‘lmish — borliq, axloq, degan masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Bizning bilimlarimiz narsaning hodisasini, ya’ni bizga qanday holatda namoyon bo‘la olishini (fenomen) bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. «Narsa o‘zida»ning bizning sezgi a‘zolarimizga ta’siri natijasida sezgilar xaosi vujudga keladi. Bu xaos bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan hodisalar dunyosiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin hodisalar dunyosiga inson ongiga bog‘liq bo‘lмаган narsalarning mohiyati, ya’ni «narsa o‘zida» mos keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. «Narsa o‘zida» biz uchun faqat aql bilan bilish mumkin bo‘lgan, lekin tajribadan kelib chiqmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchhsiz qaraydi. Inson bilimining nisbatan cheklanganligiga u ma’lum axloqiy ma’no beradi. Uningcha, agar inson mutlaq bilimga ega bo‘lsa, unda axloqiy burchni bajarishi uchun kurash ham, intilish ham bo‘lmasdi.

Kant ta’limoti bo‘yicha, makon va zamon g‘oyalari insonga uning tasavvurlaridan oldin ma’lumdir. Makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g‘oyalardadir.

Bilish nazariyasida Kant dialektikaga katta o‘rin beradi. Qarama-qarshilikni bilishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Kant falsafada katta o‘rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji **Hegel** (1770-1831) ijodida o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishadi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta’limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O‘sha davrlarda hukmron bo‘lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning «narsa o‘zida» haqidagi ta’limotiga qarama-qarshi qilib, shunday ta’limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoyon bo‘ladi, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Hegelning ta’kidlashicha, kategoriylar borliqning obyektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g‘oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi. O‘z-o‘zini anglash jarayonida dunyoviy aql uch bosqichni bosib o‘tadi:

1. O‘z-o‘zini anglovchi mutlaq g‘oyaning o‘z xususiy qobig‘ida bo‘lish bosqichi; tafakkur jarayonida, ya‘ni bu holatda g‘oya dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o‘z mazmunini, mohiyatini namoyon qiladi. Bu bosqich Hegel falsafasining mantiq bosqichidir;

2. G‘oyaning o‘zidan «begonalashuvi» ya‘ni tabiat hodisalari shaklida namoyon bo‘lish bosqichi, ya‘ni bu bosqichda tabiatning o‘zi rivojlanmaydi, faqat kategoriylar sifatida rivojlanadi. Bu bosqich Hegelda tabiat falsafa bosqichidir;

3. G‘oyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich Hegel falsafasida ruh falsafasi bosqichidir. Mana shu yakuniy bosqichda mutlaq g‘oya o‘ziga qaytadi va o‘zining inson ongi va o‘z-o‘zini anglash shaklida o‘z mohiyatiga qaytadi.

Rivojlanish g‘oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta’kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o‘zgarishlarining tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o‘z-o‘zidan harakatning sababi bo‘lgan qarama-qarshilikdir. Hegel falsafasida borliq dialektik o‘tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan.

Hegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g‘oyaning rivoji sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o‘z-o‘zidan rivoji tarixidir. Hegel ta’limoticha, aql tarixda shunday namoyon bo‘ladiki, unda har bir xalq ruh o‘z-o‘zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o‘z hissasini qo‘sish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to‘rt bosqichga bo‘ladi: 1. Sharq dunyosi; 2. Yunon dunyosi; 3. Rumo dunyosi; 4. German dunyosi:

XIX asrning oxiridan boshlab g‘arb mamlakatlarida Hegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar va oqimlar vujudga keladi. Bu falsafiy maktablar ichida ma’lum nufuz va ta’sirga ega bo‘lgan oqim «yosh hegelchilar» oqimi edi. Bu oqimning o‘sha davrdagi asosiy namoyandalari orasida aka-uka Bruno va Edgar Bauerlar alohida ajralib turar edi.

Dastlab mana shu oqimga mansub bo‘lgan K. Marks (1818-1883) va F. Engels (1820-1895) keyinchalik materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo‘lgan, qarama-qarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o‘z ta’limotini ishlab chiqdilar. Uning asosiy nazariyalarini hayotga tatbiq qilishga da’vat qildilar. Ularning ta’limoti marksizm falsafasi degan nom oldi. Keyinchalik bu falsafa sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlarda davlatning mafkuraviy doktrinasiga aylandi, «ilmiy kommunizm» g‘oyalari asosida insoniyat tarixining tabiiy jarayonini proletariat diktaturasi deb atalgan davlat va hokimiyat yuritish usuli orqali zo‘rlik bilan o‘zgartirish ta’limotini ko‘philik ommaga, siyosiy partiyalarga, mafkuraga singdirishga harakat qildi.

XX asrning boshlaridan 80 — yillarning oxirigacha dunyoning juda katta hududida hukmronlik qilgan bu mafkura sobiq Ittifoq tarqalishi bilan uning hududida o‘z ustuvorligini yo‘qotdi. Uning katta salbiy oqibati ayniqsa o‘tmish madaniy va falsafiy merosiga bo‘lgan munosabatda yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu falsafaning metodologik prinsiplari — sinfiylik va partiyaviylik xolis xulosalar chiqarishga imkon qoldirmas edi. ularga mos kelmaydigan har qanday ta’limot qoralanar, hatto butunlay inkor qilinardi. O‘tmish merosining qay darajada umumbashariy, umumjahon ahamiyatiga ega ekanligi e’tibordan chetda qolardi. Bu nafaqat umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini mensimaslikka olib kelardi, shu bilan birga, ma’lum darajada xalqlarda milliylik ruhini, milliy merosdan g‘ururlanish ruhini tugatishga qarshi harakat edi. O‘tmish merosiga bunday yondoshishning zararli tomonlaridan yana biri shunda ediki, oxir-oqibatda o‘tmish merosi bir yoqlama talqin qilinardi, ko‘pincha esa ochiqdan-ochiq soxtalashtirilardi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ma’naviy, mafkuraviy sharoitlarni hisobga olmagan holda, o‘tmish merosini yuqorida eslatib o‘tgan prinsiplar qolipiga solib talqin qilinardi.

So‘nggi yillarda sotsialistik lagerning parokandalikka uchrashi, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan ko‘pgina jumhuriyatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishi, ularning o‘z xalqi milliy ruhiga xos va mos mafkura metodologiyasi asosida muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib borayotganligi marksistik falsafaning hayot talablariga javob beraolmaydigan, xalqlarning ruhiga yet bo‘lgan g‘ayrimilliyl ta’limot ekanligidan dalolat beradi.

Bu ta’limotning ba’zi tarafdozlari G‘arbda «neomarksizm» oqimiga birlashganlar. Ularning bir qismi marksizmni isloh qilish, zamonga moslashtirishga harakat qilsalar, boshqalari esa yana

Marksga qaytish lozim, deb hisoblaydilar. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, marksizmga vaqt o'z bahosini berdi. Ana shu bahoni xolis qayd etish bu ta'limotning mustabid tuzum mafkurasiga aylantirilishi qanday oqibatlarga olib kelganini yaqqol ko'rsatish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mazkur ta'limot to'g'risida umuman gapirmaslik emas, balki uni tanqidiy tahlil etish orqali, mohiyat va mazmunini ochib berish, oqibatlarini yaqqol ko'rsatishga imkon yaratadi.

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma — xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta'limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi.

An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylilik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

An'anaviy falsafada aql — inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi rasionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistensializm) muammolari, hamda uning norasional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifikatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa guyoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi. An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi.

Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «neo», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — **ssientizm** (lot scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiliyigini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Ssientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi — **antissientizm**, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistensializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antissientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo'ymaslik talabi bilan bog'liqdir.

Antissientizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qo'yish g'oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar rasionalizm va irrasionalizm, antropologizm va naturalizm, ssientizm va antissientizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi **Artur Shopengauer** (1788 — 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagи barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqtlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham

aqdan begona bo‘lgan iordaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irrosional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g‘ildiragiga bog‘liqdir.

Shopengauer ta’limotini davom ettirgan nemis faylasufi **Fridrix Nitsshe** (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo‘lgan irodadir.» Nitsshe inson borlig‘ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta’limotini o‘rganib yaratgan «Zardusht tavvalosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan. U o‘z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo‘lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdoi bo‘lgan. Nitsshening sivilizatsiya va madaniyatning so‘nishi va barham topishi to‘g‘risidagi g‘oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. Shpengler «Yevropaning so‘nishi» degan asarini yozadi.

O‘tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma’naviy turg‘unlikdan chiqishning yo‘lini G‘arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko‘rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo‘ldi.

Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo‘lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neatomizm shu bugunga qadar ham o‘z mavqeini yuqotmagan bo‘lib, katolik cherkovi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Bunda ayniqa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o‘rin tutadi.

Neotomizm — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo‘lib, u o‘rtalarda (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta’limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo‘lib o‘zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta’limoti demakdir. Bu ta’limotga ko‘ra, ilm va e’tiqod o‘rtasida to‘la muvofiqlik, uyg‘unlik bor. Ular bir-birini to‘ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan haqiqat.

Neotomizm vakillari fikricha, ilm yetmagan joyda e’tiqod qo‘llanishi kerak. Lekin bu e’tiqod ko‘r-ko‘rona, shunchaki ishonch bo‘lmay, balki mantiqan teran anglangan e’tiqod bo‘lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Shunday qilib, falsafaning vazifasi dingga xizmat qilishdan iboratdir.

Neokantchilik XIX asr o‘rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o‘z davrida qo‘yan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta’limotga ko‘ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o‘zi uchun eng oliv maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o‘zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o‘z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo‘nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyondalari misol bo‘ladi.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma’noni anglatadi. Nepozitivizm G‘arbda XIX asrning 20 — yillarda paydo bo‘lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo‘la olmaydi. Falsafa — obyektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya’ni ijobiy (pozitiv) xulosalarini o‘rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

Kont falsafaning o‘zi mustaqil ravishda obyektiv dunyo to‘g‘risida hech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas, u shu paytgacha yig‘ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g‘oya, ruh» to‘g‘risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta’lim bergen.

Neopozitivistlar **verifikatsiya prinsipini** ilgari suradilar (lot. Veritas — haqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o‘z tasdig‘ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum

bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu prinsip keyinchalik inkor etildi.

Shundan so‘ng **postpozitivizm** (ya’ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper **falsifikatsiyalash metodini** ilgari surdi. Bunga ko‘ra, inson ba’zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 — 70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqeい kamayib, asosiy o‘ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdarlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning obyektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiyligi strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to‘la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta’limotga ko‘ra shunday prinsipa, umumiyligi mantiqqa ega.

Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g‘oyalari asosiy diqqatini qaratadi.

Jamiyat, bu ta’limotga ko‘ra, kishilar o‘rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma’nosini, mohiyatini kishilar o‘rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

Bu oqim vaqillari Shleyermixer va Diltey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to‘g‘ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to‘la his etishi, tushunishi bilan bog‘liq. Hozirgi davrda bu ta’limotning ko‘plab tarafdarlari mavjud.

XX asrning 30 — yillariga kelib «**ekzistensial falsafa**» rivojlandi. Ekzistensiya — tom ma’noda mavjud bo‘lmoq demakdir. Ekzestensializm nihoyatda xilma-xil yo‘nalishdagi ta’limotlarni insonning ma’naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g‘oyalari asosida umumlashtirdi.

Bu muammolarining talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o‘rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistensial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo‘lib qoldi.

Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo‘nalishga bo‘linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo‘lib bunday bo‘linish nisbiyidir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta’limotiga ko‘ra, inson o‘zining yaratish jarayonini o‘zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o‘z mohiyatini o‘zi erkin belgilaydi, uning kim bo‘lib yetishishi faqat uning o‘ziga bog‘liq. Shu ma’noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o‘xshatiladi. Erkinlik insonning o‘zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas’uliyatlidir, chunki bunda inson o‘zi, boshqalarni hamda uni o‘rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Yangi zamondagi falsafasining yana bir oqimi **pragmatizm** AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foyda» qanday qilib erishish yo‘llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta’limotdir. Bunda «foyda» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm ta’limotining yirik namoyandalari Ch. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta’limotida olamning o‘zgaruvchanligi o‘z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta’riflaydilar.

Insonning xatosiz faoliyat ko‘rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o‘rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o‘z o‘rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foyda» tomoniga e’tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo‘lgan narsa yoki hodisadir.

Tayanch tushunchalar

Falsafa - yunoncha phileo - sevaman, Sophia - donolik degan ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar xaqida baxs yuritadigan fan.

Dunyoqarash - Inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chiqarishi bo'lib, dunyoni inson ongidagi o'ziga xos in'ikosidir. Insonning o'ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan ko'nikmali, malakalari, bilimlari hamda dunyoni amaliy va nazariy o'zlashtirish hamdir.

Mif - yunoncha mifos so'zidan olingen bo'lib, afsona, rivoyat, xikoyat kabi ma'nolarini anglatadi. Ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo'lishi bilan bogliq voqealar, shuningdek, tabiat va jamiyat hodisalarining aks etishidir.

Mifologik dunyoqarash - Ijtimoiy taraqqiyotning boshlangich bosqichlariga xos bo'lib, dunyoni tushunishning oddiy usuli, xayoliy in'ikosidir.

Din - arabcha - ishonch, ishonmoq demakdir. Borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lмаган va ayni vaqtida barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Diniy dunyoqarash - Olamdagi voqeа va hodisalar sabablarini iloxiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir.

Vedalar - diniy mazmunga ega adabiyotlar. Ba'zi taxminlarga ko'ra, deyarli to'qqiz asr davomida Xindiston yarim orolida yashab kelgan qadimiy xalq va elatlar tomonidan yaratilgan.

Upanishadalar - sirli bilimlar deb atalib, vedalarning falsafiy qismidir. U ma'lum bir kitob yoki falsafiy risolalar shaklida bo'lmay, balki turli mavzularda, turli davrlarda asosan noma'lum mualliflar tomonidan yaratilgan matnlar to'plami. Xar bir matn u yoki bu muallifning falsafiy mushoxadalarining qisqacha bayonidan iborat.

Astika — «Veda»ning muqaddasligini tan oluvchi, nastika — uning muqaddasligini tan olmaydigan maktablar.

Dao — tabiat qonuni, tsi — borliqning asosida yotgan besh unsur, yan — yorug'lik kuchi, in — zulmat kuchi/

Antik falsafa - qadimgi davrda eramizdan avvalgi 8 asrda Yunonistonda, eramizdan avvalgi 2 asrda Rim jamiyatlarida shakllanib, eramizning 6 asriga qadar rivojlanib kelgan falsafiy ta'limotlar umumlashmasi.

Dualizm — gnostitsizmning asosiy yo'naliishi, bu oqim tarafdoqlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtaida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar.

Apologetlar xristianlik tarixida 1 va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosи «himoya qilish», — demakdir.

«Patristika» — so'zi «ota» (**«padre»**) so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar.

«Sxolastika» - so'zi yunoncha «shkola»dan (**«shola»**) olingen bo'lib, «o'qish joyi», **«maktab»** ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar.

Nominalizm — lotincha nomina - ism, nom ma'nosini anglatadi. Sxolastik falsafa. Nominalistlar fikricha, universaliyalar haqiqatda emas, balki faqat tafakkurda mavjud.

Realizm — Realistlar Anselm Kenterberiyskiy, Foma Akvinskiy umumiyl obyektlar, tushunchalar yo alohida insonda, aqldan tashqarida, bu narsalarga qadar yoki individual narsalarning o'zlarida, ularning ruxiy asoslarini tashkil etgan holda mavjud, deb xisoblaydilar. Cherkov realizm nuqtai nazaridan, turli aqidalarni, masalan Odam Atoning gunohkor bo'lganligi haqida afsonani falsafiy asoslash uchun foydalandi.

Ratsionalizm — lotincha rationalis, ratio - aql degan ma'noni anglatib, aqlga odamlarning bilish va xulqining asosi, deb qaraydigan falsafiy yo'naliish.

Ssiyentizm – fan yordamida mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligini va ilm fan taraqqiyoti doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy ta’limot.

Antisesintizm – ilm-fanning jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishining asoslovchi falsafiy ta’limot.

Ekzistensializm – lotincha «ekzistentsiya» yoki intizcha «ekzistense» so‘zidan olingan bo‘lib «mavjudlik», «mavjud bo‘lmoq», degan ma’noni anglatadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Falsafa atamasining lug‘aviy ma’nosi nima? Bu haqda Suqrot va Forobiy fikrlarini aytинг.
2. Falsafaning vazifalarini sanab o‘ting?
3. «Falsafa» tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
4. Falsafaning asosiy vazifasi nima?
5. Falsafiy bilimlar tizimini tushuntirib bering?
6. Dunyoqarashning tarixiy tiplari va ularning bir biridan farqi nimada?
7. Falsafaning predmeti nimadan iborat?
8. Falsafaning baxs mavzulari nimalardan iborat?
9. Falsafiy muammolar bilan bo‘liq qanday oqim va ta’limotlarni bilasiz?
10. Falsafiy dunyoqarash va uning vazifalari nimalardan iborat?
11. Mifologik dunyoqarashning o‘ziga xos jihatlarini aytинг.
12. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
13. Qadimgi Bobil va Misrda paydo bo‘lgan ilk falsafiy qarashlar haqida gapirib bering.
14. Qadimgi Turonda qanday diniy-falsafiy ta’limotlar vujudga kelgan?
15. «Avesto» haqida nimalarni bilasiz?
16. Qadimgi Hindistonda qanday falsafiy yo‘nalishlar va falsafiy maktablar paydo bo‘lgan?
17. «Veda»lar nima va qachon paydo bo‘lgan?
18. Buddaviylik ta’limotining mohiyati nimadan iborat?
19. Qadimgi Xitoya qanday falsafiy oqimlar paydo bo‘lgan? Ularning mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
20. Ilk o‘rta asrlar falsafasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
21. Islom dinini Markaziy Osiyoga tarqalishi.
22. «Oltin asr», uyg‘onish davrini tushuntirib bering?
23. Qadimgi Yunonistondagi Milet maktabi faylasuflari haqida nimalarni bilasiz?
24. Geraklit va Demokritning falsafiy qarashlari haqida gapirib bering.
25. Sofistika va stoiklar falsafasi
26. Pifagor va Suqrotlar qanday faylasuflar bo‘lishgan?
27. Platonning «g‘oyalar dunyosi» haqidagi ta’limotining mohiyatini tushuntirib bering.
28. Arastuning falsafiy qarashlari nimalardan iborat?
29. O‘rta asrlar g‘arb falsafasidagi oqimlar.
30. Renessans davri tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
31. G‘arb Uyg‘onish falsafasidagi sotsial – siyosiy ta’limotlar haqada nimalarni bilasiz?
32. Yevropadagi yangi davr falsafasining asosiy oqim va jarayonlari.
33. F.Bekon va unnig falsafiy qarashlari, ilmiy uslublari.
34. Rene Dekart ratsionalizmining mohiyati nimadan iborat?
35. Kant falsafasining asl mohiyati.
36. Hegel uchligi va uning falsafadagi o‘rni.
37. «Nemis klassik falsafasi»mi yoki «Nemis milliy falsafasi»mi? Bu masalaga sizning munosabatingiz qanday?
38. XX asr falsafasining xarakterli xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
39. Ekzistensial falsafaning mohiyati nimadan iborat?
40. Pozitivizm falsafasining mohiyati nimadan iborat?
41. Neopozitivizmning asosiy xususiyatlari qanday?

2-mavzu: Borliq – falsafa kategoriyasi. Bilish nazariyasi, yo‘nalishlari va asosiy muammolari. **(2 soat)**

Reja:

1. **Ontologiya – borliq falsafasi.** Borliq, yo‘qlik, mavjudlik, reallik tushunchalari.
2. **Borliqning asosiy shakllari va ko‘rinishlari.**
3. **Borliqning atributlari: materiya, harakat, ong, in’ikos, fazo va vaqt.**
4. **Gnoseologiya – bilish nazariyasi.** Bilish – falsafiy muammo sifatida.
5. **Bilishning predmeti, obyekti va subyekti.**
6. **Bilish bosqichlari, asosiy turlari va shakllari.**
7. **Haqiqat tushunchasi, uning mezoni va asosiy shakllari.**

Tayanch so‘z va iboralar: *Ontologiya, borliq, yo‘qlik, mavjudlik, reallik, materiya, atribut, harakat, in’ikos, virtual borliq, substansiya, substrat, gnoseologiya, epistemologiya, dunyon anglash, ong, bilim, kundalik (empirik) bilim, nazariy bilim, xissiy bilish, mantiqiy bilish, nazariya, optimizm, skeptitsizm, agnostistizm, gnostiklar, agnostiklar, hissiy va rasional bilish, intuitsiya, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa, gipoteza, muammo, paradigma, haqiqat, obyektiv haqiqat, mutlaq haqiqat, nisbiy haqiqat.*

Borliq tushunchasi. Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo‘qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko‘plab asarlar yozishgan. Xo‘sish, borliq nima. Bu savol bir qarashda juda oddiy ko‘ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo‘q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. **Masalan**, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog‘lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq - obyektiv reallikning qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o‘y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, **bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.**

Falsafaning borliq haqidagi ta’limotni izohlaydigan qismi — **ontologiya** deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo‘llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o‘rganadi.

Yo‘qlik hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo‘qlikdir. Bu ma’noda yo‘qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo‘qlik chekingan joyda borliq paydo bo‘ladi. Demak, borliqning bunyodkorli ham, kushandasli ham yo‘qlikdir. Borliq yo‘qlikdan yo‘qlikkacha bo‘lgan mavjudlikdir. Yo‘qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Fanda yo‘qlik nima, degan savolga javob yo‘q.

Borliq haqidagi konsepsiylar. Tarixdan ma’lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g‘oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog‘ida vujudga kelgan **zardushtiylik ta’limotida** borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g‘oya bo‘yicha, har qanday o‘zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi **Suqrot** borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo‘ladi, insonning bilimi qancha keng bo‘lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi **Demokrit** borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo‘lmagan narsa yo‘qlikdir.

Islom ta’limotida esa borliq bu ilohiy vogelikdir. Ya’ni u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu boroda vahdati vujud va vahdati mavjud ta’limotlari bo‘lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta’limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, **Forobiy** fikricha, ilk borliq azaliy Ollohning o‘zidir. **Beruniy** fikricha, borliq shunday umumiyligliki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir.

Yevropada o'tgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan.

Hegel esa borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoyon bo'lishi, deb ta'riflaydi. Ko'pgina naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilan, ya'ni shu aktual olamga bog'lab tushuntirdilar.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun mavjudlikni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni obyektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o'ziga obyektiv va subyektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va keljakni, o'limni va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

Borliq va mavjudlik. Atrofimizdag'i odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat obyektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'limgan jismoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potensial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiylabstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat obyektiv reallikni, balki subyektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. **Mavjudlik** — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi.

Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi.

An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: **tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i** kiradi. **Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.**

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. **Tabiat borlig'i** odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. **U ikkiga bo'linadi:** 1. **Azaliy tabiat borlig'i** (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan).

2. Odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i (**«ikkinch tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat**). Ikkinch tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- **inson borlig'i** (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);
- **ma'naviy borliq** (individuallashgan va obyektivlashgan ma'naviy borliq);
- **sotsial borliq** (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylilikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substansiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinch yo'l esa — moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini»- substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l — hamma narsaning vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Olamning substansiyasini axtarishning bu usuli go'yoki meva iste'mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so'ngra uning guliga, bargiga, ko'chatiga va urug'iga nazar solganidek, atrofimizdag'i moddiy olamning o'zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida

nima yotishini, ya’ni ilk materiyani, azaliy materiyaning «bobokolonini», «pramateriyani» axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo‘ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyoq bo‘lgan tushunchadir. **Materiya olamdagи barcha moddiy obyektlarni, butun obyektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma’nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstraksiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo’llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy obyektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.**

Albatta bu ta’riflarni bir yoqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta’riflarda ko‘proq sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir etishi mumkin bo‘lgan reallik nazarda tutilgan.

XX asrning o‘rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning obyektiv olam hakidagi tasavvurlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta’sir etishining imkonini bo‘lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

Olamning klassik mexanika nuqtai nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi o‘rnini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Bu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug‘dirdi. Bu o‘zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta’rifga sezgilarimizga bevosita yoki bilvosita (ya’ni turli asboblar; qurilmalar vositasida) ta’sir etuvchi, degan qo’shimcha kiritishdi. Shunday qilib, bu ta’rif go‘yo materiyaning moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ya’ni modda va antimodda ko‘rinishlarini qamrab oluvchi ta’rifga aylandi.

Materialistlar materiyani obyektiv reallik, deb ta’riflashadi. Obyektiv reallik inson sezgilariga bog‘liq bo‘lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo‘lgan voqelikdir. Bu butun mavjudlikning subyektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Obyektiv reallikning mavjudligi qanday namoyon bo‘ladig‘ Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarni o‘rganishga to‘g‘ri keladi. **Har qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha «atribut» so‘zi bilan ataladi.**

Borliqning atributlari. Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo‘ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir.

Bular harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong va boshqalar. Borliq o‘zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Endi borliqning atributlari, ya’ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to‘xtay o‘taylik.

Harakat. Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o‘zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo‘lmaganida edi, yorug‘lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo‘lar edi, ya’ni biz uni ko‘rmagan bo‘lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekulalar, atomlar, elementar zarrachalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar ham bo‘lmasdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur yetgan bo‘lar edi. Tevarak-atrofimizdagи predmetlar va hodisalar harakat tufayli o‘zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o‘sish, ulg‘ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomonidan, moddiy jismlar o‘rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomonidan esa, ulardagи o‘zgarishlar sifatida sodir bo‘ladi. Shu nuqtai nazaridan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o‘zgarishdir, deyilgan ta’rifi juda o‘rinlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o‘zgarishlarning asosida yotuvchi o‘zaro ta’sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarida tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o‘zaro ta’sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta’minkaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza, asosan, o‘zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O‘zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o‘zgarishlarga takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o‘zgarishning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o‘zgarishlar bilan ijtimoiy o‘zgarishlarni aslo taqqoslab bo‘lmaydi. To‘g‘ri, bu o‘zgarishlar uchun umumiylar bo‘lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Lekin hamma o‘zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo‘lmaydi. Masalan, Yerning Quyosh atrofidagi, Oyning Yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko‘rinishi deyishimiz mumkin. Lekin Yer bag‘rida ro‘y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Yer sirtidagi biosferaning yashash usulini birligina mexanik siljish bilan izohlab bo‘lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo‘lsa, u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar ham shu qadar murakkab bo‘ladi. Materianing tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo‘lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

O‘zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. **Rivojlanish bu — muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo‘nalishga ega bo‘lgan, miqdoriy va sifatiy o‘zgarishidir.**

Shu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilinadi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turg‘unligini saqlagan holda ro‘y beradigan ichki o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Ya’ni har qanday jismda beto‘xtov ichki o‘zgarishlar ro‘y berib turadi, lekin bu o‘zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekulalardan, molekulalar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham beto‘xtov o‘zgarishlar ro‘y berib turadi. Shuningdek, har bir jism o‘zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan tarqalayotgan nurlanishlarning ta’siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta’sirlarni o‘zida in’ikos ettirish jarayonida ro‘y beradigan o‘zgarishlar ham bu jismning sifatiy o‘zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg‘unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta’sirlar oqibatida ro‘y beruvchi o‘zgarishlar astasekin to‘planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o‘zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Mana shunday o‘zgarish, ya’ni jismning sifatini o‘zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Rivojlanish jarayoni ham **ikki turda bo‘ladi.** **Birinchi turdagisi** rivojlanish bo‘yicha, jismda har qanday sifatiy o‘zgarish ro‘y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materianing sifatiy tuzilish darajasi o‘zgarmasdan qolaveradi. Masalan, notirik tabiatga mansub bo‘lgan Quyoshdagi rivojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko‘ra, hozir sirtida 6 ming, ichida esa bir necha mln. darajali haroratga ega bo‘lgan Quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya’ni Quyoshning markazidagi termoyadro energiyasi so‘ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda Quyosh shisha boshlaydi va Yer orbitasini ham o‘z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so‘ngra esa «qora karlikka», keyin bo‘lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o‘zgarishlar natijasida borliqning tashkiliy struktura darajasi o‘zgarmaydi, ya’ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o‘simgiliklar va hayvonot olamining paydo bo‘lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifatiy o‘zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o‘rganiladi.

Materialist bo‘lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materianing tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo‘ladi;

2) materianing harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jahatdan ketma-ket bog‘langan, ya’ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o‘zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir. Shu mulohazalarga tayangan holda, harakatning beshta shaklini ajratib olish mumkin. Ular — mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Falsafada harakat shakllarini turkumlashning bir qancha boshqa ko‘rinishlari ham bor. Ayrim olimlar harakat shakllarini har bir fanning nomi bilan bog‘lash kerak, deb hisoblashadi. Bunday qarashning xatoligi shundaki, fanlarning ko‘pchiligi harakat shaklini emas, balki miqdoriy munosabatlar va holatlarni aks ettiradi. Masalan geodeziya yoki geometriya, trigonometriya yoki topografiya, chiziqli algebra qanday harakat shaklini o‘rganadi. Kibernetika esa ham tabiatda, ham jamiyatda amal qiluvchi boshqarish jarayonlarini o‘rganadi, ya’ni bu fan bitta emas, balki bir qancha harakat shakllarini qamrab oladi.

Harakat shakllarini turlash bo‘yicha quyidagi tabiiy-ilmiy konsepsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur konsepsiya bo‘yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi:

Fizik harakat (elementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekulalarning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo‘nalishga ajraladi, 1) harakat rivojlanishining yuqori yo‘nalishida biologik harakat shakllanadi; 2) harakat rivojlanishining quyi yo‘nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatga olib boradi.

Yana bir boshqa konsepsiyada esa harakat borliqning tashkiliy tuzilish darajalariga mos ravishda turlangan. Bu konsepsiyada harakat shakllari uchta sinfga ajratiladi: notirik tabiatda — elementar zarrachalar va maydon harakati, tirik tabiatda - hayotning namoyon bo‘lishi, jamiyatda - odamning faoliyati.

Ijtimoiy harakat bizga ma’lum bo‘lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo‘lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o‘zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo‘lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o‘ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. **Fazo** narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzuksizligini ifodalasa, **vaqt** hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko‘lamga, hajmga ega. **Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.**

Fazo va vaqt tushunchalari, ko‘p hollarda, forsiy til ta’sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma’nosida, vaqt esa hodisalar bo‘lib o‘tadigan muddat ma’nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtini tushunish bo‘yicha substansial va relyasion yondashishlar mavjud. **Substansial konsepsiya tarafdorlari** fazoni narsalar joylashadigan idish, bo‘shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o‘ziga narsalarni sig‘diruvchi substansiya. Hech narsasi yo‘q, ya’ni narsalar solinmagan fazo ham bo‘lishi mumkin, deyiladi. **Relyasion konsepsiya tarafdorlari esa**, narsalar fazoviy o‘lchamga ega, deyishadi.

Hech narsasiz fazoning bo‘lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynstejn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko‘z oldingizga keltiring. Ilgarigi, Nyuton fizikasiga ko‘ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo‘sh qoladi, ana shu substansial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko‘ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo‘qoladi. Bu relyasion konsepsiyadagi fazodir.

Fazo va vaqtning xususiyatlari. Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, **metrik va topologik xususiyatlarga ega**. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o‘lchanadigan, ko‘zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko‘lam, bir jinslilik, izotroplik (anizotroplik) kabi xususiyatlar kiradi.

Fazo va vaqtning topologik xususiyatlari esa, borliqning tub sifatiy jihatlarini ifodalarydi. Bunday xususiyatlarga uzuksizlik, bog‘langanlik, o‘lchamlilik, kompaktlik, tartiblanganlik singari xususiyatlar kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlariga orqaga qaytmaslik, bir o‘lchamlilik kabi xususiyatlar qo‘shiladi.

Fazo (vaqt) ning metrik o‘zgarishlari borliq strukturasini jiddiy o‘zgartira olmaydi, topologik o‘zgarishlar esa borliqning sifatiy o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi. Masalan, bir bog‘langan sistemaning ko‘p bog‘langan sistemaga o‘tishi fazo topologiyasini tubdan o‘zgartiradi, ya’ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo‘llar paydo bo‘ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig‘dirish mumkin bo‘ladi. O‘lcham darajasi ko‘p bo‘lgan sistema o‘lchov darajasi kam bo‘lgan sistemaga nisbatan ko‘rinmas va murakkab bo‘ladi. Shuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlarini kuchli o‘zgarishi topologik xususiyatlarining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egrilik darajasi kuchli o‘zgarsa, bir bog‘langan fazo ko‘p bog‘langan fazoga aylanishi mumkin.

Bilish nazariyasi, yoki gnoseologiya (yunoncha – bilish haqidagi ta’limot) – falsafiy ta’limotlarning ajralmas qismidir.

Gnoseologiya subyektning bilish faoliyatining prinsiplari, qonuniyatları, shakllari, bosqichlari va darajalarini, shuningdek, shu prinsip va qonunlardan kelib chiqadigan, haqiqiy bilimga erishilishini ta'minlaydigan talablar va mezonlarni o'rganadi. Bilish nazariyasi bilish jarayonining oddiy, kundalik darajasini ham, bilishning umumiy ilmiy shakllari va metodlarini ham tadqiq qiladi.

Bilishning bosh vazifasi haqiqat izlashdir. Haqiqat masalasi butun bilish nazariyasining eng muhim vazifasidir. Faylasuflar orasida haqiqat va uning bilishdagi roli to‘g‘risida yagona fikr yo‘q.

Bilish- bu inson ongi va tafakkurining tabiat, jamiyat va o‘zi to‘g‘risida yangi bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma’naviy faoliyat turidir. Bilish bu inson ongingin yangi bilimlarga boyib borish jarayonidir. Bilishning mahsuli, natijasi **Ilm** bo‘lib, har qanday kasbni egallash faqat ilm va tajriba orqali ro‘y beradi.

Bilishning ikki xil shakli:

- **kundalik (empirik) bilish va**
- **nazariy (ilmiy) bilish bir-biridan farqlanadi.**

Bilish obyekti. Tadqiqotchi faoliyati qaratilgan predmet, hodisa, jarayon va munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi.

Bilish subyekti. Bilish bilan shug‘ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir.

Ilmiy bilish faoliyati faqat tabiat va jamiyatning mohiyatini bilishga emas, balki insonning o‘ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtida ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdan iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida avvalo insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish va shu bilan bir qatorda barkamollikka intilish, tabiat va jamiyatning insoniyashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Har qanday fan – fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim.

Bilish predmeti deganda biz bilish subyekti(inson)ning aktiv faoliyati yunaltirilgan bilish obyektni va uning ayrim sohalari va tomonlarini tushunamiz.

Ilmiy bilish 2 bosqichdan:

1. **Hissiy bilish;**
2. **Aqliy bilishdan iborat.**

Hissiy bilishni shartli ravishda: quyi darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lib, hissiy bilish deyiladi. **Hissiy bilish bu obyektiv olamni inson sezgi a’zolari vositasida bilishdir.**

Hissiy bilishning 3 xil shakli mavjud bular;

1. Sezgi. 2. Idrok. 3. Tasavvur.

Sezgi bu hissiy bilshning shunday shakli bo‘lib unda obyektiv olamdag'i predmet va hodisalarining tashqi belgi va xossalari to‘g‘risida ma’lumot, bilim beradi. Insonning 5 ta sezgi a’zolari bizga predmet va hodisalarining turli tomonlari to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Aqliy bilish bu obyektiv borliqni inson ongi va tafakuri yordamida bilish deyiladi.. Agar inson o‘z sezgilari yordamida narsa va hodisalarining faqat tashqi belgi va xususiyatlarini bilsa, Aqliy bilish vositasida narsa va hodisalarining ichki mohiyatini bilib oladi.

Aqliy bilishning 3 xil shakli mavjud;

- Tushuncha - Aqliy bilishning shunday shakli bo‘lib unda predmet va hodisalarining eng umumiyligi belgilari va xossalarni aks ettiriladi.**
- Hukm - Aqliy bilishning shunday shakli bo‘lib uning yordamida narsa va hodisalarga xos bo‘lgan belgi va xususiyatlar tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.**
- Xulosa chiqarish – aqliy bilishning muhim shakllaridan biri bo‘lib, ikki yoki undan ortiq xukmlardan yangi bilimlar hosil qilish usulidir.** Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo‘lishi, ya’ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiyligiga xulosalar chiqarishga yoki umumiylididan alohidilikka borish orqali bo‘lishi ham mumkin.

Bilishning oliv darajasi Inuitiv(qalban) bilish, g‘oyibona bilishdir. O‘zining butun borlig‘ini fan, din, siyosat va san‘at sohasiga bag‘ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobilyatiga ega bo‘ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi.

Fan- dunyo to‘g‘risidagi, shu jumladan odamning o‘zi to‘g‘risidagi, obyektiv bilimlarni ishlab chiqarish bo‘yicha yuksak darajada tashkil etilgan va ixtisoslashtirilgan faoliyatadir, deb ta’riflash qabul qilingan. Sharqda bilim hamisha yuksak darajada qadrlangan. XII asrda yashab ijod etgan shoir va mutafakkir olim **Ahmad Yugnakiy** fan va bilim haqida bunday degan: « ... Olim odamlarga yaqinroq bo‘l. Bilim senga keng yo‘l ochib beradi. Bilimlarga intil, baxt yo‘lini izla. ... Endi o‘zing sinab ko‘r: hisoblab, o‘ylab ko‘r, bilimlardan ham foydaliroq bo‘lgan biron bir narsa bormi. Bilishlik olimni ko‘klarga ko‘taradi, bilmaslik odamni yerga uradi! ¹¹

Ilmiy bilish tuzilmasida ikkita o‘zaro farq qiluvchi, lekin bir-biri bilan bog‘liq daraja – **empirik** (tajriba) va **nazariy** darajalar mavjud.

Eksperiment ilmiy bilimlarni isbotlash va rivojlantirish vositasidir. Shunday qilib eksperiment, bu – **bilimga ega bo‘lish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turi bo‘lib, o‘rganilayotgan obyektga maxsus asbob-uskunalar vositasida ta’sir ko‘rsatishdan iborat.**

Nazariya, bu – muhim munosabatlar va qonunlarni bilish asosida obyektiv va real jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar tizimidir. Har bir konkret nazariya aks ettirish va konstruksiyalashning birligidir. *Har qanday nazariya, bu - tushunchalar tizimidir.* **Abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilishni** umumiyligida tarzda ilmiy nazariy fikrning predmetni yoki obyektni tadqiq qilish borasida tobora to‘la, har tomonlama va birbutun qilib ifoda etish tomon harakatdir, deb ta’riflash mumkin. **Bilimning abstraktligi deganda**, keng ma’noda bilimning to‘liq emasligi, bir tomonlamaligi, **konkretligi deganda esa** bilimning to‘liqligi, mazmundorligi tushuniladi. Shu ma’noda «*abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilish*» iborasini butun bilimning umumiyligini yo‘nalishini tavsiflash uchun qo‘llash mumkin, chunki unda *bilimning kamroq mazmundorlikdan ko‘proq mazmundorlik tomon harakati* qayd etiladi.

Fikrning abstraktlikdan konkretlik tomon harakati to‘g‘risidagi tushunchani birinchi bo‘lib Hegel fikr taraqqiyotining umumiyligini yo‘nalishini xarakterlash uchun taklif qilgan.

Subyekt – bu bilish harakatining sohibi bo‘lgan shaxsdir, fikrlovchi «Men» dir.

Obyekt – bu subyektning bilish faoliyati yo‘naltirilgan narsadir, ya’ni bizni qurshab turgan butun olamdir.

¹¹ Qaralsin: Ontologiya pedagogicheskoy misli Uzbekistana, 103-b.

Ong - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning ya’ni inson miyasining maxsuli bo‘lib, uning xususiyati vokelikni aks ettirishdan iboratdir. Ong - akl, tafakkur, falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri. **Ongsizlik** - ongning genetik jixatidan talqini. Ongsizlik birlamchiliginibildirib u o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyatini va xatti-harakatida muayyan darajada rol o‘ynashini tan olishni takozo etadi.

In’ikos - har qanday predmetlarning ta’sirini muayyan tarzida aks ettirishi bilan bog‘liq xossaga in’ikos deyiladi. Ong in’ikosning oliy shaklidir.

Bilim - ong tuzilishining asosiy unsuri(elementi)dir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi hisoblanadi.

Ongning yana bir unsuri(elementi) xilma – xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan kechinmalardir. Ularda in’ikos obyektiga bo‘lgan munosabat gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko‘lamliligi, hissiyotlarimizning namoyon bo‘lishi yoki bo‘lmasligi **orzu-intilishimiz** – **irodamizga bog‘liq**. Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishga, ko‘zlangan maqsad yo‘lida tinmay harakat qilishga yo‘l ochadi.

Til - muayyan belgilar tizimi demakdir.. Tibbiyot ilmida til bu ikkinchi signallar tizimi deb yuritiladi. **Ijtimoiy ong** - tabiiy va ijtimoiy voqyelikning in’ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo‘lgan muayyan umumiy his-tuyg‘ular, kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalilar, nazariyalar majmuidir.

Individual ong - muayyan, guruh, elat, millatga mansub bo‘lgan ayrim kishining ongi bo‘lib, jamiyatdagi voqyeyleklik va real borliqning alohida olingen shaxsning ongida aks etishdir.

Ijtimoiy va individual ongning mohiyatini chuqurroq anglash uchun ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni tushunib olish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy va individual ong o‘rtasidagi o‘xshashlik;

- bir tomonidan, har ikkalasining ham ijtimoiy voqyelikni aks ettirishida ko‘rinadi.
- ikkinchi tomonidan, ijtimoiy ong voqyelikni individ ongi orqali aks ettiradi.

Chunki, ijtimoiy voqyelikda yuz beradigan o‘zgarishlar avvalo, alohida kishilar ongida o‘z aksini topadi va undan so‘nggina ijtimoiy ongda gavdalanadi.

Ijtimoiy ong strukturasi - Voqelikni aks ettirish darajasiga ko‘ra ijtimoiy ong:

- **Odatiy va**
- **Nazariy ongga** bo‘linadi.

Odatiy ong - hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidan iborat bo‘lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqyealarni aks ettiradi.

Nazariy ong - deganda ilmiy nazariyotchilar, olimlar tomonidan ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o‘laroq nazariy ong o‘zgaruvchan xarakterga ega. Odatiy ongda - voqyealarning tashqi tomonini ifodalansa, nazariy ong - voqyealarning mohiyatni, rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham nazariy ong odatiy ongga faol ta’sir qila oladi va kundalik tajriba asosida hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam beradi.

Ilmiy bilishda haqiqat tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Haqiqat - inson bilimining voqyelikka mos, muvofiq kelishidir.

Haqiqat o‘zining mazmuniga ko‘ra;

- **mutlaq** va
- **nisbiy** bo‘ladi.

Nisbiy haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar to‘g‘risidagi taxminan to‘g‘ri, lekin to‘liq bo‘lmas, bilish jarayonimizda tuzatilib, to‘ldirilib borilishi kerak bo‘lgan bilimlardir.

Mutlaq haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi to‘liq aniq mukammal bilimlardir.

Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo‘lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi. **Haqiqat - inson bilimlarida borliqning to‘g‘ri in’ikos etishi, predmet va hodisalar asli qanday bo‘lsa ularni inson o‘z miyasida huddi shunday in’ikos ettirgan bilimlaridir.**

Arastu haqiqatning «klassik» konsepsiysi muallifidir. Bu konsepsiya haqiqatni fikrning, bilimning voqyelikka mos kelishi deb, yolg‘onni esa fikrning real ahvolga mos kelmasligi deb

talqin qiladi. U o‘zining «Metafizika» sida bunday deb yozadi: «Bor narsani yo‘q deyish yoki yo‘q narsani bor deyish yolg‘on gapirishdir; borni bor va yo‘qni yo‘q deyish esa haqiqatni gapirishdir»².

Obyektiv haqiqat – bu bilimlarimizning shunday mazmuniki, u bir kishiga ham, butun insoniyatga ham bog‘liq emas. Haqiqatning obyektivligini u mavjud olamning in’ikosi bo‘lishi belgilaydi.

Absolyut haqiqat – bu bilish obyekti haqidagi inkor etib bo‘lmaydigan to‘liq va tugal bilimdir, nisbiy haqiqat esa – bilish predmeti to‘g‘risidagi noto‘liq va notugal bilimdir. Absolyut haqiqat to‘liq hajmdagi obyektiv haqiqatdan boshqa narsa emas, nisbiy haqiqat esa – notugal shakldagi, notuliq hajmdagi obyektiv haqiqatdir. Har bir nisbiy haqiqatda absolyut haqiqat jihatni bor, chunki har qanday nisbiy haqiqat obyektivligi sababli, unda doimiy bilim jihatni bor. **Agar haqiqatga jarayon deb qarab unga uning rivojlanishi nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsa**, bu holda konkret haqiqatga abstrakt haqiqat qarama-qarshi qo‘yiladi. **Abstrakt haqiqat** – bu to‘liq bo‘lмаган, rivojlanмаган, birtomonlama haqiqat, **konkret haqiqat** esa, aksincha, - to‘liq, rivojlangan, ko‘ptomonlama haqiqat. Har qanday haqiqat, u bilish jarayonida rivojlanib borganligi sababli, abstraktlikni ham, konkretlikni ham o‘z ichiga oladi. Haqiqat o‘z rivojining keyingi bosqichiga nisbatan abstrakt va ilgarigi rivojlanish bosqichiga nisbatan konkretdir. Haqiqatga darhol erishib bo‘lmaydi; unga erishish bilishning qiyin, ko‘p bosqichli jarayonidir.

Amaliyat naziariy bilimdan yuqori turadi. U nafaqat umumiylilik, balki bevosita voqyelik hislatiga ega. Amaliyotda asosiy qarama-qarshiliklar – ideal qarama-qarshilik (subyektiv reallik sifatida) va moddiy qarama-qarshilik (obyektiv reallik sifatida) – birga qo‘shili faqat amaliyotgina u yoki bu nazariyaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ko‘rsatib beradi. Bilish va amaliyot bir-biridan ajralmasdir. **Amaliyot bilish haqiqatligining asosiy nuqtasi, harakatlantiruvchi kuchi, maqsadi va mezonidir.**

Tayanch tushunchalar

Ontologiya - falsafaning borliq haqidagi ta’limotni izoxlaydigan qismi. Bu tushunchani falsafada birinchi bor X.Volf qo‘llagan. Borliqning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada monizm,dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha — monos, ya’ni yakka ma’nosini anglatadi) — olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) — olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya, ya’ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plural, ya’ni ko‘plik degan ma’noni anglatadi) — olamning asosida ko‘p narsa va ideyalar yotadi deb e’tirof etadigan ta’limotdir.

Materializm — olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta’limot.

Idealizm — olamning asosida ruh yoki g‘oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarни ustuvor deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limot.

Borliqning eng asosiy shakllari quyidagilar - 1. Insondan, inson ongidan tashqarida obyektiv reallik sifatida mavjud bo‘lgan predmetlar, hodisalar, jarayonlardan iborat moddiy borliq. 2. Faqat inson ongida, ong bilan bogliq subyektiv reallik sifatida mavjud bo‘lgan fikrlar, g‘oyalar, qarashlar tarzidagi borliq. Bu ma’naviy borliqdir.

Substansiya (lotincha, substantia – nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat, o‘zak degan ma’noni beradi) deb ataldi. Substansiya – muayyan narsalar, hodisalar, voqyealar va jarayonlarning xilma-xil ko‘rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo‘luvchi mohiyatdir.

Olamning namoyon bo‘lish shakllari xilma-xildir;

1. Faqat moddiy jismlarnigina o‘ziga qamrab oluvchi olamni **Moddiy olam** deyishadi.
2. Ma’naviy, aqliy va ruhiy dunyoni qamrab oluvchi olamni **Ma’naviy olam** deyishadi.
3. Aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo‘lgan olam **Aktual olam** deyiladi.

² Aristotel. Sochineniya v 4 t. M., 1975, t.1. 141.-b.

4. Keljakda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan olam **Potensial olam** deyiladi.
5. Olamning mavjudligi shubhasiz bo‘lgan va barcha e’tirof etadigan qismi **real olam** deyiladi.
6. Keljakda mavjud bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan olam **Virtual olam** deb ataladi (virtual so‘zi lotincha virtualis – ehtimoldagi degan ma’noni beradi).
7. Aniq ma’lum bo‘lgan olam **Konkret olam** deyiladi,
8. Hayoldagi, tasavvurdagi, idealdagi olam obrazi **Abstrakt olam** deyiladi.

Muayyan predmet va hodisaning mavjudligini belgilovchi, namoyon qiluvchi xususiyatlarni **atributlar** deyiladi. Borliqning atributlari quyidagilardir:

1. Materiya 2. Harakat 3. Fazo 4. Vaqt 5. In’ikos 6. Ong va boshqalar.

Materiya tushunchasi barcha moddiy jismlarni, hodisalarni jarayonlarni va ularning xususiyatlarini o‘zida qamrab oladi. Materiya olamdagи barcha moddiy obyektilarni, butun obyektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. **Faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo’llaydigan tushuncha Materiya** deb ataladi.

Harakat - bu umuman har qanday o‘zgarishdir, deyilgan ta’rif juda o‘rinlidir.

Harakatning manbai deganda ana shu o‘zgarishlarning asosida yotuvchi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, ya’ni o‘zaro ta’sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Harakat shakllari quyidagicha turlanadi:

- 1. Mehanik harakat** (jismlarning fazoda oddiy o‘rin almashishi)
- 2. Fizik harakat** (elementar zarrachalar va atomlarning harakati),
- 3. Ximiaviy harakat** (atomlar va molekulalarning harakati)
- 4. Biologik harakat** (tirik organizmlar DNK va RNK harakati)
- 5. Ijtimoiy harakat** (kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi)ga olib boradi.

Borliq - materiyaning asosiy mavjudlik shakllariga **Fazo** va **Vaqt** kiradi.

Fazo – vaqtning muayyan laxzasida olamni tashkil etgan nuqtalarining o‘zaro joylashish tartibini ifodalaydi. Fazo 3 o‘lchovga ega bo‘lib, narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa,

Vaqt bir o‘lchovga ega bo‘lib, hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Yerning hayot tarqalgan qismi **biosfera** deb ataladi. Biosfera tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Inson aql-idrokining olamga ta’sir ko‘rsatish chegarasi **noosfera** deb ataladi.

Model - lotincha - nusxa - shartli obraz, sxema ma’nolarini bildiradi.

G’oya - tadqiqot maqsadini, uning yo‘nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir.

Gipoteza - tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to‘g‘risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma’lumotlarga zid bo‘lmagan, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

Skeptiklar bilishning mumkinligiga e’tiroz bildirmaganlar, lekin bizning bilimlarimizning ishonchlilikini, ularning tashqi dunyo hodisalariga muvofiqligini shubha ostiga qo‘yanlar.

Agnostitsizm – bu shunday ta’limotki, unga ko‘ra dunyo haqida haqiqiy, ishonchli bilimlarga erishib bo‘lmaydi. Agnostitsizm bilishni faqat biluvchi aqlning faoliyatini deb biladi.

Konvensionalizm (lotincha konvensio – shartnoma, kelishuv, bitim) – bu falsafiy ta’limot bo‘lib, unga ko‘ra ilmiy nazariyalar va tushunchalar tashqi dunyoning, uning tomonlari va xossalaring real tafsifi emas, balki olimlar o‘rtasidagi kelishuv mahsulidir. Konvensionalizmning eng yirik vakili fransuz matematigi va filosofi Anri Puankaredir (1854-1912).

Fan- dunyo to‘g‘risidagi, shu jumladan odamning o‘zi to‘g‘risidagi, obyektiv bilimlarni ishlab chiqarish bo‘yicha yuksak darajada tashkil etilgan va ixtisoslashtirilgan faoliyatdir.

Rux - ma’naviy - ruxiy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Mantiqiy bilish - inson borliqni aqliy bilishidir.

Nazariya - haqiqatligi amaliy va nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid ma’lum g‘oyalar, qarashlar, qonunlar va printsiplarni muayyan tizimi tushuniladi.

G‘oya – hodislarni fikrda ifoda etishning formalaridan biri bo‘lib, kelgusida batafsilroq shaklga keltiriladigan bilimning mohiyati va asosiy mazmunini anglashni o‘z ichiga oladi.

Tushuncha - predmetning muhim umumiy, zarur aloqalarini va xossalari aks ettiradi.

Gipoteza, bu — haqiqiyligi aniqlanmagan ilmiy taxmin yoki farazdir. Gipoteza, bu – fanda o‘rtaga qo‘ylgan savolga javob berishga intilib, bildirilgan fikrlar tizimidir. Shu bilan birga bu fikrlar faktual emas balki nazariy xarakterga egadir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Ontologiya nimani o‘rganadi?
2. Nima uchun «borliq» falsafaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi?
3. Falsafa tarixida borliq muammosi qanday yechilgan?
4. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
5. Falsafada borliq va substansiya qanday ahamiyatga ega?
6. Materiya tushunchasi nimani bildiradi?
7. Materiya va uning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Falsafada harakat va materianing bir-biriga bog‘liqligi qanday?
9. Dunyoni moddiy birligini qanday tushunasiz?
10. Borliqning asosiy mavjudlik shakli deganda nimani tushunasiz?
11. Harakat va uning asosiy shakllari to‘g‘risida so‘zlab bering.
12. Borliq va yo‘qlik tushunchalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
13. Mavjudlik va reallik nima?
14. Fazo va vaqt, makon va zamon qanday ma’nolarni anglatadi?
15. Tabiat borlig‘ining strukturaviy darajalari nechchiga bo‘linadi?
16. Gnoseologiya nimani o‘rganadi?
17. «Gnoseologiya» va «Epistemologiya» tushunchalarini gapirib bering?
18. Bilish nima?
19. Bilishning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
20. Bilishning qanday shakllari mavjud?
21. Bilish darajalari nechaga bo‘linadi?
22. Hissiy bilish va uning shakllarini gapiring?
23. Aqliy bilish shakllariga nimalar kiradi?
24. Hissiy va rasional bilishning o‘ziga xosligi nimada?
25. Bilish obyekti, subyekti, predmeti tushunchalarini izoxlang?
26. Haqiqat nima?
27. Haqiqatning mezonlari to‘g‘risida nima bilasiz?
28. Ilmiy bilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari. (2 soat)

Reja:

1. **Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari.**
2. **Falsafa va fan metodlari.**
3. **O‘zgarish va rivojlanish tushunchalari. Taraqqiyot turlari.**
4. **Falsafada qonun va qonuniyat tushunchasi.**
5. **Falsafiy qununlar va ularning asosiy xususiyatlari.**
6. **Kategoriya tushunchasi va uning tasnifi.**
7. **Ontologik va munosabatdosh kategoriyalar.**

Tayanch so‘z va iboralar: *Metod, metodologiya, metodika, fan metodlari, falsafa metodlari, dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika, evristika, bog‘lanish, aloqadorlik, takrorlanish, qonun, qonuniyat, tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, ayniyat, miqdor, sifat, me’yor, sakrash, ziddiyat, tafovut, qarama-qarshilik, kurash, inkor, inkorni-inkor, vorislik, kategoriya, fan kategoriyalari, falsafiy kategoriyalar, alohidalik, xususiylik, umumiylilik, sabab va oqibat, mazmun*

va shakl, sistema, struktura, element, butun va qism, yaxlitlik, mexanik yaxlitlik, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va vogelik.

Metod (yunoncha: «metodos» so‘zidan olingan bo‘lib, bilishning yo‘li degani) — ilmiy bilish, ilmiy tadqiqotning usulidir.

Ilmiy bilish metodlarini o‘rganish falsafada metodologiyaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiyya’limot sifatida o‘zida kishilar dunyoqarashi prin siplarini, ularning bir butun amaliy va nazariyfaoliyatlariga tadbiqu etishni o‘rganadi. **Metodologiya termini** falsafada ko‘p ma’nolidir. U **bir** o‘rinda borliqni ilmiy bilish va o‘zgartirishning metodlari haqidagi nazariyani ifodalasa, **ikkinci** o‘rinda u butun ilmiy bilish metodlarining yig‘indisi ma’nosini ifodalaydi. **Uchinchi** bir o‘rinda esa, metodologiya termini insonning borliqni ilmiy bilish va o‘zgartirishining eng umumiy metodi ma’nosida qo‘llanadi.

Metodologiya (yunoncha: «metodos» va «logos» so‘zlarining birikuvidan olingan bo‘lib, metod va ta’limot, degan ma’nolarni ifodalaydi) — metodlar haqidagi ta’limotdir.

Falsafiy bilish metodlari. Falsafaning asosiy metodi (vositasi) **nazariy tafakkur** hisoblanadi. Falsafa na kimyoviy reaktivlarga, na mikroskop, na teleskop, na boshqa biror bir texnikaga ega emas; uning asosiy quroli - abstraksiya kuchidir. Falsafiy bilishda qo‘llanadigan vositalarning o‘ziga xosligi ham shu holat bilan bog‘liq.

Falsafa Yangi davrga qadar o‘zining asosiy maqsadi hisoblangan keng nazariy xulosalari, umumlashtirishlari uchun yetarlicha faktologik va eksperimental bazaga³ ega emas edi. Shu bois falsafada naqd tajriba ma'lumotlarisiz tafakkurlashga imkon beruvchi **nazariy fikr yuritishning asosiy usuli mushohada bo‘lib qolgan edi**. Empirik bazasining sayozligi tufayli falsafiy mushohida ko‘pincha kuzatish va eksperimentning ilmiy aniqlangan dalillari bilan bog‘liq bo‘lmagan mantiqiy tuzilishga asoslangan. **Falsafiy mushohida doirasida fikriy eksperiment, ekstrapolyatsiya, idealizatsiya kabi usullar rivojlandi**. Mushohada vositasida moddaning atom va molekulyar tuzilishi va uning o‘zidan o‘zi rivojlanishi to‘g‘risida muhim farazlar shakllandi.

Falsafiy bilishning boshqa vositasi - intuitsiyadir. Uning bilishdagi ahamiyatini xitoy mutafakkiri *Van Yanmin*, fransuz faylasufi *A.Bergson* va boshqalar ta’kidlagan. Mantiqiy tuzilish hali o‘z-o‘zidan kashfiyotni ta’minlamaydi. Shunga bog‘lab, taniqli kanadalik faylasuf *M.Bunge* yozgan edi: «Faqat bitta grammatikaning o‘zi hyech kimni poema, garmonika nazariyasi esa - simfoniya yaratishga ilhomlantrigmaganidek, mantiqning o‘ziga hyech kimni yangi g‘oyaga olib kela olmaydi. Mantiq, grammatika va musiqa nazariyasi bizga formal xatoliklar va muvofiq fikrlarni topish imkonini beradi, biroq ular bizni «tub mohiyat» («substansiya») - porloq g‘oyalari, yangi nuqtai nazar bilan ta’minlamaydi».⁴ Bunday g‘oya va nuqtai nazarlarni intuitsiya orqali hosil qilish mumkin.

Falsafiy bilishning muhim vositasi bo‘lib, interpretatsiya (talqin, sharhlash) hisoblanadi. Falsafa muayaya fanlardan farq qilib, u bevosita narsalar, tuproq, o‘simlik, inson organizmi yoki yulduzlar bilan bog‘liq emas. U narsalar va narsalar to‘g‘risidagi bilim, talqin qilinadigan bilim bilan ish ko‘radi. Aynan interpretatsiya – matnni boshqacha o‘qish, ma’noni boshqacha tasavvur qilish, boshqacha so‘roqlash - falsafiy g‘oya va kashfiyotlarning asosi hisoblanadi.

Falsafiy metodlar olam qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi va bu usullardan faylasuflar o‘z tadqiqotlarini amalga oshirish yoki izlanishlarining natijalarini izohlashda foydalanadilar.

Dialektika tushunchasi (yunonchadan «dialektika» so‘zidan olingan bo‘lib, suhbat olib borish, bahslashuv san’ati degan ma’noni anglatadi) falsafa tarixida turli ma’nolarda foydalanib kelingan. **Birinchidan**, dialektika dastlab paydo bo‘lganda baxslashuv san’ati sifatida tan oling‘an bo‘lib, haqiqatga borishning asosiy vositasi sifatida tassavvur qilingan. Keyinchalik, madaniyat, fan tarqqiyotida sekin-asta dunyoni bilishning uslubi sifatida ifodalangan;

³ Birinchi rivojlangan tabiiy ilmiy fan (mexanika) fakatgina XVII asrda vujudga kelgan. Boshka tabiiy va ijtimoiy fanlarning shakllanishi XVIII-XIX asrlarga tugri keladi.

⁴ *Bunge M.* Intuitsiya i nauka. M., 1967. S. 109. Per. s angl.

Ikkinchidan, dialektika ta'limot sifatida uch xil tarixiy ko'rinishida shakllanib, stixiyali dialektika, idealistik dialektika va materialistik dialektika bosqichlarini bosib o'tgan.

Uchinchidan, dialektika - bu dunyoni tassavur qilishda qo'llaniladigan tafakkurning o'ziga xos shunday uslubiki, unda barcha hodisalar o'zaro bog'liq bo'lgan xolda turli xil aloqalarda, qarama-qarshi kuchlar va yo'nalishlarning bir-birini taqoza qiluvchi munosabatlarida namoyon bo'ladi deb izohlanadi.

Dunyoni bilishning dialektik usuliga qarshi tafakkur usuli falsafa tarixida metafizika deb yuritilgan.

Metafizika grekchadan olingan bo'lib, tom ma'noda fizikadan keyin degan ma'noni anglatadi. Eramizdan oldingi I asrda mutafakkir Andronik Rodosskiy Arastuning rejasiz, tartibsiz yozilgan falsafiy traktlarni umumlashtirgan xolda tartibga solib 14 kitob xolida yaratgan mazkur to'plamni «Metafizika» nomi bilan belgiladi. Shu tariqa metafizika atamasi birinchi bor ishlatila boshladi. Keyinchalik metafizika tushunchasini dialektikaga qarshi uslub sifatida birinchi bor Hegel ishlatgan. Metafizikaga bir tomonlamalik, mavhumlik, butunning tarkibidagi biron-bir xolatni mutloqlashtirish xosdir.

Metafizika – dialektikaga qarshi bo'lgan tafakkurning shunday uslubiki, unda rivojlanishning manbai ichki ziddiyatlardan emas, balki alohida, tugallangan va o'zaro bog'liq bo'lmagan jism, hodisa va jarayonlarning oddiy o'rin almashuvidan iboratdir deb izohlanadi. Metafizika - Spinoza, Leybnits, Karl Linney kabi mutafakkirlarning qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Dogmatizm – (grekchadan qotib qolganlik ma'nosini anglatadi) metafizik tafakkur ko'rinishlaridan biri bo'lib, o'zgarmas tushunchalar, formulalar asosida o'rganilayotgan obyektning joyi vaqtiga tegishli bo'lgan aniq sharoitlarini xisobga olmagan xolda biron-bir tomonini mutloqlashtirish, shuningdek, narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlini inkor etishdir.

Sofistika – (grekchadan, ustamonlik bilan baxslashuv degan ma'noni anglatadi) metafizik tafakkurning bir ko'rinishi bo'lib, unda ma'lum maqsadga bo'ysindirilgan haqiqat sirtdan qaraganda go'yoki shakli to'g'ri, lekin haqiqatda bahs obyektini ifodala olmaydigan soxta dalillar asosida isbotlanadi. Ataylab xato asoslar asosida ko'p ma'noli so'zlarga asoslanib fikr yuritish - bilib turib, xato asoslardan yolgon xulosa chiqarishdir. Uni yolg'onidakaman falsafa deb xam nomlanib, komediya va humor janrlarida samarali foydalanish mumkin. Sofistikaga xos sifatlardan biri - bu hodisalarni ularning o'zaro aloqadorliklaridan yulib olgan xolda, bir guruh hodisalarga tadbiq qilish, yoki bir tarixiy davrga oid jarayonlarni boshqa bir tarixiy davrga moslashtirishdir.

Eklektika (grekcha-tanlayman) - bu muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va ikkinchi darajali bog'lanishlar o'rtasidagi farqni hisobga olmaydigan, tasodifiy metodologik uslub. Turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

XX asrda rivojlanish haqida dialektikadan farq qiluvchi sinergetika deb nomlanuvchi yangi ta'limot vujudga keldi. **Sinergetika** (yunon *sunergia* – hamkorlik, hamjihatlik) – sistemalarning o'z-o'zidan tashkil bo'lish nazariyasi, o'z-o'zini boshqarish, hozirgi zamon nazariyasi, nochiziqli hodisalarni o'rganish, dunyoni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy –iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish, tafakkur uslubi. Sinergetika XX asrning 60-70- yillarda I.Prigojin, G.Xaken, I.Stengers, Nikolis G.Klimintovich A. tomonidan asosiy ilmiy yo'nalish sifatida shakllantira borildi. Sinergetika asosan fizikaviy, kimyoviy, biologik hodisalardagi hamda iqtisodiy, texnikaviy, ijtimoiy murakkab jarayonlardagi o'z-o'zidan tashkil bo'lish, o'z-o'zining boshqarilishi, tartiblikdan tartibsizlikka (xaos) o'tish, chiziqli va nochiziqli kabi holatlarning yo'nalish qonuniyatini topishga intiladi. Boshqacha qilib aytganda sinergetika taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat, muvozanatsizlik yuilan muvozanat o'rtasidagi qonuniyatga, tartiblilik bilan tartibsizlik, chiziqlilik bilan chiziqsizlik orasidagi aloqadorlik shaklining mazmuniga tayanadi. Sinergetika ta'limotining asoschilaridan biri I.Prigojin «Beqarorlik falsafasi» asaridagi fikricha, shu vaqtga qadar, beqarorlik tushunchasiga yetarli e'tibor berilmagan.

Ilmiy metodlar va metodologiya. Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to‘plashning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o‘rganadigan maxsus soha — **metodologiya** deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o‘z xarakteriga ko‘ra: 1) eng umumiylilmiy metodlar; 2) umumiylilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo‘linadi.

Eng umumiylilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo‘lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo‘lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so‘rovi, hujjatlarni o‘rganish sotsiologiya faniga xos bo‘lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to‘g‘ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o‘rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o‘rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog‘liqidir. Ilg‘or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo‘lib, u ilgarigi ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o‘sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o‘zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Tadqiqotching o‘z tadqiqoti jarayonida yangi bilimlarga erishish uchun qo‘llaydigan turli xil usullari, yo‘llari va vositalari ilmiy bilishning metodlari deyiladi.

Ilmiy bilishning metodlari tadqiqotching tadqiqot obyektini bilishi uchun qo‘llagan amaliy va nazariy faoliyat usullaridir. **Bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi:** tadqiqotchiga o‘rganayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiatini va mohiyatini, ularni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarni ochishda yordam berishdan, shu asosda tadqiqotning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir.

Ilmiy bilishda to‘g‘ri tanlangan metod shu metod yordamida qilingan ilmiy kashfiyotga nisbatan qimmatliroq ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunday metod bilan tadqiqotchi bir emas, balki bir necha ilmiy kashfiyotlar qilishi mumkin.

Hozirgi zamon fanlarida ilmiy bilishning quyidagi metodlari mavjud: kuzatish va eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish va shu kabilar. Ilmiy bilishning bu metodlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bilishning qaysi bosqichi va qaysi darajasida qo‘llanishi, o‘zlarining tabiatini va xarakterlari bilan bir-birlaridan farq qiladi. Biz bu metodlarning har biri bilan alohida alohida tanishib chiqamiz.

a) Kuzatish va eksperiment metodlari.

Kuzatish harakat, o‘zgarish va rivojlanishdagi ma’lum obyektni tabiiy sharoitda u qanday bo‘lsa, shu holicha diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma’lum maqsad asosida ko‘zdan kechirib borishdir.

Eksperiment esa sun‘iy yaratilgan sharoitda olib boriladigan kuzatishdir. Eksperimentda o‘rganayotgan predmet yoki hodisa o‘z holida, lekin sun‘iy yaratilgan sharoitda ko‘zdan kechirib boriladi. Eksperi mentda tadqiqotchi o‘z o‘rganish obyektiga aktiv ta’sir qilishi, kuzatishning borishida, kuzatilayotgan jarayonni o‘zi xohlagan yo‘nalishga qarab o‘zgartirishi mumkin.

Eksperiment kuzatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u kuzatishsiz mavjud bo‘lmaydi, ular bir-birlarini to‘ldiradi. Kuzatish va eksperiment metodlari asosida to‘plangan faktlar, ma’lumotlar ilmiy bi lishning empirik darajasini hosil qiladi.

Kuzatish va eksperiment asosida hosil qilingan fakt va ma’lumotlar esa o‘z nabitida tadqiqotchidan ularni analiz va sintez qilishini taqozo qiladi.

b) Analiz va sintez metodlari.

Analiz — bir butunni qismlarga, bo‘laklarga, to monlarga va elementlarga ajratib, ularning har birinima ekanligini bilishdir. Analiz usuli natijasidabutunni tashkil etgan qismlar, tomonlar, bo‘laklar, elementlar, ularning butun tarkibidagi o‘rni aniqlanadi. Analiz orqali predmet va hodisalarning strukturasi, tuzilishi bilinadi.

Sintez — analiz tufayli ajratilgan bo‘laklar, tomonlar, qismlar, elementlarni o‘zaro biriktirib, ularni bir butun holiga keltirishdir. Sintez orqali tadqiqotchi butunning bo‘laklari, qismlari, tomonla ri, elementlari o‘rtasidagi va ularning butun bilan bo‘lgan aloqa va bog‘lanishlarini bilib oladi.

Analiz bilan sintez bilish jarayonidagi bir moddiy yoki mantiqiy amalning ikki tomonidir, ularni bir-biridan ajratib qo‘llab bo‘lmaydi, chunki tabiatda va jamiyatda hamma jarayonlar ko‘p tomonlamadir.

Tadqiqotchi o‘rganayotgan predmet yoki hodisalariustida olib borgan kuzatish va eksperimentlari, ana liz va sintezlari asosida hosil bo‘lgan empirik faktlar va ma’lumotlarni o‘z tafakkurida umumlashtiradi, abstraktlashtiradi va konkretlashtiradi. Tafakkur jarayonida yuz beradigan bu amallar ham ilmiy bilishning umumiy ilmiy metodlarini tashkil etadi.

v) Umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish metodlari.

Ilmiy bilishning bu metodlari faqat tafakkur jarayoniga oid bo‘lib, ular ilmiy bilishning nazariydarajasiga xosdir.

Umumlashtirish — bu tadqiqot olib borilayotganbir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo‘lgan tomon lari, xususiyatlari va xossalari fikrda e’tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur bo‘lgan birorta bel gi yoki xususiyatni mavhum holatga keltirishdir. Ilmiy bilish jarayoni umumlashtirish va abstraktlashtirish bilan tugamaydi.

Konkretlashtirish — bu umumlashtirish va abst raktlashtirish jarayonida ajratib olingan, e’tibordansoqit qilingan oldingi butun belgi va xususiyatlarniyana predmet yoki hodisalar bilan bog‘lab, shu predmet yokihodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir.

Umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish tafakkurdagi bir mantiqiy amalning turli tomonlaridir xolos. Tadqiqotchi umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish usullari asosida tafakkur jarayonida yangi nazariy bilimlarni hosil qiladi. Bu usullarning har uchchalasi tafakkur jarayonida doimo birlikda qo‘llanib, bir-birlarini to‘ldirib keladi.

Umumlashtirishdan abstraktlikka va undan konkretlikka hamda konkretlikdan umumlashtirish orqali yana abstraktlikka tomon borish bilishning umu miy usullaridir.

Ilmiy bilishning bu usullari fanlar taraqqiyoti ning turli davrlarida turlicha rol o‘ynab kelgan. Konkretlikdan abstraktlikka borish usuli fanlar ning shakllanish davrida ularga oid turli ilmiy tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynagan edi. Keyinchalik fanlar jadal rivojlanib borgan davrga kelganda, predmet yoki hodisalar nichuqur bilish talabi abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilish usulining ahamiyatini orttirdi. Shunga qaramay, ilmiy bilish jarayonida bu ikki usul doimo birlikda va o‘zaro bog‘liqliqd qo‘llaniladi. Bu usullar nazariy bilishning induktiv va deduktiv metodlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

v) Induktiv va deduktiv metodlar.

Induktiv metod yoki induksiya bilishning shunday usuliki, bunda tadqiqotchi o‘z tafakkurida tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to‘g‘risidagi bir qancha juz’iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyoq bilimlarni hosil qiladi.

Ilmiy bilishda induktiv usul bilan hosil qilin gan bilimlar doimo deduktiv usul yordamida tekshiri ladi.

Deduktiv metod yoki deduksiya — bu bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz’iy, qisman bilimlarga kelishdir. Deduktiv usul vositasida tadqiqotchi bir sinf, bir jins, bir guruh predmet yoki hodisa to‘g‘risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma’lumki, agar biron xususiyat bir sinf yoki bir jinsdagisi hamma predmet yoki hodisalarga xos bo‘lsa, bu xususiyat shu sinf yoki jinsiga oid har bir predmet yoki hodisaga ham xos bo‘ladi.

Ilmiy bilishning bu usullari o‘z navbatida tarixiylik va mantiqiylik metodlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

g) Tarixiylik va mantiqiylik metodlari.

Tarixiylik — **bu** o‘rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo‘lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini, uning tarixiy taraqqiyot jarayo nida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariyblishga oid usuldir. **Tarixiylik deganda**, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning konkret sharoitda paydo bo‘lishi, yashashi, rivojlanish va yemirilish yokiyo‘q bo‘lishidan iborat jarayonning tafakkurda ifoda lanishi tushuniladi.

Mantiqiylik esa, ana shu tarixiylikning tadqi qotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashti rilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflar dan tozalangan abstrakt konkretlik shaklida ifodala nishidir. Mantiqiylikda tarixiylikning eng zarur va engasosiy tomonlari, xususiyatlari, qonuniyatlarifi dalanadi. Tarixiylik va mantiqiylik o‘zaro chambarchas bog‘liq. Lekin tarixiylik — birlamchi, manti qiylik ikkilamchidir.

Tadqiqotchi biron bir obyekt ustida izlanishla rolib borganida, ilmiy bilishning bu usullarini to‘g‘ ri qo‘llash lozim. Haqiqatan ham, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning real tarixini to‘g‘ri o‘rganib chiqmay turib, uning mohiyatini to‘g‘ri ifodalab berib bo‘lmaydi.

O‘zgarish va rivojlanish tushunchalari. Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi, bir holatdan ikinchi holatga o‘tib turishi, rivojlanishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zaro ta’sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o‘rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Chunki ular to‘g‘risida aniq bilimga ega bo‘lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to‘g‘risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo‘lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya’ni eng mayda zarrachalardan tortib to Yer, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o‘zgarish va rivojlanishdadir. Ular o‘rtasida abadiy o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o‘z-o‘zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o‘zgarish ham yuz bermaydi.

Bog‘lanishlarning turlari. Biz narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi va rivojlanishiga ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorlik, ta’sir va aks ta’sir asos bo‘ladi, deymiz. Albatta, olamdagи har qanday bog‘lanish ham rivojlanishga sabab bo‘lavermaydi. Chunki bu bog‘lanishlarning ko‘lami, mohiyati, ta’sir kuchi va doirasi turlicha. Bog‘lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo‘laman va hokazo bog‘lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqeа yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog‘liq, o‘zaro aloqadorlikda va ta’sirda bo‘laman birorta ham voqeа yoki hodisa mavjud emas. Demak, o‘zaro bog‘lanish va ta’sir natijasida narsa-hodisalarda o‘zgarish sodir bo‘ladi. Lekin, barcha o‘zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo‘lishi turli darajada bo‘lganligi sababli, o‘zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug‘ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o‘zgarishini, ya’ni ulg‘ayishini yoki bo‘lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o‘tishdagi o‘zgarishlarni oddiy ko‘z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Yer qa’ridagi ichki jarayonlarni ma’lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otlishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g‘aflatda qolib kelmoqdalar. Ya’ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug‘lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro‘y bergen o‘zgarishlarni ko‘z ko‘radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. Ulardagi o‘zaro bog‘liqliknini ham oson ko‘rish, ilg‘ash mumkin. Ana shunday oson ko‘rish va ilg‘ash mumkin bo‘lgan, ochiq-oydin ro‘y beradigan voqeа, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylig» tushunchasi, mohiyatini ilg‘ash qiyin bo‘lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o‘zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo‘llaniladi. O‘rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e’tibor berilgan.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta’rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagи har qanday o‘zgarishga aytildi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi

harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to‘g‘ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo‘lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o‘tmishdan kelajakka tomon o‘tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarining takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo‘lib turadi. Ba’zida taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida oldingi bosib o‘tilgan davr takrorlangandek bo‘ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzdagi takrorlanishdir.

Hech qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o‘sha Quyosh chiqadi, o‘sha tog‘u toshlarni, bog‘u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o‘sha-o‘shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o‘qishga, kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi... Ammo dunyo o‘zgarmadimi bu bir kunning ichidag‘ unda minglab bolalar tug‘ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar ro‘y berib, Yer sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimig‘ Ona zamin o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimig‘ Bularning barchasi bir kunu-tunda ro‘y bergen botiniy va zohiriy o‘zgarishlarning namoyon bo‘lishidir.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o‘zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o‘z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o‘rganganimizda ana shunday holni idrok etganimiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagи narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo‘lib turishini isbotlaydi.

Xo‘sh, qonun o‘zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o‘rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo‘lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to‘g‘risida bo‘lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta’milanishi ta’kidlanadi. Yuqoridaqilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo‘lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagи barcha narsa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma’lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h. k.) asosiy vazifasi har bir soha bo‘yicha tadqiqot o‘tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o‘rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko‘p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo‘ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o‘tmishda iqtisodiyotning o‘ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil s’ezd, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar o‘tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo‘lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlarga olib kelgani barchaga ma’lum.

Hozir mustaqil O‘zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni barpo qilish yo‘lidan bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olingan.

Endi shunday savol: **Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?** Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo‘lqop va h. k.) sotib olishadi, o‘tin yoki ko‘mir g‘amlab qo‘yishadi va h. k. Nima uchung‘ Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya’ni fasllarning o‘zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jo‘nroq bo‘lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo‘lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o‘z jismingizdan zichligi kamligiga e’tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo‘lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkendir. Erkinlik nimag‘ Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya’ni obyektiv tarzda amalga oshish, o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o‘zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo‘lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo‘ymaysiz.

Yuqorida fikrlarni xulosa qilib, qonunga qo‘yidagicha ta’rif berish mumkin: **Qonun olamdagи narsa va hodisalarining muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog‘lanishlari, o‘zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir.**

Endi qonunning belgilariga to‘xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog‘lanishlardan faqat muhimlarini, ya’ni shunday bog‘lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o‘zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarining mohiyatidan kelib chiqqan bo‘ladi;

- qonun zaruriy bog‘lanishlarni ifodalaydi, ya’ni tasodifiy bog‘lanishlar, goh paydo bo‘lib, goh yo‘olib ketadigan bog‘lanishlarga asoslanmaydi.

- qonun narsa va hodisalarining umumiy bog‘lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog‘lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya’ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog‘lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2001 yili qishdan keyin bahor kelib, 2002 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni — fasllar o‘zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati — u obyektiv xarakterga ega, ya’ni u insonga ham, insoniyatga ham bog‘liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o‘zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo‘q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog‘lanishlar, munosabatlar obyektiv xususiyatga ega.

Olamdagи har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o‘zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo‘lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik,adolat va jaholat va h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo‘lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo‘lolmaydi.

Borliq narsa, voqeа-hodisalarining turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilmashil, turli-tuman bo‘lmasin, ular o‘rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o‘rtasida o‘xhash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo‘lmasa, vazni o‘xhash bo‘lishi mumkin va h.k.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xhash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg xam bir-biridan farq qiluvchi ba’zi jihatlarga ega. Hech bo‘limganda, ular bir-biridan makondagi o‘rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o‘xhash bo‘lgan Hasan va Husnlarda ham juda ko‘p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe’l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo‘lishi, ya’ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, **tafovut** narsa — hodisalarining farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqeа-hodisalarining bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o‘zaro munosabatiga aytildi.

Qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi munosabatni **ziddiyat** degan tushuncha ifodalaydi. Ko‘p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me’yoriy o‘zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma’noda

ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo‘lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Sobiq Ittifoqning mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan marksizmda asosan ziddiyatga ko‘proq e’tibor berilar edi. U mutlaqlashtirilar va jamiyatga ko‘chirilib, asosan, antagonistik ziddiyatlar to‘g‘risida gapirilar va ularning yechilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinad edi. Holbuki, insoniyat paydo bo‘libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo‘lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g‘oyalari uyg‘unlashgan, barqarorlik ustuvor bo‘lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

Anu shunday intilishlar fanda «**Konfliktologiya**» (konflikt — ziddiyat, logos- ta’limot) deb ataladigan falsafiy yo‘nalish paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug‘ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo‘llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o‘zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o‘tishga sabab bo‘ladi. Olam turli-tuman bo‘lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo‘lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o‘rtasida farq bo‘lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo‘q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o‘tishi, birgalashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o‘rin tutishlari mumkin.

Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo‘ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo‘lmagan miqdoriy o‘zgarishlar asta-sekin to‘plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo‘li bilan tub sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o‘z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat** — narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo‘lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo‘lsa, uni shundayligicha ko‘rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalari bog‘liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o‘xshashligi yoki o‘xshamasligini ifodalaydi. U keng ma’noda narsalarning turli-tuman xossalari yig‘indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma’nodagi tushunchalar emas. Sifatning o‘zgarishi, muqarrar sur’atda, xossaning o‘zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o‘zgarishi har doim sifatning o‘zgarishiga ta’sir etavermaydi, ayrim xossalalar narsalarning sifatiga ta’sir etmasdan yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o‘lchovi, og‘irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o‘z solishtirma og‘irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdonorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo‘lgan, ya’ni sifati bo‘lib miqdori, miqdori bo‘lib aksincha, sifati bo‘lmagan narsaning o‘zi yo‘q.

Miqdor va sifatning birligi, o‘zaro bog‘liqligi **me’yor** tushunchasida ifodalanadi. Me’yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo‘lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o‘zgarishlari xosdir. Miqdor o‘zgarishlari bilan sifat o‘zgarishlari o‘rtasida qat’iy qonuniyat mavjud bo‘lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o‘zgarishlar sifat o‘zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi sodir bo‘ladi. Olamdagi barcha o‘zgarishlar asta-sekin sodir bo‘ladigan miqdor o‘zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o‘zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta’sir etmaydi. Miqdoriy o‘zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo‘qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o‘zgarishlari tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishi bilan birga sifat o‘zgarishlari miqdor o‘zgarishlariga ham o‘tadi. Miqdor

o‘zgarishlari bilan sifat o‘zgarishlari o‘zarо chambarchas bog‘langan bo‘lishiga qaramay, ular ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

- birinchidan, miqdor o‘zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o‘zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o‘zgarishlariga o‘tish faqat ma’lum bir davrda boshlanadi;

- ikkinchidan, miqdor o‘zgarishlari ma’lum vaqtgacha narsalarga muhim ta’sir ko‘rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo‘qotmaydi, keyin esa bug‘ga aylanadi, sifatini o‘zgartiradi. Demak, sifat o‘zgarishlari hodisalarni tubdan o‘zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

- uchinchidan, miqdor o‘zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko‘p hollarda sezilmasdan o‘tadi. Sifat o‘zgarishlari esa ancha tez, aylanadi, to‘satdan sodir bo‘ladi;

- to‘rtinchidan, sifat o‘zgarishlari miqdor o‘zgarishlariga qaraganda tub o‘zgarish bo‘lib hisoblanadi.

Sakrash nima- Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo‘lib, taraqqiyotning uzluksiz ko‘rinishiga qaraganda ancha tez o‘tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo‘lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to‘satdan bo‘ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko‘payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o‘z xarakteriga ko‘ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo‘lib, ular birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o‘ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo‘q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o‘rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo‘lish mumkin: birinchisi — portlash yo‘li bilan bo‘ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo‘l bilan bo‘ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o‘tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo‘qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to‘planishi natijasida yangi sifat paydo bo‘ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obyektiv va qonuniy jarayondir;

- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o‘zgarishlaridan tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishidir;

- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo‘ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

- to‘rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog‘liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o‘tish turli shakllarda sodir bo‘ladi. Har bir narsa, hodisa o‘zining aniq inkor qilish usuliga, o‘z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o‘zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zarо bir-biriga o‘tishi orqali sodir bo‘ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo‘lib turadi. Bundagi eskinining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O‘zgarish va rivojlanish jarayonida **o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** - eskinining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni inkor qonunining** mohiyatini bildiradi.

Mazkur qonunga muvofiq obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskinining yangi tomonidan inkor qilinishi ro‘y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo‘q», so‘zi bilan qo‘silib ketadi, inkor qilmoq — «yo‘q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlataladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri «yo‘q» degani emas, ya’ni narsani mavjud emas, deb e’lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo‘qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo‘lmasdan, balki eskining bag‘rida vujudga kelib, undan foydalaniib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihat mavjud: birinchisi, eskining o‘rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo‘lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog‘liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta’limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagи narsa va hodisalarning doimiy ravishda o‘zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzlusiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko‘ra, har bir mavjud bo‘lgan narsa va hodisa o‘zigacha bo‘lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o‘zi ham sharoitning o‘zgarishi, vaqtning o‘tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o‘zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko‘proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi - avlodlar almashinuv tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya’ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba’zi belgilari takrorlanadi. Masalan, don o‘simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o‘simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to‘g‘ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo‘ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang‘ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo‘lmasdan, balki yuqori bosqichida sodir bo‘lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo‘ladi. Bu spiralning har bir yangi o‘rami oldingi o‘ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o‘rtasidagi bog‘lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg‘or bo‘lmasin, u yo‘q joydan paydo bo‘lmaydi, balki eskining qobig‘ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko‘p hollarda eskidan yangiga o‘tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o‘rtasida vorislik mayjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro‘y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o‘zgarishlar hamma narsani butunlay yo‘q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu — xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to‘g‘risidagi xulosasida yaqqol o‘z asosini topgan.

Har qanday fanning o‘ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo‘ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og‘irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko‘p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarnining nomi bilan bog‘langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor.

Qonun - olamdagи predmet, hodisa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro ichki, obyektiv, umumiyl, zaruriy, muhim va takrorlanib turuvchi bog‘lanishlar, aloqalar va munosabatlarning namoyon bo‘lishidir. Qonun qonuniyatning aniq (konkret) tomonini ifoda etadi.

Qonuniyat- umumiyl yo‘nalish mayl (tendensiya)ni anglatib turkum qonunlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qonunning belgilari:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog‘lanishlardan faqat muhimlarini, ya’ni shunday bog‘lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o‘zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo‘ladi;

- qonun zaruriy bog‘lanishlarni ifodalaydi, ya’ni tasodifiy bog‘lanishlar, goh paydo bo‘lib, goh yo‘qolib ketadigan bog‘lanishlarga asoslanmaydi.

- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog‘lanishlarini ifodalaydi.

Qonunlar xilma-xil bo‘lib, obyektiv jarayonlarni aks ettirishiga qarab farqlanadi.

Bular:

- Tabiat qonunlari
- Jamiyat qonunlari
- Tafakkur qonunlaridir.

Tabiat qonunlarining eng muhim xususiyati – u obyektiv xarakterga ega, ya’ni u insonga uning xoxish irodasiga ham bog‘liq emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog‘lanishlar, munosabatlar obyektiv xususiyatga ega.

Qonunlarning amal qilish doirasiga qarab turlari:

- eng umumiy-universal qonunlar - tabiat, jamiyat va tafakkurdagi barcha aloqadorliklar / o‘zgarishlar va taraqqiyot mexanizmlarini anglash / voqealar rivojini pirovard oqibatlarini oldindan faxmlab olish imkoniyatini beradi. (falsafiy qonunlar)
- umumiy qonunlar – narsa va hodisalarning katta majmualari o‘rtasidagi aloqadorliklarni ifodalaydi. (tabiat va jamiyat qonunları)
- xususiy qonunlar - muayyan bir obyektning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rtasidagi yoki materiya harakatining biron bir shakli loirasida mavjud bo‘lgan ichki aloqadorliklar ifodasidir. (fizikaviy, ximiyaviy va xokaza qonunlar).

Falsafaning 3 ta qonuni mavjud bo‘lib ular quyidagilar:

1. **Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni**
2. **Miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni**
3. **Inkorni inkor qonuni.**

1. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining mazmun va mohiyatini quyidagi tushunchalar ochib beradi;

- **Ayniyat** tushunchasi narsa va hodisalarning bir biriga o‘xhash belgilari, xususiyatlari va tomonlarni ifodalaydi.
- **Tafovut** tushunchasi narsa va hodisalarning bir biridan farq qiladigan belgilari, xossalari va xususiyatlarini ifodalaydi.
- **Qarama-qarshilik** tushunchasi esa, narsa va hodisalarning bir-birini mustasno etuvchi(keltirib chiqaruvchi) va shu bilan birga bir birini istisno (inkor etuvchi) tomonlari, belgilari va xususiyatlarini ifodalaydi.
- **Ziddiyat** tushunchasi esa qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Taraqqiyot shu ma’noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo‘lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

2. Miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni. Borliqning, olamning mavjudligi va rivojlanishi – **miqdor va sifat** o‘zgarishlari tarzida ham namoyon bo‘ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, olamdagи har qanday mavjud predmet va hodisalar o‘zining muayyan miqdor va sifat birligiga ega bo‘lib, shu **muayyan bir miqdorning muayyan bir sifatga mos kelishi Meyor bilan belgilanadi.** Dastlab narsa va hodisalardagi miqdoriy o‘zgarishlar asta-sekin to‘plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida eski me’yorni buzilishiga olib keladi va sakrash yo‘li bilan yangi sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagи xilma-xil predmet va hodisalar bir-biridan o‘z sifati bilan ajralib turadi.

Sifat – narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo‘lib, uning qator xossa, belgi va xususiyatlarining birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo‘lsa, uni shundayligicha ko‘rsatib beradi, predmet va hodisaning barcha tashqi xossa va xususiyatlarini bog‘liqlikda namoyon qiladi.

Demak, **sifat predmet va hodisalarning umumiyligi, yaxlitligi, uning nisbiy barqarorligi turli-tuman belgi va xossalarining yig‘indisidir.** Lekin **sifat** va **xossa** aynan bir xil ma’nodagi tushunchalar emas. Sifatning o‘zgarishi, muqarrar sur’atda, xossaning o‘zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o‘zgarishi har doim ham sifatning o‘zgarishini keltirib chiqmaydi. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi. Predmet va hodisalar qanchalik ko‘p belgi, xossa va xususiyatlarga ega bo‘lsa bu uning sho‘unchalik yuqori sifat darajasiga ega ekanligini bildiradi.

Obyektiv olamdagi predmet va hodisalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor predmetning hajmi, o‘lchovi, og‘irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi.** Miqdor va sifatning birligi, o‘zaro bog‘liqligi me’yor tushunchasida ifodalanadi.

Me’yor-muayyan miqdorning muayyan sifatga mos kelish chegarasidir.

Miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonunning mohiyati shundan iboratki, taraqqiyot uzliksiz va uzlukli kechadi. Bunda o‘zliksiz o‘zgarishlar miqdoriy o‘zgarishlar bo‘lsa, sifatiy o‘zgarishlar esa uzlikli o‘zgarishlardir.

3. Inkorni inkor qonuni. O‘zgarish va rivojlanish jarayonida o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili nixoyatda muhim. Bunda **vorisiylik** – eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. **Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni inkor qonunning mohiyatini bildiradi.** Inkorni inkor qonuniga muvofiq obyektiv voqyelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi asosida ro‘y beradi. Biroq, aksariyat xollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy xossalar, xususiyatlar va tomonlar saqlanib qoladi. Inkor tushunchasi kundalik ongda ishlatiladigan «yo‘q» so‘zi bilan qo‘shilib ketadi, biroq inkor qilmoq – «yo‘q» demak emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo‘lmashdan, balki eskining bag‘rida vujudga kelib, undan foydalaniib, qaror topishini tan olishdir. Yani inkor taraqqiyotning, rivojlanishning zaruriy sharti bo‘lib uning natijasida hayotda o‘z umrini yashab bo‘lgan eskilik o‘z o‘rnini yangilikka bushatib beradi. **Bu birinchi inkor bo‘lsa.** Vujudga kelgan yangilik ham o‘z navbatida albatta eskiradi va kelgusida yana bir yangilik tomonidan inkor etiladi, bu jarayon - **Inkorni inkor deyiladi.**

Bog‘lanish va aloqalarning mazmuni va mohiyati, hamda xarakteriga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

- | | |
|----------------------------------|---|
| 1. Ichki va tashqi. | 2. Zaruriy va tasodifiy. |
| 3. Bevosita va bilvosita. | 4. Muhim va muhim bo‘limgan va hokazo. |

Falsafa kategoriyalari. Fan va falsafaning rivojlanishi alohida maqomga ega bo‘lgan va bilish jarayonida maxsus funksiyalarni bajaradigan tushunchalar shakllanishiga olib keldi. Bu tushunchalar kategoriyalar deb nomlandi. **Kategoriya (yunon. kategoria – izoxlash , ta’rif, mulohaza) – borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o‘zida aks ettiradigan keng tushuncha.** Shunday qilib, tabiiy til tushunchalari fan va falsafa kategoriyalari bilan tinimsiz boyib boradi. Kategoriyalarni tasniflash, borliqning turli shakllari haqidagi falsafiy tasavvurlarga muvofiq amalga oshiriladi. **Odatda fan kategoriyalar va falsafa kategoriyalar farqlanadi.**

Fan kategoriyalari tabiiy til tushunchalaridan ancha farq qiladigan so‘zlar bilan ifodalanadi. Aksariyat hollarda ular qadimgi yunon yoki klassik lotin tilidan o‘zlashtiriladi, ba’zan ular mazkur hodisani kashf etgan olimning ismi bilan ataladi. Ilgari ma’lum bo‘limgan hodisani ifodalash uchun sun’iy tarzda yaratilgan so‘zlar – neologizmlar ham ancha ko‘p uchraydi. Tabiiy tildan farqli o‘laroq, fan tushunchalari va kategoriyalari atamalar (terminlar) hisoblanadi, ya’ni erkin talqinga yo‘l qo‘ymaydigan aniq belgilangan hajm va mazmunga ega bo‘ladi.

Har qanday fan borliqning muayyan tomonlarini o'rganar ekan, albatta o'z kategoriylar apparatini shakllantiradi. ***Matematika «son», «differensial», «integral» kabi kategoriylar bilan bog'liq. Biologiyada «tur», «irsiyat», «o'zgaruvchanlik»*** kabi kategoriylar mavjud. Ammo, muayyan fanlarning kategoriylari ma'lum darajada umumiyo bo'lsa-da, borliqning ayrim sohalaridagina qo'llaniladi va mazkur sohalarga xos bo'lgan aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi

Xususiy ilmiy kategoriylar alohida olingen xususiy ilmiy fanlarda qo'llaniladigan, mohiyat nuqtai nazaridan boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin bo'limgan kategoriyalardir. Masalan, fizika, kimyo geologiya, geografiya fanlari kategoriylari xususiy xarakterga ega

Falsafiy kategoriylar fan kategoriylaridan butunlay farq qiladi. **Falsafiy kategoriyalarning muhim xususiyati, ular o'ta keng tushunchalar ekanligidir.** Ayni shu sababli falsafiy kategoriylar hech qachon hajman cheklangan tabiiy til tushunchalari darajasida soddalashtirilishi mumkin emas. Tushunchalar sifatida kategoriylar fikrlashning zaruriy shakllari hisoblanadi. O'ta keng tushunchalar sifatida ular universal qo'llanish va butun olamni tavsiflashga da'vogar bo'lishi mumkin. **Shu boisdan falsafiy kategoriylar dunyoning manzarasini yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladiki, bu, umuman olganda, falsafaning bosh vazifasi hisoblanadi.** Har qanday tushunchalar kabi, kategoriylar instrumental funksiyani bajaradi, fikrlash omili va vositasi sifatida amal qiladi. Shuningdek falsafiy kategoriylar insonning turli hodisalarini bilish va o'zlashtirish usuli sifatida ham instrumental funksiyani bajaradi. Falsafiy kategoriylar ilmiy bilishning muayyan metodologiyasini, umuman borliqni, ayniqsa inson borlig'ini tushunish me'yorlarini yaratish orqali normativ funksiyani ham bajaradi. Kategoriyalarning ahamiyati va universalligi shu bilan belgilanadi, bilish natijalari muqarrar tarzda kategoriyalarda qayd etiladi, kategoriylar shakl-shamoyilini kasb etadi. Ular fan tarkibining zaruriy qismi hisoblanadi. Zero fan obyekti faqat kategoriylar yordamida fikrlanishi va tushunilishi mumkin.

Falsafiy kategoriylar – borliqning umumiyo, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmuidir. Falsafiy kategoriylar tizimida shartli ravishda uch muhim guruhni farqlash mumkin.

Falsafiy kategoriyalarning birinchi va **eng muhim guruhi – har qanday falsafiy muammolarni tahlil qilishda qo'llaniladigan umumiyo kategoriylar**. Bular borliq kategoriylaridir (falsafiy adabiyotlarda bu kategoriyalarni **dialektika kategoriylari** deb nomlash odat tusini olgan).

Ikkinci guruhni falsafaning turli **bo'limlariga tegishli bo'lgan maxsus kategoriylar** tashkil etadi. Masalan, ontologiya borliq va yo'qlik, substansiya, dunyoning birligi, materiya, ong, makon, vaqt, harakat kabi kategoriylar mazmunini aniqlaydi va muayyan tarzda talqin qiladi. **Naturfalsa, gnoseologiya, antropologiya, praksiologiya, ijtimoiy falsafa, globallashuv falsafasi** ham o'z kategoriylar apparatiga egadir.

Uchinchi guruhni **maxsus falsafiy fanlar**: mantiq, axloq (etika), estetika kategoriylari tashkil etadi. Masalan, axloq fanida falsafiy bilimning ayni shu sohasi va falsafaning axloq bilan turdosh bo'limlari – antropologiya, ijtimoiy falsafa, aksiologiyaga xos bo'lgan kategoriylar tizimi (**yaxshilik va yomonlik**, sha'n va qadr-qimmat, hayot ma'nos, baxt va boshqalar) vujudga kelgan. Tushunchalar, mulohazalar, mushohadalar, dalillash va hokazolar mantiq kategoriylari hisoblanadi. Estetikada go'zallik va xunuklik, fojeaviylik va kulgililik, ulug'verlik va tubanlik kabi kategoriylar qo'llaniladi. Biz esa falsafaning umumiyo kategoriylarini ko'rib chiqamiz.

Falsafa kategoriylari muayyan fanlarning kategoriylaridan ancha farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, dialektika kategoriylari obyektiv dunyo hodisalarini turkumlarining muhim xossalari va aloqalarinigina emas, balki barcha moddiy jarayonlarga xos bo'lgan eng umumiyo xossalari va aloqalarni aks ettiradi. **Shunday qilib, dialektika kategoriylari obyektiv dunyonni ideal aks ettirishning o'ta keng shakllari bo'lib, ular voqelikni bilish va ma'naviy-amaliy o'zgartirishning asosiy prinsiplari bo'lib xizmat qiladi.**

Dialektika kategoriylarini **ikki turga** ajratish mumkin: **substansion kategoriylar** va **munosabatdosh kategoriylar**.

1. Substansion kategoriylar – bu boshqa kategoriyalardan qat'iy nazar, **alohida-alohida** qo'llaniladigan kategoriylar. Bunday kategoriylar qatoriga **«borliq», «materiya», «harakat»**,

«rivojlanish», «makon», «vaqt», «ziddiyat» va hokazolar kiradi. Ular obyektiv voqelikning muayyan umumiylarini qayd etadi, lekin bu kategoriyalarning boshqa kategoriyalar bilan aloqalari haqida bevosita tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

2. Munosabatdosh kategoriyalarga kelsak, ular biri ikkinchisi bilan uyg'un bog'liq bo'lib, bilish jarayonida biri ikkinchisini nazarda tutadi; ularning biri haqida tasavvur hosil qilganda boshqasini hisobga olmaslik mumkin emas. **Bunday kategoriyalar qatoriga quyidagilar kiradi:**

1. Yakkalik, umumiylit va xususiylik kategoriyasi. Yakkalik - alohida narsa va hodisagagina xos bulib, bu narsa va hodisani boshka narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligidir. **Umumiylit** – bir turkum predmet va hodisalarga xos bo'lgan umumiylar belgi hamda xususiyatlarining namoyon bo'lishidir. Yakkalik va umumiylit o'rtaqidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat "**Xususiylik**" kategoriyasi orqali ifodalananadi.

2. Mohiyat va hodisa kategoriyasi. **Mohiyat** - narsa va hodisalarning ichki, eng muhim uzaro boglanishlari, shu boglanishlarning qonuniy alokadorliklarini ifodalaydi. **Hodisa** - narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va boglanishlarning namoyon bulish shaklidir.

3. Mazmun va shakl kategoriyasi. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. **Mazmun** - narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va uzgarishlarning majmuidir. **Shakl** - mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashki tomonlarining birligidir.

4. Sabab va oqibat kategoriyasi. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli doimo o'zgarib turadi. Mazmun va shakl o'rtaqidagi aloqadorlik, bog'lanish, munosabatlarning xarakteri **muayyan sababga** asoslanadi. Ya'ni, **har qanday predmet va hodisalarning vujudga kelishi va namoyon bo'lishi, muayyan sabab tufayli ruy beradi**. Demak, narsa va hodisalarning ketma ket rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. **Sabab** - bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhidir. **Oqibat** - sababning bevosita yoki bavosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisadir.

5. Zaruriyat va tasodif kategoriyasi. Obyektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. **Zaruriyat** - muayyan sharoitda kat'iy ravishda kelib chikadigan vokea yoki hodisadir. **Tasodif** - ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bulgan hodisa yoki vokeadir.

6. Imkoniyat va voqyeylik kategoriyasi – falsafaning muhim kategoriyalaridandir. **Imkoniyat** - yuzaga chiqmagan voqelikdir. **Vokelik** - real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir.

7. Sistema(tizim), struktura va element kategoriyasi. Falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. **Sistema** – yunoncha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi. Sistema – narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. **Struktura** - narsa hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. **Element** - sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish aloqadorlik, munosabat jihatlarini taminlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir.

8. Butun va qism kategoriyasi. Bizni o'rab turgan borliqdagi barcha narsa va hodisalar ko'z o'ngimizda bir butunlik sifatida namoyon bo'ladi. Ularni o'rganish natijasida esa turli qismlar va bo'laklardan ham iborat ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu qism va bo'laklar o'zaro ma'lum qonuniyatlar asosida birikib, ma'lum tuzilishdagi narsalar, hodisalar yoki jarayonlar butunligini tashkil qiladilar. Narsa va hodisalarning ma'lum bir guruhi o'zaro birikib esa bir sistemani hosil qiladi. Sistema esa muayyan strukturaga ega bo'lib, o'z navbatida u ham ma'lum elementlardan iborat bo'ladi. Bundagi butun, qism, sistema, struktura, kabilar dialektik bog'lanish va aloqadorlikda bo'ladi.

Butun - o'uzaro dialektik aloqadorlikda bo'lgan qismlar, bo'laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo'lgan narsa, hodisa, yoki jarayondir. Masalan, bizni o'rabi turgan olam - bir butundir.

Qism - butun tashkil etgan uning tarkibidagi bo'lak, elementlar, komponentlardir. Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.

Tayanch tushunchalar

Dialektik usul - moddiy olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo'lib, barcha fanlar uchun metodologiyadir. Dialektik usul xususiy fanlar erishgan yutuqlardan foydalanib, ularning usullari bilan birgalikda rivojlanadi, ular bir - birini to'ldiradi va boyitadi.

Kuzatish - harakat o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum obyektni tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa, shu xolisa diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida ko'zdan kechirib borishdir.

Eksperiment - o'rganilayotgan predmet yoki hodisani o'z xolida, lekin sun'iy yaratilgan sharoitda kuzatishdir.

Analiz - bir butunni qismlarga, bo'laklarga, tomonlarga va elementlarga ajratib, ularning har biri nima ekanligini bilishdir.

Sintez - analiz tufayli ajratilgan bo'laklar tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro biriktirib, ularni bir butun xoliga keltirishdir.

Umumlashtirish - tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va xossalari fikrda e'tibordan soqt qilib, tadqiqot uchun zarur bo'lgan birorta belgi yoki xususiyatni mavhum holatga keltirishdir.

Konkretlashtirish - oldingi butun belgi va xususiyatlarni yana predmet yoki hodisalar bilan bog'lab shu predmet yoki hodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir.

Induksiya - tadqiqotchi o'z tafakkuridan tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to'g'risidagi bir qancha juz'iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyoq bilimni hosil qiladi.

Deduksiya - fikrda umumiy bilimlarda juz'iy, qisman bilimlarga kelishdir.

Tarixiylik - o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usuldir.

Mantiqiylik - tarixiylikning tadqiqotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflardan tozalangan abstrakt konkretlik shaklida ifodalanishidir.

Formallashtirish - tekshirilayotgan predmet yoki hodisalarning ma'lum konkret tomonlari, xossa va xususiyatlarining mazmunini mavhumlashtirib, uni ma'lum abstrakt ifoda, formula yoki sxemalar bilan ifodalashdir.

Modellashtirish - o'rganilayotgan obyektga tuzilishi yoki funksiyasiga ko'ra unga o'xshash lekin uning o'zi emas, uning nusxasini yaratib, shu nusxa orqali haqiqiy obyektni tegishli xossa va xususiyatlarini o'rganishdir.

Rivojlanish (progress) - bu ijobjiy o'zgarish bo'lib, keng ma'noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga va yakkalikdan umumiyligka qarab ilgarilab boruvchi harakatdir.

Yakkalik - alohida narsa va hodisagagina xos bo'lib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligidir.

Mohiyat - narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi.

Hodisa - narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shaklidir.

Mazmun - narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o'zgarishlarning majmuidir.

Shakl - mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasini ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidir.

Sabab - bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhidir.

Oqibat - sababning bevosita yoki bavosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisadir.

Zaruriyat - muayyan sharoitda qat’iy ravishda kelib chiqadigan voqea yoki hodisadir.

Tasodif - ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo‘lgan hodisa yoki voqeadir.

Voqelik - real mavjud bo‘lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir.

Imkoniyat - yuzaga chiqmagan voqelikdir.

Sistema – yunoncha so‘z bo‘lib, mantiqiy ma’nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma’nolarni anglatadi. Sistema – narsa va hodisalarining bog‘lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi.

Struktura - narsa hodisalar bog‘lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta’minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir.

Element - sistemani tashkil qilgan strukturaning o‘zaro bog‘lanish aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta’minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. «Metod» va «Metodalogiya» deganda nimani tushunasiz?
2. Dialektika metodining mohiyatini so‘zlab bering?
3. Sofistika, eklektika, metafizika uslublarini gapirib bering?
4. Sinergetika haqida nimalarni bilasiz?
5. Ilmiy metodning o‘ziga xos belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Ilmiy bilishning barcha metodlarini umumiyligi va qo‘llanish darajasiga qarab guruhlarga bo‘linganligini tushuntiring?
7. Falsafada qonun tushinchasini izohlang?
8. Tabiat va jamiyat qonunlari deganda nimalarni tushunasiz?
9. Falsafiy qonunlarning asosiy turlari qaysilar?
10. Qarama-qarshilik birligi va kurashini gapirib bering?
11. O‘zgarish va rivojlanishda o‘z- o‘zini inkor etish tamoyilini gapirib bering?
12. Rivojlanish nima?
13. Taraqqiyotning falsafasidagi o‘rni va uning turlari?
14. Dogmatizm nima?
15. «Kategoriya» tushunchasini mohiyati va mazmunini qanday izohlaysiz?
16. Falsafiy kategoriyalar va ularning turlari.
17. Dialektik kategoriyalar qaysilar?
18. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki birlikning asosi nimada?
19. Dialektika kategoriyalari falsafiy kategoriyalar tizimida qanday o‘rin egallaydi?
20. Butun va qism, sistema va element kategoriyalarining qiyosiy tahlilini amalga oshiring.

4-mavzu: Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma’naviy qadriyatlari.

Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi). Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari. (2 soat)

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyat mavjudligining moddiy va ma’naviy omillari.
2. Falsafiy antropologiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, predmeti hamda vazifalari.
3. Inson – bioijtimoiy mavjudot sifatida.
4. Inson, shaxs va individ tushunchalari.
5. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari.
6. 2017-2021 yillardagi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi.
7. Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.
8. Texnika va texnologiya tushunchalarining mohiyati.

Tayanch so‘z va iboralar: *Jamiyat, davlat, sivilizatsiya, madaniyat, fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar, mafkura, siyosat, qadriyat, falsafiy antropologiya, inson, hayot, kosmosentrizm, teosentrizm, sotsiosentrizm, antroposentrizm, biosferosentrizm, ekzistensializm, insonning bioijtimoiy mohiyati, globallashuv, globalistika, global muammolar, “Harakatlar strategiyasi”, demografiya, ekologiya, ekosistema, demografik portlash, demografik siyosat, terrorizm, korrupsiya, texnika va texnologiya, nanotexnologiya, internet, virtual muloqot, kommunikatsiya.*

Jamiyat nima? Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma’noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a’zosi deb ataladi.

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya’ni ijtimoiy borliq bo‘lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlар yig‘indisi, degan turlicha ta’riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

Jamiyat moddiy va ma’naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma’naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Moddiy hayot tadqiqiga ko‘proq e’tibor berilar. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo‘Imagini singari, jamiyatning moddiy va ma’naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mantiqqa ziddir. Inson ma’naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy g‘oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e’tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo‘lgani uchun ilmsiz bo‘lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo‘lgani uchun qashshoq bo‘ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma’naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta’minalashga katta e’tibor berilyapti.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila bo‘lib, jamoa bo‘lib uyushishiga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamondardanoq ulug‘ mutafakkirlar e’tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish — uni ilohiy kuch, xudo bilan bog‘lab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga ko‘ra, odamlar o‘zlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo‘lib birlashishga ko‘nikkan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo‘lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o‘zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma’naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergen.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o‘rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so‘z bilan ijtimoiy munosabatlар deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta’lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Mamlakatimizda ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini bilan uzviy bog‘liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg‘i, kommunikatsiya vositalari;

- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;
- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'lomitlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lum-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiylar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rinn tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatning kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o'ziga xos o'rinn egalaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shadi.

Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi nazariyalar. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazaridan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyat bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini ko'rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

Barqarorlik - jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini hayotga tadbiq etadi. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda,

qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo‘qolishida, g‘oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo‘lishida, ijtimoiyadolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o‘z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash huquqiga ega bo‘lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash garovi ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o‘z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘lini tanlash, rivojlanishning o‘zbek modelini yaratish imkoniga ega bo‘ldi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati. Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma’naviy taraqqiyotining muhim yutug‘idir.

Jamiyat ma’naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O‘zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarda milliy davlatchilik an’analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi. Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko‘rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiylar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg‘armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo‘mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish — O‘zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. **Fuqarolik jamiyati** kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko‘pqirrali aloqasi bo‘lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o‘zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyatni umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o‘ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O‘zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillardanoq yurtimizda fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari qo‘liga o‘ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o‘z-o‘zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o‘z-o‘zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro‘yobga chiqarish maktabidir.

Falsafa tarixida qadriyat muammosi. Insoniyat tarixinining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo‘lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan.

Dastlabki paytlarda bu xususiyat buyumlarning amaliy foydasi bilan bog‘lanar edi. Keyinchalik qadriyat maqomi boshqa ijtimoiy institutlar va ma’naviy hodisalarda ham tan olina boshlandi. Yevropa falsafasida qadriyatlar muammosi *Qadimgi Gretsiyada* qo‘yilgan edi. Bu **muammoni birinchilardan bo‘lib Suqrot** ko‘tarib chiqdi. U **aksiologiyaning asosiy masalasini** «*Ne‘mat nima?*» degan savol bilan ifodaladi. Uning bu savolga murojaat etishi tasodifiy emas edi. Bu hol Afina demokratiyasining tanglikka uchrashining qonuniy natijasi sifatida yuzaga keldi. Mazkur savolga javob berish yangi ijtimoiy ideallarni qidirishda yordam berishi lozim edi. Keyingi davrlarda ham qadriyatlar falsafasi tarixning burilish davrlarida, an‘anaviy qadriyatlar qadrini yo‘qotgan, jamiyatning ijtimoiy negizlari obro‘sizlangan paytlarda dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko‘rshimiz mumkin.

Antik an'ana doirasida qadriyatlar muammosini ishlab chiqishda Demokrit katta rol o'ynadi. Qadriyatlar tabiatini naturalistik (obyektivistik) talqin qilish an'anasini u boshlab berdi. Antik faylasufning fikriga ko'ra, baxt-saodat, ezhulik, adolat, go'zallik mezonlari tabiatning o'zida, hamma narsaning o'z tabiiy oqimida ketishidadir. Nimaiki tabiatga mos bo'lsa - yaxshi, nimaiki unga zid bo'lsa - yomon. Bizning xuzur-halovatimiz va azoblarimiz, qoniqishimiz va noroziligimizning asosi ana shunda.

Aflatunga ham qadriyatlarni obyektivistik tushunish xos edi. Biroq materialist Demokritdan farqli o'laror Aflatun ularning manbaini tabiatda (narsalar olamida) emas, balki vujudsiz mohiyatlar (obyektivlashtirilgan tushunchalar) - g'oyalar olamida ko'radi. «Katta Gippiy» asarida Aflatunning Suqrot ismli qahramoni Gippiy bilan suhbatda u yoki bu narsalarni go'zal qiluvchi narsa nima ekanligini bilishga urinadi. Go'zallikning ayrim narsalardagi in'ikosini namoyish qilish orqali go'zallikning nima ekanligini idrok etish mumkin emasligi faylasufni go'zallik «g'oya»siga olib keladiki, ana shu go'zallikning qandaydir bir narsaga qo'shilishi uni go'zal qiladi. Aflatun g'oyalarini bir-biriga bo'ysunuvchi muayyan tartibda joylashadi. Mazkur g'oyalar piramidasining cho'qqisi *baxt-saodat* g'oyasidir. Aynan shu g'oya ijobiy fazilatlarning, go'zallikning, haqiqat va uyg'unlikning manbai bo'lib xizmat qildi.

Qadriyatlarning boshqa bir relyativistik (subyektivistik) konsepsiysi ham mavjud bo'lib, unga *Protagor* asos solgan. Mazkur konsepsiya muvofiq qadriyatlarning bahosi nisbiy bo'lib, u insonga bog'liqdir.

Qadriyat tushunchasi. XIX asr o'rtasiga qadar falsafada «borliq» va «qadriyat» tushunchalari bir-biridan ajratilmagan edi. **Aksiologiya (yunoncha axia - qadriyat va logos ta'limot so'zlaridan)** mustaqil fan sifatida borliq tushunchasi ikki komponentga ajralgan paytda yuzaga keladi: bir narsaning mavjud bo'lishi va uning mohiyati. Boshqacha qilib aytganda, obyekt va subyektning o'zaro ta'siri paytda subyekt uchun obyektda shunday bir narsa ayon bo'ladiki, uni obyektning mavjud bo'lishining o'zigagina bog'lab bo'lmaydi, ya'ni u go'yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladni. Obyekt va subyektning o'zaro ta'sirini ana shunday tushunish qadriyat tushunchasini hozirgi zamon falsafasining kategorial apparatining elementi sifatida shakllanishi uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi.

Qadriyatlar - voqyelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo'lib, u mazkur hodisaning subyekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladni.

Qadriyatlarning tabiati haqida so'z ketar ekan, **falsafiy adabiyotlarda bir-biri bilan raqobat qiluvchi to'rtta asosiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi yondashuvga** ko'ra, qadriyatlar dunyosi alohida, mustaqil, subyektga ham, obyektga ham nisbat berib bo'lmaydigan olam sifatida talqin etiladi. Neokantianlikning klassiklaridan biri G.Rikkert yozganidek, «qadriyatlar subyekt va obyektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil saltanatni tashkil etadi».⁵

Ikkinci yondashuvga ko'ra esa, qadriyaviy xususiyatlar narsalarning o'zida mavjuddir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlar manbai tashqi voqyelik xususiyatlarida ko'rindi. Ana shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar narsalarning muayyan ehtiyojlarni qondira olishga bo'lgan obyektiv qobiliyati sifatida qaraladi. **Uchinchi yondashuvning mohiyati** shundan iboratki, tabiatda qadriyatlar mustaqil mavjud emas. U yoki bu narsalar faqat subyektning baholash faoliyati tufayli o'z qadr-qimmatiga ega bo'ladni. Bunga misol sifatida g'arb estetikasi antologiyalaridan birining tuzuvchisi bo'lgan M.Reyderning fikrini keltirish mumkin: «Haqiqatlarga qarama-qarshi o'laror, qadriyatlar shunchaki tasavvur qilinadi xolos... Faktlar kuzatuvchilar guruhi uchun bir xil xususiyatga ega bo'lsa, qadriyat har bir baholovchining subyektiv fikri bilan bog'liq ravishda turli tabiatga ega bo'ladni»⁶. Bir kishi uchun qimmatli bo'lgan narsa boshqa kishi uchun unday bo'lib ko'rindiydi. **To'rtinchchi yondashuvda** esa oldingi yondashuvlarning o'ziga xos sintezi amalga oshiriladi va qadriyatlarning ikki yoqlama (obyektlvi va subyektlvi) tabiatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

⁵ Rikkert G. O ponyatii filosofii. – «Logos», Kn.1. Spbyu.yu 1910. 33-b.

⁶ Sovremennaya kniga po estetike. Antologiya. M., 1957.

Qadriyat tasnifi

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko'rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo'yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog'liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining obyektlari, ya'ni voqyelikdagi subyekt uchun muayyan qimmatga ega bo'lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- tabiiy obyektlar, jarayonlar va hodisalar;
- ijtimoiy obyektlar, jarayonlar va hodisalar.

b) *subyektli qadriyatlar* - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi:

-me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko'rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihalar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog'liq ekanligiga qarab ham bir-biridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib *axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy* va boshqa qadriyatlarni farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylilik darajasiga qarab, ya'ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi subyektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko'rsatiladi;

- *individual qadriyatlar*;
- *guruhiy qadriyatlar* (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida *g'arb va sharq qadriyat* tizimlari haqida so'z yuritish mumkin.
- *umuminsoniy*;

4. Qadriyatlar ular subyekt tomonidan qay darajada o'z xususiy maqsadi yoki tamoyillari sifatida tan olinishi yoki tashqi sharoitdan kelib chiquvchi bir narsa sifatida qabul qilinishiga ko'ra farq qilishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda *tashqi* va *ichki* qadriyatlarni ajratiladi.

5. Qadriyatlar inson hayoti va faoliyatining negizlari uchun, uning ehtiyojlari va mo'ljalarning mohiyatini ifodalash uchun qayo darajada qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu munosabat bilan ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- *mutlaq* yoki boqiy qadriyatlarni (konstantalar);
- *vaziyatli*, o'tkinchi yoki qadriyatlarni qadriyaviy mezonlarining muayyan tarixiy shakllari (empirik o'zgaruvchan qadriyatlarni).

1. Qadriyatlar ular bajaradigan funksiyaga ko'ra ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlarni *mezon usuli* sifatida, qadriyatlarni ijtimoiy guruhlarda *nazorat usuli* sifatida, qadriyatlarni ijtimoiy tartibni yaratish va saqlashda *funktional zarur* bo'lgan me'yorlar sifatida ajratiladi.

Tarix falsafasining mazmuni va muammolari

Insoniyat bir necha ming yillik tarixga ega. Uning rivojlanish jarayonini tarix fani o'rganadi.

Tarix yunoncha *Historian* so'zidan olingan bo'lib, o'tmish voqealar haqida hikoyalar, bo'lib o'tgan hodisalar degan ma'noni anglatadi. U insoniyat o'tmishining o'ziga xosligini va umuman ko'p xillagini manbaashunoslik va boshqa yordamchi fanlar tarixiy manbalari asosida o'rganuvchi ijtimoiy bilimlar majmuini tashkil etadi.

Tarixiy jarayonlarning falsafiy tahlili bilan *tarix falsafasi* yoki *istoriosofiya* shug'ullanadi. U mustaqil falsafiy fan sifatida o'zining predmeti, kategoriylar apparati va metodologik yondashuvlariga ega. **Ilk bor «tarix falsafasi» tushunchasini Volter qo'llagan.** Nemis ma'rifatparvari *Jogann Gotfrid Gerder* (1744-1803) o'zining «Insoniyat tarixi falsafasiga doir g'oyalar» (1784) asarida ilk bor barcha xalqlarni o'z ichiga qamrab olgan yagona umuminsoniy kelajakka olib keluvchi tarixiy jarayonning birligi g'oyasini ilgari surdi. Jahon tarixiy jarayonini aynan shu tarzda anglashni u tarix falsafasining predmeti sifatida qaragan. **Hozirgi davrga kelib, tarix falsafasi yoki istoriosofik bilimlar (jamiyat tarixining nazariy masalalari) tizimida uchta asosiy yo'nalish ajratib ko'rsatilmoque.** Bular: tarixiy jarayonni

umumlashtirish (alohida «tarixlarni» yagona jahon tarixiga jamlash), tarixning ma'nosini axtarib topish va tarixiy bilish metodologiyasini yaratish⁷dan iborat.

Tarixni falsafiy anglash jiddiy tadrijiy rivojlanishni kechirdi. Qadimgi Sharqda tarix tabiatdagi narsalarning va yil fasllarining almashinuvni kabi abadiy o'z holiga qaytish jarayoni sifatida talqin etilgan. Masalan, Qadimgi Hind falsafasida hayotning harakati abadiy shaklda borishi (sansara) ta'limoti va u bilan bog'liq kishilarning u yoki bu qilmishlari uchun beriladigan mukofotning muqarrarligi sifatida *karma* qonuning mavjudligi xaqidagi g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi Yunonda, xususan, Geraklit ta'limotida an'anaviy shaklda tarixning davriy paradigmasi bиринчи бор о'з ifodasini topdi. Unga ko'ra tarix aylanma shaklda harakat qilib, doimo o'zining dastlabki holatiga qaytadi.

O'rta asrlarda tarixga diniy, teologik qarash hukmron edi. Tarixiy jarayonning ibtidosi sifatida olamning Xudo tomonidan yaratilishi g'oyasi qabul qilinib, tarixni harakatga keltiruvchi asosiy kuch ilohiy abadiy vujud hisoblangan.

Ma'rifatparvarlik davridan boshlab tarix dinamikasining sababini tashkil etuvchi asosiy qonun sifatida taraqqiyot g'oyasidan faol foydalana boshlandi. Fransuz ma'rifatparvarlari Didro, Volter, Dalamber va boshqalar taraqqiyot yo'naliшining namoyondalari edi.

Jan Antuan Kondorse (1743-1794) bu ta'limotni har tomonlama ishlab chiqishga harakat qildi. Uning fikricha, inson qobiliyatlar rivojining chegarasi yo'q, shuning uchun «tarix hyech qachon orqaga qaytmaydi», lekin turli bosqichlarda taraqqiyot turli xil tezlikka ega bo'lishi mumkin⁸.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida tarix falsafasi aksariyat hollarda rivojlanish tarixi edi. Uning eng yuqori cho'qqisini Hegelning rivojlanish nazariyasi tashkil etdi. Unga ko'ra, tarix yagona qonuniy jarayon, undagi har bir davr qaytarilmas va o'ziga xos bo'lib, insoniyat umumiyligi rivojining qonuniy bosqichidan iborat. Tarixiy jarayon shuningdek, Mutlaq g'oya, Tafakkurni o'zidan-o'zi cheksiz rivojlanishining natijasidir. Hegel butun jahon tarixiy taraqqiyotida muayyan tarixiy xalqlar «ruhining» hukmronlik davrlari mavjudligi haqida fikr yuritib, uni quyidagi 4ta bosqichga ajratgan – sharq, yunon, rim va german davrlari. Hegel sharq madaniyatini jahon tarixiy taraqiyotining eng qadimiy shakli ekanligini e'tirof etish bilan birga, german madaniyatini uning eng so'nggi va yuksak bosqichi degan g'oyani ilgari surgan.

XIX asrning 40-yillarida jamiyat va uning rivojlanish tarixiga materialistik qarash shakllangan bo'lib, uning asoschilarini K. Marks va F. Engels uni tarixiy materializm, deb nomlashgan. Bunda tarixning rivojlanishiga tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayon sifatida qaralib, uning asosini obyektiv sharoitlar, jamiyat moddiy hayoti ehtiyojlari tashkil etadi, ular asosiy sinflarning manfaatlarida o'z aksini topadi va antagonistik jamiyatda sinfiy kurash orqali namoyon bo'ladi. Hegel va Marks tarix falsafasining umumiyligi xususiyati shundaki, ular tarixga inson ongi va irodasidan tamomila mustaqil mavjud, faqat olg'a qarab rivojlanuvchi qonuniy jarayon sifatida qaraganlar.

XX asrning ikkinchi yarmidan tarix falsafasining an'anaviy muammolari muayyan ijtimoiy fanlar tasarrufiga o'ta boshladi. Shu munosabat bilan pozitivism tarix falsafasining intihosi va uning sotsiologiya bilan almashganini e'lon qildi. Ayni shu davrda Shpengler, Toynbi, P. Sorokin va boshqalarning ijodlarida tarix rivojiga davriy yondoshuvning yangi variantlari ham paydo bo'la boshladi.

Tarixiy bilish metodologiyasi muammolari. Tarix falsafasining rivojlanishi jarayonida tarixiy bilishga bir qator metodologik yondoshuvlar vujudga keldi. Ularning ichida *monistik* va *plyuralistik; chiziqli* va *davriy; formatsion* va *sivilizatsion* konsepsiylar kabi dixotomik qarashlarni keltirish mumkin. *Monistik* yondoshuv doirasiga marksistik ta'limot va postindustrial jamiyat nazariyalarini kiritish mumkin. **Marksistik ta'limot** ijtimoiy rivojlanishning ustivor omili, deb ishlab chiqarish usulini tan oladi va shu tamoyil asosida insoniyat tarixi rivojini muqarrar, birining

⁷ Qarang: Filosofiya istorii. M., 1999, 15-b.

⁸ Qarang: J.-A. Kondorme. Eskiz istoricheskoy kartini progressa chelovecheskoy istorii//Filosofiya istorii. Antologiya. M., 1994. 39-b.

o‘rnini boshqasi egallaydigan besh asosiy formatsiyalar (ibridoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm)ga ajratadi.

Ikkinchı ta’limot – postindustrial jamiyat konsepsiysi texnikani insoniyat tarixining asosiy omili, deb hisoblaydi va jamiyat tarixini birining o‘rnini keyingisi egallaydigan 3 ta bosqichga bo‘ladi. Bular: an'anaviy (sanoatlashgungacha), sanoatlashgan va postsanoatlashgan (informatsion) jamiyatlar.

Plyuralistik yondoshuv insoniyat tarixining birligini inkor etib, o‘zaro bog‘liq bo‘lмаган yoki kam bog‘liq bo‘lgan ko‘plab o‘zaro teng qadrli tarixiy tuzilmalar – sivilizatsiyalarning mavjudligini tan oladi, shu asosda insoniyat tarixi rivojlanishining yagona taraqqiyot jarayoni ekanligini inkor etadi.

Chiziqli (yoki progressistik - taraqqiyotparvarlik) yondoshuv namoyondalari tarixiy taraqqiyot g‘oyasini jahon tarixiy rivoji dinamikasining asosini tashkil etuvchi umumiy qonun sifatida qabul qiladilar. Bunda muayyan mezonlarga binoan insonning barcha tabiiy imkoniyatlari ro‘yobga chiqadigan hamda barcha ehtiyojlari qondirilishi mumkin bo‘lgan mukammal jamiyatga yetishishning bosqichlari va davrlari belgilanadi. Bunday maqsadlar sifatida sotsialistik, kommunistik va boshqa utopiyalar ko‘rsatiladi.

Chiziqli rivojlanish konsepsiyasiga muqobil bo‘lgan *davriy (siklik) parigma* namoyondalari insoniyat tarixining yagona tarixiy yoki abadiy maqsadga qarab rivojlanishni inkor etadilar. Ularning fikricha, tarix aylanma shaklda harakat qilib, oxir oqibat o‘zining boshlang‘ich holatiga qaytadi. Ushbu nazariyalar qatoriga madaniy-tarixiy yoki sivilizatsion yondoshuv ham kiradi. Unga binoan, insoniyat tarixi – har biri o‘ziga xos shakllanish, rivojlanish va inqiroz bosqichlariga ega bo‘lgan, o‘zaro kam aloqador yoki umuman bog‘liq bo‘lмаган lokal sivilizatsiyalardan tashkil topadi.

Hozirgi davrga kelib, formatsion va sivilizatsion yondoshuvlar dixotomiyasi doirasidagi bahsmunozara keskin tus olmoqda. Ayniqsa, postsotsialistik makonda bir necha o‘n yilliklar davomida hukmron bo‘lib kelgan formatsion, marksistik yondoshuvning qiyinchiliklar bilan bartaraf etilishi yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Avvalgi paragraflarda qayd etilganidek, formatsion nazariya K.Marks nomi, u ishlab chiqqan jamiyat haqidagi ta’limot bilan bog‘liq. Umuman olganda, Marks o‘z davridagi global tasavvurlarga, xususan, Hegelning umumiy qonuniyatlar hamda yagona yo‘nalishga ega bo‘lgan jahon tarixi haqidagi g‘oyalarga ergashgan edi. Bu tasavvurlar tarixga materialistik yondoshuv asosida qayta ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra insoniyat tarixi *tabiiy*, o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan, ya’ni kishilar ongiga bog‘liq bo‘lмаган holda sodir bo‘ladigan formatsiyalarning almashinish jarayonidan iborat. *Formatsiya* deganda qandaydir empirik jamiyat (ingliz, fransuz yoki boshqa) geopolistik hamjamiyat (Sharq, G‘arb) emas, balki jamiyat ijtimoiy tuzilmasining negizini tashkil etuvchi umumiyat tushuniladi. Ya’ni, formatsiya – jamiyatning muayyan tarixiy tipidir. Har bir formatsianing asosini o‘ziga xos ishlab chiqarish usuli tashkil etib, uning strukturasida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish qurollari, ularning rivojlanish darajasi va xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish munosabatlari siyosiy, huquqiy ustqurmaga, shuningdek, ijtimoiy ongning boshqa shakllariga nisbatan asos, bazis rolini o‘ynaydi.

Formatsion ta’limotga ko‘ra, jamiyat quyi shakldan yuqori shakllarga, ibridoiy jamoa tuzumidan quldorlik jamiyatni orqali feodalizmga, undan kapitalizmga hamda eng oliy maqsad, insoniyatning «oltin» asri kommunizmga qarab harakat qiladi. Bir formatsiyadan ikkinchisiga o‘tish yangi ishlab chiqarish kuchlari va eskirib qolgan ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda ixtiloflar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy inqilob orqali sodir bo‘ladi.

XIX asrning oxiri – XX asr o‘rtalariga kelib, formatsion ta’limot nafaqat ijtimoiy nazariya bo‘libgina qolmay, balki kuchli e’tiqodga tayangan *mafkuraviy ta’limot* darajasiga ko‘tarildi. Rossiyada 1917 yil Oktyabr inqilobi va ayniqsa, 1945 yildan so‘ng, «real sotsializm» deb atalmish mamlakatlarning rasmiy mafkurasiga aylandi. Ayni paytda marksizmning tanqidi G‘arbnинг bu mamlakatlarga qarshi yo‘naltirilgan mafkuraviy kurashining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Sotsialistik tizim inqirozga yuz tutgandan so‘ng formatsion ta’limot tanqidi ayniqsa

postsotsialistik makonda yanada kengroq va keskinroq tus oldi. U bir qator xususiyatlarga ko‘ra tanqid qilinadi. Xususan, u o‘ziga xos G‘arbiy yevropa tarixini butun jahon tarixiga ko‘chirish asosida ishlab chiqilganligi; ijtimoiy-iqtisodiy omilning rolini mutlaqlashtirgan holda, boshqa omillar, ayniqsa, jamiyatning ma‘naviy sohasi ahamiyatini qashshoqlashtirib, uni faqat antagonistik sinflar manfaatlari in‘ikosi sifatidagina qaralgani; tarixiy bilishda uni asossiz ravishda yagona evristik konsepsiya rolini bajaradi, degan xulosalari shular jumlasidandir. Hozirgi zamon tarixini, kapitalizm rivoji istiqbollarini anglashda, formatsion ta’limot xulosalarining haqiqatga mos kelmasligi, «real sotsializm» mamlakatlarida amalga oshirilgan keng qamrovli sotsialistik tajribaning muvaffaqiyatsiz intihosi makrsistcha tarixiy konsepsianing tanqidida hal etuvchi argument bo‘ldi.

Formatsion yondoshuvdan farq qilib, sivilizatsion yondoshuv yagona, yaxlit tizimga tushirilgan ta’limot sifatida shakllangan emas. «*Sivilizatsiya*» tushuchasi (lot. *civilize* – fuqarolarga, davlatga xos) ilk bor XVIII asrda yevropalik ma‘rifatparvarlarning asarlarida qo‘llana boshladi. U jiddiy evolyutsiyaga yuz tutib, hozirgi paytgacha bir qancha ma’nolarda qo‘llaniladi⁹. Dastlabki davrlarda u tabiat olami tuzilishidan farqli ravishda *umuman insoniyatni*, uning ijtimoiy tuzilishini *anglatgan* va birlik shaklda ishlatilgan. Keyinchalik u *yovvoyilik* va *johillikdan keyin keluvchi* ijtimoiy rivojlanish bosqichini bildirgan. Co‘ngra u qadriyaviy xususiyat kasb etib, madaniyat tushunchasiga, ayniqsa, individual va ijtimoiy xulq-atvor normativlariga singib ketgan *ma‘naviy madaniyat*, ya’ni kishilar, xalqlarning mentalligi ma‘nosiga yaqinlashib qoldi. Amerikalik olimlar A.Kreber va K.Klakxan 1952 yilda «madaniyat» terminining 164 ta ta’rifini e’lon qildilar va ko‘p hollarda uni «sivilizatsiya» termini bilan bir qatorda qo‘llanilganligini qayd etdilar¹⁰. «*Sivilizatsiya*» va «*madaniyat*» tushunchalari ko‘pincha sinonimlar sifatida ishlatib kelindi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan sivilizatsiya tushunchasini butun bir xalqlar va mamlakatlarning rivojlangan holatiga, «*oliy darajadagi madaniy tuzilmalar*»ga tatbiqan, ko‘plik shaklida qo‘llanila boshlandi. 1861 yilda Zalsburgda insoniyat sivilizatsion rivojining rang-barangli nazariyasini, tarixga *madaniy-tarixiy yoki sivilizatsion yondoshuvni* shakllantira boshlagan madaniy-tarixiy muktab paydo bo‘ldi. N.Ya. Danilevskiy (1822-1865), O.Shpengler (1880-1936), A.Toyntbi (1889-1975), P.A.Sorokin (1889-1968) va boshqalar ushbu muktabning mashhur namoyondalari edi. Ularning har biri «sivilizatsiya» terminiga o‘z talqinlarini bergenlar: Danilevskiy – «madaniy-tarixiy tiplar», Shpengler – «etuk madaniyatlar», Toyntbi – «Lokal sivilizatsiyalar», Sorokin – «Madaniy supersistemalar» g‘oyalarini ilgari surishgan. Ularning ichida eng ommaviyashgani «*lokal sivilizatsiyalar*» termini bo‘ldi.

Umuman olganda, madaniy-tarixiy yo‘nalish namoyondalari sivilizatsiyani odatda etnik chegaralar bilan mos tushmaydigan, etnoslararo xarakterga ega bo‘lgan madaniyat tiplari tarzida tushunganlar. Lekin etnoslararo sivilizatsiyalar muayyan madaniy markazlarning kuchli ta’siri ostida vujudga keladi. Xususan, Qadimgi Sharqqa nisbatan yaqin sharq, hind va uzoqsharq sivilizatsiyalar, yevropaga nisbatan esa – antik sivilizatsiya haqida fikr yuritilib, ular mos ravishda Qadimgi Mesopotamiya, Shimoliy Hind, Xitoy va Gretsiya ta’sirida paydo bo‘lgan.

Sivilizatsion yondoshuvda sivilizatsion ayniyat (identichnost) mezonlari, ya’ni madaniyatning u yoki bu tipini qanday belgilar asosida aniqlanishi masalasi nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunga bog‘liq holda ularning soni, klassifikatsiyasi va o‘zaro aloqadorligi muammosi turlicha hal etiladi. Masalan, O.Shpengler sivilizatsiya shakllanishida dinning belgilovchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib, 8 ta buyuk madaniyatlar yoki sivilizatsiyalar nomini keltiradi. Bular: misr, bobil, hind, xitoy, appolon (Yunon-rim), arab (afsunkor), Meksika, g‘arb (faust) madaniyatları yoki sivilizatsiyalaridir¹¹.

A.Toyntbi sivilizatsion ayniylikning mezonli sifatida, din, tarix, til, an‘ana va madaniyatni qabul qiladi hamda shu asosda 5 ta «jonli» sivilizatsiyalarini ajratadi – g‘arb xristianligi orqali birlashagn g‘arb jamiyati; janubi-sharqiy yevropani Rossiya bilan birlashtirgan pravoslav-xristian

⁹ Qarang: Istorija Vostoka. M., 1999. T.1, 17-19-betlar.

¹⁰ A.Z.Kreber, Kluckhons. Culture: A Critical Review of Concept and Definitions. N.-Y. 1952. p.291.

¹¹ O. Shpengler. Zakat Yevropi. M., P., 1923. 16-b.

jamiyati, Shimoliy Afrikadan tortib Buyuk Xitoy devori hududigacha bo‘lgan – islom jamiyati, tropik-subkontinental Hindistondagi – hind jamiyati, Janubiy-Sharqiy Osiyoning subtropik va mo‘tadil hududlarida shakllangan – Uzoq Sharq jamiyati¹².

N.Danilevskiy 10 ta sivilizatsiyani yoki uning iborasi bilan aytganda, madaniy-tarixiy tiplarni farqlaydi. Bular: misr, ossuriya-bobil-finikiya-xaldey (qadimgi somiy), xitoy, hind, eron, yahudiy, yunon, rim, arab (yangi somiy), yevropa (romano-german)¹³ sivilizatsiyalaridir.

Sivilizatsion konsepsiya tarafdozlari rivojlanishning davriyligi nuqtai nazaridan turib, sivilizatsiyaning vujudga kelish, gullab-yashnash va halokati bosqichlarini ajratadilar. Uni o‘simliklar, jonivorlar va inson hayoti davrlari bilan qiyoslab, sivilizatsiyalar «tug‘iladi, rivojlanishning turli bosqichlaridan o‘tadi, qariydi, so‘nadi, halok bo‘ladi», deb hisoblashadi. Umuman olganda, tarix, ularning fikricha, jahon tarixi miqyosida muayyan tarzda o‘zaro aloqada bo‘lgan, rivojlanib boruvchi lokal sivilizatsiyalar majmuuni tashkil etadi, jahon sivilizatsiyasi esa, turli sivilizatsiyalarining o‘zaro ta’siri natijasidir.

Shunday qilib, *sivilizatsiya* – tarixning madaniy-tarixiy konsepsiysi nuqtai nazaridan, - *sotsiomadaniy asosga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi mamlakat va xalqlarning yirik hamda uzoq davom etadigan mustaqil umumiyati bo‘lib, ularning o‘ziga xosligi tabiiy, oxir-oqibat hayotning obyektiv sharoitlari, shuningdek, ishlab chiqarish usuliga bog‘liq bo‘ladi*. Bu umumiyatlar vujudga kelish, shakllanish, inqiroz va barham topish bosqichlarini bosib o‘tdilar.

Formatsion va sivilizatsion yondoshuvar bir-birlaridan farq qiladi. Ammo bir-birlarini to‘liq inkor etmaydilar, ular bir-birini o‘zaro to‘ldiradi¹⁴. Agar **formatsion yondoshuv** – tarixning ijtimoiy-iqtisodiy kesimi bo‘lib, tarixni moddiy ishlab chiqarish usuli asosida tahlil etsa, **sivilizatsion yondoshuv** madaniyat omiliga, madaniyatga, asosan, xulq-atvor xarakteriga – an’analarga, urf-odatlarga, turmush tarziga, mentallikka e’tibor qaratadi.

Formatsion yondoshuv jamiyatni vertikal kesmasi bo‘yicha rivojlanishini quyi bosqichdan yuqoriga qarab murakkablashib borishini ko‘rsatsa, sivilizatsion yondoshuv jamiyatni gorizontal yo‘nalishdagi rivojini tarixiy makondagi tarixiy tuzilmalar, sivilizatsiyalar, unda yashovchi, ong va irodaga, muayyan qadriyatlarga ega bo‘lgan kishilarining o‘ziga xos madaniyatlari, turmush tarzlarining tahlilidan iborat.

Formatsion nazariya yangilanishi mumkin va zarur, shu jumladan sivilizatsion yondoshuv elementlari asosida ham. O‘z navbatida sivilizatsion yondashuv ham, insoniyat tarixining yaxlit manzarasini aks ettiruvchi formatsion nazariyaning oqilona elementlari hisobiga yangilanishi mumkin.

Jahon rivojining zamonaviy konsepsiyalari. SSSR va jahon sotsializm tizimining halokatga yuz tutishi bilan xalqaro hamjamiatning geosiyosiy strukturasi o‘zgardi. Xalqaro munosabatlarning ikki buyuk davlat – Amerika Qo‘shma Shtatlari va Sovet Ittifoqi o‘rtasidagi kuchlarning, ayniqsa, harbiy sohadagi nisbiy mutanosibligiga, kapitalistik va sotsialistik tizimlar o‘rtasida dunyonи «sovuv urush» asosida qarama-qarshi bloklarga bo‘linishiga asoslangan ikki qutbli sistemasi barham topdi. Xalqaro hamjamiat xalqaro munosabatlarning yangi davriga – yangicha dunyoviy tartibotga qadam qo‘ydi. Jahon siyosatshunosligida dunyoda yuzaga kelgan yangicha vaziyat to‘g‘risida babs-munozaralar avj ola boshladı.

Mazkur munozaraga birinchilar qatori «tarixning intihosi «ta’limotining asoschisi amerikalik siyosatshunos *Frensis Fukuyama* hisoblanadi. Uning fikricha, eng buyuk kommunistik davlat – Sovet Ittifoqining qulashi va ijtimoiy tuzum sifatida sotsializmnning o‘z-o‘zidan barham topishi dunyoning bipolyar, ya’ni ikki qutbli tizimining tugashi va *ko‘p qutblilik* holatiga o‘tishi bilan cheklanib qolmasdan, an’anaviy, ya’ni ijtimoiy ma’noda tarixning ham intihosiga yetishini anglatadi. «Tom ma’noda tarix yakuniga yetdi: mafkuraviy evolyutsiya tugadi va boshqaruvning so‘nggi shakli sifatida g‘arb liberal-demokratiyasining universallahuvi boshlandi», - deb yozadi u¹⁵. Dunyo endi liberal-demokratiya darajasiga yetgan «tarixdan keyingi» xalqlar va hali «tarixda mavjud»,

¹² A.Toynti. Postijenie istorii. M., 1921. 33-b.

¹³ N.Danilevskiy. Rossiya i Yevropa. M., 1991. 74-b.

¹¹ Qarang: Filosofiya istorii. 391-397-b.

¹⁵ F.Fukuyama. «Kones istorii?»//Voprosi filosofii. M., 1990. №3.

lekin rivojlanishning asosiy maqsadi mutlaq g‘arblashish (vesternizatsiya) bo‘lgan hamda AQShda o‘zining yorqin ifodasini topgan g‘arbona qadriyatlar orqali «tarixdan keyingi» mamlakatlar hamjamiyatiga qo‘shilishdan iborat xalqlarga bo‘linadi. Aynan AQSh jahon hamjamiyatiga yetakchilik vazifasini va yangicha dunyoviy tartibot uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi yagona buyuk davlat sifatida ko‘rsatiladi.

Amerikalik yana bir siyosatshunos – S.Xantington «sovuz urush» tugaganidan so‘ng, o‘zgargan dunyoda ijtimoiy-madaniy jarayonlar dinamikasini tushuntirishga, zamonaviy dunyoda ixtiloflarning bosh manbaini aniqlashga yo‘naltirilgan yangi paradigmani yaratishga harakat qildi. U «sivilizatsiyalar to‘qnashuvi» modelini ilgari surdi¹⁶.

Xantington fikricha, ilgari uch xil dunyodan – kapitalizm, sotsializm va «uchinchidunyo»dan tashkil topgan xalqaro sistema endi 8 ta asosiy: g‘arbona, konfutsian, yapon, islom, induizm, pravoslav-slovyan, lotinamerikasi va afrika sivilizatsiyalarini o‘z ichiga olgan yangi tizimga o‘tmoqda. Raqobat qiluvchi harbiy bloklar, uning fikricha ushbu sivilizatsiyalardan qaysi biriga tegishli ekanligi bilan farqlanadi. Oxir oqibat kishilar uchun siyosiy mafkura yoki iqtisodiy manfaatlar emas, balki e’tiqod va oila, qon-qarindoshlik va ishonch, ya’ni kishilar o‘zlarini qanday anglashlari, nima uchun kurashishlari va halok bo‘lishlarini bilish muhimroqdir. Ammo Xantington madaniy-tarixiy maktabning asoschilari (Shpengler, Toynbi, Danilevskiy, Sorokin)dan farq qilib, sivilizatsion o‘zlikni anglashning yangi mezonlarini ilgari surdi, xususan bu qurol-yarog‘, ayniqsa ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi, inson huquqlari va immigratsiya bilan bog‘liq jahonshumul muammolarni uzil-kesil hal etilishi edi. Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi chegara aynan shu muammolarning hal etilishiga qarab aniqlanadi. Bunda G‘arb bir tomonda, qolgan sivilizatsiyalar, ya’ni qolgan dunyo esa boshqa tomonda joylashadi.

Xantington g‘arb sivilizatsiyasining yaxlit birbutunlik sifatida, sistemalararo ixtiloftar davriga nisbatan dahshatliroq fojea oldida turganligi haqidagi tezis bilan chiqdi. Xantington konsepsiyasiga binoan, kelajakda geosiyosatdagи markaziy muammo G‘arb va qolgan sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ixtilof bo‘lib qoladi. «Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi jahon siyosatining belgilovchi omiliga aylanadi. Sivilizatsiyalar orasidagi uzilish chizig‘i G‘arb va qolgan dunyo o‘rtasidagi munosabatlar orqali o‘tadi»¹⁷. Shundan kelib chiqib, u G‘arbdagi hukmron doiralarga g‘arbiy sivilizatsiya chegaralarida, ayniqsa, AQSh va yevropa o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarda G‘arbning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularning imkoniyatlarini kuchaytirish zarurligi haqidagi g‘oyalar bilan murojaat qiladi.

«Sivilizatsiya to‘qnashuvi» modeli sivilizatsion bag‘rikenglikka rahna soladi. U jahon jamoatchiligiga kelajakda G‘arb va boshqa mamlakatlar o‘rtasidagi ixtilof – geosiyosatning markaziy o‘q chizig‘i bo‘lib qolishligini isbotlashga qaratilgan. Ushbu model nafaqat olimlar o‘rtasida, balki turli mamlakatlar, xususan, islom dunyosidagi siyosiy doiralarda ham turlicha, ba’zan salbiy munosabatga sabab bo‘lmoqda. Masalan, Eron Islom Respublikasining sobiq Prezidenti Sayyid Muhammad Xotamiy tashabbusi bilan sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot masalasi Yuneskoning 1999 yildagi sessiyadagi va BMTning 2000 yildagi 53-Bosh Assambleyasida muhokama etildi. Mazkur ming yillik sammitida XXI asr – sivilizatsiyalararo muloqot asri, deb e’lon qilindi¹⁸.

Biz yashayotgan davrda insoniyat tarixida birinchi marta Yer kurrasida yashovchi kishilarning mutlaq ko‘pchiligi turmush tarzining asosiy tamoyillarini bir xilda tushuna boshlamoqdalar. Bu **globalizatsyaning g‘oyaviy negizini** tashkil etadi. **Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir.** Umuman olganda globallashuv tushunchasiga berilgan ta’riflar xilma-xil. Lekin uning xususiyatlarini to‘laroq qamrab olgani **fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergen** ta’rifdir. Unda **globallashuv jarayonining uch o‘lchovli ekaniga urg‘u beriladi:**

¹⁶ Qarang. S.Xantington. «Stolknovenie sivilizasiy?»//Polis. M., 1994. №1.

¹⁷ Qarang: Polis, 1994. №1. 33-b.

¹¹ Qarang: M.Xotemi. Vistuplenie na 53-sessii Generalnoy Assamblei, informacionnyi byulleten posolstva Irana v Tashkente. 2001. №7.

- **Globallashuv – muttasil davom etayotgan tarixiy jarayon;**
 - **Globalashuv – jahoning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;**
 - **Globalashuv – milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.²**
- Globalashuv - bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.**
(I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»)

Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informasion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'yayman. (I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»)

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globalashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtaqidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinnarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi - tabiiyi, bularning barchasiga globalashuv tufayli erishilmoqda. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadi, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtaSIDA azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida shunday muammolar domiga tortildi-ki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umubashariy muammo — yadro halokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, II jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori daroji saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga ro'ju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujutga kelishi masalani chigallashtirib yubordi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli tipdag'i bashoratlar kelib chiqdi. Ana shunday sharoitda har bir aql zakovatli odam «Bunday yo'lida qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilmayapmizmi» — degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savollarni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz xal etib bo'lmaydi.

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina, har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiyl, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan ta'sirli choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. «Butun dunyo

yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir»¹⁹.

Hozirgi paytda insoniyatga xafv solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'Imagan muammolarga aytildi.

Bunday muammolar quyidagilardir:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartarf etish;
- jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- iqtisodiy qoloqlikni tugatish; yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- tabiiy boyliklardan oqilonha va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish; (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, kosmosni o'zlashtirish;
- dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; ozon qatlaming yo'qolish xavfining oldini olish va h.k.);
- insoniyat va uning kelajagi to'g'risidagi o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish; kishi organizmining tobora tez sur'atlari bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muhitga moslashish jarayonini ilmiy tahlil qilish.

Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang turib qolishining o'ziyoq kishilik sivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlari mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun planetamizdag'i ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

Birinchidan, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va h.k.) bo'lib, bular shartli ravishda «intersotsial» muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilarni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, «Inson va jamiyat» o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi («Demografik portlash», kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyatda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitga moslashishi) shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, «inson — tabiat» munosabatlariga esa xom-ashyo resurslarini tejash, aholini oziq — ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu guruh muammolar ijtimoiy omillar tasirida vujudga keladi, ularni hal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rnini va ahamiyatini to'g'ri anglagan holdagini masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin.

Xuddi shuningdek, sof ijtimoiy global muammolarning yechimida tabiiy omillarning bu jarayonga bevosita ulanib ketishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Ham ijtimoiy, ham tabiiy omillar asosida yuzaga chiqadigan umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomonlama (kompleks) yondashish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, falsafa fani zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklaydi.

Kishilik jamiyatining kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida **1968 yilda A.Pechchei tomonidan asos solingen «Rim klubı»** a'zolari bo'lgan J.Forrester, D.Medouz, Ya.Tinbergen, A.King va boshqalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umubashariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zug'umning mudhish oqibatlari qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. «Rim klubı» a'zolari tomonidan qilingan bashoratlar ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan

¹⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolotlari. - T.: «O'zbekiston» 1997, 4-bet.

o‘tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan holda insoniyatning kelajagi to‘g‘risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Demak, insoniyat taraqqiyotining kelgusi imstiqbolini belgilashdagi eng muhim belgilar sirasiga umumbashariy muammolar tabiatini chuqur anglash, bu muammolarning yechimi umuminsoniy mushtarak manfaatlari yo‘lida hamjihatlikda qilingan sa’y-harakatlar ekanini alohida ta’kidlash lozim. Ana shunday misollar anchagina. Masalan, 1955 yil 31 yanvarda Frederiko Julio Kyuri (u shu paytda jahon ilmiy xodimlari federatsiyasi tashkilotining prezidenti edi) Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda harakat qilishi lozimligini bildiradi. B. Rassel F. Kyuri taklifini qo‘llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdlari bo‘lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq, jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta’kidlaydi. Masalaga bunday yondashish falsafiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergen edi. Bu esa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda «yangicha tafakkur uslubi» deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A.Eynshteyn, F.Julio-Kyuri, M.Born, L.Poling va boshqalar tomonidan imzo qo‘yilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955 yil 9 iyul kuni B.Rassel tomonidan o‘tkazilgan press-konferensiyada «Rassel-Eynshteyn manifest» nomi bilan shuhrat qozongan, butun yer yuzi aholisiga, siyosiy va davlat arboblariga qaratilgan mashhur chaqiriq e’lon qilingan. U hozirgi paytda tinchlik va qurolsizlanish uchun kurashuvchi Paguosh harakatini boshlab bergen edi. Manifestda «Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o‘z-o‘zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarining harbiy g‘alabasini ta’minalash uchun nimalar qilish zarur deb emas, balki yadro halokati va uning dahshatli oqibatlari qanday bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilding deb so‘rashimiz kerak», — degan so‘zlar bor edi.

«Rassel-Eynshteyn manifesti» chop etilganiga ham mana 45 yil o‘tdi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish va sinab ko‘rish ko‘lami bir necha barobar ko‘paydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o‘tgan yarim asr mobaynida qurollanishga 16-18 trl. dollar mablag‘ sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalar uchun har yiliga 1 trl. dollar miqdorida mablag‘ ajratilmoqda. Bir kunda qurol-yaroqqa ajratiladigan mablag‘ 3,4-3,5 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz. Juhon sog‘liqni saqlash tashkilotining bezgakka qarshi kurash tadbirleri uchun bir yilda 28-30 mln. dollar ajratishini, Xalqaro nufuzli tashkilot YuNESKOning bir yillik byudjeti 950-980 mln. dollar miqdorida ekanligini hisobga olsak, masala oydinlashadi.

Harbiy-sanoat o‘z domiga tabiatning shunday noyob boyliklarini tortayaptiki, bu sarf-harajatlar o‘sish sur’atining tezligiga qarab beixtiyor o‘z kelajagimiz to‘g‘risida xomush xayollar og‘ushida qolmasdan iloj yo‘q. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o‘ta kamyoq aql egalari, talantli kishilarning aqliy faoliyatini ham o‘z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo‘nalishiga asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Energiya va yoqilg‘i resurslaridan tejamli foydalanish muammosi. Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jahon iqtisodiyotining sur’atini belgilaydigan energiyani iste’mol qilish ko‘lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar hozirgi sur’atda jahon iqtisodiyoti davom etadigan bo‘lsa, u vaqtida sanoat va xalq xo‘jaligining energiyaga bo‘lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg‘i talab qilinadi. Bu ko‘rsatkich 2025 yilda 35-40 mlrd., XXI oxiriga borib, 80-85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujudga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo‘li esa bitta, u ham bo‘lsa, yoqilg‘ining organik moddalar (neft, ko‘mir, gaz va x. k.) dan olinadigan energiya salmog‘ini kamaytirib, noorganik yoqilg‘i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x.k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur’atlar bilan ko‘paytirib borish ko‘zda tilmoqda. Butun jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyib 34% ana shu mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Elektr energiyasining shu

qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon atrofidagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GEslarning qurilishi o'z navbatida ana shu regionning, iqlim sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning sho'rланishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin). Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning yechilishi murakkab muammolariga aylandi. Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi natijasida juda katta miqdordagi radiatsiyaning xavoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq, bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar sirasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Xom-ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi.

Jahon statistik axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holatni xom-ashyoning boshqa turlari to'g'risida ham gapirish mumkin. Tahlillarga qaraganda, 90-yillarda ishlab chiqarilgan xom-ashyo miqdori 60-70-yillardagiga qaraganda 1,5-2 barobar ko'paygan.

Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xom-ashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshqa xom-ashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Vujudga kelgan ekologik vaziyat, tabiiy muhitning inson organizmiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Boshqa tomondan esa, fan-texnika taraqqiyotining ko'lami asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini xom-ashyo resurslari, foydali qazilmalari bilan yetarli miqdorda ta'minlash muammosini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Mazkur muammoni ijobiy hal qilish uchun, iqtisodchilarning tahlillariga ko'ra, jahon mamlakatlarining har biri o'zi ishlab chiqargan yalpi milliy maxsulotning 3-5% miqdorida mablag' ajratishi zarur. Demak, xar yili o'rtaligida hisob bilan 650-850 mlrd. dollar hajmida mablag' ajratilishi talab etiladi.

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan kiyinchiliklar yuzaga chiqmoqda. Ayni shu mamlakatlardan 42-45% km³ hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqava suvlar suv havzalari, ko'l, dengiz, okean suvlarini o'zining zaharli tarkibi bilan bulg'amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suvlariga bo'lgan ehtiyoj dunyo miqiyosida asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3-2,5 barobar oshdi.

Dunyo okeaning ifloslanishi, jonli tabiatning yo'qotilishi yanada xavfli tus olmoqda. Har yili okenlarga 12-15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmoqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab hektar yer maydonlari ajratib berilmoxda, o'rmonlar kesilib yashil yerlar kamaymoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmoqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormoqda, 200 ming km² territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib qayta tiklanmay qolmoqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. hektar, yoki minutiga 16 hektar o'rmon yo'qotilmoqda. Tabiiy muvozanatning dunyo miqiyosida tez o'zgarishining oqibati hozirning o'zidayoq insonning yashashi va faoliyati uchun o'ta zarur bo'lgan mo' "tadil muhitning buzilishiga olib kelmoqda.

Davrimizning yana salbiy belgilaridan biri shundaki, inson faoliyati ko'laming miqyosi tobora biosferani to'la egallab, endilikda kosmosga ham ta'sir eta boshladi.

Oziq-ovqat muammosi va biosfera. Nihoyatda tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining 2/3 qismi doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqalarda

ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib, 0,2 ga. ni tashkil etmoqda. Holbuki, 1950 yilda bu ko‘rsatkich 0,5ga. ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zaxiralarining o‘sishini, bir tomondan, ishlanadigan yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan ekilayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta’minalash mumkin. Keyingi paytlarda hosildorlikni ko‘paytirish ustida juda ko‘p ishlar qilinib, 80 — yillarning oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishtirilgan mahsulot o‘sishining 90% hosildorlikni ko‘tarish hisobiga to‘g‘ri keldi. Ammo, bizga ma’lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qattiq zug‘um qilish natijasida erishiladi. Juda ko‘p yerlar bunday taziyqqa dosh bera olmasdan ishdan chiqqa boshladи. Bu yerlarni tabiiy holatiga qaytarish uchun imkoniyat qolmadи.

Bunday tahlikali holatning sabablarini aholining tabiiy o‘sishi nihoyatda tez suratlar bilan ko‘paygani, ularning ish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishi bilan tabiiy muhitning ekologik muvozanatini saqlash uchun yetarli mablag‘ni topa olmayotganligidan izlash kerak.

Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotish ham davrimizning eng chigal jahonshumul muammolari qatoridan o‘rin oldi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiya, ilg‘or ishlab chiqarish malakasi va insoniyatning ilmiy-texnika yutuqlari sistemalashtirilgan bilimlar zaxirasi to‘planib, shu bilan birga aholining tabiiy o‘sish darajasining pastligi boshqa mamlakatlarga nisbatan o‘z mamlakati aholisining iqtisodiy yashash tarzining beqiyos darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning o‘ziga xos tomonlari shundaki, mazkur mamlakatlarda industrlashtirish jarayoni asrimizning 70-yillari boshidayoq tugallanib, eng avval AQSh va keyinchalik Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuqoriq bosqichiga o‘ta boshladи. Bunda ilmiy-texnika yutuqlari ko‘proq talabga mos va yuqori texnologiyani rivojlanantirishga ko‘p e’tibor berdi, tabiiyki, oqibatda juda katta foya oliga boshlandи. Bunday ishlab chiqarish jarayonida malakasiz yoki kam malaka va bilimga ega bo‘lgan ishchi kuchlariga ehtiyoj keskin kamayib ketadi.

Bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-bilim, texnologiya, murakkab mashina va uskunalar bilan o‘lchanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu darajaga yetishish uchun bir qator jarayonlardan o‘tgani.

Birinchidan, bu mamlakatlar tabiiy boyliklari hisobiga orttirilgan milliy daromad miqdorining mamlakat aholisi jon boshiga tushadigan salmog‘i keskin darajada ko‘paydi.

Ikkinchidan, mamlakat aholisining tug‘ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag‘ni yuqori texnologiyani egallahda zarur bo‘lgan mutaxassislar yetkazish uchun sarflash ko‘zda tutildi.

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot, oliy o‘quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta’minalovchi asosiy manba sifatida qarab, birinchi darajali ahamiyat berildi. Chunki yuqori texnologiyani egallah yuqori malakali ilm egalarini talab qiladi. Ijtimoiy taraqqiyot darajasini belgilovchi eng asosiy omil ilmiy tafakkur esa jamiyat a‘zolarining ma’rifatlichkeit darajasini belgilab beradi. Bu sohada, butun jahon miqyosida fan va ta’limga 3-4% yalpi milliy mahsulotning miqdorida mablag‘ ajratilayotgan bir paytda, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 8,3% miqdorda ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug‘diradi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida ba’zi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy ko‘rsatkich orasidagi tafovut tobora kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Agar XX asrning 60-yillarda Hindistonda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50-70 dollarini tashkil etgan bo‘lsa, Afg‘onistonda 60-70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQShda 3600-3800 dollar bo‘lgan. 1994 yilgi ma’lumotlarga muvofiq, yalpi milliy mahsulot jon boshiga: Hindistonda 370 dollar, Afg‘onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshda 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar, italiyada 14,8 ming dollar, AQShda 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo‘lgan.

Demak, kambag‘al davlatlarning kambag‘allashishi yanada kuchayib bormoqda. Buning bosh sababchisi, shu mamlakatlardagi demografik jarayon ekanligi ta’kidlanmoqda. Aholining faqat miqdoriy o‘sishining o‘zi ko‘rko‘rona yaxshi yashash tarziga olib kelavermaydi. Buning uchun mamlakat aholisining e’tiqodi, milliy psixologiyasi, qadriyat va an‘analarini hisobga olgan holda faol demografik siyosat olib borish zarur.

Demografik muammolar va uning falsafiy tahlili. XX asr o‘zining bir qator belgilari bilan oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni yana «demografik portlash» davridir, degan qarashlar ham keng tarqagan. Bunda qolgan barcha jahonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan yer yuzida aholining tez sur’atlar bilan ko‘payishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi nazarda tutiladi. «Demografik portlash» tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qisqa bir davrida, muayyan mintaqaga yoki mamlakatda va shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tug‘ilish hisobiga aholi miqdorining niroyatda tez ko‘payishini anglatadi.

Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to‘g‘risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas **Robert Maltus** (1766-1834 yy.) ogohlantirgan edi. U o‘zining «**Aholishunoslikning qonuniyati to‘g‘risida tajribalar**» nomli **kitobida aholining geometrik progressiya bo‘yicha ko‘payishini, uning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlarning ko‘payishi arifmetik progressiya bo‘yicha ro‘y berishini aytgan edi.** Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar masshtabda, tabiiy muhit berishi mumkin bo‘lgan moddiy ne’matlarni miqdori bilan juda tez sur’atlarda ko‘payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o‘rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Darhaqiqat, bundan 6-8 ming yillar oldin yer yuzida 5 mln. atrofida odamlar istiqomat qilishgan, deb taxmin qilinadi. Bu ko‘rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1-ming yillikning oxiri 2-ming yillik boshlarida, ya’ni Beruniy zamonida 305 mln; 1500 yilda 440 mln; 1800 yilda 952 mln; 1900 yilda 1656 millionni tashkil etgan. XVI asr boshidan XIX asr boshigacha, ya’ni uch asr mobaynida bu ko‘rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900 yildan to 1999 yilgacha esa bu nisbat sal kam 4 barobar oshganligini kuzatamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida yer yuzi mintaqalarida aholining tabiiy ko‘payish sur’atlari turlicha bo‘lib, bu o‘z navbatida, Yer yuzida mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar salmog‘ining keskin o‘zgarishiga olib kelmoqda. Masalan, 1800 yilda (Napoleon zamonida) Fransiya aholisi 27 mln. kishini, Yer yuzi aholisining 3 foizini tashkil etgan bo‘lsa, Filippin orollarida yashayotgan aholi 1,6 mln. kishi miqdorida bo‘lib, planeta aholisining umumiy salmog‘iga nisbatan 0,16 foizni tashkil etardi. 1999 yil 13 oktyabr kuni Yer yuzi aholisi olti milliardlik dovonib bosib o‘tdi. Fransiya aholisi 56,2 mln. ni, Yer yuzi aholisi salmog‘ining 0,94 foizni, Filippin aholisi ham 65 mln. kishini tashkil etib, jahon aholisidagi salmog‘i (1,05%) bo‘yicha Fransiyadan o‘zib ketdi. Bu borada milliarddan ko‘p aholi yashaydigan Xitoy va shu ko‘rsatkich tomon borayotgan Hindiston alohida o‘rin tutadi. Xullas, bu masala bir mamlkat doirasidan chiqib jahon muammosiga aylandi. U bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun ham butun jahonda mushtarak faoliyat olib borish zarur.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma’ruzalar, tavsiyalari va sharhlari o‘rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o‘rganish hamda umumlashtirish asosida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada**

rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni (2017 yil 7 fevral) loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o'rnlarda – Harakatlar strategiyasi);

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi o'rnlarda – Davlat dasturi) tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Xususan, loyihalarning «Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi» portalida yo'lga qo'yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, 2017 yil 23-27 yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbati tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

«Ommaviy madaniyat» tushunchasi. XX asr o'rtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yig'imini paydo qildi. Ommaviy axborot vositalari (OAV)- matbuot, kino, radio, televidenie, kompyuter aloqasi zamonaviy sosmadaniyat jarayonida salmoqli o'rinni egallay boshladи. OAV yoki buning boshqacha mass media deb nom olgan turi axborot uzatishdagi kanallarning ko'pligi, tezligi va uzoq ishlashi bilan ulkan hajmdagi axborotlarga ega bo'lmoqda. 1940-50 yillarda G.M. Makmoen asarlarida ommaviy kommunikatsiya birinchi marta madaniyatning yangi tipi, va kishilarning ijtimoiy munosabatidagi mutlaqo yangi tip sifatida ta'riflandi.

Uning fikricha bu vosita insonlarning axborot olishdagi raqobat kurashida qudratli kuchga aylanadi.

OAV elektron texnika va yo'ldosh aloqalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy hodisalar va madaniy boyklarni bir vaqtida idrok qilishga undaydi. GE. Makmoen ta'kidlaganidek «hammabop va omma yoqtiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyati» shakllanmoqda.

Haqiqatdan ham zamonaviy madaniyatning holisona tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviy madaniyat ko'proq ommaviylik kasb etib bormoqda. **Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha:**

1. U millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga bog'liq bo'Imagan ommaviy iste'molchilarga ega bo'ladi;

2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o‘zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning mahsus ko‘rinishini o‘zida namoyon qiladi, ya’ni unda yuz minglab kishilar band bo‘lib, ularning «matbuot qiroli», «Buyuk shou tomoshachilari», «kino, TV, estrada yulduzлari» bo‘ladi.

Ommaviy madaniyat kishilarni hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylantiradi. o‘zlar ham mavjud hayotni go‘yo sarob kabi tasavvur qiladilar.

Ortega i Gasset ommaviy madaniyatning ta’sir doirasini tahlil etib, omma o‘ziga, shaxsga o‘xshamay qolishi, kimki boshqalarga o‘xshamasa, shulardek fikrlamasa taxlikada qolishini aytib, «Omma bu yo‘riq-yo‘nalishsiz oqim bilan suzayotgan odamlar. Shuning uchun ular qobiliyat imkoniyatlari katta bo‘lishiga qaramay, hech narsa yaratmaydi. Ommaviy odam axloqdan mahrum, chunki uning mohiyati, ongi burchiga itoatdadir», degan edi.

Ommaviy madaniyat umumiy iste’molchilik ehtiyoji bilan bog‘liq. Buning asosida iste’mol talab tovar sifatida xaridorgir bo‘lish ma’naviy ehtiyoji yotadi. Oqibatda hozirgi zamon madaniyatidagi ma’naviy qadriyatlar tor doiradagi ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi. Madaniyatning chuqur ma’no-mohiyati, xotira cheksizligi «odatli», «umumiy» qimmatlar bilan, haqiqiy ijod avvaldan ma’lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chiqarish (kinoseriallar, saez TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o‘zining ijodiy qobiliyati milliyatidan ayrilib, tayyor «madaniy mahsulotlar» iste’molchisiga aylanib qoladi.

«Ommaviy madaniyat» yoshlarga taklif qilayotgan lug‘at:

TUSHUNCHA	«OMMAVIY MADANIYAT»	MILLIY MADANIYAT
ISROFGARCHILIK	boylik belgisi	resursni befoyda sarflash, inqiroz sari birinchi qadam
YOSHLIK	tez o‘tib ketadigan, lazzatlanib oladigan vaqt	har bir daqiqasida bilim olish, komillikka intilish vaqtি
VAFO, SADOQAT	eskilik sarqitlari	komil insonga xos belgilar, ezgu amallar
HAYO, IBO	axloqsizlik	axloq-odob belgisi, ijobiy fazilat
INSOF QILISH	imkoniyatni boy berish	vijdon bilan ish tutish
SAHOVAT	resursni maqsadsiz sovurish	o‘zgalarga beminnat yordam, oliyhimmatlik
YAXSHI OTA	bola qo‘liga katta pul beruvchi pozitiv partner	bolasining kasb-hunar o‘rganishi va ilm olishiga ko‘maklashuvchi ota
OILA	shaxs erkinligini bo‘g‘uvchi zanjir	mehr-muhabbatga asoslangan eng yaqin kishilar guruhi, oliy qadriyat
XIYONAT	erkinlik belgisi, kechirilishi kerak bo‘lgan ish	bevafolik, sotqinlik, xoinlik
XUDBINLIK	o‘zi uchun yashab qolish, oila uchun qayg‘urmaslik, yaxshi odat	faqat o‘zinigina o‘ylash, o‘zgalarga hurmat-e’tiborsizlik, yomon odat

«Ommaviy madaniyat»ning ko‘rinishlari

«Ommaviy madaniyat» vakillari deganda asosan ana shu **to‘rtta illat** – axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizmning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan odatlarni o‘ziga kasb qilib olgan va ularni madaniyat deb hisoblagan kishilar nazarda tutiladi. Bu to‘rt illat ham o‘z ichida bir necha qismlarga bo‘linib ketadi.

Mamlakatimizda xampaydo bo‘layotgan va keng tus olayotgan axloqqa zid bo‘lgan xatti-harakatlarning barchasi «ommaviy madaniyat»ning ko‘rinishlari deyish mumkin. Jumladan:

- dabdabali to‘ylar qilish,

- *serhasham uylar qurish,*
- *ayollarning to‘ydan avvalgi va keyingi turli-tuman serchiqim yangicha tadbirlari,*
- *yangi tug‘ilgan go‘dakni tug‘ruqxonadan dabdaba bilan olib chiqish,*
- *to‘y kuni sanoqsiz va qimmatbaho xorij mashinalarida kelin-kuyovning sayrga chiqishi va hokazo.*

Yuqoridagi ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Zo‘ravonlik ko‘rinishlari;

1. Insonga yetkaziladigan har qanday jismoniy, ma’naviy, ruhiy, moddiy tazyiqlar.

Jumladan, o‘ziga nisbatan tazyiq o‘tkazish ham zo‘ravonlik sanaladi. Bunday holatlar ham keng avj olib bormoqda. Masalan, *to‘da-to‘da bo‘lib bir kishini (yoki bir necha kishini) do‘pposlash*. Bunday holatlar ko‘proq yoshlar orasida kuzatiladi. Yaqinda qo‘shti davlatlardan biridagi qishloqdagi maktab o‘quvchilari uch kishi bo‘lib 1ta 7-sinf o‘quvchisi do‘pposlab mayib qilganini va jabrlanuvchi 1 haftadan so‘ng vafot etganini aytishdi. O‘sha mamlakat hukumati esa shu kabi voqealar ko‘payotganligidan xavotir bildirmoqda.

2. Xeppining (avvaldan rejalshtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobilarni urib abjag“ini chiqarish yoxud o‘t qo‘yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko‘ngil ochish»lar uyushtirish). Bu kabi voqealar bizning yurtimizda deyarli kuzatilmaydi. Lekin «ommaviy madaniyat» mahsuli bo‘lgan film va o‘yinlarning yurtimiz sarhadlaridan yashirinib, sezdirmay kirib kelishi va ularning yosh avlod tomonidan qabul qilinishini bizning mamlakatimizda ham xeppining bo‘lishiga sababchi bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Bu kabi holatlar bizda hozircha juda kam.

3. Yo‘q joydan janjal qo‘zg‘ab, vahshiyona urushlar uyushtirish.

4. O‘zidan zaif bo‘lgan kishilarga kuch ishlatib, ularni biror bir nojo‘ya xatti-harakatga undash yoki majburlash (yoki biror foydali xatti-harakat qilishdan qaytarib qolish) va boshqalar. Bu kabi barcha xunrezliklar, zo‘ravonliklarning asosiy sababchilaridan biri qonli sahnalarga boy kompyuter o‘yinlari bo‘lib, bunday o‘yinlarga mukkasidan ketgan yoshlar hayotda ham o‘sha o‘yinni sinab ko‘rishi natijasida yuzaga kelmoqda.

Individualizm va egosentrizm (o‘z fikr-o‘ylari, manfaatlari doirasida qotib qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o‘z bilimlari va o‘zgalarga munosabatini o‘zgartira olmasligini bildiradi).

Individualizm (lot. «individuum», «individuus» – bo‘linmas, ajralmas) shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan yuqori qo‘yuvchi, yoki ayrim shaxsni jamiyatga qarama-qarshi qo‘yuvchi nuqtai nazar. O‘zi yoki muayyan shaxsni jamoadan yuqori qo‘yuvchi.

Egosentrizm (lot. «ego» – men, «centrus» – markaz) manmanlik va xudbinlikning uchiga chiqqan shakli: shaxsning faqat o‘z qiziqish doirasigagina bog‘lanib qolishi, boshqalarning fikri bilan hisoblashmay, o‘z fikrlari va shaxsiyatini yuqori qo‘yish.

1. Jamiyat manfaatlarini mensimaslik. O‘z manfaatlari yo‘lida hech narsadan qaytmaslik va boshqalar manfaatidan uni ustun qo‘yish. Masalan, nikoh kuni mashinalar karvonini uyushtirish odatini ana shunday illatlardan biri sifatida keltirish mumkin. Chunki birgina kuyov va kelin o‘z manfaati, kayfu safosi deb butun shahar yo‘llarida harakatlanayotgan yo‘lovchi avtoulovлага xalaqit beradi. To‘ylardagi mashinalar karvoni kundan kunga kengayib bormoqda. Bu esa o‘ziga yarasha noqulaylik va ayrim holatlarda fojealarmi keltirib chiqarmoqda. Jamiyat manfaatlarini mensimaslik illatiga yana ko‘plab misollar keltirish mumkin.

2. Nihilizm. «Nihilizm» lotincha «Nihil», ya’ni «hech nima», «hech narsa» so‘zidan olingan. Nihilizm – jamiyatning axloqiy, ma’naviy norma va ustunlari, tarixiy hamda madaniy qadriyatlarining inkor etilishi; umume’tirof etilgan, obyektiv qadriyatlarga nisbatan mutlaq salbiy hamda o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish; muayyan hodisaga nisbatan bir yoqlama, kelishuvni rad etgan tarzda munosabat bildirish; buzg‘unchilik g‘oyalarini o‘zida ifodalash.

3. Skeptisizm. Dunyo haqida ishonchli bilimlarga erishish mumkinligini shubha ostiga oluvchi ta’limotlardan biri. Skeptisizm – bilimdan ko‘ra hissiy idrokni ustun qo‘yish va shu asosda ish tutish. Ya’ni ular bilim va tajribalar asosida emas, balki o‘zlarining his-tuyg‘ulari asosidagina ish ko‘rishni xohlovchilardir.

4. Sinizm. Beadablik, uyatsizlik, hayosizlik; surbetlik, orsizlik; qahri qattiqlik, bag‘ri toshlik, shafqatsizlik, rahmsizlik berahmlik, zolimlik; takabburlik, manmanlik, dimog‘dorlik, kibr-havo; beparvolik, e‘tiborsizlik, loqaydlik. Beadablik – asosiy maqsad emas, omadga erishish vositasi, xolos. Zarurat tug‘ilganda o‘z prinsiplaridan chekinmaslik oqibatida inson bir umr aziyat chekib, o‘z behayoligi evaziga qo‘lga kiritilgan erkidan shikoyat qilib o‘tishi mumkin. Bunday beadabliklardan biri – yigit kishining o‘ziga bino qo‘yib, to‘ydan avval biror qizning nomusini toptashi yoki qiz bolaning o‘z nomusini toptalishiga yo‘l ochib berishi.

5. Vandalizm – madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vaxshiyarcha vayron, oyoq osti qilish, yo‘qotish; madaniyatsizlik, jaholat, nodonlik.

San’atda «ommaviy madaniyat»

Hozirgi zamон madaniyatshunosligida, odatda, ommaviy madaniyatning uchta asosiy darajasini ko‘rsatadilar:

1. Kitch-madaniyat (past darajadagi, vulgar, behayolar madaniyati)- «Kitch» so‘zi nemislarning «kitschen» olmoshidan hosil bo‘lgan va saviyasi past, arzon va jo‘n asar yaratib, sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san‘at durdonalari soyasida paydo bo‘ladigan bo‘sh, esdan tez chiqib, unutiladigan madaniyat mahsulotlaridir.

Muammolarni cheklangan, hayotdan uzoq qilib tasvirlash, obrazlarni, g‘oya va syujetlarni qolipa solish, mayda turmush tashvishlariga o‘ralashib qolgan qatlamga mo‘ljallangan madaniyat asarlarini yaratish.

2. Mid-madaniyat («o‘rtamiyona» madaniyat)- Mid-madaniyatning qamrovi keng, darjasи ancha baland. U an‘anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa ham, ommaviy madaniyatga bevosita taalluqlidir.

3. Art-madaniyat (ma’lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega madaniyat)- Art madaniyati odatda, aholining bilimli qismiga mo‘ljallangan ommaviy madaniyatdir. Uning vazifasi ommaviy madaniyatni maksimal darajada an‘anaviy madaniyat standartlariga yaqinlashtirishdan iborat.

Bundan tashqari ba’zi bir mutaxassislar ommaviy madaniyatning yana ikki alohida turini – **popmadaniyat** va **rokmadaniyatni** ham ko‘rsatadilar, chunki hayot ularning ham yashovchanligini hamda muayyan tabaqadagi kishilarning ongini egallaganligini ko‘rsatdi.

Buning boisini amerikalik siyosatshunoslар ham tan olishdi. Bu haqda Zbignev Bjezinskiy shunday degan edi: «Agar Rim dunyoga – huquqni, Angliya – parlamentni, Fransiya – madaniyat va milliy respublikachilikni bergen bo‘lsa, AQSh – dunyoga ilmiy-texnika revolyutsiyasini va ommaviy madaniyatni tortiq qildi».

Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga oid qonunlar va qarorlar tasnifi, korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyati.

Etimologik jihatdan «**korrupsiya**» atamasi «**buzish, pora evaziga og‘dirish**» degan ma’noni anglatadigan lotincha «corruptio» so‘zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta’kidlashicha, — korrupsiya – mansabdar shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Ma’lumotida shunday deyilgan: «**Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilish**». BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrdan qabul qilingan).

Korrupsiya – har qanday davlatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar, butun dunyoda global muammo hisoblanadi.

O‘zR JK Maxsus qismi normalarini tahlil qilib, shuni ta’kidlash mumkinki, unda korrupsiya jinoyatlari uchun bir qator moddalarda javobgarlik belgilangan. Masalan, JK 167-m. 2-q., «g» bandi (O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa), 175-m. (O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish), 1861-m. 4-q. (Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini ko‘p miqdorda

yoki juda ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoxud muomalaga kiritishga hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan homiylik qilish), 205-m. (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish), 206-m. (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish), 208-m. (Hokimiyat harakatsizligi), 209-m. (Mansab soxtakorligi), 210-m. (Pora olish), 211-m. (Pora berish), 212-m. (Pora olish-berishda vositachilik qilish), 213-m. (Xizmatchini pora evaziga og‘dirish), va boshqalar.

So‘ngi yillarda amaliyotda ko‘p uchrayotgan ba’zi korrupsiya jinoyatlarini jinoyat-huquqiy jihatdan o‘rganib chiqamiz.

Korrupsiyaga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy vositalari tizimiga kiritilgan normalarning asosiy majmui mazkur tizimning o‘zagini tashkil etadi. Bu, avvalo, JK Maxsus qismining «Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar» deb nomlanuvchi 15-bobiga kiritilgan va korrupsiya jinoyatlarining quyidagi turlari uchun javobgarlik belgilangan normalar: hokimiyat èki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish (205-modda); hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda); hokimiyat harakatsizligi (208-modda); mansab soxtakorligi (209-modda); pora olish (210-modda); pora berish (211-modda); pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda).

Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1) Subyektlarning maqomiga ko‘ra:

- a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- b) xususiy sektordagi korrupsiya;
- v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2) darajasiga ko‘ra:

- a) quyi darajadagi korrupsiya;
- b) yuqori darajadagi korrupsiya;
- v) vertikal korrupsiya;

3) ijtimoiy xavflik darajasiga ko‘ra:

- a) korrupsiya-qilmish;
- b) korrupsiya-jinoyat.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani korrupsiya jinoyatlarining alohida turi sifatida ajratadilar. **Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:**

1) siyosiy. Mansabdar shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug‘chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harkat qiladi;

2) jinoyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mansabdar shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g‘ayriqonuniy xizmatlar ko‘rsatadi;

3) taraflardan biri o‘ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdar shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, mansabdar shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Siyosiy korrupsiyaning ayniqsa ko‘p uchraydigan shakllari pora olish va pora berish hisoblanadi.

Keyingi o‘rinda saylov huquqini amalga oshirish chog‘ida siyosat subyektlarini pora evaziga og‘dirish turadi.

Faoliyat ko‘rsatish darajalariga ko‘ra quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal korrupsiya farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya - hokimiyat va boshqaruv organlarining o‘rta va quyi darajalarida ayniqsa keng tarqalgan bo‘lib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam o‘zaro aloqasi bilan bog‘liq (ro‘yxatdan o‘tkazish, jarimalar, lisenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya - hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi va juda katta qimmatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish

va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo‘lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlaydi. Masalan, quyi turuvchi davlat organining amaldori o‘zining yuqori turuvchi boshlig‘iga u pora beruvchining korruption harakatlariga homiylik qilishi yoki qo‘shimcha mablag‘lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

AQShda korruptionsyaning «**kikbeking**» degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilar muayyan narxlarda bitim tuzishga og‘zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergen mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya’ni yashirin pora beriladi. Pora olishning mazkur shakli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham qo‘llanilmoqda.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiya doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hatto pora so‘rash hollari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi, chunki odamlar korrupsiya qarshi kurash jarayoniga ishonchszilik bilan qaraydilar. Buning uchun milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan obyektiv va subyektiv asoslar mavjud. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo‘lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo‘lgan o‘ziga xos turlarida sodir etiladi. Korrupsiya o‘ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o‘zgaradi va takomillashib boradi. Shu bois bu hodisa haqida to‘liq, mukammal yoki qarshilashib bo‘lgan qarshilashib boradi.

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiya qarshi kurashish to‘g‘risida qonuni 6-bob 34 moddadan iborat. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma‘qullangan. 2017 yil 3 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan. 2017 yil 4 yanvarda Ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan va shu kundan kuchga kirgan.

1-bob. Umumiyligi qoidalar. 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiya qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Korrupsiya qarshi kurashish to‘g‘ri-sidagi qonun hujjatlari

Korrupsiya qarshi kurashish to‘g‘ri-sidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlardan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiya qarshi kurashish to‘g‘ri-sidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘lla-niladi:

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiya oid huquqbazarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va

qonuniy manfaatlar o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

4-modda. Korrupsiya qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

Korrupsiya qarshi kurashishning asosiy prinsip-lari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
javobgarlikning muqarrarligi.

5-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish soha-sidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyo-satining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi. Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko‘hnadir. **Qadimgi yunon faylasufi Arastu shunday degan edi: —Har qanday davlat tuzumida eng muhimi – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdar shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik orttira olmasin||.**

Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan. Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kohinga, qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqqa muayyan imtiyozni qo‘lga kiritish uchun haq to‘lash tabiiy bir hol sifatida qaralgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va professionallashuviga qarab vaziyat o‘zgarib borgan. Oliy martabali amaldorlar quyi turuvchi —xizmatchilar|| faqat tayinlangan maosh bilan qanoatlanishlarini talab qilganlar. Quyi daraja amaldorlar esa, aksincha, o‘z xizmat vazifalarini bajarganlik uchun arzgo‘ylardan yashirincha qo‘srimcha haq olishni (yoki talab qilishni) ma’qul ko‘rganlar.

Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o‘rtalariga taalluqli bo‘lgan matnlarda aytishicha, shumer podshosi Urugagin o‘sha zamonlardayoq qonunga xi洛f haq olishga ruju qo‘ygan sudyalar va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo‘yish muammosini yechish yo‘llarini izlagan.

Shunga o‘xhash masalalarga qadimgi Misr hukmdorlari ham duch kelgan. Arxeologik tadqiqotlar jaraenida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597-538 yillarda, yahudiylar **Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Ierusalimda korrupsiya ayniqa avj olganidan dalolat beradi.**

Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo‘lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari, respublika Rimi) korrupsiya deyarli bo‘lmagan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina vujudga kelgan. **Bu davrda korrupsiya domiga ilingan davlat amaldorlari haqida:** —U boy viloyatga kambag‘al bo‘lib kelib, kambag‘al viloyatdan boy bo‘lib ketdi, deyishgan. Ayni shu davrda rim huquqida «corruptire» degan maxsus atama paydo bo‘lgan, u —buzish, —pora evaziga og‘dirish iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqeini suiiste‘mol qilishning har qanday ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan.

Markaziy hukumat hokimiyati zaif bo‘lgan joylarda (masalan, ilk o‘rta asr davrida Yevropada) xizmat mavqeidan aholidan o‘z cho‘ntagiga haq undirish uchun foydalanish aksariyat hollarda umum e’tirof etilgan me’yorga aylangan.

Davlat markazlashgani sari u fuqarolarning mustaqilligini qattiqroq cheklagan va shu tariqa quyi va oliy bo‘g‘in amaldorlariga qattiq nazoratdan qutulishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni xufyona buzishga turki bergan. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlarni boshqalarga dars bo‘lsin uchun olomon ko‘z o‘ngida jazolashlar odatda hech qanday samara bermagan, chunki amaldan chetlatilganlar (lavozimidan olinganlar yoki qatl etilganlar) o‘rnini yangi poraxo‘rlar egallagan. Markaziy hokimiyat amaldorlar faoliyati ustidan yalpi nazorat o‘rnatish uchun odatda zarur kuch va

vositalarga ega bo‘lmasi bois, u korrupsiyaning o‘ta xavfli ko‘rinishlarinigina jazolash bilan kifoyalangan.

Tayanch tushunchalar

Jamiyat – ijtimoiy borliq bo‘lib, kishilar odamlar uyushmasi birligining maxsus shakli, ular o‘rtasida amal qiladigan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidir..Jamiyat o‘zida moddiylik va ma’naviylikni. Obyektivlik va subyektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradi.

Inson - xar qanday falsafiy ta’limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. Boshka biologik mavjudotlardan xotirasi, tafakkuri, tili, amaliy faoliyati, ongi bilan ajralib turadi.

Antropologiya - yunoncha anthropos - odam va logos ta’limot demakdir. Odamning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi, odam irqlari xakidagi fan. Antropologiya odam tana tuzilishi, kishilar o‘rtasidagi salbiy farklarni o‘rganish asosida ish kuradi.

Inson - tushunchasi o‘zida biologik va fiziologik xususiyatlarni mujassamlashtiradi.

Shaxs - tushunchasi esa o‘zida sotsial(ijtimoiy) sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi.

Individ - deganda biz uzining takrorlanmas fazilatlariga ega bo‘lgan inson va shaxsni tushunamiz.

Antropologiya - inson mohiyatini uning tabiat va jamiyatdagi o‘rnini, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fandir.

Fuqarolik jamiyatni - kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va xuquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir.

«**Sivilizatsiya**» lotincha «sivilius» so‘zidan olingan bo‘lib, aynan «fuqarolikka oid» degan ma’noni anglatadi.

Sivilizatsiya rivojlanishning muayyan bir bosqichida turgan xalq va mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotidagi sifatini o‘ziga xosligidir.

«**Demografik portlash**» - ijtimoiy-tarixiy tarakkiyotning kiska bir davrida, muayyan mintaka yoki mamlakatda va shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tugilish xisobiga axoli mikdorining nixoyatda tez kupayishini anglatadi.

Globallashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anlab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Texnogen – texnika bilan bog‘liq, uning ta’siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o‘ringa qo‘yuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko‘rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e’lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo‘lib, bunda axborot o‘ta muhim resursga aylanadi.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo‘nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Evolusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyutsiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o‘rganuvchi fan.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o‘zini qurshagan muhit bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo‘lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Etnogenetz – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

Evristik – ijodiy, noma’lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ‘ib qiluvchi g‘oyaviy-siyosiy oqim.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Jamiyat deganida nimani tushunasiz?
2. Jamiyatning kelib chikishi tug‘risidagi ganday nazariyalarni bilasiz?
3. Fuqarolik jamiyati nima?
4. Jamiyatning rivojlanishida ma’naviyat qanday o‘rin tutadi?
5. Sivilizatsiya nima?
6. Madaniyat nima? Uning sivilizatsiya bilan aloqasiga tavsif bering.
7. Tarix falsafasini vujudga kelishi va rivoji haqida nimalarni bilasiz?
8. Falsafiy antropologiya qachon vujudga kelgan va u nimani o‘rganadi?
9. Antropologiyadagi falsafiy va boshqa yo‘nalishlar o‘rtasidagi farq nimada?
10. Insonda biologik va ijtimoiy asoslarning o‘zaro nisbati qanday?
11. Insonning bioijtimoiy tabiat falsafiy muammo hisoblanadimi?
12. «Biologizatorlik» va «sotsiologizatorlik» konsepsiyanlarni qanday baholaysiz?
13. Globallashuv tushunchasini izohlang ?
14. Globallashuvni vujudga kelishini tarixiy jarayon sifatida izoxlab bering?
15. Global muammolar tushunchasini izohlang.
16. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning sotsial oqibatlari nimalarda namoyon bo‘lmoqda?
17. Umumbashariy muammolarda demografik omilning o‘rnini qanday?
18. «Demografik portlash» tushunchasi haqida nima deya olasiz?
19. Global muammolari turlari qaysilar?
20. Global muammolarning mintaqaga ta’siri qanday?
21. 2017-2021 yillardagi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida global muammolar qanday tavsiflangan?
22. Korrupsiya qanday omillar asosida kelib chiqadi deb hisoblaysiz?
23. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash qanday amalga oshirilmoqda?
24. Mustaqil O‘zbekiston va uning umumbashariy muammolarni hal etishdagi roli qanday?

5-mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.

Mulohaza va xulosa chiqarish. (2 soat)

Reja:

1. Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati.
2. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.
3. Tushuncha – tafakkur shakli sifatida.
4. Mulohaza tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida.
5. Mulohazaning kompleks tahlili: tarkibi, ifodalaniishi, chinlik qiymati, turlari.
6. Xulosa chiqarishning umumiyligi mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiyligi qoidalari.
7. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.

Tayanch so‘z va iboralar: Logika, mantiq, tafakkur, tafakkur shakllari, tafakkur qonunlari, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, uchinchisi istisno qonuni, yetarli asos qonuni, formal mantiq, dialetik mantiq, matematik mantiq, simvolik mantiq, tushuncha, belgi, hukm, oddiy hukm, murakkab hukm, subyekt, predikat, mantiqiy bog‘lama, “mantiqiy kvadrat”, xulosa chiqarish, deduksiya, induksiya, analogiya, sillogizm, dalillash, isbotlash, rad etish, tezis, asoslar (argumentlar), faraz, nazariya, gipoteza, aksioma.

«Mantiq» arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosи bo‘yicha «logika» so‘ziga muvofiq keladi. «Logika» atamasi esa, grekcha «logos» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «fikr», «so‘z», «aql», «qonuniyat» kabi ma’nolarga ega. Uning ko‘pma’noligi turli hil narsalarni ifoda qilishida o‘z aksini topadi. Hususan, mantiq so‘zi, birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «obyektiv mantiq», «narsalar mantig‘i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini (masalan «subyektiv mantiq» iborasida), va nihoyat, uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatalidi.

Mantiq ilmining o‘rganish obyektini *tafakkur* tashkil etadi. «Tafakkur» arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. **Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir.** Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida subyektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va ohirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli hil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir.

Uning dastlabki bosqichini *hissiy bilish - insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi*. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya’ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo‘ladigan va shuning uchun ham inson bevosita sezadigan belgilari haqida ma’lumotlar olinadi.

Hissiy bilish 3 ta shaklda:

1. **Sezgi** – predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta’mini) aks ettiruvchi yaqqol obrazdir.
2. **Idrok** – predmetning yahlit yaqqol obrazi bo‘lib, u mazkur predmet haqidagi turli hil sezzilarni sintez qilish natijasida xosil bo‘ladi. Alovida olingan sezzilardan farqli o‘laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi.
3. **Tasavvur** – avval idrok etilgan predmetning obrazini ma’lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma’lum bir umumiylukka ega bo‘lgan) ta’sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat Hissiy bilish shaklidir.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-rasional (lotincha ratio-aql) bilish bosqichi bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiyligi, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi.

Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. **Unda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan xolda in’ikos qilinadi.** Hissiy bilishdan farqli o‘laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraklashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) xolda, e’tiborimizni uning umumiyligi, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi.

2. **Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi.** Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan xolda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr xosil qilishda aniq namoyon bo‘ladi.

3. **Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat.** Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo‘lmagan narsalar-yuqori darajada ideallahsgan obyektlarni (masalan absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar) ni yaratish, turli hil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular

yordamida predmet va hodisalarining eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabil qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Tafakkurni uch hil mantiqiy shakli mavjud:

1. **Tushuncha.**
2. **Hukm (mulohaza).**
3. **Xulosa chiqarish.**

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi) dir. **Fikrlash elementlari** deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi ahborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, **ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli hil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks ettiriladi.** Masalan, «davlat» tushunchasida o'zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. «Ilmiy nazariya» tushunchasida esa, predmetlarning birorta sohasiga oid bo'lgan va ular haqida yahlit tasavvur beradigan, ma'lum bir metod yordamida qurilgan tushunchalar sistemasi ifoda etilgan. Mazmun jihatdan turli hil bo'lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko'ra bir hildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. «o'z maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalariga egaligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Xulosa chiqarish ko'rinishlari mazmuni bo'yicha turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir hil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo'lib hizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda->daraxt), ikkinchi misolda – «himiyaviy element» tushunchasi) orqali bog'langan.

Yuqorida keltirilgan misollardan tafakkur shaklining fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaxil xolda mavjud bo'lishi va, demak, o'ziga hos qonuniyatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham mantiqda uni alohida o'rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tushuncha, Hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o'zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g'oya, argumentlash va shu kabilar) da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo'lishi va formal jihatdan to'g'ri qurilishi kiradi. **Chin fikr deb, o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi** (Masalan, «Temir-metall»). **Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir** (masalan, «Temir-metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.

Fikrning chin bo'lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo'lsada, o'z xolicha yetarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to'g'ri qurilgan ham bo'lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda xosil bo'ladigan turli hil mantiqiy strukturalarda, sodir bo'ladigan har hil mantiqiy amallarda o'z aksini topadi.

Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida fikrlar (fikrlash elementlari)** o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar fikrning aniq, izchil, yetarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat.

Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishiga e'tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi muxokamaning noto'g'ri qurilishiga

sabab bo‘ladi. Bunda, hususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «qonun – riosa qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat», «Buyruq qonun emas», demak, «Buyruq riosa qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «**Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar**», «**Temir-moddiy jism**», demak, «**Temir-kimyoviy element**») mumkin.

Formal mantiqga to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi falsafiy fan, deb ta’rif berish mumkin.

Dialektik mantiq, formal mantiqdan farqli o‘laroq, tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida hamda taraqqiyotida olib o‘rganadi. Matematik mantiq esa tafakkurni matematik metodlar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tafakkurni mantiqiy hisoblash deb ataladigan yuqori darajada abstraktlashgan va formallashgan sistemada tahlil qiladi.

Biz o‘rganadigan fan formal mantiq bo‘lib, u hozirgi paytda o‘zining mahsus formallashgan tiliga, to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga, konseptual vositalariga ega. Tafakkurni o‘rganuvchi boshqa fanlar, hususan falsafa, psihologiya, fiziologiya bilan hamkorlik qiladi hamda ilmiy bilimlar sistemasida o‘zining munosib o‘rniga ega. Ayniqsa, uning bilish metodi sifatidagi ahamiyati katta.

Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘stiradi, hususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo‘lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi.

Formal mantiqning asosiy qonunlari quyidagilardan iborat:

- 1. Ayniyat qonuni.**
- 2. Nozidlik qonuni.**
- 3. Uchinchisi istisno qonuni.**
- 4. Yetarli asos qonuni.**

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Formal mantiq ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdag'i qonunlarga bo‘ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formallashgan mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari obyektiv olam va bilish jarayoniga hos bo‘lgan eng umumiy qonunlar bo‘lib, dialektik mantiq ilmining o‘rganish sohasi hisoblanadi. Formallashgan mantiq qonunlari esa, faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o‘rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to‘g‘ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo‘lishini e’tiborga olgan xolda o‘rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga hos muhim, zururiy bog‘lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari obyektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Ayniyat qonuni

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga hos bo‘lgan barcha muhim belgilari, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o‘zgarmas va qat’iy mazmunga ega bo‘ladi. Tafakkurga hos bo‘lgan bu anqlik xususiyati ayniyat qonuning mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko‘ra ma’lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtida o‘z-o‘ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A-A dir» formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya’ni mulohazalar mantiqi va predikatlar mantiqida o‘ziga hos ko‘rinishda ifodalanadi:

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va aksincha, o‘zaro aynan bo‘lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni, bilib yoki bilmasdan, buzish xolatlari uchraydi. Ba’zan, bu holat bir fikrning tilda turli hil ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan: «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko‘ra turlicha bo‘lsa ham mazmunan aynandir.

Tilda mavjud bo‘lgan omonim va sinonim so‘zlarning qo‘llanishi ham ba’zan turli fikrlarning o‘zaro aynanlashtirilishiga, ya’ni noto‘g‘ri muhokamaga olib keladi. Masalan: falsafiy nuqtai nazardan «sifat» tushunchasi, o‘ziga hos mazmunga ega bo‘lsa, biror hunarmand tomonidan bu tushuncha, boshqa mazmunda (yaroqli, foydali) qo‘llaniladi.

Shuningdek, o‘zbek halqiga hos bo‘lgan askiya san’atida ayniyat qonunlari ataylab buzilishini, tushunchalarning o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Bu o‘ziga hos so‘z o‘yini bo‘lib, unda qo‘llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko‘rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo‘ladi.

Demak, hayotda, amaliyotda tushunchaning turli ma’nolarda qo‘llanili-shidan g‘arazli yoki beg‘araz, yaxshi yoki yomon maqsadlar uchun foydalanish mumkinligini ko‘ramiz.

Nozidlik qonuni

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo‘libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo‘lishi ham zarur. Zidiyatsizlik inson tafakkuriga hos bo‘lgan eng muhim hislatlardan biridir. Ma’lumki, obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir hil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo‘lishi, ham ega bo‘lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o‘zida, bir hil sharoitda inson ham ahloqli, ham ahloqsiz bhlishi mumkin emas. U yo ahloqli, yo ahloqsiz bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo‘lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir hil nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emasligini, hech bo‘lmasganda ulardan biri albatta xato bo‘lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham B, ham B emas bo‘la olmaydi» formulasi orqali beriladi.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo‘lishi mumkin; o‘zaro zid mulohazalar esa bir vaqtda xato bo‘lmaydi, ulardan biri xato bo‘lsa, ikkinchisi albatta chin bo‘ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa bunday bo‘lmaydi, ya’ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: «Arastu-mantiq fanining asoschisi» va «Arastu-mantiq fanining asoschisi emas»-bu o‘zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo‘lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo‘lgani uchun, ikkinchisi xato bo‘ladi. O‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan «Bu dori shirin» va «Bu dori achchiq» mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir hil nisbatda xato bo‘lishi mumkin. Chunki dori shirin ham, achchiq ham bo‘lmasligi, balki bemaza yoki nordon bo‘lishi mumkin.

Uchinchisi istisno qonuni

Uchinchi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo‘lib, fikrning to‘liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligini ifodalaydi. Bu qonun «A B, yoki B emasdir» formulasi orqali beriladi. Uchinchisi istisno qonuni tushunchalar o‘rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar tushunchaning to‘liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma’lum bo‘lsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo‘lishi va talaba imtihonda «o‘rta» yoki «yxaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a’lo» baho olmadi», mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligi ma’lum bo‘ladi. Chunki «yxaxshi», «o‘rta» va «ikkii» baholar-»a’lo» baho emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

1. Alohidat olingan yakka buyumga nisbatan bir hil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid fikr bildirilganda. Masalan,

Toshkent-O‘zbekistonning poytahti.

Toshkent-O‘zbekistonning poytahti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo‘la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o‘rin yo‘q. Uchinchisi istisno qonuni o‘zaro zid umumiyl mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiyl mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan, birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Bunday holatda «Ba’zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Demak, **Uchinchisi istisno qonuni:**

- 1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan;**
- 2. Umumiyl tasdiq va juz’iy inkor mulohazalarga nisbatan;**
- 3. Umumiyl inkor va juz’iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo‘llani-ladi.**

Uchinchisi istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo‘lishi yoki tushunchalardan biri ijobjiy va boshqasi salbiy bo‘lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan to‘liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobjiy bo‘lib, inson tushunchasining to‘liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Uchinchisi istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, muno-sabat, obyekt aynanligiga riosa etish shart, aks xolda bu qonun o‘z kuchini yo‘qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo‘l qo‘yiladi.

Uchinchisi istisno qonuni boshqa mantiqiy qonunlar singari ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqeа va hodisalarini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o‘z bilimlariga asoslangan holda o‘zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o‘zaro zid mulohazalar bir vaqtida chin bo‘lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchisi istisno qonunini bilish muhokama yuritishda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun muhim bo‘lib, o‘zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo‘l qo‘ymaydi.

Yetarli asos qonuni

To‘g‘ri fikrlashga hos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo‘lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan mulohazalarga asoslaniladi, ya’ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga hos bo‘lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta’riflab bergan. Uning ta’kidlashicha, barcha mavjud narsalar o‘zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo‘lgani kabi, ularning in’ikosi

bo‘lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo‘lishi kerak. Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar B mavjud bo‘lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to‘g‘ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog‘lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko‘rib o‘tilgan qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o‘zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan obyektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor» degan mulohazani «U shifohonada davolanayapti» degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifohonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko‘rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo‘lishligining obektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo‘lish xususiyatlarini ham, ya‘ni obyektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlardan tashqarida bo‘lgan boshqa munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Fikr – mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jaryon bo‘lib, unda bir yoki undan ortiq o‘zaro bog‘langan muhokamalar sistemasidan foydalaniadi. Keng ma’noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo‘lish mumkin. Bularidan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo‘lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o‘rtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shahsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo‘lib, sezgilari bergen ma’lumot esa hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog‘lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Nazariy asoslashda keng foydalilanidigan usul-deduktiv xulosa chiqarish usuli, ya‘ni umumiylar chin mulohazalarga tayanib fikr yuritishdir. Berilgan mulohazani mantiqiy usul orqali boshqa chin mulohazalar yordamida asoslash mumkin bo‘lsa, unda berilgan mulohaza chin, ya‘ni asoslangan bo‘ladi. Bunda fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanish umumiylilik, hususiylik va yakkalik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Masalan, to‘g‘ri tafakkur qonunlarining obyektiv xarakterga ekanligini, barcha ilmiy qonunlarning obyektiv xarakterga ega ekanligi haqidagi umumiylar chin mulohaza yordamida asoslash mumkin.

Umumiylar chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta’riflaridan, shuningdek aksiomalardan foydalaniadi. Bularning barchasi nazariy asoslashning rasional yoki demonstrativ usullari bo‘lib, ular umumilmay ahamiyatga ega bo‘lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi.

Shuningdek, asoslashning subyektiv xarakterda bo‘lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo‘lmagan usullari mavjuddir. Intuitsiyaga, e’tiqodga, avtoritetlarga va urf-odatlarga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko‘proq kundalik ong darajasida foydalanildi.

Intuitsiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Intuitsiya - lotincha *intutio* so‘zidan olingan bo‘lib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma’noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo‘lib, hissiy va aqliy bilishdan o‘zgacha bir ko‘rinishini tashkil etmaydi; o‘ziga hos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e’tibor bermagan holda, fikran yahlit qamrab tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi-haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansa-da, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

E’tiqod-kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida hatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo‘lib hizmat qiladigan qarashlarning majmuasidan iborat. E’tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko‘rilmagan, chinligi noma’lum boshlang‘ich bilimlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Intuitsiya kabi e’tiqod ham subektiv xarakterda bo‘lib, davr o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. «Anglash uchun e’tiqod qilaman» - degan edi Avliyo Avgustin va Anselm Kenterberiyiskiyalar (1033-1109).

Shunday qilib, to‘g‘ri tafakkurning yuqorida ko‘rib o‘tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun hizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtida, birgalikda fikrlar bog‘lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga ko‘ra fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat’iy mazmunga ega bo‘lishi, aynan shu fikr doirasida o‘zgarmasligi talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Demak, bu qonunlarning talablari bir-birini to‘ldirgan holda, yahlit mantiqiy tafakkurning chin bo‘lishini ta’minlaydi.

Tushuncha predmet va hodisalarining umumiyligi, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o‘hshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytildi. Har bir predmet olamdagি boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo‘lganligi uchun ko‘p belgilarga ega. Ularning ba’zilari faqat bitta predmetga hos bo‘lgan, uning individual, yakkalik belgilarini tashkil qilsa, boshqalari predmetning ma’lum bir guruhiга tegishli bo‘lib, umumiyligi belgilar hisoblanadi. Masalan, har bir kishi faqat o‘zigagina hos bo‘lgan ruhiy kechinmalar va shu kabi individual belgilarga ega. Shuning bilan birga kishilarning ma’lum bir guruhiга (mehnat jamoasi, millat va shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat qilish, fikr yuritish qobiliyatları, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va shu kabilalar) hos bo‘lgan umumiyligi belgilarga ega.

Individual va umumiyligi belgilarining ba’zilari predmetning mavjud bo‘lishi uchun zarur bo‘lib, uning tabiatini, mohiyatini ifodalaydi. Bunday belgilar predmetning muhim belgilarini deyiladi. Masalan, davlatning mavjud bo‘lishi uning o‘z maydoni, aholisi, hokimiyat organlariga ega bo‘lishini taqzoza etadi.

Nomuhim belgilar predmetning mohiyatini tashkil qilmaydi. Ularning yo‘qolishi bilan predmetning tabiatini o‘zgarmaydi. Masalan, qaysi irqqa, millatga, jinsga taalluqli bo‘lishi individning inson sifatida mavjud bo‘lishi uchun muhim emas.

Shuni ham aytish lozimki, predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo‘lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo‘lishimizga qarab ham belgilanadi. Hususan, bir munosabatda muhim bo‘limgan belgilar, boshqa munosabatda muhim bo‘lishi mumkin. Masalan, kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo‘lsa, inson sifatida mavjud bo‘lishi uchun muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning ma’lum bir munosabatdagi muhim belgilari deyilib, obyektiv muhim belgilardan (predmetning mavjud bo‘lishi bilan zaruriy aloqada bo‘lgan belgilardan) farq qiladi.

Nihoyat, predmet to‘htovsiz harakatda, taraqqiyotda bo‘lganligi uchun, vaqt o‘tishi bilan uning muhim bo‘lgan belgisi nomuhim bo‘lgan belgiga yoki, aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin.

Masalan, bevosita kuzatiladigan faktlar empirik bilish bosqichida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, nazariy bilish bosqichida unga kamroq murojaat qilinadi.

Demak, tushunchada predmet o‘zining muhim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiyligi va individual belgilari bo‘lishi mumkin. Masalan, «Hamza Hakimzoda Niyoziy» tushunchasida predmetning umumiyligi belgilari (inson, yozuvchi) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (hususan, «Boy ila hizmatchi» dramasining muallifi) ham fikr qilinadi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak uni to‘laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma’noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin,

tushuncha predmetning muhim belgilarini in’ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to’laroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli o’laroq, inson miyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmaydi. U ma’lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar o’zaro solishtirilib, ularning o‘hshash, umumiyl томонлари va bir-biridan farq qildiruvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash analizni taqoza qiladi. Chunki predmetlarni yahlit holda solishtirib bo‘lmaydi. Ular u yoki bu hossasiga ko‘ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u hossalar ajratilishi lozim. analiz yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, томонларга ajratilib, har qaysisi alohida o‘rganiladi.

Sintez analizga teskari usul bo‘lib, u analiz davomida ajratilgan qismlar, томонларни fikran birlashtirib, predmetni bir butun holiga keltirishdan iborat. Sintez bo‘lmasa predmet haqida yahlit fikr hosil qilib bo‘lmaydi. Analiz va sintez uzviy bog‘liqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqorida usullar bilan aniqlangan umumiyl va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa abstraksiyalash yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiyl, muhim xususiyatlari ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so‘z bilan uzviy bog‘liq. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lanishning konkret tarzda namoyon bo‘lishidir.

Tushunchalar so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan «talaba», «pedagogika fakulteti», «Namangan davlat universiteti» va shu kabilar so‘zlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so‘z aynan bir hildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har hil tillarda, ba’zan bir tilda ham turli hil so‘zlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagи омоним va sinonim hodisalari so‘z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, so‘zning ko‘p ma’noga ega bo‘lishi ba’zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va tehnikada ko‘proq terminlardan foydalaniladi.

Termin qat’iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so‘z bo‘lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir hil ma’noda ishlatiladi.

Tushuncha o‘zining mazmuni va hajmiga ega. **Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari yig‘indisi tashkil etadi.** Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, ya’ni uning amaliyat bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi obyektiv chin (haqiqiy) bilimlar sistemasidan iborat bo‘lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa unda fikr qilinayotgan predmetlar yig‘indisidan iborat. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni o‘zida qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog‘liq bo‘lib, u tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «Fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»ga oid bo‘lish» belgisini qo‘sish bilan hajm jihatidan undan torroq bo‘lgan «mantiq fani» tushunchasiga o‘tiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bo‘lgan «ijtimoiy ong shakli «tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga hos bo‘lib, boshqa ijtimoiy ong shakllarida, masalan san’atda bo‘limgan spesifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadilar. Hususan, hajmiga ko'ra **yakka va umumiyl tushunchalar** farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Zuhro yulduzi», «Namangan viloyati» va shu kabilar yakka tushunchalardir.

Umumiyl tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. «Yulduz», «Viloyat» tushunchalari umumiyl tushunchalar hisoblanadi. Umumiyl tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «himiyaviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. Ularni hisobga olish mumkin. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz, ularni hisobga olib bo'lmaydi.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalam bor, **abstrakt va konkret tushunchalarga** bo'linadilar.

Konkret tushunchalarda predmet o'zining belgilari bilan birlgilikda fikr qilinadi (Masalan «Inson», «Tabiat» tushunchalari).

Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi (Masalan, «qahramonlik» (insonga hos xususiyatni aks ettiradi), «Go'zallik» (borliqdagi predmetlarga hos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari).

Mazmuni bo'yicha yana **nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni** ham ajratish mumkin. **Nisbatsiz tushunchalar** nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «Badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «O'qituvchi» va «o'quvchi», «Ijobiy qahramon» va «Salbiy qahramon», «Sabab» va «Oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Obyektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun, ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro ma'lum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli hil bo'lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiyl belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «Metallurg» va «Ishchi» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa, bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'p hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiyl belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro yulduzi», «Ideal gaz» va «Go'zallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda taqqoslanmaydigan tushunchalar o'rtaqidagi mantiqiy munosabatlar o'rganilmaydi.

Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi.


Sig'ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, to'laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o'rtaSIDA uch hil munosabat mavjud:

1. Moslik.
2. Qisman moslik.
3. Bo'ysunish.

Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ular bir-biridan faqat mazmuni bilangina farq qiladi. Masalan,


«Abdulla Qodiriy», «O'tgan kunlar romani muallifi» tushunchalari huddi shu munosabatda mavjuddir. Buni quyidagi shema yordamida ko'rsatish mumkin.

- A- Abdulla Qodiriy.
B- O'tgan kunlar romani muallifi.



Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega. Masalan:
A-Sportchi .

B-Talaba.




Doiralarning shtrihlangan qismi bir vaqtning o‘zida ham sportchi, ham talaba bo‘lganlarni bildiradi.

Bo‘ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to‘liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:

A-Fan.

B-Mantiq.



Bu munosabatdagi tushunchalardan biri bo‘ysundiruvchi (A), ikkinchisi (V) bo‘ysinuvchi bo‘lib, ular jins-tur munosabatida bo‘ladi. Jins tushuncha predmetlarning birorta sinfini, tur tushuncha esa shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhini yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u yoki bu tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy xarakterga egadir. Har bir tushuncha o‘zidan umumiyoq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, milliy g‘oya, g‘oya, fikr tushunchalari o‘rtasida quyidagi nisbat mavjud: «G‘oya» tushunchasi «Fikr» tushunchasiga nisbatan tur, «Milliy g‘oya» tushunchasiga nisbatan jins bo‘ladi.

Sig‘ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo‘lmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har hil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyligi faqat ana shunda.

Bu tushunchalar o‘rtasida ham uch hil munosabat bor:


1. Birga bo‘ysunish.
2. Qarama-qarshilik.
3. Ziddlik.

Birga bo‘ysunish munosabati quyidagi tushunchalar o‘rtasida mavjuddir.

A-Fan.

B-Mantiq.

C-Fizika.




Bunda «Mantiq» va «Fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «Fan» tushunchasining hajmiga bo‘ysunadi. Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, ya’ni biri predmetning ma’lum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalar o‘zlari bo‘ysunadigan tushunchaning hajmini to‘liq egallay olmaydi. Masalan, «Baland bo‘yli odam» va «Past bo‘yli odam» tushunchalari «Odam» tushunchasining hajmini to‘liq qoplay olmaydi.

A-Odam.

B-Baland bo‘yli odam.

C-Past bo‘yli odam.




Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo‘lib qoladi. Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqli o‘laroq, bo‘ysundiruvchi tushunchaning hajmini to‘liq qoplaydi.

Masalan,

A-Odam.

B-E’tiqodli odam.

C-E’tiqodsiz odam.



Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, ularni bog‘lab, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga o‘tishga yordam beradi. Masalan «Talaba» va «A’lochi» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Ba’zi talabalar a’lochilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin

Hukm predmetga ma’lum bir hossaning, munosabatning hosligi yoki hos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Hukmnинг асосија вазифаси предмет билан унинг хусусияти, предметлар о‘ртасидаги муносабатларни ко‘рсатишdir.

Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo‘ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning oddiy, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog‘lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o‘rganib, ular haqida turli abstraksiyalar hosil qilamiz. Bu abstraksiyalar hukmlar yordamida ifodalanadi. Bilimlarimiz turlicha bo‘lgani uchun, ularni ifodalaydigan hukmlar ham har hil bo‘ladi. Ba’zi hukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida xususiyatning predmetga hosligi tahmin qilinadi, ya’ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Hukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda konkret предмет билан унинг конкрет бельги haqida bilim ifoda qilingan bo‘ldi.

Hukmlar voqelikka mos kelish darajasiga ko‘ra:

1. **Chin** (obektiv voqelikka mos kelgan, uni to‘g‘ri ifodalagan hukmlar chin hukmlar);
2. **Xato** (obektiv voqelikka mos kelmagan, uni to‘g‘ri ifodalamagan hukmlar xato hukmlar);
3. **Noaniq (ehtimol, tahminiy) bo‘ladi** (Ayni vaqtida chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo‘lmaydigan hukmlar – noaniq hukmlar).

Hukmlar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Hukm mantiqiy kategoriya bo‘lsa, gap grammatik kategoriyalidir. Hukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor holda bo‘ladi.

Masalan, «Vaqt orqaga qaytmaydi», «Hayot-bu harakat» kabi gaplar hukmni ifoda qiladilar.

Oddiy hukmlar

Hukmlar tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab bo‘ladi. Oddiy hukm deb tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo‘lmaydigan mulohazaga aytildi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin bo‘lgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi. Masalan, «Mantiq ilmini o‘rganish to‘g‘ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi» degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganadi», degan mulohaza murakkab humkmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: «Mantiq ilmi tafakkur shakllarini o‘rganadi» va «Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini o‘rganadi», degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko‘rsatish mumkin. Mantiqiy ega-subyekt (S) fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim-predikat (P) predmetga hos xususiyatni, munosabatni bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga subyekt haqidagi tasavvur boyitiladi. Hukmning subyekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Hukmnинг uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog‘lamadir. U subyekt va predikatni bir-biri bilan bog‘laydi, natijada hukm hosil bo‘ladi. Oddiy qat’iy hukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Sifatiga ko‘ra tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Hukmnинг sifatini mantiqiy bog‘lama belgilaydi. Tasdiq hukmlarda belgining predmetga hosligi, inkor hukmlarda, aksincha, hos emasligi ko‘rsatiladi. Masalan, «A. Oripov O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir»-tasdiq hukm, «Matematika ijtimoiy fan emas»-inkor hukm.

Miqdoriga ko‘ra oddiy hukmlar:

- Yakka hukmlarda** birorta belgining predmetga hosligi yoki hos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir», «Ahmedov tarixchi emas».
- Umumiy hukmlarda** birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan: «Har bir inson bahtli bo‘lishni hohlaydi», va «Hech bir aqli odam vaqtini behuda sarflamaydi».
- Juz’iy hukmlarda** birorta belgining predmetlar to‘plamining bir qismiga hos yoki hos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «Ba’zi faylasuflar notikdir». «Ko‘pchilik talabalar dangasa emas». Juz’iy hukmlarda «ba’zi» so‘zi «hech bo‘lmasa bittasi, balki hammasi» degan ma’noda qu‘llaniladi. Shunga ko‘ra «Ba’zi toshlar tirik mavjudot emas», degan hukm chin bo‘ladi, chunki hech bir tosh tirik mavjudot emas.

Mulohazalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashda va ba’zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdori va sifati bo‘yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari) dan foydalilaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq hukmlar. Ular bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham tasdiq bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hamma talabalar mantiq ilmini o‘rganadilar». Bu hukmlar lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va «Hamma S-Pdir» formulasi orqali ifodalananadi.

2. Umumiy inkor hukmlar bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham inkor bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi». Bu hukm»Hech bir S-P emas» formulasi orqali ifodalananadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. Juz’iy tasdiq hukmlar bir vaqtning o‘zida ham juz’iy, ham tasdiq bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba’zi talabalar mas’uliyatli». U lotincha I harfi bilan belgilanadi va «Ba’zi S-P dir» formulasi orqali ifodalananadi.

4. Juz’iy inkor hukm bir vaqtning o‘zida ham juz’iy, ham inkor bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba’zi talabalar sport bilan shug‘ullanmaydilar». Uning formulasi «Ba’zi S-P emas»bo‘lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Predikatning mazmuniga ko‘ra oddiy hukm turlari. Ular quyidagilardan iborat:

- Atributiv hukmlar.
- Mavjudlik hukmlari.
- Munosabat hukmlari.

Atributiv (sifat va xususiyat) hukmlarda biror xususiyatning predmetga hosligi yoki hos emasligi aniq, qat’iy qilib ko’rsatiladi. Shuning uchun atributiv hukmlarni birorta predmetning sinfiga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) haqidagi hukm deb ta’riflasa bo‘ladi.

Masalan: «Hamma daraxtlar o’simliklardir» va «Hech bir o’simlik hayvon emas». Birinchi hukmda daraxtlarning o’simliklar sinfiga kirishi haqida fikr bildirilsa, ikkinchi hukmda o’simliklar va hayvonlar sinfining o’zaro hech qanday umumiyligka ega emasligi haqida fikr bildirilgan.

Ikkita, uchta va hokazo predmetlar o’rtasida muayyan munosabatlarning bo’lishi yoki bo’lmasligini ifodalagan hukmlarga munosabat hukmlari deyiladi. Masalan: «Butun bo’lakdan katta». «Ikki-uchdan kichik son». Birinchi hukmda «kattalik» munosabati butun va bo’lak o’rtasida bo’lishi tasdiqlansa, ikkinchi hukmda uch soni bilan ikki sonining munosabati haqidagi fikr tasdiqlangan.

Munosabat hukmlari sifatiga ko’ra tasdiq yoki inkor hukm turlariga bo’linadi. Tasdiqlovchi munosabat hukmlarida predmetlar o’zaro muayyan munosabatda ekanliklari haqida fikr bildiriladi. Inkor etuvchi munosabat hukmlarida esa predmetlar o’rtasidagi muayyan munosabatlarning mavjud emasligi haqida fikr bildiriladi.

Munosabat hukmlari miqdoriga ko’ra ham turlarga bo’linadi. Hususan, ikki o’rinli munosabat hukmlari miqdoriga ko’ra yakka-yakka, umumiylumumiy, hususiy-hususiy, yakka-umumiy, yakka-juz’iy, umumiylumumiy, juz’iy-umumiy turlarga bo’linadi.

Masalan: «Ukasi akasidan baland» (yakka-yakka); «Guruhimizning har bir studenti fakultetimizdagi hamma o’qituvchilarni biladi» (umumiylumumiy); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar ba’zi hind kino yulduzlarini yaxshi biladilar» (juz’iy-juz’iy). «Tarix o’qituvchisi guruhimizdagi har bir talabani yaxshi biladi» (yakka-umumiy); «Do’stim ba’zi masalalarni yecha oladi» (yakka-juz’iy); «Guruhimizdagi hamma talabalar ingliz tilini o’rganadilar» (umumiylakka); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar fransuz tilini o’rganadilar» (juz’iy-yakka); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar «Paxtakor» komandasining har bir o’inchisini biladilar» (juz’iy-umumiy).

Murakkab hukmlar.

Hukm terminlari birdan ortiq bo’lsa, murakkab hukm deb ataladi. Murakkab hukmlar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog’lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo’llash orqali ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning o’zaro birikishidan hosil bo’ladi. Mantiqiy bog’lovchining mazmuniga ko’ra murakkab hukmlarning quyidagi asosiy turlarini farq qilish mumkin:

1. Birlashtiruvchi.
2. Ayiruvchi.
3. Shartli.
4. Ekvivalent.

Birlashtiruvchi (kon’yunktiv) hukmlar deb ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning «va» «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog’lovchilar vositasida o’zaro birikishidan hosil bo’lgan hukmlarga aytildi. Masalan: 1. «Qo’ng’iroq chalindi va dars boshlandi». 2. «A. Navoiy shoir va davlat arbobi bo’lgan». 3. «Muhammad Horazmiy va Ahmad Farg’oniylar matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo’shanlar».

Birinchi birlashtiruvchi hukm ikki mustaqil oddiy hukmnинг bog’lanishidan hosil bo’lgan. Ikkinci hukmda bir hil subyektga ega bo’lgan ikki oddiy hukm o’zaro bog’langan. Uchinchi birlashtiruvchi hukmda esa, bir hil predikatga ega bo’lgan ikki oddiy hukm o’zaro bog’langan. o’zbek tilida birlashtiruvchi hukmlar «ammo», «lekin», «biroq», kabi bog’lamalar va (,) vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog’lamalar kon’yunksiya belgisi, «^» orqali ifodalanadi.

Kon’yunktiv (birlashtiruvchi) hukm tarkibidagi oddiy hukmlarni «p» va «q» shartli belgilari bilan belgilasak, unda bu hukm p^q formulasi orqali ifodalanadi. Kon’yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlar chin yoki xato bo’lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy hukmlar chin bo’lganda, birlashtiruvchi hukm chin bo’ladi. Boshqa hamma holatlarda esa, xato bo’ladi. Masalan, «Yolg’on gapirish va o’g’irlilik qilish jinoyatdir» hukmidagi birinchi oddiy gap «Yolg’on gapirish jinoyatdir» chin bo’lmasligi uchun, bu hukm chin bo’lmaydi.

p	q	$p \wedge q$
chin	chin	chin
chin	xato	xato
xato	chin	xato
xato	xato	xato

Ayiruvchi (dizyunkтив) hukm deb «yo», «yoki», «yohud» mantiqiy bog‘lamalari vositasida oddiy hukmlardan tashkil topgan mulohazaga aytildi. Bu bog‘lovchilar ikki oddiy hukmni yoki bir qancha predikatlarni, yoki bir qancha subyektlarni bir-biridan ayirib turadi. Masalan: «Qodirov falsafa, yoki sotsiologiya, yoki psihologiya bo‘limida o‘qiydi». «Ikkinchisidagi soatda yo matematika, yoki chet tili darsi bo‘ladi». Ayiruvchi bog‘lamalar «V» - dizyunksiya belgisi orqali ifodalananadi. Ayiruvchi (dizyunkтив) hukmlar oddiy yoki qat’iy turlarga bo‘linadi. Oddiy dizyunkтив hukm tarkibidagi oddiy hukmlardan biri yoki hammasi chin bo‘lishi mumkin, qat’iy dizyunkтив hukmda esa tarkibidagi oddiy hukmlardan faqat bittasi chin bo‘ladi. Oddiy dizyunkтив hukm ($p \vee q$) formulasi bilan, qat’iy dizyuktiv hukm $p \vee q$ formulasi bilan belgilanadi. Dizyunkтив hukmlarning chin bo‘lish shartlari quyidagicha:

p	q	$p \vee q$
chin	chin	chin
chin	xato	chin
xato	chin	chin
xato	xato	xato

p	q	$p \vee q$
chin	chin	xato
chin	xato	chin
xato	chin	chin
xato	xato	xato

«H.H. Niyoziy shoir yoki dramaturgdir». Bu oddiy dizyunkтив hukm. «Abdullaev musobaqada yo yutadi, yutmaydi». Bu qat’iy dizyunkтив hukm.

Shartli (implikativ) hukm ikki oddiy hukmning «agar... unda» mantiqiy bog‘lamasi orqali birikishidan tashkil topadi. Shartli hukmning mohiyatini aniqlash uchun zaruriy va yetarli shart tushunchalarini farqlash zarur. Hodisaning zaruriy sharti deb, uning mavjudligini ta’minlaydigan holatga aytildi. Agar hodisaning sharti zaruriy bo‘lmasa, hodisa ham bo‘lmaydi. Masalan: «Agar o‘simgil suvsiz qolsa, u quriydi».

Hodisa uchun yetarli bo‘lgan shart deb, har safar shu shart bo‘lganda, o’sha hodisa kuzatiladigan holatga aytildi. Masalan: «Agar yomg‘ir yog‘sa, unda uylarning tomi ho‘l bo‘ladi». Shartlar «yetarli, lekin zaruriy bo‘lmagan», «zaruriy lekin yetarli bo‘lmagan», «zaruriy va yetarli» bo‘lishi mumkin. Masalan: N sonining ikki va uchga bo‘linishi uning oltiga bo‘linishi uchun zaruriy va yetarli shart hisoblanadi. N sonining ikkiga bo‘linishi, uning oltiga bo‘linishi uchun zaruriy, lekin yetarli bo‘lmagan shartdir. N sonining o‘nga bo‘linishi, uning ikkiga bo‘linishi uchun yetarli, lekin zaruriy bo‘lmagan shartdir.

Shartli hukm tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. Shartli hukmning «Agar» va «unda» so‘zleri oralig‘idagi qismi – asos, «Unda» so‘zidan keyingi qismi – natija deb ataladi. «Agar yomg‘ir yog‘sa, unda uylarning tomi ho‘l bo‘ladi» hukmida «Yomg‘ir yog‘sa» hukmi asos, «uylarning tomi ho‘l bo‘ladi» hukmi – natija hisoblanadi.

Demak, asosda ko‘rsatilgan hodisa, natijada qayd etilgan hodisaning kelib chiqishi uchun yetarli shartni ifodalagan hukm, shartli hukm deyiladi

Shartli (implikativ) hukmlar «agar ... unda» mantiqiy bog‘lamasi (\rightarrow) belgi bilan ifodalananadi. Hozirgi zamon mantiq ilmida esa (\rightarrow) simvoli bilan belgilanadi. Bu simvollar moddiy implikatsiya belgisi deb ataladi. Shartli hukm esa implikativ hukm deb yuritiladi. Implikativ hukmning asosi - antecedent, natijasi-konsekvент deyiladi. Implikativ hukm antecedent-chin, konsekvент-xato bo‘lgan holatdan boshqa hamma ko‘rinishlarda chin bo‘ladi:

p	q	$p \rightarrow q$
chin	chin	chin
chin	xato	xato
xato	chin	chin
xato	xato	chin

Ekvivalentlik hukmlari «agar va faqat agar ... unda» mantiqiy bog‘lovchisi yordamida ikki oddiy hukmning o‘zaro bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Tabiiy tilda ekvivalentlik hukmi shartli hukm ko‘rinishida ifodalanadi. Bunday holatlarda shartli hukmning ekvivalent hukm ekanligini aniqlash zarur bo‘ladi. Agar shartli hukmning asosi natijada qayd etilgan fikr uchun zaruriy va yetarli shart hisoblansa, unda bu hukm ekvivalent hukm bo‘ladi. Masalan:» Agar berilgan butun son juft son bo‘lsa, unda u ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi.»

Ekvivalent hukmning mantiqiy bog‘lovchisi (\leftrightarrow) simvoli, ya’ni (moddiy) ekvivalentlik belgisi bilan ifodalanadi. Ekvivalent hukmning chin bo‘lish shartlari quyidagicha:

p	q	$p \leftrightarrow q$
chin	chin	chin
chin	xato	xato
xato	chin	xato
xato	xato	chin

Hukmlar (mulohazalar) o‘rtasidagi munosabatlar

Mulohazalar (hukmlar) ham tushunchalr kabi taqqoslanadigan (umumiy subyekt yoki predikatga ega bo‘lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo‘linadi.

Taqqoslanadigan mulohazalar sig‘ishadigan yoki sig‘ishmaydigan bo‘ladi. Mantiqda ikki mulohaza (p va q) dan birining chinligidan ikkinchisining xatoligi zaruriy kelib chiqadigan bo‘lsa, ular o‘zaro sig‘ishmaydigan mulohaza (hukm) lar deyiladi. Sig‘ishmaydigan mulohaza (hukm) lar bir vaqtida chin bo‘la olmaydi. Sig‘ishadigan mulohazalar aynan bir fikrni to‘liq yoki qisman ifodalaydi.


Sig‘ishadigan mulohaza (hukm) lar:

1. O‘zaro ekvivalentlik.
2. Mantiqiy bo‘ysunish
3. Qisman mos kelish (subkontrar) munosabatida bo‘ladi.

Sig‘ishmaydigan hukmlar:

1. Qarama-qarshilik (kontrar)
2. Zidlik (kontradiktorlik) munosabatida bo‘ladi.

Mulohaza (hukm) lar o‘rtasidagi munosabatlarning shematik ifodasi «mantiqiy kvadrat» deb ataladi. Mantiqiy kvadrat orqali mulohaza (hukm) lar o‘rtasidagi chinlik munosabatlari aniqlanadi.



Masalan, «Har bir jamiyat o‘z ahloqiy normalariga ega». Bu A – umumiy tasdiq mulohaza (hukm). E, I, O ko‘rinishlarda quyidagicha ifodalanadi:

E. Hech bir jamiyat o‘z ahloqiy normalariga ega emas.

I. Ba’zi jamiyatlar o‘z ahloqiy normalariga ega.

O. Ba’zi jamiyatlar o‘z ahloqiy normalariga ega emas.

Bu hukmlar taqqoslanadigan mulohaza (hukm) lar bo‘lib, ular o‘rtasida chinligiga ko‘ra o‘ziga hos munosabatlar mavjuddir.

Sig‘ishmaydigan mulohaza (hukm)lar o‘rtasida qarama-qarshilik (kontrar) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatlari bo‘ladi. Qarama-qarshilik munosabati mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lgan umumiy hukmlar o‘rtasida mavjud bo‘lib, bu munosabatga ko‘ra ularning har ikkisi bir vaqtda chin bo‘la olmaydi. Bu hukmlar bir vaqtda xato bo‘lishi mumkin; agar ulardan birining chinligi aniq bo‘lsa, unda boshqasi albatta xato bo‘ladi. Yuqoridagi misollardan A – mulohaza (hukm) chin, E – mulohaza (hukm) xato ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Zidlik munosabati mazmuni va hajmiga ko‘ra turlicha bo‘lgan mulohaza (hukm) lar o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Bu mulohaza (hukm) larning har ikkisi bir vaqtda chin ham, xato ham bo‘lmaydi. Ulardan biri hamma vaqt chin, boshqasi esa xato bo‘ladi. Yuqoridagi misollardan A – mulohaza (hukm) chin bo‘lib, O – mulohaza (hukm) xatodir. Shuningdek, I – mulohaza (hukm) chin, E – mulohaza (hukm) xatodir.

Sig‘ishadigan mulohaza (hukm) lardan mazmuni bir hil, hajmi turli hil bo‘lgan hukmlar o‘zaro bo‘ysinish munosabatida bo‘ladi. Bunda umumiy mulohaza (hukm) lar bo‘ysindiruvchi, juz’iy mulohaza (hukm) lar bo‘ysinuvchi bo‘ladi. Bo‘ysunish munosabatida umumiy hukmlar chin bo‘lsa, ularga bo‘ysinuvchi juz’iy hukmlar ham chin bo‘ladi. Lekin juz’iy hukmlar chin bo‘lganda, umumiy hukmlar noaniq (chin yoki xato) bo‘ladi. Yuqoridagi misoldan A – mulohaza (hukm) chin bo‘lgani uchun unga bo‘ysinuvchi I – mulohaza (hukm) ham chin bo‘ladi. Agar umumiy mulohaza (hukm) lar xato bo‘lsa ularga bo‘ysinuvchi juz’iy hukmlar noaniq (chin yoki xato) bo‘ladi. Misolimizda E – mulohaza (hukm) xato bo‘lgani uchun, O – mulohaza (hukm) ham xato bo‘ladi. Ba’zi holatlarda umumiy hukmlar xato bo‘lsa, juz’iy hukmlar chin bo‘ladi.

Qisman moslik (subkontrar) munosabati mazmuni har hil bo‘lgan juz’iy hukmlar o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Bu hukmlar bir vaqtda chin bo‘lishi mumkin, lekin har ikkisi bir vaqtda xato bo‘lmaydi. Agar ulardan birining xatoligi aniq bo‘lsa, unda boshqasi albatta chin bo‘ladi. Yuqoridagi misolimizda O – mulohaza (hukm) ning xatoligi aniq bo‘lgani uchun, I – mulohaza (hukm) chindir.

Ekvivalentlik munosabatidagi hukmlar hamma vaqt chin bo‘ladi, chunki ularda aynan bir fikr turli shaklda ifodalanadi. Masalan, «A. Oripov O‘zbekiston Respublikasi madhiyasining muallifi» va «A. Oripov – O‘zbekiston Qahramoni» mulohaza (hukm) lari o‘zaro ekvivalentdir, ya’ni ular bir hil subyektga, lekin har hil predikatga ega bo‘lgan mulohaza (hukm) lardir.

Hukmlarning chinligiga ko‘ra munosabatini ifodalovchi yuqorida ko‘rsatilgan qonuniyatlar bilishda katta ahamiyatga ega.

Vogelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish deb bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma’lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo‘lgan tafakkur shakliga aytildi.

Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o‘tishdan tashkil topadi. To‘g‘ri xulosa chiqarish uchun, avvalam bor, asoslar chin mulohazalar bo‘lishi, o‘zaro mantiqan bog‘lanishi kerak.

Masalan, «Arastu-mantiq fanining asoschisi» va «Platon yunon faylasufidir» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki bu mulohazalar o‘rtasida mantiqiy aloqadorlik yo‘q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o‘zaro mantiqan bog‘langan bo‘lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo‘ladi. Bu qoidalar buzilsa,

to‘g‘ri xulosa chiqmaydi. Masalan «Talaba A – a’lochi» degan mulohazadan «Talaba A – odobli», deb xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko‘ra, aniqrog‘i, xulosa chiqarish qoidalalarining qat’iyligiga ko‘ra hamda xulosa asoslarining soniga va fikrning harakat yo‘nalishiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi.

Mazkur klassifikatsiyada xulosa chiqarishni fikrning harakat yo‘nalishi bo‘yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo‘lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma’lumot berish imkonini yaratadi. Hususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to‘liq induksiyani hisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish, deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o‘rganilishi mumkin.

X U L O S A

Chinlik darajasiga ko‘ra:

Zaruriy xulosa chiqarish

Ehtimoliy xulosa chiqarish

Asoslarning soniga ko‘ra:

Bevosita xulosa chiqarish

Bilvosita xulosa chiqarish

Fikrning harakat yo‘nalishiga ko‘ra:

Deduktiv xulosa
chiqarish

Induktiv xulosa
chiqarish

Analogiya bo‘yicha xulosa
chiqarish

a) DEDUKTIV XULOSA CHIQARISH

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiyl bilimdan juz’iy bilimga o‘tishning mantiqan zaruriy xarakterga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanadi: $X_{SP} \rightarrow Y_{SP}$, bunda X va Y oddiy qat’iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va P lar esa mulohazalarning subyekti va predikatini ifodalaydi. X_{SP} - xulosa asosi yoki antecedent, Y_{SP} - xulosa yoki konsekvent deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o‘zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazanining strukturasi, ya’ni subyekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat xarakteristikalari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

1. Aylantirish (lot.-obversio) - shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazanining miqdorini saqlagan holda, sifatini o‘zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo‘sish inkor sodir bo‘ladi, ya’ni avval asosning predikati, keyin bog‘lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{S-P}{\overline{S-\overline{P}}}$$

Inkor qilish jarayonida inkor yuklamalaridan (-ma; -siz; -mas) yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo‘lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat’iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi. Xulosa asosi bo‘lgan mulohaza xulosada quyidagicha ifodalanadi:

		Xulosa asosi		Xulosa
1	A	Hamma S-P	E	Hech bir S-P mas emas
2	E	Hech bir S-P emas	A	Hamma S emas P dir
3	I	Ba’zi S-P	O	Ba’zi S-P siz emas
4	O	Ba’zi S-P emas	I	Ba’zi S emas-P dir

Aylantirishda A-E ga, E-A ga, I-O ga, O-I ga o‘zgaradi.

Masalan:

1. A. Hamma ilmiy qonunlar obyektiv xarakterga ega.

E. Hech bir ilmiy qonun subyektiv xarakterga ega emas.

2. E. Hech bir saxiy xasis emas.

A. Hamma saxiy bo‘limganlar xasisdir.

3. I. Ba’zi tushunchalar mazmunan konkret bo‘ladi.

0. Ba’zi tushunchalar mazmunan abstrakt bo‘lmaydi.

4. 0. Ba’zi mulohazalar murakkab emas.

I. Ba’zi mulohazalar soddadir.

Demak, aylantirish usuli bilan xulosa chiqarilganda «biror nimaning qo‘sh inkori uning tasdig‘iga tengdir», degan qoidaga asoslanadi.

II. Almashtirish (lot.-conversio) - shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi subyekt va predikatning o‘rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi.

Almashtirishda berilgan mulohazadagi terminlar hajmi e’tiborga olinishi shart. Agar berilgan mulohazadagi terminlar hajmiga e’tibor berilmasa, xulosa noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin: Masalan,

Hamma insonlar tirik mavjudotlardir

Hamma tirik mavjudotlar insonlardir

Xulosa xato, chunki berilgan mulohazada P - (tirik mavjudotlar) to‘liq hajmda olinmagan, xulosada esa to‘liq hajmda olingan. Yuqoridagi asosdan «Ba’zi tirik mavjudotlar insonlardir» deb chiqarilgan xulosa to‘g‘ri bo‘ladi. Shunga ko‘ra almashtirishning uch turi farqlanadi: toraytirilgan, kengaytirilgan va sof almashtirish.

		Xulosa asosi		Xulosa	Almashtirish turi
1	A	Hamma S-P	A	Hammma P-S	Sof almashtirish
2	E	Hech bir S-P emas	E	Hech bir P-S emas	Sof almashtirish
3	I	Ba’zi S-P	I	Ba’zi P-S emas	Sof almashtirish
4	A	Hamma S-P	I	Ba’zi P-S	Toraytirilgan almashtirish
5	I	Ba’zi S-P	A	Hamma P-S	Kengaytirilgan almashtirish

Yuqoridagi shemani misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

1. A Hamma tirik mavjudotlar sezish xususiyatiga ega.

A. Sezish xususiyatiga ega bo‘lganlarning hammasi tirik mavjudotdir.

2. E. Hech bir xasis saxiy emas.

E. Hech bir saxiy xasis emas.

3. I Ba’zi faylasuflar tabiatshunosdir.

I. Ba’zi tabiatshunoslar faylasuflardir.

4. A. Hamma vrachlar oliy ma’lumotlidir.

I. Ba’zi oliy ma’lumotlilar vrachlardir.

5. I. Ba’zi odamlar shoirdir.

A. Hamma shoirlar odamdir.

Juz’iy inkor mulohazadan (O) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi, chunki bu mulohazaning predikati to‘liq hajmda olingan. Demak, u xulosada ham to‘liq hajmda olinishi kerak,

ya’ni xulosa umumiy inkor mulohaza (E) bo‘lishi kerak. U holda xulosaning predikati ham to‘liq hajmda olinishi kerak bo‘ladi, bu esa mumkin emas, chunki u asosning subyektida to‘liq hajmda olinmagan. Masalan:

O. Ba’zi faylasuflar mantiqshunos emas.

E. Hech bir mantiqshunos faylasuf emas.

yoki

O. Ba’zi mantiqshunoslар faylasuf emas.

Har ikki holatda ham xulosa noto‘g‘ridir.

Demak, almashtirish usuli qo‘llanilganda mulohazadagi subekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlarning o‘rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta’riflarning to‘g‘riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo‘yish (lat. contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo‘lib, bu usul qo‘llanilganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so‘ngra almashtiriladi. Natijada hosil qilingan mulohazaning (xulosaning) subyekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning subyektiga mos bo‘ladi:

$$\begin{array}{c} S - P \\ \hline \overline{P} - \overline{S} \end{array}$$

Bunda xulosada S ning inkor shaklida bo‘lishi xulosa bog‘lovchisining inkor etilishi natijasidir. Predikatga qarama-qarshi qo‘yishda A-E ga, E-I ga, 0-I ga o‘zgaradi

Turli mulohazalardan bu usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi shemada ko‘rsatilgan:

	Xulosa asosi	Xulosa
1	A Hamma S-P	Hech bir P emas S emas
2	E Hech bir S-P emas	Ba’zi R emas S dir
3	O Ba’zi S-P emas	Ba’zi P emas S dir

Masalan,

1. A. Hamma hukmlar darak gap orqali ifodalanadi.

E. Darak gap orqali ifodalanmagan fikr hukm emas.

2. E. Hech bir vatanparvar o‘z Vataniga hiyonat qilmaydi.

I. Ba’zi Vataniga hiyonat qilmaydiganlar vatanparvardir.

3. O. Ba’zi talabalar faylasuf emas.

I. Ba’zi faylasuf bo‘limganlar talabadir.

Juz’iy inkor mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo‘yish usuli bilan xulosa chiqarilganda, bu mulohazadan almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmayagini e’tiborga olish zarur. Shuning uchun O mulohazadan

«Ba’zi S-P emas» shaklida emas, balki «Ba’zi S emas–Pdir»

«Ba’zi P-S emas», «Ba’zi P emas S dir» shaklida xulosa chiqariladi.

Juz’iy tasdiq (I) mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo‘yish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki, «Ba’zi S-P mulohazani aylantsak «Ba’zi S-P mas emas» ya’ni juz’iy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat’iy mulohazalarning o‘zaro munosabatlarini (qarang: mantiqiy kvadrat) e’tiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o‘rtasidagi zidlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo‘ysinish munosabatlariga asoslanadi.

Zidlik (kontradiktorlik) munosabatlariga asoslangan holda xulosa chiqarish. Ma'lumki, zidlik munosabati A-O va E-I mulohazalari o'rtasida mavjud bo'lib, uchinchisi istisno qonuniga bo'ysunadi. Bu munosabatga ko'ra mulohazalardan biri chin bo'lsa, boshqasi xato bo'ladi va, aksincha, biri xato bo'lsa, boshqasi chin bo'ladi. Xulosalar quyidagi shema bo'yicha tuziladi:

$$A \rightarrow \bar{O}; E \rightarrow \bar{I}; O \rightarrow \bar{A}; I \rightarrow \bar{E}$$

Masalan,

- A. Hamma insonlar yashash huquqiga ega
0. Ba'zi insonlar yashash huquqiga ega emas.

I. Ba'zi faylasuflar davlat arbobi.

E. Hech bir faylasuf davlat arbobi emas.

Bu misolda asos mulohazaning chinligidan xulosaning xato ekanligi (uchinchisi istisno qonuni asosida) kelib chiqadi.

Qarama-qarshilik (kontrarlik) munosabatlariga asoslangan holda xulosa chiqarish. Qarama-qarshilik munosabati A va E mulohazalar o'rtasida mavjud bo'lib, ziddiyat qonuniga bo'ysunadi. Bu munosabatdagi mulohazalardan birining chinligidan boshqasining xato ekanligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Lekin birining xatoligi boshqasining chinligini asoslab bermaydi, chunki har ikki mulohaza ham xato bo'lishi mumkin. Masalan, «Hamma insonlar yaxshi yashashni hohlaydilar» degan umumiylashtirish (A) mulohazaning chinligidan «Hech bir inson yaxshi yashashni hohlamaydi» degan umumiylashtirish (E) mulohazaning xatoligi kelib chiqadi.

A. Hamma tushunchalar konkret bo'ladi.

E. Hech bir tushuncha konkret emas.

Bu misolda asos mulohaza va xulosa xato. Demak, qarama-qarshilik munosabatidan $A \rightarrow \bar{E}$, $E \rightarrow \bar{A}$, ko'rinishida xulosa chiqarish mumkin.

Qisman moslik (subkontrarlik) munosabatiga asoslangan holda xulosa chiqarish. Bu munosabat juz'iy tasdiq (I) va juz'iy inkor (O) mulohazalar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu mulohazalarning har ikkisi bir vaqtida chin bo'lishi mumkin, lekin bir vaqtida xato bo'lmaydi. Ulardan birining xatoligi aniq bo'lsa, ikkinchisi chin bo'ladi. Qisman moslik munosabati asosida xulosa chiqarish $\bar{I} \rightarrow O; \bar{O} \rightarrow I; I - O; O - I$ ko'rinishda bo'ladi.

Masalan:

- O. Ba'zi ilmiy qonunlar obyektiv xarakterga ega emas.
I. Ba'zi ilmiy qonunlar obyektiv xarakterga ega.
Bunda asos mulohaza xato bo'lganligi uchun xulosa chin bo'ladi.

I. Ba'zi faylasuflar davlat arbobi.

O. Ba'zi faylasuflar davlat arbobi emas.

Bu misolda asos mulohaza ham, xulosa ham chin fikrdir. Ba'zan asos mulohaza chin bo'lganda xulosaning chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydi.

Bo'ysunish munosabatiga asoslangan holda xulosa chiqarish. Bu munosabat sifatlari bir hil bo'lgan umumiylashtirish va juz'iy mulohazalar (A va I; E va O) o'rtasida mavjud bo'ladi. Umumiylashtirish – bo'ysindiruvchi mulohazalar chin bo'lsa, juz'iy – bo'ysinuvchi mulohazalar ham chin bo'ladi. Lekin bo'ysinuvchi – juz'iy mulohazalarning chinligidan, bo'ysindiruvchi – umumiylashtirish – umumiylashtirish chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bunday holda umumiylashtirish mulohazalar chin yoki xato bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra bo'ysunish munosabatiga asoslangan xulosa chiqarish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$A \rightarrow I; E \rightarrow O.$$

Masalan:

- A. Hamma mustaqil davlatlar BMT ga a'zo.
I. Ba'zi mustaqil davlatlar BMT ga a'zo.

A - mulohaza chin bo'lgani uchun, I mulohaza ham chin.

O. Ba'zi o'zbek ayollari oliy ma'lumotga ega emas.
E. Hech bir o'zbek ayoli oliy ma'lumotga ega emas.
Bu misolda O - mulohaza chin bo'lsa ham, E-mulohaza xato.

Yuqoridagi munosabatlarni umumlashtirgan holda, asos mulohaza va xulosaning chinlik darajasiga ko'ra quyidagi holatlarni ko'rsatish mumkin.

1. Asos mulohaza va xulosa chin bo'lgan:

A - I, Ye - I.

2. Asos mulohaza chin va xulosa xato bo'lgan:

$A \rightarrow \bar{O}$; $E \rightarrow \bar{I}$; $O \rightarrow \bar{A}$; $I \rightarrow \bar{E}$; $A \rightarrow \bar{E}$; $E \rightarrow \bar{A}$

3. Asos mulohaza xato va xulosa chin bo'lgan.

$\bar{I} \rightarrow O$; $\bar{O} \rightarrow I$.

Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarilganda qarama-qarshilik munosabatidagi mulohazalardan biri xato bo'lganda, qisman moslik munosabatidagi mulohazalardan biri chin bo'lganda va bo'ysinish munosabatida juz'iy mulohazalar chin bo'lganda, ulardan chiqarilgan xulosa noaniq bo'ladi.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilishda mavjud fikrni aniqlab olishga, uning mohiyatini to'g'ri tushunishga, shuningdek bir fikrni turli hil ko'rinishda bayon qilishga, yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat beradi.

Oddiy qat'iy sillogizm

Ma'lumki, deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. Sillogizm qo'shib hisoblash, degan ma'noni anglatadi. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlataladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifoda qilish uchun foydalaniladi. Sillogizm xulosa chiqarishning shunday shakli, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi-yangi qat'iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri albatta yo umumiylashtirishni tasdiq yoki umumiylashtirishni inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiylashtirishni tasdiq yoki umumiylashtirishni inkor mulohaza bo'ladi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylashtirishni tasdiq yoki umumiylashtirishni inkor mulohaza bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hech bir xasis saxiy emas.

Ba'zi boylar xasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda - «Ba'zi boylar saxiy emas», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conclusio) dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar terminlar deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S - kichik termin (terminus minor), mantiqiy kesimi – P - katta termin (terminus major) deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiylashtirishni tasdiq yoki umumiylashtirishni inkor mulohaza bo'ladi. Asoslarda katta terminni o'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik terminni o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi.

Terminlarning katta yoki kichik deb atalishi ular ifodalagan tushunchalarning hajmiga bog'liq. Terminlar o'rtasidagi munosabatni doiralar yordamida quyidagicha ifodalash mumkin.

S - kichik termin.

M - o'rta termin.

R - katta termin.

O'rta termin katta va kichik terminni mantiqiy bog'lovchi element hisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo‘lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko‘ra, ya’ni atributiv ta’riflash mumkin.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo‘lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo‘lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo‘ladi» yoki «bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo‘lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo‘lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo‘ladi».

Bu qoida sillogizm aksiomasining mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Sillogizm aksiomaning mohiyati quyidagicha: buyum va hodisalarning sinfi to‘g‘risida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr shu sinf ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taalluqli bo‘lgan tasdiq yoki inkor fikr hisoblanadi.

Masalan:

Tafakkur shakllari obyektiv xarakterga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha obyektiv xarakterga ega.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi: biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo‘lgan narsalar buyum, hodisaning o‘ziga ham ziddir.

Sillogizm aksiomalarida fikr shakli va mazmuni o‘zaro uzlusiz, obyektiv bog‘langan bir butunning ayrim tomonlarini ifodalaydi. Bu bir tomonidan, hamma umumiylilikka hususiylik, juz’iylik va yakkalik hos ekanligini va har bir yakkalik, juz’iylik, hususiylik umumiylilik hislatiga ega bo‘lishini ifodalasa, ikkinchi tomonidan, buyum va belgining o‘zaro uzviy bog‘langanligini, ya’ni buyumlar jinsi ayrim o‘ziga hos belgiga ega bo‘lsa, albatta, bu belgi shu jinsdagi hamma buyumlar uchun ham hos belgi bo‘lishini ifodalaydi. Bular esa o‘z navbatida yakkalik va umumiylilik o‘rtasidagi, miqdor va sifat o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikning tafakkur jarayonida o‘ziga hos namoyon bo‘lishidir.

Sillogizmning umumiyligi qoidalari

Xulosa asoslarining chin bo‘lishi xulosaning chin bo‘lishi uchun yetarli emas. Xulosa chin bo‘lishi uchun yana ma’lum qoidalarga amal qilish ham zarur. Bu sillogizmning umumiyligi qoidalari deb ataladi. Ular sillogizmning terminlari va asoslariga taalluqli bo‘lgan qoidalari bo‘lib, quyidagilardan iborat:

1. Sillogizmda uchta termin: katta, kichik va o‘rta terminlar bo‘lishi kerak. Ma’lumki, sillogizmning xulosasi katta va kichik terminlarning o‘rta terminga bo‘lgan munosabatiga asoslanadi; shu sababdan ham terminlar soni uchtadan kam yoki ortiq bo‘lmasligi talab qilinadi. Agar terminlar soni uchtadan kam bo‘lsa, xulosasi yangi bilim bermaydi.

Masalan: Hamma notiqlar so‘z san’atini chuqr egallaganidir.

So‘z san’atini chuqr egallaganlar orasida notiqlar ham bor.

Bu ikki mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi, chunki terminlar soni ikkita. Terminlar sonining uchtadan ortib ketishi ayniyat qonuni talablarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, terminlarning to‘rtlanishi (quaternio termunorum), deb ataluvchi xatoga olib keladi:

Davlat-iqtisodiy munosabatlarining siyosiy ifodasidir.

Har bir inson uchun sihat-salomatlilik eng katta davlatdir.

Bu mulohazalarda «davlat» tushunchasining ikki hil ma’noda qo‘llanilishi chetki terminlarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishiga imkon bermaydi. Terminlarning uchtadan ortiq bo‘lishi asoslar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikning uzilishiga ham sabab bo‘ladi:

Hamma notiqlar-shuhratparast.

Sitseron-davlat arbobi bo‘lgan.

Bu ikki mulohazadan xulosa chiqarib bo‘lmaydi, chunki bu mulohazalar o‘zaro mantiqiy bog‘lanmagan.

2. O'rta termin hech bo'limganda asoslardan birida to'la hajmda olinishi kerak.

Agar o'rta termin hech bir asosda to'liq hajmda olinmasa, chetki terminlarning bog'lanishi noaniq bo'ladi va xulosaning chin yoki xatoligini aniqlab bo'lmaydi.

Ba'zi faylasuflar notiqdir.

Kafedramizning hamma a'zolari faylasufdir.

Bu sillogizmda o'rta termin katta asosda juz'iy hukmning subekti, kichik asosda umumiy tasdiq hukmning predikati bo'lganligi uchun to'liq hajmda olinmagan. Shuning uchun chetki terminlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanmagan. Bu asoslardan chiqarilgan xulosalar noaniq bo'ladi:

a) Kafedramizning hamma a'zolari notiqdir.

b) Kafedramizning ba'zi a'zolari notiqdir.

3. Katta va kichik terminlar asoslarda qanday hajmda olingen bo'lsa, xulosada ham shunday hajmda bo'lishi kerak.

Bu qoidaning buzilishi kichik yoki katta termin hajmining noo'rin kengayib ketishiga olib keladi. Masalan:

Hamma studentlar imtihon topshiradilar.

Hech bir abiturent student emas.

Hech bir abiturent imtihon topshirmaydi.

Bu misolda kichik termin hajmining noo'rin kengayib ketishi xulosaning xato bo'lishiga sabab bo'ldi.

4. Ikki inkor hukmdan (asosdan) xulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan:

Ishsizlar tadbirkor emas.

Talabalar ishsiz emas.

?

5. Ikki juz'iy hukmdan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Masalan:

Ba'zi ayollar tadbirkordir.

Ba'zi davlat arboblari ayollardir.

?

6. Asoslardan biri inkor hukm bo'lsa, xulosa ham inkor hukm bo'ladi. Masalan:

Hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi.

Vatanga hiyonat qilish jinoyatdir

Vatanga hiyonat qilish jazosiz qolmaydi.

7. Asoslardan biri juz'iy hukm bo'lsa, xulosa ham juz'iy hukm bo'ladi. Masalan:

Boshshi farzand ota-onasini hurmat qiladi.

Ba'zi yoshlar yaxshi farzanddir.

Ba'zi yoshlar ota-onasini hurmat qiladi.

Entimema. (qisqartirilgan qat'iy sillogizm)

Entimema deb, asoslardan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytildi. Entimema - aqlda, fikrda degan ma'noni anglatadi. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Entimemalar uch turli bo'ladi:

1. Katta asosi tushirib qoldirilgan.

2. Kichik asosi tushirib qoldirilgan.

3. Xulosasi tushirib qoldirilgan.

Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo'lsin:

Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadi.

Sobirov falsafa fakultetining talabasi

Sobirov mantiq fanini o'rganadi.

Endi bu sillogizmni entimema ko'rinishiga keltiramiz:

1. Sobirov falsafa fakultetining talabasi bo'lganligi uchun mantiq fanini o'rganadi (katta asos tushirib qoldirildi).

2. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, shu jumladan Sobirov ham (kichik asos tushirib qoldirildi).

3. Falsafa fakultetining hamma talabalari mantiq fanini o'rganadilar, Sobirov esa shu fakultetning talabasidir (xulosa tushirib qoldirildi).

Entimemalar babs-munozara yuritish jarayonida, notiqlik san'atida keng qo'llaniladi.

Induktiv xulosa chiqarishi

Biz avvalgi mavzuda zaruriy xulosa chiqarish bilan (deduktiv xulosa chiqarish asosida) tanishib chiqqan edik. Mantiqda ehtimoliy xulosa chiqarish ham o'rganiladi.

Ehtimoliy xulosa chiqarish turli hil shakllarda, shu jumladan, induktiv xulosa chiqarish shaklida amalga oshishi mumkin. Ularning barchasiga hos xususiyat – xulosaning asoslardan mantiqan zaruriy ravishda kelib chiqmasligi hamda faqat ma'lum bir darajada tasdiqlanishidir. Asoslarning xulosani tasdiqlash darajasi mantiqiy ehtimollik, deb nom olgan.

Induktiv xulosa chiqarish bilan batafsilroq tanishib chiqamiz.

Bilish, qaysi sohada amalga oshishidan qat'iy nazar-sog'lom aql darajasidami yoki ilmiy bilishdami – doimo predmet va hodisalarning hissiy idrok etiladigan hossa va munosabatlarini o'rganishidan boshlanadi. Uni falsafada, mantiqda empirik bilish bosqichi deb atashadi. Bu bosqichda subyekt turli hil tabiiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalarda o'hshash sharoitlarda ma'lum bir xususiyatlarning takrorlanishini kuzatadi. Bu ana shu turg'un holda takrorlanib turuvchi hossaning ayrim predmetning individual hossasi emas, balki ma'lum bir sinfga mansub predmetlarning umumiyy hossasi bo'lsa kerak, degan fikrga kelishga asos bo'ladi. Masalan, qaysi davlatda demokratiya prinsiplariga yaxshi amal qilinsa o'sha davlat aholisining ijtimoiy turmush darajasi yuqoriligini ko'zatish mumkin. Shu asosda demokratiyaning prinsiplari, shartlari yaxshi amal qiladigan har qanday davlatda aholining turmush darajasi yuqori bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Mana shunday juz'iy bilimdan umumiyy bilimga mantiqan o'tish induksiya shaklida sodir bo'ladi (lotinchcha inductio-yagona asosga keltirish).

Induktiv xulosa chiqarish empirik umumlashtirish shaklida sodir bo'lib, unda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub pedmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha perdmetlarga hosligi haqida xulosa chiqariladi.

Induksiya asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o'rnatilgan turli empirik qonuniyatlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o'z aksini topadi, predmet va hodisalar haqidagi bilimlarimizni kengaytirishiga olib keladi.

Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish hisoblanadi, ya'ni uning asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladilar. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiyy hukm tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Demak, induktiv xulosa chiqarishda yakkalik, juz'iylik va umumiylilikning dialektik aloqasini kuzatamiz. Ayrim faktlarni ifodalaydigan, juz'iy xarakterga ega bo'lgan bilimlar umumiyy bilimlarni hosil qilish uchun mantiqiy asos bo'lib hizmat qiladi. Takrorlanib turuvchi turg'un aloqalar, odatda, predmetlarning muhim zaruriy aloqalaridan iborat bo'lgani uchun, bu umumiyy bilimlar qonuniyatlarni ifoda qiladilar. Asoslardagi yakka va juz'iy faktlar haqidagi bilimlar esa ana shu qonuniyatlarning namoyon bo'lishini qayd etadilar. Induktiv xulosa chiqarish kuzatish va tajriba natijalarini umumlashtirish bilan bog'liq bo'lgani uchun, ular haqida qisqacha to'htalib o'tamiz.

Kuzatish predmet va hodisalarni o'rganishning eng oddiy, ko'p hollarda qo'llash mumkin bo'lgan usulidir. Unda subyekt (masalan, tadqiqotchi) kuzatilayotgan hodisaga bevosita ta'sir o'tkazmasdan, uni tabiiy holatida, bog'lanshlarida o'rganadi. Bunda subyekt o'z sezgi organlari, tadqiqotlar olib boriladigan asbob-uskunalar (masalan, mikroskop, tunda ko'rish asbobi va shu kabilalar) bilan ish ko'radi.

Tabiiyki kuzatish pala-partish, uzuq-yuluq holda emas, balki izchil, ko'pincha avvaldan tuzilgan reja (masalan, tadqiqot rejasi) asosida o'tkaziladi. Masalan, korhona rahbari uning turli bo'g'inlarida, bo'limlarida ishlayotgan mas'ul xodimlarning, ishchilarning ishini sistemali ravishda, muntazam kuzatib boradi, induksiya asosida ma'lum bir xulosalarga keladi. Bu xulosalar boshqaruv

strukturasi, kadrlar masalasiga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Boshqa bir misol. Militsiya yoki prokuratura xodimi jinoyatni sodir qilishda shubhalanayotgan kishini hibsga olishdan avval uning hatti -harakatlarini oldindan tuzilgan reja asosida, turli hil sharoitlarda tabiiy holatda, unga halaqit bermagan holda kuzatib boradi. Bu esa unga qat'iy bir qarorga kelishi uchun zarur bo'lgan faktlarni topishiga yordam berishi mumkin.

Tajriba (eksperiment) hodisalarini o'rganishning murakkabroq usuli bo'lib, u bilish obyektiga ma'lum bir tarzda ta'sir o'tkazishni taqozo etadi. Tajriba, albatta, avvaldan tuzilgan reja asosida, mahsus yaratilgan sharoitda, zarur asbob-uskunalardan foydalangan, kerakli mantiqiy usullarni qo'llagan holda o'tkaziladi.

Ilmiy bilishning tehnikaviy asosi tobora mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda tajribalar turli-tuman murakkab asbob-uskunalardan foydalilanigan holda o'tkaziladi. Ular hodisalarining sababiy aloqalarini aniqlashni, ichki qonuniyatlarini ochishni osonlashtiradi, tezlashtiradi.

Bu yerda, albatta, mukammal asbob-uskunalarning yaratilishining negizida ham obyektiv borliq va bilimga hos qonuniyatlarning ochilishi, ularni ifoda qiluvchi bilimlarning amaliyot, tehnikada joriy qilinishi yotishni, ya'ni, boshqacha aytganda, induktiv xulosa chiqarishda amaliyot va bilimning uzviy aloqada bo'lishni nazarda tutish lozim.

Tajriba bilish jarayonida quyidagi qulayliklarni yaratishga imkon beradi.

1. O'rganiladigan (tajriba o'tkaziladigan) predmetlar doirasini tadqiqotchi ihtiyyoriy ravishda kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin;
2. Bilish obyektini «toza» holda, ya'ni boshqa obyektlar ta'siridan «ajratib» qo'ygan holda yoki ular bilan birga bo'lgan o'zaro ta'sirida olib o'rganish mumkin;
3. Bilish obyektiga ta'sir etuvchi holatlarni ihtiyyoriy tarzda o'zgartirib turish mumkin;
4. O'tkazitlayotgan tajribani tezlashtirish yoki sekinlashtirish mumkin;
5. Natijaning chinligiga ishonch hosil qilish uchun tajribani zarur bo'lgan miqdorda takrorlash mumkin.

Induktiv xulosa chiqarishning asoslari, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, kuzatish va tajriba natijalari ifodalangan bo'lib, ular birorta S sinfiga taalluqli S_1, S_2, \dots, S_n hodisalarda p belgisining turg'un holda takrorlanishi haqidagi ahborotni qayd qiladilar. Xulosasida shu belgining predmetlarning butun sinfiga hosligi haqida fikr hosil qilinadi. Unda muhokamaning shemasi quyidagicha bo'ladi:

S_1 hodisasi P belgiga ega
 S_2 hodisasi P belgiga ega
...
 S_n hodisasi R belgiga ega
 S_1, S_2, \dots, S_n lar C sinfiga mansub
C sinfining har bir hodisasi P belgiga ega.

Tajribada ko'p martalab takrorlanadigan predmetning turg'un aloqalari sababiyatni, zaruriyatni ifoda qiladigan umumiyligidan iborat bo'lib, u induktiv xulosa chiqarishda asoslardan xulosaga o'tish uchun mantiqiy asos bo'lib hizmat qiladi.

Induktiv xulosa chiqarishning bilishdagi bosh vazifasi juz'iy holni umumiylashtirish, ya'ni ayrim faktlarga hos xususiyatni berilgan sinfiga taalluqli barcha predmetlarga hos xususiyat darajasiga ko'tarish (generalizatsiya qilish) asosida umumiy bilim hosil qilishdan iborat. O'z mazmuni va bilishdagi ahamiyatiga ko'ra bu bilimlar kundalik tajribani umumlashtirish negizida hosil qilinadigan eng oddiy umumlashmalardan tortib, to empirik va nazariy qonunlar, gipotezalar, ilmiy nazariyalar darajasigacha yetgan bilimlar bo'lishi mumkin.

Ilmiy bilish tarixi fanning turli hil sohalarida kilingan kashfiyotlar, masalan elektr, magnitizm, optikaga oid juda ko'p sababiy aloqadorliklar, qonuniyatlar ularning aynan induktiv yo'l bilan o'rnatilganini tasdiqlaydi.

Induksiya asosida hosil qilingan xulosalarning mantiqiy qiymati, ehtimoliy yoki zaruriy bo'lishi o'tkazilgan tajribaning xarakteriga bog'liq.

Kuzatish va tajriba tugalanmagan bo‘ladi. Keyingi o‘tkaziladigan tajriba, kuzatishlarda predmet va hodisalarning yangi muhim xususiyatlari, munosabatlari aniqlanishi mumkin. Bu esa, mavjud predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirib yuboradi. Hususan, avval chin deb hisoblangan bilimlar shubha ostiga olinib qoladi, ehtimoliy tarzdagi fikrlarga aylanadi.

Mantiqda ehtimollik tushunchasi chiqarilgan xulosaning noaniqligini, qo‘srimcha tekshirishlar o‘tkazish zarurligini anglatadi. Shunga qaramasdan tajriba bilimning muhim vositasi bo‘lib qoladi.

Shuni alohida qayd etish zarurki, ayrim, juz’iy faktlar haqidagi aniq bilimlardan noaniq xulosalarning chiqishi obyektiv voqelikni bili?ning murakkab dialektik jarayon ekanligini bildiradi. Voqelikdagi bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasini tajribada qamrab olish qiyin. Sinf predmetlarining barchasi qamrab olinganda ham, ularning xususiyatlarining hammasini o‘rganib bo‘lmaydi, chunki ularning soni ko‘p. Harakat, taraqqiyot davomida to‘htovsiz ravishda ularning ba’zilar? yo‘qolib, boshqa birlari paydo bo‘lib turadi.

Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi: to‘liq va to‘liqsiz induksiyalar farq qilinadi.

To‘liq induksiya induktiv xulosa chiqarishning shunday turiki, unda birorta belgining ma’lum bir sinfga mansub har bir predmetga hosligini aniqlash asosida, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

To‘liq induksiya predmetlarning kichik sinfiga, elementlari yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan, miqdor jihatdan cheklangan yopiq sistemalarga nisbatan xulosa chiqarishda ishlataladi. Masalan, Quyosh sistemasiga kiruvchi planetalar, NATOGa a’zo davlatlar, birorta shaharda joylashgan korhonalar va shu kabilar haqida xulosalarni to‘la induksiya yo‘li bilan olish mumkin. Hususan, Quyosh sistemasiga kiruvchi planetalar harakatining yo‘nalishi soat strelkasi harakati yo‘nalishiga teskari ekanligi haqidagi xulosa aynan ana shu usul yordamida hosil qilinadi. Huddi shuningdek, «Barcha metallar elektr tokini o‘tkazadi», «NATOGa a’zo davlatlar shu tashkilotning ustaviga riosa qiladilar», «Toshkent shahridagi barcha korhonalar elektr energiyasi bilan to‘la ta’milangan» kabi umumiy hukmlar orqali ifoda qilingan xulosaviy bilimlar ham to‘liq induksiyani qo‘llash asosida shakllanadi.

Predmetlarning yopiq to‘plamini o‘rganish empirik tadqiqotning aniq bir sinfni bilish bilan chegaralanganligini bildiradi. Ana shuning uchun ham asoslardagi har bir predmet haqidagi ma’lumot qayd etilgan belgini sinf predmetlarining barchasiga yoyish, ularga tegishli, deb aytish uchun mantiqiy asos bo‘la oladi.

Demak to‘liq induksiyaning asosiy xususiyati shundaki, unda berilgan sinfga mansub barcha predmetlar birma-bir o‘rganilib chiqilishi, ular haqida yakka hukmlar hosil qilinishi va asoslar sifatida qabul qilinishi zarur.

To‘liqsiz induksiya shunday ehtimoliy xulosa chiqarish turiki, unda birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga (bir nechtasiga) hosligini (yoki hos emasligini) aniqlash asosida, shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga hosligi (hos emasligi) haqida xulosa chiqariladi.

To‘liqsiz induksiyada fikrimiz, huddi to‘liq induksiyadagidek, juz’iylikdan (yakkalikdan) umumiylikka, kamroq umumiylashgan bilimdan ko‘proq umumiylshgan bilimga qarab harakat qiladi. Lekin unda, to‘liq induksiyadan farqli o‘laroq, xulosa kuzatish, tajriba davomida qayd etilmagan, o‘rganilmagan predmetlarga ham tegishli bo‘ladi. To‘liqsiz induksiyaning evristik mohiyati aynan ana shundadir.

Demak, to‘liqsiz induksiya bo‘yicha xulosa chiqarishga hos xususiyatlardan biri asoslardan xulosaning mantiqan kelib chiqishning kuchsiz bo‘lishidir.

Ilmiy induksiya ehtimoliy xulosa chiqarishning shunday turiki, uning asoslarida birorta belgining bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida takrorlanishi qayd etilishi bilan bir qatorda, u belgining sababiy aloqasi haqida ham ma’lumot mujassamlashgan bo‘ladi va ular xulosada berilgan predmetlar sinfiga nisbatan hosil qilingan fikrda o‘z aksini topadi.

Ommabop induksiyadan farqli ularoq, ilmiy induksiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgi shunchaki qayd etilib qolmasdan, balki u haqida to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lish, uning mavjud bo‘lishi sababini aniqlash uchun predmetning boshqa belgilari bilan bo‘lgan

aloqlari, hususan, sababiy bog‘lanishlari o‘rganiladi. Ana shuning uchun ham, ya’ni hodisalarning sababini aniqlashga, ularni ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun ham to‘liq sifatli induksiyaning bu turini ilmiy induksiya deb atashadi.

Ma’lumki, ilmiy bilish, fanning bosh maqsadi o‘rganilayotgan obyektni xarakterlaydigan qonunlarni ochish orqali uning (obyektning) tabiatini, mohiyatini tushuntirishidan iborat. Bu esa, birinchi navbatda, hodisaning (yoki uning belgisining) mavjud bo‘lish sababini aniqlashni taqozo etadi.

Shuni aytish kerakki, sababiy aloqadorlik hodisalar o‘rtasidagi umumiyyat bog‘lanishlarning boshqa turlari (masalan, strukturaviy, funksional, genetik bog‘lanishlar) kabi hodisalarning tabiatini belgilaydi. Ana shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni o‘rganish hodisalarning mohiyatini tushunish, turli jarayonlarni oldindan ko‘rish, yangiliklar yaratish imkonini beradi.

Ilmiy induksiya metodlari

O‘hshashlik metodi

Tafovut metodi.

Yo‘ldosh o‘zgarishlar metodi.

Qoldiqlar metodi.

ANALOGIYA ASOSIDA XULOSA CHIQARISH

Analogiya (grek. - moslik, o‘hshashlik) bavosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiyligidan hususiylikka qarab, induksiyada hususiylikdan umumiylikkiga qarab harakatlansa, analogiyada esa bir hususiy holatdan boshqa hususiy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o‘hshash hossalariga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obyektiv o‘hshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o‘z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalalar tuzilishi jihatidan o‘hshash bo‘lsa, ular aks ettirgan voqealikdagagi turli narsa va hodisalar ham ma’lum ma’noda o‘hshash bo‘ladi.

Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish obyektiv reallikning cheksiz ko‘rinishlari hamda unda mavjud bo‘lgan turli sistemalarning hossalari, munosabatlari, strukturalaridagi o‘hshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o‘hshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim hossalari o‘hshashligi asosida analogiya bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) ahborot o‘tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo‘ladi. Masalan, qadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida aytishicha, ota va bola qullikdan ozod bo‘lish uchun o‘zlariga qanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudot, uning qanoti yo‘q, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo‘lsa, u, ehtimol uchadi.

Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar hamda xulosa o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo‘lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi Aniq asoslardan ba’zan aniq, ba’zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o‘zining obyektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning hossalari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlardir.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o‘ziga hos qonun qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to‘g‘ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Argumetlash (dalillash) va ishonch-e'tiqodning shakllanishi

Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari o'zaro farqlanadi. Dalillash deb, biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yo'li bilan (kuzatish, tajriba-eksperiment va hokazo asosida) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berishga aytildi. Dalillash bevosita yoki vositali bo'ladi. Bevosita dalillash hissiy bilishga, ya'ni ko'rish, tajriba-eksperiment orqali amalga oshiriladi. Vositali dalillash esa, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslanadi va xulosa chiqarish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Dalillashning birinchi usuli empirik, ikkinchi usuli nazariy bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lganligi kabi, dalillashning yuqoridagi ikki usulga ajratilishi ham nisbiydir.

Dalillashning hususiy ko'rinishi mantiqiy isbotlashdir. Mantiqiy isbotlash deb, biror fikr, mulohazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar orqali asoslashga aytildi. Isbotlashdan maqsad-biror fikrning chinligini aniqlash bo'lsa, dalillashdan maqsad ham fikrning chinligini aniqlash, uning ahamiyatini va muayyan faoliyat uchun qo'llash mumkinligini asoslashdir. Isbotlash jarayonida qo'llaniladigan chin mulohazalar (asoslar) berilgan fikrning chinligini tasdiqlash uchun hizmat qilsa, dalillash, bundan tashqari, dalillanayotgan fikrning boshqa shu kabi fikrlardan afzalroq ekanligini asoslash uchun ham hizmat qiladi. Dalillash uchun keltirilgan argumentlar (asoslar) isbotlash uchun keltirilgan argumentlarga nisbatan rang-barang bo'ladi. Dalillash shakllari bilan isbotlash shakllari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Isbotlash xulosa chiqarish ko'rinishida amalga oshadi. Dalillash ko'proq suhbat (dialog) ko'rinishida bo'lib, uning ishtirokchilaridan har biri o'z fikrining chinligini isbotlashga, raqibining fikrini rad etishga va tinglovchilarining o'zini ham fikr qilishga, o'z fikrlariga ishontirishga harakat qiladi.

Dalilillash jarayonida resipientlarga (lot - qabul qiluvchi) – tinglovchilarga biror fikrning to'g'ri yoki xatoligi asoslab beriladi va ularda shu fikrga nisbatan ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Dalillovchi shahsning so'z san'atini qay darajada egallaganligi, ya'ni notiqlik mahorati tinglovchilarda ishonch-e'tiqodning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Dalillash va isbotlash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e'tiqod bu kishilarning xulq-atvori va hatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Isbotlash va uning strukturasi, isbotlash turlari

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo'llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo'lishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi, bilishda ko'p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni hodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'p hollarda bilish jarayonida natijalarining chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli-demonstratsiya.

Tezis-chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremalardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Argumentlar-tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bo‘lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta’riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar hizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o‘zaro bog‘langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo‘lishi lozim.

Ta’riflar ham chin hukmlar bo‘lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat - bu har qanday o‘zgarishdan iborat» degan ta’rif-chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko‘p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo‘ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli-demonstratsiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiyl bilimdan, masalan qonundan, argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan «O‘zbekiston - mustaqil davlatdir» degan hukm (tezis) ning chinligi «O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning halqaro miqqyosda e’tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo‘lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo‘lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis (\bar{a}) o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo‘lgan «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so‘ngra bu natijalarning xatoligi ko‘rsatiladi (3-bosqich) va demak tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm chin bo‘lsa «Modiy predmetlar strukturasiz mavjud» degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo‘ladi. Bizga ma’lumki, moddiy predmetlar strukturasiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o‘zaro aloqasisiz) mavjud emas. demak «Materiya harakatsiz mavjud» degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan fikrning chinligi asoslananadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Masalan «jinoyatni yo A, yo V, yo S shahslar sodir etgan» degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shahs ham, S shahs ham sodir etmaganligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shahs sodir qilgan» degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi-qat’iy sillogizmning inkor etib-tasdiqlovchi modusi bo‘yicha qurilgan:

$$a \vee b \vee c; \overline{\overline{b} \wedge \overline{c}}$$

a

Barcha muqobil variantlar to‘liq olingandagina xulosa chin bo‘ladi, ya’ni tezis isbotlanadi.

Raddiya, rad etish usullari

Raddiya-isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.

Birorta fikrning chinligini rad etish unga zid bo‘lgan fikrning xatoligini ko‘rsatishdan iborat bo‘lganligi uchun, raddiyani isbotlashning hususiy ko‘rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo‘lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiyadan (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo‘ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish ya’ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma’lum bir

tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislardan asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch hil usul bilan amalga oshiriladi:

- 1) tezisni rad etish;
- 2) argumentlarni rad etish;
- 3) demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonzchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan: «Sovet davrida O'zbekiston mustaqil respublika bo'lgan» degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda Respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruhsatsiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatlari ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Xin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha:

$$(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow \bar{b}) \rightarrow \bar{a})$$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbot-lamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

$$\frac{p \rightarrow q, \bar{p}}{\text{ehtimol, } q}$$

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezis chinligining, uning asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi.

MUAMMO. FARAZ. NAZARIYA.

Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bo'lmaydi. Bilish jarayonida ma'lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilishda, fonda esa, tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Mana shunday vaziyat, masalan, tabiyotshu-noslikda XIX asrning ohiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik

hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xarakterga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiyotshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonunlari va prinsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarни tushuntirish uchun yetarli emasligida, deb bilmox zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo'llanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlarning o'zining yetarli darajada sistemaga solinmaganligi, yahlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, muammoli vaziyat bilish taraqqiyotining turli bosqichlari va bo'g'inlarida olam va uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning obyektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Ilmiy muammoni qo'yish va hal qilish.

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni qo'yishga olib keladi.

Muammo - javobi bevosita mavjud bilimda bo'limgan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muhokama qilishning xarakterini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni yechishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi yetarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli hil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish kerak.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham, odatda ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutahassislar, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlari tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin».

Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

Gipoteza-o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli tahmin tarzidagi bilim shaklidir.

Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bo'lim shakli sifatida olib qarash zarur. Chin, ishonchli bilimlar hosil bo'lgunga qadar qo'yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo'lib, ular turli hil tahminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, gipoteza fikrlarimizning qurilishi, bilimlari-mizning mavjud bo'lish va rivojlanish shaklidir.

«Nazariya» termini keng ma'noda aqliy bilish, tafakkurni anglatadi, uni amaliyotdan farq qiluvchi faoliyat turi sifatida ifodalaydi. Tor ma'noda esa, nazariya ma'lum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalar, gipotezalarni sistemaga soladigan, predmetni rasional tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklini bildiradi.

Nazariyaning bunday talqini ilmiy bilishda empirik va nazariy bosqichlarning farq qilinishi bilan bog'liq.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to‘planadi, o‘rganiladi, sistemaga solinib, turli hil jadvallar, shemalar, garfiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, hususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin bir-biri bilan bo‘lgan aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o‘rtasida munosabatlarni o‘rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamental tushunchalar, umumi qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog‘liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o‘rtasida zaruriy aloqadorlik mavjud. Hususan, nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o‘rtasida mantiqiy aloqalarni o‘rnatishga, predmet haqida yahlit tasavvur hosil qilishga, uning mohiyatini tushuntirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Nazariya-ma’lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g‘oyalarni sistemaga solib, u haqida yahlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko‘rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: 1) empirik asos: nazariyaga aloqador faktlar, ularga mantiqiy ishlov berish natijalari; 2) boshlang‘ich nazariy asos: nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlari (aksiomalar), fundamental qonunlar (prinsiplar); 3) nazariyaning mantiqiy apparati: tushunchalarni hosil qilish va ta’riflash qoidalari, xulosa chiqarish (isbotlash) qoidalari; 4) olingan natijalar (xulosalar).

Ilmiy nazariya ohir-oqibatda real sistemanı, obektni aks ettiradi, uning tabiatini tushuntiradi va shu ma’noda o‘zining empirik asosiga ega. Lekin empirik asosining mavjudligi nazariyaning barcha tushunchalari ifoda etadigan predmet va belgilarning hissiy idrok qilinishi yoki nazariyaning barcha hollarda mavjud hodisalarni, ularning real hususiyatlarini va munosabatlarini aks ettrishini anglatmaydi.

Nazariyada borliq, asosan, modellar yordamida ideallashgan holda in’ikos qilinadi. Ideallashtirish jarayonida mavjud obektlar haqidagi empirik bilimga tayangan holda, haqiqatda mavjud bo‘lmagan va ba’zan mavjud bo‘lishi mumkin ham bo‘lmagan, lekin real mavjud predmetlarga ma’lum bir munosabatda o‘hshash obektlar haqidagi tushunchalar hosil qilinadi. Masalan, mehanika yechimini qidiradigan ko‘p masalalarda jismning shakli va o‘lchamlari (eni, bo‘yi, hajmi va shu kabilar) unchalik muhim ahamiyatga ega emas. Ayni bir paytda massa muhim ahamiyatga ega va shuning uchun ham massasi bir nuqtaga jamlangan hayoliy jism-moddiy nuqta hosil qilinadi.

Nazariyaning yuqorida biz ko‘rib chiqqan tiplari va boshqalari nazariy bilishning muhim vositalari sifatida fanda nihoyatda qadrlanadi. Ular tafakkurning strukturasi va qonuniyatlarini yaxshi bilib olishga imkon beradi.

Tayanch tushunchalar

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlataladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Chinlik – bu fikrning real voqelikdagi munosabatlarga mos kelish-kelmasligini ifodalaydi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalari umumi xulosalar, aksiomalar, qoidalari, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi.

Denotat – nomning mazmuni predmetini ifoda qiladi va mantiqdagi nom.

Deskriptiv atamalar - Gapda predmetlarni ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar.

Entimema – asoslardan biri yoki xulosasi qoldirilib ifoda etilgan sillogizm.

Epixeyrema – qisqartirilgan murakkab sillogizm.

Formallashtirish - konkret mazmunga ega bo‘lgan fikrlarni simvollar bilan almashtirish.

Kategoriya – tushunchaning maxsus turi.

Klassifikatsiya – tasnif.

Kontsept – nomning ma’nosи, predmetni muhim umumi belgilarini ifodalaydi.

Mahsulot – ko‘rish, eshitish, umuman besh sezgi tomonidan qo‘lga kiritilgan bilimlar.

Mantiq – tafakkur qonunlari, shakllari va usullarini o‘rganadigan fan.

Mantiqiy anliz – tadqiq etuvchi obyektni fikran tarkibiy qismlarga ajratish.

Mavhumlashtirish – (abstraksiyalash) – bilishda obyektiv reallikdagi predmet, hodisalarning eng muhim, asosiy, umumiy tomonlarini aniqlash.

Pragmatika - kishilarni belgilarga munosabatini, belgilar yordamida kishilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni o‘rganadi.

Predikatlar mantig‘i – mulohaza jarayonini hukmlarning ichki tuzilishini xisobga olgan xolda o‘rganuvchi formallahgan mantiqiy sistemadir.

Predikatorlar – predmet xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar.

Psixologiya – insонning ruhiy taraqqiyoti qonunlarini o‘rganuvchi fan.

Semantika – belgi bilan u ifoda qilinayotgan obyekt o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadigan fan.

Semiotika – belgilar haqidagi fan.

Sillogizm – ikki yoki undan ko‘p asoslardan yangi xulosa chiqarish.

Sillogizm terminallari – xulosa chiqarish uchun xizmat qiladigan tushunchalar.

Sintaksis - belgilar o‘rtasidagi munosabatlarni tilni qurish qoidalarini o‘rganadi.

Sintez – analiz yordamida butunning bo‘laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini yana fikran to‘plab yaxlit holda o‘rganish.

Sun‘iy til - ta‘biiy til negizida yaratilgan yordamchi infarmatsion belgilar sistemasi.

Taqqoslash – voqelikdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutni aniqlash uchun xizmat qiluvchimantiqiy usul

Tasnif – obyektiv predmetlar haqidagi bilimlarni tartibga solish.

To‘g‘rilik – fikr shakllari o‘rtasidagi bog‘lanishning mantiqiy qoidalariga mos kelish va kelmasligi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Formal mantiq nimani o‘rganadi?
2. Mantiq so‘zining lug‘aviy ma’nosini nima?
3. Mantiq fanining predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Bilish shakllari va bosqichlari qaysilar?
5. Tafakkur so‘zining ma’nosini izohlang.
6. Tafakkurning asosiy xususiyatlari qaysilar?
7. Tushuncha, hukm, xulosani izohlab bering?
8. Formal mantiqning asosiy qonunlari (tafakkur qonunlari) qaysilar?
9. Ayniyat qonunidan kelib chiqadigan asosiy talab nimadan iborat?
10. Nozidlik qonuning mohiyati nimada?
11. Uchinchisi – istisno qonuni fikr yurituvchi subyekt oldiga qanday talabni qo‘yadi?
12. Yetarli asos qonuni o‘zida to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan qanday talabni ifoda etadi?
13. Tushuncha deb nimaga aytildi?
14. Tushunchaning qanday turlari mayjud?
15. Tushunchalar o‘rtasida qanday munosabatlar bor?
16. Hukmning mohiyati nima?
17. Hukmning asosiy vazifasi.
18. Hukm voqelikka mos kelish darajasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
19. Hukmlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
20. Oddiy hukmlar deb qanday hukmlarga aytildi?
21. Oddiy hukmning qanday turlarini bilasiz?
22. Murakkab hukm deb nimaga aytildi?
23. Murakkab hukmnинг qanday turlarini bilasiz?
24. Mantiqiy kvadratni tushuntirig.

25. Predikatning mazmuniga ko‘ra oddiy hukm turlari qaysilar?
26. Xulosa chiqarish nima?
27. Xulosa chiqarishning qanday turlari mavjud?
28. Deduktiv xulosa chiqarishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
29. Sillogizm qanday xulosa chiqarish usuli?
30. Induktiv xulosa chiqarishning mazmuni qanday?
31. Bevosita xulosa chiqarish qanday shakllarda amalga oshadi?
32. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
33. Isbotlash tushunchasini izohlab bering?
34. Muammo nima?
35. Faraz, nazariya, muammo tushunchalari tushuntirib bering?
36. Muammoli vaziyat nima?
37. Isbotlash turlari: bevosita va bilvosita isbotlash qanday bo‘ladi?
38. Raddiya va rad etish usullarini tushuntirib bering?
39. Gipoteza tushunchasi va gipotezani qurish qanday?
40. Gipotezaning mohiyati nimada va uning qanday turlari mavjud?

6-mavzu: “Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Axloqiy tarbiya va madaniyat uyg‘unligi. (2 soat)

Reja:

1. “Etika” fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi.
2. Etikaning asosiy kategoriyalari, tamoyillari va me’yorlari.
3. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.
4. Nikoh – eng qadimgi axloqiy munosabat shakli sifatida.
5. Axloqiy tarbiya va madaniyat uyg‘unligi.

Tayanch so‘z va iboralar: Axloqshunoslik, etika, odob, xulq, axloq, noosfera, etosfera, fazilat, illat, axshilik va yomonlik, axloq ideal, baxt, muhabbat va nafrat, ezbilik va yovuzlik, hayotning ma’nosi,adolat, vijdon, burch, or-nomus, ideal, qadr-qimmat, baxt, axloqiy tamoyillar, vatangashlik, fidoiylik, erkparvarlik, tinchlikparvarlik, muomalaalilik, jo‘mardlik, hushmuomalaalilik, odoblilik, soddalilik, axloqiy me’yorlar, sabr-toqat, rostgo‘ylik, halollik, poklik, kamtarlik, oila, nikoh, axloqiy madaniyat, axloqiy tarbiya, davlat, mahalla, fuqarolik jamiyat, kasbiy odob, axloqiy madaniyat, “Ommaviy madaniyat”, kosmopolitizm, bioetika, evtanaziya, klonlashtirish, transplantatsiya, ksenotransplantatsiya, axloqiy kamolot.

Jamiyatdagi har bir inson yakka holda, tashqarida yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, uning butun hayoti va faoliyati davomida har-xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Jamoa bo‘lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun – qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya’ni ijtimoiy munosabat – xulq atvor, odob, xatti-harakat, prinsip va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat.

Etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o‘rganadi. **«Axloq» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe’lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so‘zining ko‘plik shaklidir.** «Axloq» iborasi ikki xil ma’noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot obyektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini

boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob - inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Etika fanining maqsadi va vazifalari. Milliy mustaqillikni mustaxkamlash jarayonida Etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni. Vatanparvar, millatparvar, halol shaxsni – zamonaviy barkamol insonni voyaga yetkazish va XXI asrda umumjahoniy miqyosda axloqiy muhitni yaratishga hizmat qilish Etika fanining eng dolzarb vazifalaridan ekanligi haqida ma'lumot berish.

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida Etikaning o'z o'rni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Yangicha yondashuvlardan biri-Etikada milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan yetuk shaxs bo'lmos'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiyashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botinii kuchdir.

Etika oldida qator global muammolarni ham qilishidek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosini bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy uchoqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman quollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqaror etish orqali hil qilish mumkin. Shuningdek, biologik Etika, ekologik Etika, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi

Etika va estetika. Etika boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning estetika bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos.

Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik), ham nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi.

Etika va dinshunoslik. Etikaning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo - axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-

qidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazganlar.

Etika va huquqshunoslik. Etikaning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin.

Etika va pedagogika. Etika pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnama darslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois Etika o'zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi.

Etika va ruhshunoslik. Qadimdayoq Etikaning ruhshunoslik bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istiklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiatni va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, Etika esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Etika va sotsiologiya. Etikaning sotsiologiya bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin Etikaning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Etika esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Etika va siyosatshunoslik. Etikaning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki noplkligi muammolari o'rtaga chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda Etika ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir.

Etika va ekologiya. Keyingi paytlarda Etikaning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan Etika ko'proq insonning o'zi, o'zgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XX va XXI asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik buhron manzarani o'zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko'proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai nazarlariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Axloq - oliv mavjudotga ato etilgan oliv ne'mat. Ya'ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o'z-o'zini va, iloji bo'lsa, o'zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Ixtiyor erkinligi eng avvalo ixtiyorning uch bosqichda voqe bo'lishi bilan bog'liq. Birinchi bosqich - ichidan faqat bittasini tanlab olish va harakatga aylantirish mumkin bo'lgan alohida xohish - istaklarning tug'ilishidan iborat. Ikkinci bosqichda mazkur xohishlarning o'z aro bir - birini tutib turishi, teng holatga keltirishi yuz beradi va bu-tanlov oraqlari bir qarorda to'xtash imkonini yaratadi. Uchinchi bosqich tanlangan xohishning o'ziga mos jismoniy harakatga o'tishi bilan belgilanadi.

Erkinlikka kelsak, shuni aytish kerakki, muayyan ixtiyorning berilgan erkinlik faqat tanlovning boshlanishida va tanlov jarayonidagina mavjud bo'ladi. Tanlov jarayoni tugashi bilan, ya'ni ikki narsadan birini tanlaganining zahoti ixtiyorning uchun berilgan erkinlikning vakolati tugaydi: siz ixtiyor qilib bo'ldingiz, bundan buyog'iga erkin emassiz, endi tanlagan narsangizga mos harakatni

boshlashingiz kerak. Demak, ixtiyor erkinligi tanlanayotgan ikki narsa oralig‘idagi fikrlash mobaynidagina voqe bo‘ladigan hodisadir.

Tanloving o‘zi esa ikki xil xohish o‘rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurashda faqat bitta hohish - qaysinisi kuchli bo‘lsa, o‘sha g‘alaba qozonadi: ham unisining, ham bunisining baravar tanlanishi mumkin emas. Ruhshunoslik nuqtai nazaridan tanlov hissiyotga asoslangan, qanday sabab orqali vujudga kelishi ahamiyatsiz bo‘lgan ruhiy omil. Etikadagi tanlov esa qadriyat bilan bog‘liq, aqlga asoslangan katigoriya. Birinchisi - bor narsa, ikkinchisi - bo‘lishi kerak deb hisoblangan narsa; birinchisi - mavjud omilni, ikkinchisi - idealni, me’yorni anglatadi. Shunday qilib, insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aqlga bo‘ysundirilgan ravishda, ideal va me’yorlarga mos tarzda cheklanadi.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar. Bular - axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy xatti-harakatlar.

Etikaning asosiy kategoriyalari

Etikada inson xatti-harakatining ikki qutbi - axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari tahlil va tadqiq etiladi. Axloqiylik - fazilatlarda, axloqsizlik esa illatlarda namoyon bo‘ladi. Bu ikki qutb - tushuncha kun-tun, oq-qora singari bir-birini inkor va ayni paytda, taqozo etgani holda mavjuddir. Zero, fazilat, Arastudan tortib Ibn Sinogacha bo‘lgan qadimgi faylasuflar ta’kidlaganlaridek, ikki illat oralig‘ida ro‘y beradi. Boshqacha qilib aytganda, fazilat ikki manfiylik o‘rtalig‘ida yuzaga keladigan musbat hodisadir. Chunonchi,adolat - zulm bilan mazlumlikning, saxiylik - isrofarchilik bilan baxillikning, iffat - qizg‘anchiqlik bilan rujuning o‘rtalig‘i sifatida voqe bo‘ladi.

Fazilat va illat shunday yirik hamda qamrovli atamalarki, ularning har biri o‘z ichiga bir necha emas, o‘nlab emas, balki yuzlab tushunchalarini oladi. Shu jihatdan Etika barcha falsafiy fanlar ichida tushunchalarining ko‘pligi va xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Ularni avvalgi ilmiy-uslubiy adabiyotlarda, xususan, lug‘atlarda Etika mezoniylar tushunchalari yoxud kategoriyalari, axloqiy mezoniylar tushunchalar, axloqiy tamoyillar, axloqiy me’yorlar, axloqiy munosabatlар, axloqiy hissiyotlar singari guruhlarga bo‘lib taqdim etilgan. Bunday «maydalashtirish», bizningcha, shart emas. Chunki u, birinchidan, tizimni murakkablashtiradi, ikkinchidan, muayyanlikdan yiroqlashtiradi, uchinchidan, tushunchalar bilan hissiyotlarni, me’yorlar bilan tamoyillarni farqlashda chalkashliklarga olib keladi, ularni rasmona idrok qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Zero, fan mazmunini taqdim etishdagi har qanday murakkablashtirishlar, chalkashliklar, tabiiyki, tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. Natijada mazmun mo‘ljallangan «o‘z egasiga» risoladagidek yetib bormaydi.

Shu sababli Etika fanida qo‘llaniladigan barcha tushunchalarni *uch guruhga* bo‘lishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bularning birinchisi - axloqiy bilish bilan real hayot o‘rtasidagi eng muhim aloqa va munosabatlarni in’ikos ettiruvchi, axloq ilmining mezoniini ifodalovchi tushunchalardir; ularni biz Etikaning mezoniylar tushunchalari yoxud kategoriyalari sifatida olib qaraymiz. Nisbatan qamrovli ikkinchi guruh tushunchalarini - axloqiy tamoyillar, uchinchi guruhnasi esa axloqiy me’yorlar deb taqdim etamiz. Birinchi guruh tushunchalari umumlashtiruvchilik, mushtaraklik xususiyatiga ega, ular faqat nazariyaga taalluqli. Ikkinchi va uchinchi guruh tushunchalari esa amaliy axloqqa tegishli bo‘lib, nisbatan muayyan, tor qamrovga ega; ular birinchi guruh uchun «moddiy asos» vazifasini o‘taydilar.

Darhaqiqat, «yurak va aql», «hissiyot va ong» bahsida G‘arb, ayniqla, XX asrda, so‘zsiz, birinchilikni aqlga, ongga beradi. Yuqoridagi kabi fikrlar istisnoli hollardir. Shu bois Etika nuqtai nazaridan muhabbat haqida gap ketsa, uni hissiyot deb yana buning ustiga, ta’riflash qiyin bo‘lgan tuyg‘u, deb ataydilar va uni tushuncha tarzida olib qarashdan cho‘chiydarlar. Vaholanki, muhabbat aynan axloqiy hissiyot va Etikaning bosh mezoniylar tushunchasidir.

Muhabbat va nafrat. Muhabbat bosh mezoniylar tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o‘z «hissa»siga ega. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov: «Juda ko‘p irfoniy tushuncha-istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», - der

ekan, ayni haqiqatni aytadi.²⁰ Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘tgan boblarning ba’zilarida biz bu tushunchaning mohiyati, turlari haqidagi Ilohiy Og‘ustin, Imom G‘azzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. Qo‘srimcha qilib shuni aytish mumkinki, muhabbat - insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo‘lishidir, u zo‘ravonlik yoki zo‘rma-zo‘rakilik bilan chiqisha olmaydigan hodisa. U me’yorlar, an’analar, qonunlarga bo‘ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas’uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u - insonni tash-qи va transsidental olam bilan bog‘laydigan, uni yolg‘izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch.

Muhabbatning obyekti doimo go‘zallik, manfaatsiz go‘zallik. U - Allohmi, Vatanmi, yormi - muhabbat egasiga undan-da go‘zalroq narsa yo‘q. Ayni paytda bir obyektni sevgan kishi boshqa obyektlarni ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo‘lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o‘z-o‘zicha», «yakka», «xudbin» muhabbatning bo‘lishi mumkin emas. Inson o‘zi o‘zgaga aylanganida, o‘zgani o‘ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, muhabbat - olyi tuyg‘u, shu ma’noda u olyi tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa-hodisalarga nisbatan ham qo‘llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g‘arblik mutafakkirlar, ba’zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini o‘likka (nekrofil), moldunyoga, pulga nisbatan qo‘llaydilar. Ularga nisbatan «o‘chlik», «ruju», «hirs» singari tushunchalarni qo‘llash ma’qul emasmikan?

Muhabbat ham, Etikadagi ko‘pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi - nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo‘ladi, obyektdan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko‘rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudlidigidir.

Ayni paytda, nafrat g‘azabdan keskin farq qiladi. U, g‘azabga o‘xshab, o‘z obyektini yo‘qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Uni muhabbat egasida o‘z muhabbati obyektiga nisbatan tashqi bir kuchning noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli o‘sha kuchga qarshi qo‘zg‘aladigan hissiyot deyish mumkin. U davomiylik tabiatiga ega, g‘azab kabi o‘tkinchi hodisa emas. Agar g‘azabning asosida inson fe’lining salbiy holati - oniy badjahllilik yotsa, nafrat uchun chuqur o‘ylab qabul qilingan uzil-kesil qaror yotadi. Ko‘rinishdan nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg‘otsa-da, ko‘p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Shu o‘rinda buyuk fransuz yozuvchisi Emil Zolyaning «Nima menda nafrat uyg‘otadi» degan estetikaga doir kitobiga yozgan so‘zboshisidan olingan quyidagi fikrni keltirish maqsadga muvofiq.

«Nafrat - muqaddas. Nafrat bu - kuchli va qudratli yuraklarning noroziligi, bu - o‘rtamiyonalik va pastkashliklardan qahrlanadigan odamlarning jangovar jirkanchi. Nafratlanmoq - sevmoq degani, o‘zida otashin va mardona qalbni his qilmoq, nimaiki sharmandalik va nodonlik bo‘lsa, o‘shanga nisbatan chuqur hazar tuyg‘usini tuymoq degani.

Nafrat yengillik beradi, nafratadolat o‘rnatadi, nafrat yuksaltiradi»²¹

Nafratdan tashqari yana *rashk* tushunchasi borki, u - ijtimoiy hodisa emas, ko‘p hollarda jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma’lumki, muhabbat egasi o‘z sevgisini va sevgilisini qizg‘anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg‘anish hissi me’yordan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta’rif-tavsif qilmaylik, me’yorning buzilishi, illat. Chunki uning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi: muhabbat egasi muhabbat lazzatiga noil bo‘lgani holda uning iztirobidan qochishga intiladi; o‘zi chekishi lozim bo‘lgan iztirobni o‘z muhabbat obyektiga o‘tkazishga harakat qiladi. Natijada ba’zan iztirobni yo‘qotishga intilish muhabbat obyektining o‘zini yo‘q qilishga, fojiaga olib keladi.

²⁰ Komilov N. Tasavvuf. I-kitob. Toshkent Yozuvchi, 1996. 48-b.

²¹ Zoly E. Sobranie sochineniy . V 26 tomax. T.24 Moskva. IXL, 1966. s. 7.

Ezgulik va yovuzlik. Asosiy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik - ezgulik va yovuzlik. Ezgulik Etikadagi eng muhim kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi - Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. «Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu a‘mol» uchligi «Avesto» dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rinni egallashi ham shundan.

Ezgulik - insonga eng kuchli ma’naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik qobig‘iga o‘rash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmani», ya’ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo‘lgani uchun jisman yo‘qotish, qanchalik bo‘yab-bejalmasin, ezgulik bo‘lolmaydi. U tom ma‘nodagi yovuzlikdir. Totalitar tuzumlar mafkurasida ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o‘lchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog‘liqligi shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo‘ladi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug‘ligi va tubanligini o‘lchaydigan muqaddas tarozuga o‘xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan-erishmagani shu mezon bilan o‘lchanadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlarni yovuz insonlar, sobiq sho‘rolar ittifoqini esa jamiyat sifatida «Yovuzlik saltanati» deb baholanishi buning yorqin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik. Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug‘iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma’lum o‘zbek tilidagi barcha Etikaka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo‘g‘i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To‘g‘ri, yaxshilik tushunchasining ko‘pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba’zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo‘la olmaydi.

Bu ikki juftlik tushunchalar orasida qat’iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. Yaxshilik asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog‘liq bo‘lgan ijobiy hodisa. Zero, unda mardlik, ochiqko‘ngillilik, halollik singari axloqiy me’yorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo‘lgan amaliy xatti-harakatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko‘tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag‘ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul-maoni»dek, «Xamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu - ezgulik, u ma’lum ma’noda abadiylik xususiyatiga ega, chunki Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ularshib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, Navoiyning o‘zi bevosita ko‘plab yaxshiliklar qildi - muhtoj odamlarga qarz berdi, bergen qarzlaridan kechib yubordi va h.k. Uning bu yaxshiliklari ajoyib ijobiy hodisa bo‘lgani holda, o‘tkinchilik tabiatiga ega, shuningdek, istisnoli hollarda namoyon bo‘luvchi qahramonlik ham, buyuk jasorat ham emas. Demak, ezgulik asosan bilvosita amalga oshiriladigan, uzoqni ko‘zlovchi, keljakka ham mo‘ljallangan, ya’ni strategik ahamiyatga molik axloqiy xatti-harakatlar majmui; yaxshilik esa, odatda, bevosita shu kun uchun dolzarblik xususiyatiga ega, ya’ni taktikaviy axloqiy

faoliyatdir. Shunday qilib, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa - ezgulik bilan aynanlashtirish to‘g‘ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, voqe bo‘lgan ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo‘lib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas: biror obyektga qilingan yaxshilik boshqa bir obyekt uchun yoki yaxshilik qilgan subyekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashhur o‘zbek xalq ertaklaridan biridagi ovchilar quvib kelayotgan bo‘rini qopga yashirib, qutqarib qolgan dehqonning holatini bunga misol sifatida keltirish mumkin: bo‘ri o‘ziga yaxshilik qilib, o‘limdan qutqargan odamni yemoqchi bo‘ladi, xayriyatki, tulki dehqonning joniga oro kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik qamrovli mezoniy tushunchalardan.

Adolat. Etikaning yana bir asosiy tushunchasi -adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o‘zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma’lum ma’noda axloq sohasidagi miqdor o‘lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o‘lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo‘l yo‘q.

Ma’lumki, axloqdagi eng oddiy, ibridoiy fazilatlar, chunonchi, mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud. Lekin hayvonlarda ular o‘z guruhiga, eng avvalo, o‘z surriyotiga qaratilgan bo‘ladi. Odamzod esa o‘ziga qondosh-qarindosh bo‘limgan o‘zgalarga - qavmdoshlariga ham ushbu hissiyotlarni namoyish etadi. Shunday qilib, axloqning ba’zi unsurlari hayvonlarda ham mavjud, faqat ular insondagidek aqlga emas, tabiiyatga asoslangan. Buni adolat mezoniy tushunchasida yaqqol ko‘rish mumkin. Albatta, hayvonlar uni tushuncha sifatida anglamaydilar, lekin u tabiiyat tarzida hayvonlar xatti-harakatida namoyon bo‘ladi. Masalan, Afrika savannalarida yoki changalzorlarida qurg‘oqchilik mavsumida hayvonlarning suvloqdagi xatti-harakatini olib ko‘raylik. Unday paytda suvloq hududida vahshiy hayvonlar, qanchalik och bo‘lmasin, o‘z o‘lja!lariga tashlanmaydilar: adolat yuzasidan ularning ham chan-qoqlarini qondirishlariga yo‘l qo‘yib beradilar - barcha hayvonlar bir-birlari tomonidan tashna jonzotlar sifatida qabul qilinadi. Biroq suvloqdan ma’lum masofa nariga o‘tilgach, yana o‘scha hayot - kushanda va o‘ljaning yashash uchun kurashi boshlanadi. Demak, adolatning ibridoiy ko‘rinishini hayvonlarda ham uchratish mumkin ekan. Qizig‘i shundaki, u yakka holda emas, ko‘pchilik hayvonlar - tashna jonzotlar jamoasida ro‘y beradi. Bu hodisa adolat tushunchasining ijtimoiylik xususiyatiga xos ba’zi holatlar insoniyat jamiyatidan ham ibridoiyroq ekanini, uning tarixi yanada qadimiyroqligini ko‘rsatadi.

Shafqat. Shafqat istilohi xozirgacha Etikaga doir asosiy o‘quv adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda asosiy mezoniy tushuncha sifatida taqdim etilmaydi. Vaholanki shafqatning ildizi inson shaxsiga bo‘lgan muhabbatga borb taqaladi, u ham muhabbat kabi qamrovli hissiyot. Agar muxabbat mehrga asoslansa, shafqat muruvvat bilan bog‘liq. Lekin u ayni paytda muruvvatdan jiddiy farq qiladi. Muruvvat bir insonning ko‘p xollarda o‘ziga aloqasi yo‘q boshqa bir insonga achinish hissi orqali yordamga qo‘l cho‘zishi bo‘lsa, shafqat kishining o‘ziga aloqador odamga, aybdor, gunohkor, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jazolanishga loyiq kimsaga kechirimlilik orqali insonparvarlik ko‘rsatishdir.

Burch. Yana bir muhim mezoniy tushuncha - burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U, yuqorida aytganimizdek, vijdon, e’tiqod, mas’uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog‘liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-harakati zamirida burch tushunchasi - burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiyl bo‘lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud.

Burch tushunchasining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri - uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy ma’no kasb etishi mumkin. Sobiq sho‘rolar fuqarosining o‘sha davr-dagi mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o‘ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Vijdon. Etikaning nihoyatda ta’sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon - Zigmund Froyd ta’biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma’lum bir vaqt ichida odamning o‘z nojо‘ya harakati tufayli yuzaga kelgan o‘ng‘aysizligi bo‘lsa, vijdon azobi, bu oddiy o‘ng‘aysizlik emas, balki qalb-dagi, odamdagи odamiylikka e’tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog‘iga – aysbergga o‘xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham Etikaning boshqa ba’zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon obyektga qaratilmaydi, u subyektning xatti-harakatlarini baholaydi, ya’ni unda subyekt o‘zi uchun ichki obyekt vazifasini o‘taydi. Ba’zan jamiyat talablari bilan vijdon o‘rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o‘tkinchilik xususiyati ma’lum ma’noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko‘zga ko‘rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Ko‘pincha vijdon tushunchasi o‘rnida imon iborasini uchratish mumkin. Imon aslida diniy tushuncha. Lekin hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlataladi. Masalan, kimnidir birov «imonli odam» deganida, uning musulmonlikka imon keltirgan-keltirmagani haqida o‘ylab o‘tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bo‘lishi ham mumkin. Chunki gap bu yerda o‘sha odamning dindorligi haqida emas, balki vijdonli, halol, rostgo‘y ekanligi to‘g‘risida ketyapti. Shu ma’noda vijdon bilan imonni egizak tushunchalar deyish mumkin. Diniy e’tiqodlarga munosabatlarning rasmiy tilda «vijdon erkinligi» deb atalishi ham ular orasidagi chambarchas bog‘liqlikdan dalolat beradi.

Nomus. Asosiy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomonidan, burch bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsnинг o‘z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo‘ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu - nomus qadr-qimmat tushunchasi bilan bir xil ma’noga ega, degani emas. Chunki qadr-qimmat shaxsdan o‘zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqligli tamoyilini o‘ziga nisbatan qo‘llashlarini talab qiladi. Nomus esa o‘z qadr-qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o‘ziga xos tarzda egallagan mavqeい va shu mavqeni dog‘ tushirmay saqlash-saqlamasligi bilan bog‘liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o‘sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi. Masalan, uyingizda bir kun kelib oddiy ishlarni bajarib ketadigan mardikor bilan nomi ketgan mashhur binokor-ustaning, bosh vazir bilan kotibaning, bobo bilan nabiraning nomusni tushunishi bir xil emas. Shu ma’noda qadr-qimmatni nomus tushunchasining dastlabki bosqichi, ibtidosi deb aytish mumkin.

Qadr-qimmat. Qadr-qimmat tushunchasi inson o‘z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligi, o‘z shaxsi oldida o‘zi ma’sul ekanligini anglash uchun xizmat qiladigan hissiyot. U nomus, g‘urur tushunchalari bilan bog‘liq, bir tomonidan insonning o‘z qadrini har qanday holatda ham yerga urmasligini taqozo etadi. Masalan, iste’dodli, vijdonli, ziyoli odam biror bir shaxsiy ishini hal qilishi uchun nokas boyvachchaga yoki to‘pos rahbarga yalinsa, garchand o‘z maqsadiga yetsa ham, bu o‘zi tomonidan o‘z qadrini yerga urishdir. Pirovard natijada o‘zini kamsitilgan xis qiladi, bundan afsus bilan yashaydi.

Qadr-qimmatning yana bir jihat – insonning boshqalar yoki jamiyat tomonidan kamsitilishi bilan bog‘liq. Bunda kishining hayotida egallagan haqiqiy o‘rinni atayin tan olmaslik, boshqa birov,

guruh yoki jamiyat tomonidan ko‘ra - bila turib, uni chetga surib qo‘yish va shu orqali uni iztirobga sloshi kabi usullarni qo‘llashdir. Bunday usullar ma’naviy saviyasi past odamlar orqali, qonunlari ishlaraydigan totalitar va avtoritar boshqaruvi hukumronlik qilgan jamiyatda ro‘y beradi. Bunga misol tarzida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi buyuk siymolarning qamashga, otishga hukm etilishini yoki iste’dodli ziyolilarga atayn unvonlar bermaslik, iloji boricha ular nomini xalqqa yetkazmaslikka harakat qilish hollarini keltirishimiz mumkin. Faqat bugina emas, Sho‘rolar tuzumida «soviet xalqi» deb atalgan millionlab fuqarolarning qadr-qimmati oyoq osti qilindi: ular ochlikka, suriznlarga, konsentratsion lagerlar azoblariga mahkum etildilar, qynoqlarga solindilar. Bularning hammasi faqat iqtisodiy qiyinchiliklar oqibati emas, balki mustabid tuzum tomonidan inson g‘ururini oyoqosti qilib, uni qo‘rroq, bo‘ysunuvchi jonzotga aylantirish uchun olib borilgan mash‘um siyosat edi. Chunki g‘ururini yo‘qotgan kishida qadr-qimmat hissi o‘ladi, u haqiqat, adolat va insoniy huquqlar tantanasi uchun kurashdan o‘zini olib qochadi. Zotan qadr-qimmat insoniy g‘ururning jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarda in’ikos etish shaklidir.

Lekin g‘urur me’yorida bo‘lishi kerak, ya’ni kishining asl qadr-qimmatiga mos kelishi lozim. G‘ururdagi me’yorning buzilishi kishini kibrga olib keladi: u o‘zining va boshqalarning qadr-qimmati to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lgani uchun kibrlandi, manmanlikka beriladi. Kibrli kishi o‘zini zo‘r deb biladi. Bu shunchaki ro‘y bermaydi. Aslida u o‘z qadr-qimmatining boshqalarnikidan past ekanligi tufayli, uni sun’iy ko‘tarishga harakat qiladi, ma’naviy bo‘shliqni boshqalarga past nazar bilan qarash orqali to‘ldirishga intiladi, bu yo‘lda yolg‘on va maqtanchoqlikdan toymaydi. Pirovard natijasida u atrofdagilardan ajratib qoladi, o‘zgalarning nafratiga sozovor bo‘ladi., asl o‘zligini topolmagan axloqsiz kimsaga aylanadi. Shu bois doimo insonning «o‘z o‘rnini»- qadr – qimmatini real bilishi, o‘zgalargagina emas, birinchi navbatda o‘ziga baho bera olishi muhimdir. Xullas, qadr-qimmat – insonning o‘zi, o‘zgalar va jamiyat tomonidan oliv qadriyat sifatida e’tirof etilishi, uning ma’naviy huquqlarining tan olinishidir.

Ideal. Bir qaraganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga voqelikdag‘i real, mavjud inson, hayotdagi hodisalar qiyoslanadi, ya’ni bor narsa yo‘q narsa bilan o‘lchanadi. Zero, ideal hayotda mavjud bo‘lishi mumkin emas - bu hammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal, yirik ma’noda, hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo‘lmaydi, uning mavjudlik sharti - o‘tgan zamon. Shunday qilib, idealga intilish shaxsning o‘z zamonasidagi odatiy sharoitga sig‘maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti-harakatidir. Bu xatti-harakat uchun namunani inson, hozirgina aytganimizdek, kelajakdan topolmaydi, chunki namuna tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi; axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo‘ladi va muayyan zamonga kelib, u ma’lum ma’noda mubolag‘aviy hamda afsonaviy ta’rif-tavsif bilan boyitiladi, ya’ni ideallashtiriladi. Bunga ideal odil podsho No‘siravon, odil yoki ideal sahovat egasi, jo‘mard inson Hotam Taiy Yamaniy siymolari yorqin misol bo‘la oladi.

Inson ideal sari intiladi, o‘z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliv axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunga to‘la erishib bo‘lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o‘ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy-hayotiy komillikni qo‘lga kiritadi.

Hayotning ma’nosisi. Mashhur alloma Majididdin Xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko‘p takrorlar ekan. Xo‘sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma’nosisi nimada?

Har bir inson o‘z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma’nosini o‘ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u Etikaning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma’nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko‘p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki hayotning ma’nosisi maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o‘z ichiga o‘nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog‘i, u muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma’nosiz» deb bo‘lmaydi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoni, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin. Mazkur kishi - «hayot egasi»ning bunday tabiatni jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o'z hayoti ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy-badavlat, to'kin-sochin yashashda deb tushunadi: harom-xarishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqlasdi yoki qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldiga hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam, o'g'irlasam» deydi. Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog'laydilar va jamiyatda yuksak axloq egasi, go'zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliv ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o'zidan keyin qoldiradigan «ikkinchim umr»da ko'radilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli hayotning ma'nosini ana shu tarzda tushunuvchilarning ko'pligi yoki kamligi natijasida ro'y beradi, bir so'z bilan aytganda, bunday tom ma'noda «elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan» odamlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan toifalar ikki umumiy ijtimoiy-ma'naviy guruhning biriga, ta'bir joiz bo'lsa, shartli ravishda dunyoviy deb ataladigan qismiga mansub.

Ikkinchim guruhni esa e'tiqodiy-diniy deb nomlash mumkin. Bu guruh hayotning ma'nosini Xudoni topishda, Unga yetishishda deb biladi. Bunda goho cherkov yoki shariat aqidalari orqali emas, balki muhabbat vositasida ham Xudoga murojaat qiladilar.

Baxt. Hayotning ma'nosini ideal bilan bog'liq bo'lgani kabi baxt atamasini ham hayotning ma'nosini tushunchasidan ajratib olingan holda tahlil etish mumkin emas. Zero, baxt inson o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushungani va shu ma'nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir. Har bir insonda qoniqish hissi undagi maqsadlarning takomilga yetganidagina ro'y beradi. Faqat bu takomilga yetish jarayoni bir umr davom etadi. Shu ma'noda buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt - har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», - deganida ko'p jihatdan haq edi.²²

Faqat bu qoniqish ham davomiylik tabiatiga ega ekanini unutmaslik lozim, uni lazzat bilan aynanlashtirish to'g'ri emas. Lazzat oniylik xususiyatiga ega, o'zini faqat jarayondagina namoyon etadigan hodisa va u moddiy hayotdagi real, ammo o'tkinchi ehtiyojlardan kelib chiqadi. Masalan, gastrologik yoki shahvoni lazzatni olib ko'raylik: deylik, siz kabobni xush ko'rasiz va lazzatlanib yeya boshlaysiz, lekin biroz muddat o'tgach, to'yasiz, boshqa yegingiz kelmay qoladi; shahvoni lazzat ham shunday. Baxt esa ma'naviy ehtiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin-ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boyta aytganimizdek, bir umr to'xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o'z ichiga oladi.

O'lim va o'lmaslik. O'lim va o'lmaslik Etikadagi eng murakkab tushunchalar sirasiga kiradi. Avvalo shuni aytish kerakki, o'lim shu paytgacha axloqiy tushuncha sifatida «rasmiy» olib qaralmagan. Vaholanki, uni eng katta yovuzlik, eng ulkan baxtsizlik tarzida talqin etish odat tusiga kirgan. Mantiqan olib qaralganda, ezgulik va baxtning ziddi bo'lgan tushuncha axloqqa taaluqli, ya'ni illatdir. Zero o'lim oliv qadriyat bo'lmiss inson hayotini kesib qo'yadi, uning ezguliklar, yaxshiliklar qilishga bo'lgan imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Masalan, Ibn Sino, juda bo'Imaganda, yana o'n yil yashaganida, 67 yoshga kirganida qanchadan - qancha ezgu ishlar qilgan, falsafa, tibbiyot va badiiy adabiyot sohasida ko'plab buyuk asarlar yaratgan bo'lur edi. O'lim uni, u orqali bizni ham ana shu ma'naviy ezguliklaridan mahrum qildi. Demak, o'lim, faqat biologik yoki tabiiy tushuncha emas, uning mohiyati axloqiylik bilan chambaras bog'liq. To'g'ri o'lim - haq. Lekin bu yerda o'limning turlari mavjudligini unutmaslik lozim.

O'limning birinchi turi, bu tabiiy, tashqi tabiat va inson ichki tabiatini bilan bog'liq o'lim. U ikki xil bo'ladi: birinchisi - odatiy o'lim, u qarilik tufayli, inson a'zolarining hayotni davom

²² Al-Farabi. Sotsialno-eticheskie traktati. Alma -Ata. Nauka, 1973. s. 3.

ettirishga yaroqsizligi tufayli ro'y beradi. Ikkinchisi – halokat, u biror bir tabiiy ofat, yoki tasodiflar tufayli voqe bo'ladigan o'lim.

Ikkinci turdag'i o'lim – jamiyat bilan bog'liq, u ham ikki xil bo'ladi. Birinchisi – majburiy o'lim, u odatda jazo shaklida amalga oshiriladi. Ikkinci xili – bu dunyodagi azob–uqubatlardan, ular hoh ruhiy, hoh jismoniy bo'lsin, qutilib, uyqu bilan mangu orom olish uchun ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan o'lim, totli o'lim yoki evtanaziya deb ataladi. Ayni ana shu ikkinchi turdag'i o'lim axloq bilan bog'liq. Chunonchi ikkinchi turdag'i o'limning birinchi xili – ulkan yovuzlik hisoblanadi. Shunga ko'ra o'lim jazosi yovuzlikka qarshi yovuzlik ko'rsatishdir. Bu haqda keyinroq bafurja to'xtalamiz.

Etikaning asosiy tamoyillari

Asosiy mezoniy tushunchalar (kategoriyalar) singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiyligi tarzda ko'zga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-harakatining umumiyligi yo'naliшини ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U - insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalari, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmati, uning baxtli bo'lishi huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Ovro'pa Uyg'o-nish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval Sharqda o'rta tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3-4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir mix xatlarida uchraydi.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq-huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiyligi intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliv huquqi – erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz inson - asir, erksiz millat - qul, erksiz mamlakat - mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir.

Erkparvar inson qullikning, mutelikning har qanday ko'rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma'nodagi jangchisiga ham aylanadi. Bu jangchi bir tomonidan, har bir shaxsning so'z erkinligi, o'z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqi, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomonidan, butun-butun millatlar erki masalasini o'rta tashlar ekan, ma'lum ma'noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi.

Vatanparvarlik. Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu - vatanparvarlik. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy quroq sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng - u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi xatti-harakatlardir. Vatan himoyasi, bu - inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg'u hissini tuyush, Vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich yeriga, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Zotan, ma'lum bir mamlakat fuqarosi o'sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo'lmagligi ham mumkin. Turli shart-sharoit taqozosini bilan boshqa bir hududga, mamlakatga kelib qolib ketgan fuqarolar, o'z tarixiy vatanidan olisda tug'ilganlar kam emas. Ularning ko'pchiligidagi «tarixiy Vatan» tushunchasi xayoliy bir qo'msash,

shirin g'ussa, o'tkinchi intilish tarzida ifoda topadi. Aslida esa bu - mazkur Vatanga muhabbat emas, balki o'z ajdodlariga, olis xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi; haqiqiy muhabbat esa, sharoit har ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda, hozir yashab turgan Vatani va vatandoshlariga nisbatangina mavjud ekani aniq-ravshan ayon bo'ladi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu -millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.

Shu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lida, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar - milliy o'zligini anglab yetgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahoning faxrlanishini istaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yirlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy-huquqiy idoralar va tuzilmalar tomonidan bunday odam rasmona, jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo'lishi, huquq bilan hisoblashgan holda axloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o'z mamlakatidagi jinoyat kodeksini tan olishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo'rqadi-yu, vijdon azobini bilmaydi.

Shu fikrlarni endi misolda ko'raylik. Deylik, kuz kunlaridan birida O'rdadagi Anhor bo'ylab shoshib ketayotgan odam suvgaga cho'kayotgan, yordamga muhtoj kishini ko'rdi. Lekin darhol o'zini suvgaga otib, uni qutqarmadi. Chunki birinchidan, cho'kayotgan u emas, ikkinchidan, egnidagi kostyum-shim suvgaga tushsa rasvo bo'ladi, uchinchidan, uning vaqt yo'q, foydali bir ish yuzasidan uchrashuvga ketyapti, to'rtinchidan, suv sovuq, shamollab qolishi mumkin, beshinchidan, axir, bu odamning cho'kishiga u sababchi emas-ku! Shunday qilib, bir odam cho'kib ketdi, ikkinchi bir odam, buni ko'ra-bila turib, o'z yo'lida davom etaverdi. Buning uchun uni qamamaydilar ham, jarimaga tortmaydilar ham. U haqda faqat, qanday beshafqat, vijdonsiz odam ekan, deb fikr bildiriladi, xolos.

Endi boshqa bir o'tkinchini tasavvur qiling: u shu zahoti o'zini suvgaga otib, cho'kayotgan odamni qutqardi, dastlabki yordamni ko'rsatdi va taksiga harajat qilib uyiga qaytdi: kiyim-bosh shalabbo, kattagina foydadan qoldi, besh-olti kun shamollab, dori-darmonga ham mablag' sarfladi. Lekin u bunga achinmaydi. Voqeani eslaganida afsuslanmaydi, balki o'z xatti-harakatidan qoniqish tuyib, jilmayib qo'yadi, hatto bu xotirlash unga ruh beradi.

Bu hodisada biz ikki xil tamoyil bilan harakat qilgan ikki kishini ko'rib turibmiz: birinchisi - xudbin, ikkinchisi - fidoyi inson. Garchand, qonun birinchi kishini xudbinligi uchun jazolamagani barobarida ikkinchi kishiga fidoyiligi uchun alohida imtiyoz bermasa-da, jamiyat, mahalla-ko'y, odamlar ularga ikki xil munosabatda bo'ladilar: xudbinlikdan ijirg'anib, nafratlanadilar, fidoyilikdan hayratlanib, minnatdorchilik bildiradilar.

Demak, fidoyi insonga boshqalar tomonidan bu qadar izzat-hurmat ko'rsatilishiga sabab shuki, u istisnoli holatlarda o'zining odatiy-kundalik hayotiy majburiyatlarini va munosabatlari darajasini ixtiyoriy ravishda oshira olish qudratiga ega bo'ladi.

Ziyolilik. Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushuncha ma'nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keldi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hayotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual - aqliy taraqqiyot bilan bog'liq. Shu bois uni inson paydo bo'lganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk olmon faylasufi, «Frankfurt maktabi»ning namoyandasasi Teodor Adorno Ikkinchi jahon urushidagi genosiddan so'ng, ziyolilik - axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

Mehnatsevarlik. Inson barcha mavjudotlar ichida xatti-harakatlarining, faoliyatlarining ko‘pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti-harakatlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan qismidir. To‘g‘ri, mehnatga o‘xhash xatti-harakatlarni qaldirg‘ochning in qurishida ham, polaponiga baliq tutib keltirayotgan chorloqda ham, yer kavlayotgan yumronqoziqda ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu xatti-harakatlar savqi tabiiyya - tabiiyyatga (instinktga) asoslangan. Inson mehnati esa, aql vositasida amalga oshadi, u o‘zi, yaqinlari, o‘z jamiyati va kelajak avlodning yaxshi yashashi uchun mehnat qiladi. Shu sababli mehnatni sevgan odam ijtimoiy-iqtisodiy sharoit risoladagidek yo‘lga qo‘yilgan jamiyatda o‘z ehtiyojlarini qondirib, farovon yashashga tuyyassar bo‘la oladi, ishyoqmas odam esa aksincha, har qanday sharoitda ham hech qachon biri ikki bo‘lmaydi. Bundan tashqari, mehnatsevar inson jamiyat a’zolari tomonidan e’zozlangani barobarida, dangasa odam ijobiy shaxs sifatida qabul qilinmaydi.

Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini namoyish etishiga, o‘zligini ro‘yobga chiqarishiga, o‘zgalar bilan munosabatlar o‘rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondon halollikni, intizomni, ishtiyoy va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan subyektiv tarzdagi ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

Ma’lumki, mehnatdan maqsad - ehtiyojni qondirish. Lekin bu ehtiyojni qondirishning qaytarzda, qanday ma’naviy-ruhiy sharoitda amalga oshuvi muhim.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to‘kishning har qanday ko‘rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch-totuv yashashga bo‘lgan ijobiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig‘inlarda ma’ruzalar qilish emas, balki faol xatti-harakat, yushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoyi insonlardir. Ularning ana shu fidoyilarcha xatti-harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga takrorlanmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o‘z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy-madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o‘zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

Jo‘mardlik. Jo‘mardlik tamoyili esa Sharqda qadimdan mavjud. Ovro‘pada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritganini aytib o‘tgan edik. U - kishidagi o‘z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg‘usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O‘z manfaatidan o‘zga manfaatini ustun qo‘yib, «o‘z og‘zidagini o‘zga og‘ziga tutib» yashash jo‘mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu - oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko‘rinishiga qarshi o‘ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat‘iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy-me’yoriy talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog‘liq axloqiy tamoyil. Chunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg‘otadi, jo‘mardlik ko‘rsatmagan odam esa bunday ma’naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jo‘mardlik mohiyatan «oddiy odamlik qobig‘idan chiqqa bilish», ilohiylik sifatlariga ega bo‘lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Bundan tashqari, bizning milliy axloqshunosligimizda o‘zbekchilik, mehmono‘stlik kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxshi an‘analariga sadoqat tuyg‘usidan kelib chiqadi va o‘zbek kishisiga xos bag‘ri kenglik, do‘stga, mehmonga borini bag‘ishlashdek xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘zbekchilik tamoyilini o‘z hayot tarziga singdirib yuborgan kimsaning nomi el-yurt orasida «baraka topgur» iborasi bilan qo‘sib aytildi. Qishloq yoki mahalladagi hasharlarda, ma’rakalarda «qamishdan bel bog‘lab» xizmatda turish, bemor mahalladoshi yostig‘i ustida dalda berishga doim vaqt topa olish, qo‘ni-qo‘shnilariga haqiqiy hamsoya bo‘lib yashash o‘zbekchilikning asosiy unsurlaridir. Yoki mehmono‘stlikni olaylik. Milliy-mintaqaviy an‘analarga asoslangan bu tamoyil ma’lum ma’noda o‘zbekchilik bilan singishib ketadi. Masalan, g‘arb kishisi o‘zi taklif qilmagan

kishini eshikdan muloyim savol-javob bilan qaytarib yuboradi, axloqiy majburiyatdan o‘zini ozod deb hisoblaydi, o‘zining erkinlik huquqini ustuvor sanaydi. O‘zbek esa, eshikdan kelgan kishini «bir piyola choyga» taklif etadi, kirsa, juda bo‘limganda, oldiga non-choy qo‘yadi, notanish bo‘lsa, tanishadi, hol-ahvol so‘raydi, millatidan qat’i nazar, unga hamdard, ko‘makdosh bo‘lishga intiladi va buni axloqiy majburiyat tarzida emas, bir an‘anaviy odat deb izohlaydi.

Ayni paytda bu tamoyillarni suiste’mol qilish ham hozirgi paytda tez-tez uchrab turadi. O‘zi qo‘l uchida kun ko‘rib turgani barobarida qarz-havola bilan katta to‘ylar o‘tkazish, to‘ylardagi isrofarchiliklar, hatto aza oshlarini ham «kim o‘zarga» tarzida berish, charlar, beshik to‘yi singari marosimlarga dong chiqarish uchun ayamay mablag‘ sarflash, artistlarga qistirishlar, hatto boshidan pul sochishlar singari holatlar shular jumlasidan. Bunda biz fazilatning me’yor buzilishi natijasida illatga aylanganini ko‘ramiz.

Lekin o‘zbekchilik va mehmondo‘stlikni bunday noto‘g‘ri tushunish sho‘rolar davridan kelayotgan sарqit, o‘tkinchilik tabiatiga ega bo‘lgan hodisalardir. Aslida o‘zbekchilik va mehmondo‘stlik tamoyillari xalqimizning o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Jahonning juda ko‘p xalqlari bu tamoyillar egasi bo‘lmish o‘zbek millatiga doimo ehtirom, havas va hayrat bilan qaraydilar.

Nikoh va oila axloqiy asoslari

Inson kamoloti oiladan boshlanadi. Oila kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko‘ra, jismonan sog‘lom, ma’nан barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga yetkazish oiladan boshlanadi. Oiladagi sog‘lom muhit – sog‘lom mafkurani shakllantiradi. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o‘zaro bir- biriga hurmat, bir- biriga vafodor va sadoqatl bo‘lishga chaqirish bilan milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshiradi. Oila qurgan yoshlar hayot qiyinchiliklarini birga yengishga, bolalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga, ota-onalarini e’zozlab ardoqlashga, bir- biriga mehribon bo‘lgani holda, hurmat ko‘rsatishga intiladilar. Oilada ota – onalar ham o‘z farzandlarini millatiga, vataniga sodiq hizmat qilish uchun to‘g‘ri tarbiyalashga harakat qiladilar.

Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo‘lib, u fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga hizmat qiladi.

Nikoh o‘z mohiyatiga ko‘ra ahloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo‘ysundiriladi. Oila quyidagi xolatlarda quriladi:

1. sevgi – muhabbat bilan;
2. hissob – kitob bilan;
3. urf – odat an‘anaga ko‘ra;
4. majbur bo‘lib qolgan holatlarda;

Oilaviy muhit. Oilaning mustahkamligi oila a’zolarining axloqiy tarbiyasiga bog‘liq. Xalqimizda bejiz «Sog‘lom turmush tarzi mustaxkam oilaning garovidir» deb aytilmagan. Sog‘lom turmush tarzi deganda biz nafaqat oiladagi er va xotinning bir – biriga bo‘lgan munosabati balki, ulardagi axloqiy fazilatlar, imonlilik, poklik, halollik, rostgo‘ylik, shirinso‘zlik, kabi axloqiy me’yorlarga amal qilgan xolda urf – odatlarga asoslangan, zamonaviy oilani tushunamiz.

Oila tashvishi ko‘proq ayol zimmasiga tushadi. Xalqimizda bejiz «Insonlar hamma vaqt ayollar istagani kabi bo‘ladilar, agrda buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojingiz bo‘lsa, ayollarga buyuklik va fazilat o‘rgating». – deb aytishmagan.

Oilaning mustahkamligi va totuvligi ko‘p jihatdan ayollarga bog‘liq dedik. Ammo bu fikr, oilada erkaklarning mas’uliyati kam ekan, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. J.Mazdani aytganidek «Erkak va ayol – bamisolik ikki mayin tovushki, inson qalbidagi torlar ularsiz haqiqiy va to‘laqonli ohang berolmaydi.» Darhaqiqat, erkaksiz oila bu baxti kemtik, yarimta oila demak, «erkak-oilaning ustuni» deb bekorga aytilmagan. Oilada azaldan erkaklar ro‘zg‘orning eng og‘ir yumushlarini o‘z zimmalariga olib kelganlar. Ota – bobolarimiz ham oila tinchligi avvalo erkakka bog‘liq, deb bilganlar.

Fuqarolik jamiyatining axloqiy asoslari

Dastlabki axloq maskani bo‘lmish oilalar yig‘indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati mohiyatan oila bilan davlat o‘rtasidagi daraja. Garchand, uning taraqqiyoti davlat taraqqiyotidan keyinroq ro‘y bersa ham, u albatta davlatni taqozo etadi, ya’ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir - rasmiy, tizimli boshqaruv bo‘lishi kerak.

Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, hozirgi paytdagina fuqarolar huquqi haqiqatan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida har bir odam o‘zi uchun maqsad. Biroq, u boshqalar bilan munosabatga kirishmasdan turib, o‘z maqsadiga to‘la erisha olmaydi: boshqalar uning maqsadga yetishishi yo‘lidagi vositadir. Natijada har bir alohida maqsad boshqalar bilan o‘zaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini qanoatlantirgani holda, o‘zi ham qanoatlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bo‘lgan har bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o‘shanday yashashiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati, shunday qilib, bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirishi barobarida, shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham ehtiyojini qondiradi. U o‘z a’zolarining shaxsiy erkinliklari va huquqlarini himoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga daxl qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ro‘y berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs - davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlari birinchi o‘rinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, ham axloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi. Zotan, «Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam deradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yogba chiqishiga ko‘maklashadi»²³.

Fuqarolik jamiyatining yashash sharti - erkinlik. Shaxsning qonun doirasidagi so‘z erkinligi, fikr erkinligi va faoliyat erkinligiga to‘la yo‘l qo‘ylmas ekan, fuqarolik jamiyati amalda mavjud bo‘la olmaydi. Bu jamiyatning yana bir muhim tomoni shundaki, unda qarindoshlik, urug‘doshlik, elatdoshlik singari hissiyotlardan kasbdoshlik, mahalladoshlik hissiyotlari ustun maqomga ega bo‘ladi; yonma-yon ishlayotgan va yashayotgan jamiyat a’zolari, «begonalar» - umumiy maqsad uchun kurashayotgan hamma yelkadoshlar o‘zlarining uzoq qarindoshlaridan ko‘ra bir-birlariga yaqinroq ekanliklarini anglab yetadilar. Undagi boshqaruv esa erkin tanlov va erkin saylov asosida, hokimiyat idoralari tazyiqidan qonun bilan himoyalangan ixtiyoriy tuzilmalar ko‘magida ish olib boradi.

Mamlakatimizda hozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma’lum ma’noda, g‘arbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. G‘arbda bu borada e’tibor asosan huquqiy yo‘nalishning ustuvorligiga qaratilsa, bizda axloqiy-ma’naviy yo‘nalishning ustuvorligini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz qurayotgan fuqarolik jamiyati G‘arb dunyosi uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin. Bu faxrlanish hissidan kelib chiqqan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, G‘arb jamiyatları hozirgi paytda axloqiylikni huquqiylikning yuqori bosqichi sifatida qabul qilmoqdalar. Lekin ular uchun «axloqiy o‘rin bo‘shatishdan» ko‘ra «huquqiy o‘rinni egallab turish» nafaqat qonuniy, balki zavqliroq tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa buning aksi - har bir «axloqiy o‘rin bo‘shatish» o‘zbek qalbiga quvonch, o‘z insonlik burchini bajarganlik hissini to‘ldiradi.

Bundan tashqari, bizda fuqarolik jamiyati qurishni ma’lum ma’noda tezlashtiradigan, G‘arb mentalitetiga xos bo‘lmagan makon borki, bu mahalladir. O‘zbek mahallalari tom ma’noda axloqiy tarbiyaning maskani; oila kattalari bolaga qanchalik tarbiya bera olsa, o‘sha oila yashayotgan mahallaning tarbiya borasidagi hissasi ham shuncha bo‘ladi, desak xato qilmaymiz. Buning ustiga, mahallada xalqimizning qadimiy demokratik an’analari hozir ham o‘z kuchini yo‘qotgan emas. Mahallada yashayotgan hukumat a’zosi ham, millioner tijoratchi ham, farrosh ham, oddiy o‘qituvchi ham bir xildagi mahalladoshlik huquqiga ega. Chunonchi, mahallaning oqsoqoli oddiy

²³ Karimov I.A. Asarlar. 15 tomlik. T.6. /Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. Toshkent. O‘zbekiston. 1998, 127-b.

o‘qituvchi bo‘lishi mumkin va ko‘p hollarda shunday ham. Hukumat a’zosi yoki millioner esa, mahallada faqat mahalladoshlik «lavozimi»da bo‘ladi. Ularning farqlanishi faqat axloqiy jihatlari bilangina belgilanadi. Ana shu xususiyatlari bilan mahalla o‘z-o‘zini boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o‘tish uchun axloqiy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Bunday oraliq bog‘lovchi tuzilma, yuqorida aytganimizdek, G‘arb olamida yo‘q. Demak, shunga ko‘ra ham, bizda fuqarolik jamiyatiga o‘tish nisbatan osonroq kechadi, degan fikrni bildirish mumkin.

Shunday qilib fuqarolik jamiyati muayyan xalq uchun jam bo‘lib, jamoat tarzda yashashning eng oliy shaxsi hisoblanadi va nosiyosiy bo‘lgan barcha munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Unda shaxs erkinligini, «individning ochilishi» ixtiyoriy tarzda tuzilgan fuqarolar uyushmalari, tashkilotlari va birlashmalari doirasida o‘zini namoyon qiladi; iqtisodiy, diniy, ma’naviy, axloqiy-estetik milliy, oilaviy v.b. munosabatlar davlat idoralarining aralashuvisiz, o‘z-o‘zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

Davlatning axloqiy mohiyati

Buyuk olmon faylasufi Hegel davlatni axloqiy g‘oyaning voqe bo‘lishi deb ta’riflaydi va tabiiy munosabatlarni ma’naviy munosabatlar bilan muqoyosa qilib, oilani - hissiyotga, fuqarolik jamiyatini - asabning ta’sirlanish qobiliyatiga, davlatni esa o‘zi uchun asab tizimiga o‘xshatadi; u o‘z ichida botinan tashkil topgan, biroq uning yashashi o‘zida ikki holatning taraqqiy topishiga bog‘liq, bular - oila va fuqarolik jamiyati. Davlat aqlning ro‘yobga chiqishi sifatida har bir shaxs ixtiyoriga mosdir. Odatda, davlatning maqsadi o‘z fuqarolarini baxtli qilish deb hisoblanadi. Agar fuqarolar qiyalsa, ularning subyektiv ehtiyoj-maqsadlari qondirilmasa, davlatning mustahkamligi shubha ostida qoladi. Davlatning asosi – siyosiy tuzum. Uning taqdiri ham ana shu siyosiy tuzumga bog‘liq.²⁴

Ko‘pdan-ko‘p turli-tuman boshqaruv va tashkiliy institatlardan iborat bo‘lgan davlatning eng muhim axloqiy vazifalaridan biri - tarbiya. Agar mazkur tarbiyada ommabop usullarning toshi bosib ketsa, u hol maqtarli emas; yoshlarning o‘zligini anglagan shaxs bo‘lib yetishuvni mushkullashadi. Shu bois, imkon boricha, tarbiyada individual yondashuvga intilish maqsadga muvofiq.

Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlarida davlat, hamma fuqaro baravariga teng, degan usulda ish ko‘rmasligi lozim, hammaning huquqiy tengligini tan olgan holda, ijtimoiy tenglashtirish tamoyiliga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Davlatning mavjud bo‘lish sharti, eng avvalo, uning suverenitetida. Bunda xalq tashqi olamga nisbatan mustaqil bo‘ladi va o‘z davlatini shu mustaqillik asosida tuzadi. Shu bois suverenitet to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Davlat suvereniteti eng avvalo millat suvereniteti demakdir. U shaxs mustaqiliginini, huquqlarini kafolatlaydigan va millat hukmronligini to‘liq ta‘minlaydigan ijtimoiy-siyosiy hodisalar. Millat suvereniteti birinchi navbatda ularning siyosiy jihatdan o‘z - o‘zini boshqarishda qadimdan egallab kelgan hudud va undagi foydali qazilmalarga egalik qilishda, o‘zi tanlagan davlat hokimiyatida hamda milliy fuqarolikda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, inson suvereniteti ham davlat suverenitetining muhim qismi hisoblanadi. U fuqaroning yashashga, mustaqil dunyoqarashga bo‘lgan huquqi bilan belgilanadi va zulmga,adolatsizlikka, ochlikka, shaxs erkinligining buzilishiga qarshi kafolatlar majmuuni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib suveren davlat inson huquqlarini, shaxs nomusi va qadr - qimatini himoya qilishni o‘zining asosiy vazifasi, deb biladi. Uning yuksak axloqiy mohiyati ham ana shunda. Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin o‘z davlatimizni qadimiy davlatchiligidimizning eng yaxshi an‘analari bilan birga zamonaviy demokratik tamoyillar asosida qurishga kirishdik.

Axloqiy madaniyat. Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalaniishi, o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator

²⁴ Qarang: Gege G. Filosofiya prava. Moskva. Misl, 1990. s.290.

unsurlarini o‘z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Muomala odobi Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U, mohiyatan, o‘zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o‘zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog‘lom kishi usiz ruhan qiyonaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o‘rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o‘ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe’llilik singari axloqiy me’yorlarda namoyon qiladi.

Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosiy bo‘lmish til katta ahamiyatga ega. zero odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar. til vositasida o‘z fikrini o‘zgaga yetkazish ma’lum ma’noda san’at. Zarur so‘zni topishi, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo‘llash, fikrni jumlaviy jihatdan to‘g‘ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so‘zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o‘ynaydi, so‘zlovchining nutq madaniyati darajasini ko‘taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosan uch xil ko‘rinishi mavjud. Birinchisi - bir tilda so‘zlashayotib ikkinchi tilga o‘tib ketish, to‘g‘rirog‘i birvarakay «ikki tilda» so‘zlashish. Bunga ikki talabaning so‘zlashayotganda o‘zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o‘zbekchaga muntazam o‘tib turishini misol qilib keltirish mumkin. Bu ba’zilari uchun odatiy xol bo‘lib qolgan. Ikkinchisi - bir tilda so‘zlashayotib ikkinchi tildagi so‘zlarni ayniqsa jargonlarni ishlatish. Masalan, «damningni ol», «karache», «quri», «harip», «voobshim» v.h. Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so‘zlashgan holda o‘sha tildagi «parazit» so‘zlarni qo‘llashda ko‘rinadi. M., «anaqa» «holiginday» v.h. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda hunuk ko‘rinadi.

Muomaga odobiga «siz» va «sen»ning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-onas, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar bo‘lganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo‘llash odobdan hisoblanadi. Masalan, «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni hohlayaptilar» v.h.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo‘lib turish, qo‘lni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o‘tirgan holda tinglash, birov jon kuydirib so‘zlayotganda esnash va boshqa shunga o‘xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Etiket. Axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishidan biri, bu - etiket. U ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o‘z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma’lum ma’noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k. Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez televizor ekrani orqali ko‘rib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga horijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o‘rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarining ham buzishga haqqi yo‘q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o‘ng qo‘lda ushslash zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat’iy qoidalardan biri sanaladi - uni buzish atrofdagilarda hayrat va

istehzo uyg‘otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat’iy lashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin.

Etiketning bunday zamonaviy ko‘rinishlari bilan birga, shunday milliy-an’anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko‘raylik. Etiketning bu turiga ko‘ra, ko‘chadan o‘tib ketayotgan odam, ko‘cha bo‘yida o‘tiganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda o‘ng qo‘l chap ko‘krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa yengil ta’zimga egilishi lozim. Ko‘rishish etiketida esa qo‘Ining uchini berib salomlashish ko‘rishayotgan odamga nisbatan ginaxonlik, xafagarchilikni bildiradi - odobdan emas. Ko‘rishganda yosh yoki martaba nuqtai nazaridan katta kishi birinchi bo‘lib qo‘l uzatishi lozim; ayollar bilan ko‘rishganda ham erkak kishi tomondan shunday etiket qoidasi bajarilmog‘i talab qilinadi.

Kasbiy odob. Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o‘z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro‘y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o‘rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga bafurja to‘xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlari borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko‘philik jamiyat a‘zolarining hayot-mamotlari, sog‘ligi, ma’naviy sog‘lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo‘lishi kabi omillar o‘shanday imtiyozli kasb egalarining o‘z kasbiy burch mas’uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko‘rishlariga bog‘liqligi hammaga ma’lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo‘lida jarroh o‘z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya‘ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo‘lida, kasbinining kamyobrigidan foydalanib, begunoh kishilarni ma’naviy azobga qo‘yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o‘zining ba‘zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchrangan shaxsning adoi tamom bo‘lishi hech gap emas. Xo‘sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi?

Shu bois boshqalarning qo‘lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o‘zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiiste’mol qilish singari illatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta’minlash maqsadida ko‘p hollarda o‘zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki me’yorlar ko‘rinishini olgan. Uni buzish o‘ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan Qadimgi Yunon hakimi Hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo‘nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalari jamlangan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o‘z dushmanini davolagan tabiblar ham ko‘p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo‘l bor edi: biri - saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo‘l davolashdan bosh tortish bilan uni o‘limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so‘ng tabiblik odobi qoidalari bo‘ysunishni - Lakshmanni davolashni afzal ko‘radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko‘ra, bemor to‘shagi ustidagi tabib uchun do‘st yoki dushman degan tushunchalar o‘z ma’nosini yo‘qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanih hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo‘lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo‘l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma’naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o‘qiydi.

Axloqiy tarbiya va uning vositalari, omillari

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta’minlaydigan uzlusiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o‘zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me’yorlar asosida yashashga o‘rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi - nima qilmog‘-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko‘rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma’nosи, avvalo, ota-onaning o‘zi axloqiy tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerak degani. Zero, qush inida ko‘rganini qiladi: ota-onal oilada yuksak axloq namunasini ko‘rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatichilik qarashlari ko‘p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To‘g‘ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne’mat. Shu ma’naviy ne’mat -asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo‘lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo‘llaridan biri. Uning vositalari ko‘p. Ularning bir qismi *an’anaviy tarbiya vositalari* bo‘lsa, yana bir qismi *zamonaviy vositalar*. Odatda, har ikki turdagи vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, mакtabgacha bo‘lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an’anaviy tarbiya bilan o‘yinchoqlar va o‘yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo‘llaniladi; bunda bola qizg‘anchiqlik, g‘irromlik qilmaslikka, halol bo‘lishga o‘yinlar yordamida da’vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo‘g‘irchoq teatri, kino san’ati katta rol o‘ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi - *san’at*. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo‘lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko‘rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo‘ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnom», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan-qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo‘lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li, bu - *namunaviylik* tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytiganidek, ota-onal bolaga axloqiy namuna bo‘lishi kerak. Maktabda va oliy o‘quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to «mayda-chuyda» xatti-harakatlarigacha o‘z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo‘ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida *televidenieni* keltirish mumkin. U deyarli barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko‘rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan muntazam ko‘rsatuvalar ham berib boriladi. O‘zbek tilidagi «Otalar so‘zi - aqlning ko‘zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko‘rsatuvalar bunga misol bo‘la oladi. Shu bois televidenie hech qachon yengiltaklikni targ‘ib etuvchi qo‘shiqlar, saltam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan «o‘ldir-o‘ldir»lardan iborat videofilmlar korxonasi bo‘lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiyaning aqliy-ma’naviy va jismoniy tarbiya bilan qo‘sib olib borilishi maqsadga muvofiq. O‘shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Etikaning global muammolari

Axloqiy muhit. Etikaning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog‘liq.

Ma’lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o‘z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o‘z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - yeymiz, ichamiz, yuramiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poezd, teplokom, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefonda gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko‘rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo‘lsak, necha kunlab yo‘l bosishimiz kerakligi haqida o‘ylab o‘tirmaymiz, to‘g‘rirog‘i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladи. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta’siri ostida biosfera yangi holat bo‘lmish noosferaga o‘tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o‘z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o‘zgarishga kirishganini ta’kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyusion o‘zgarishlarni boshdan kechiriyapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».²⁵

Ana shu nuqtadan tafakkur o‘zi nima degan muammo paydo bo‘ladi. Bu haqda V.I.Verkadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o‘zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan yechilishi topgan emas»²⁶.

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o‘sha–o‘sha, hol etilmagan.

Xo‘sh, tafakkur o‘zi nima? U biologik hodisa bo‘lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug‘iladi, lekin tug‘ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o‘xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo‘ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo‘lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha,

Noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o‘z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o‘rab oladi. Insonning ichki tabiat muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta’sir ko‘rsata boshlaydi va ko‘p hollarda bundan eng avvalo insonning o‘zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo‘limgani uchun biologik muhitning o‘rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma’lum nuqtadan o‘tganidan so‘ng esa o‘z ijobjiy xususiyatini yo‘qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli ballistik raketalarning yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo‘lishi atmosferani, olamiy okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o‘simliklarning, hayvonlarning ko‘pgina turlari jisman yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo‘ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go‘zal orollarga ko‘mib

²⁵ Vernadskiy V.I. Nachalo i vechnost jizni Moskva. Sov. Rossiya, 1989. S. 186 – 187.

²⁶ O‘sha manba; S.185.

tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoni-yat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», - degan so'zlar shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.²⁷

Yuqorida aytiganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda Etika fanining o'rni nihoyatda beqiyos.

Biologik axloq. Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyat bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik Etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarni, ya'ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Biologik axloqning ikkinchi yo'nalishi tibbiyat ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy topib borishi bilan bog'liq.

Shuningdek, totli o'lim - evtonaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini biladi. Shu bois u o'zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti - harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi sifatida qabul qilish to'g'rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o'z yechimini kutmoqda.

Chunki tabobat borasidagi so'nggi tadqiqotlar inson o'limi bir lahzada ro'y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to'xtaganda ham, miya o'lmasa insonni o'ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig'i, undan keyin miya tanasi halok bo'ladi. Shundan keyingina insonni o'lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o'lmas ekan, ko'pgina ichki a'zolarning yangi tabobat texnikasi vositasida ishslashda davom etishini ta'minlash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko'chirib o'tkazilishi hali o'Imagan odamning minimal tiriklikka bo'lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxiturg Pol Pirson o'z tajribalariga asoslanib, yurak ko'chirib o'tkazilganda ruh ham ko'chib o'tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o'tkazilganida, yigitning fe'l-atvorida juda katta o'zgarishlar ro'y bergen. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o'pkasi 36 yashar ayolga o'tkazilganda ham shunga

²⁷ Lorens K. Vosem smertnix grexov sivilizovannogo chelovechestva. Jurnal. «Voprosi filosofii» № 3, 1992. s. 42.

o‘xshash o‘zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o‘zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Biologik axloq Etikaning anchadan buyon ko‘pchilikka ma’lum muammosi, bu – abort. Ma’lumki, to‘rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkizinch haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta’biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo‘lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo‘s, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi? Yoki AQSh olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko‘raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog‘lom, kuchli intellekt egasi bo‘lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o‘rniga ko‘chirib o‘tkazish tajribalarini olib borish mo‘ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irlisyat jamg‘armasining (genofondining) bir yoqlama o‘zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo‘rlik yo‘li bilan o‘zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o‘ta axloqsizlik deb atadi. Xo‘s, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham Etika javob topmog‘i lozim.

O‘lim jazosi. O‘lim, ma’lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o‘lim. Shunga ko‘ra, o‘lim jazosining huquqiy jihatdan qo‘llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o‘ldirmaslik ekanini ta’kidlaydilar. Buni imom G‘azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da shunday keltiradi:

«Termiziy va boshqa hadischilar rivoyat qiladilar:

Rasulluloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo‘ladi:

1 – *Qonni (odam o‘ldirishni) halol hisoblasa;*

2 – *Oollohdan boshqa iloh yo‘qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;*

3 – *Farz bo‘lgan namozni va ro‘zani inkor etsa».²⁸*

Demak inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

O‘lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jinoyatchini jazolashdan ko‘ra, undan o‘ch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-harakatlari qoralanishi kerak, uning o‘zi emas, u qilgan yovuzlik o‘limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o‘ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o‘ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinci tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o‘lim jazosi kamdan-kam hollarda adolatli hukm bo‘lib chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin-yaqinlarda, sho‘rolar tuzumi davrida O‘zbekistonda o‘tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag‘on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ana shu davrlarda o‘limga hukm qilinganlarning juda ko‘pchiligi ke-yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo‘lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko‘rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sullarning hamma vaqt ham yuz foiz to‘g‘ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda?

Bu misollarning hammasida o‘lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsnинг axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko‘pgina demokratik mamlakatlarda o‘lim jazosining bekor

²⁸ G‘azzoliy. Mukoshafaat ul-qulub. Toshkent. 253-b.

qilinishini o'sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo'yilganligi - avval yosh nuqtai nazaridan o'lim jazosini qo'llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqeа. Bu nafaqat bizga, balki Yer yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Etika oldida ana shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda yetakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero mazkur global muammolarni bugungi kunda Etikaning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Tayanch tushunchalar

Axloq (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviy hayot hodisisi, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. **Axloqiy qadriyatlar** — kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o'zaro munosabatlari, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezungulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik.

Axloqiy ideal — axloq me'yorlarining yuksak, orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi.

Axloqiy madaniyat — axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g'oyalar, ko'nikmalar va ularga amal qilinish.

Axloqiy me'yorlar — jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari, ular urf-odat, ko'nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo'ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi.

Axloqiy tafakkur — axloq masalalariga bag'ishlangan fikrlar, qarashlar g'oyalar, har bir insonning axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni.

Axloqsizlik — jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yordan chetga chiqish: boqimandalik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o'g'rilik, hasad, g'iybat, tuhmat, vatanfurushlik, e'tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo'lishi.

Adolat — yuksak ma'naviy tushuncha bo'lib, uning ezungulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega.

Baxt — ma'naviy axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mammunlik, muayyan maqsadga yetganlik, orzu umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi. Baxt nisbiy tushuncha, mutloq baxt yo'q. Baxtni qanday ma'noda tushunishning shaxsning ijtimoiy o'rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq.

Bioetika — hozirgi zamon etikasining muhim yo'naliishlaridan biri. Bioetika inson hayotini eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi, shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammolarni — yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezoni, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon fanida bioetika tirik mavjudotlar, shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning ma'naviy-axloqiy reguliyativi, deb qaraladi.

Botiniylik va zohiriylilik — ma'naviy hodisalar bo'lib, insonning ichki, qalb, ko'nglidagi hissiyotlar va ularni sirtqi tomonidan, tashqi ko'rinishda ifodalananishi.

Burch — jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-harakati zamirida B. ga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Vijdon — ma'naviyatdagagi ta'sir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. Vijdon — Z. Froyd ta'biri bilan aytganda, a'lo men, men ustidan nazarat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men.

Imperativ axloq -(lot.imperativus -farmon) Kant etikasida axloqiy qonunni tavsiflovchi asosiy tushuncha. Kant falsafiy ta'limotida amaliy aqlni nazariy aqlga nisbatan ustun qo'yiladi. "Amaliy aql" deganda, keng ma'noda u etika, davlat va huquq nazariyasini, tarix falsafasi va dinni,

antropologiyani; tor ma'noda esa, axloqiy xulq atvor tamoyillari va qoidalarini yaratuvchi aqlni tushunadi.

Kasbiy odob - jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir.

Muomala madaniyati – insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o'zaro ma'naviy aloqa, salomlashuv, so'zlashuv, kelishuv va boshqa insoniy munosabatlardir.

Nomus - mohiyatan shaxsning o'z qadr - qimmatini anglab yetishi, shu qadr - qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabatidir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. «Axloqshunoslik» iborasi nimani anglatadi?
2. Axloqshunoslik qaysi ijtimoiy fanlar bilan yaqindan aloqador?
3. Axloq nima?
4. Axloqiy juft tushunchalarining mazmun va mohiyati nimadan iborat?
5. Adolat nima?
6. Vijdon nima? Vijdonlilik nima?
7. Burch va uning tomonlarini izohlang.
8. Axloqiy tamoyillarni sanab o'ting?
9. Ezgulik va yovuzlik mezoniylarining ijtimoiylik xususiyatlari nimada?
10. Yaxshilik va yomonlikning ezgulik va yovuzlikdan farqi nimalarda ko'rindi?
11. Axloqiy me'yorlarni sanab bering?
12. Nikohning ijtimoiy ahamiyati nimada?
13. Nikohning qonuniy va diniy jihatlarini sanab bering?
14. Oila tuzilishining asosiy jihatlari nimalardan iborat?
15. Axoqshunoslikning zamona viy muammolari nimalardan iborat?
16. Bioetika nima?

7-mavzu: Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari. (2 soat)

Reja:

1. **Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.**
2. **Estetikaning asosiy kategoriyalari.**
3. **Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi.**
4. **Dizayn – texnika estetikasi.**
5. **Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.**
6. **“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik didiga ta'siri.**

Tayanch so'z va iboralar: *Estetika, nafosat, go'zallik, san'at, nafosat tarbiyasi, estetik ong, estetik munosabat, estetik faoliyat, estetik bilish, estetik did, estetik ehtiyoj, estetik ideal, estetik faoliyat, kategoriya, estetik kategoriyalar, go'zallik, hunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojeaviylik, forig'lanish, kulgililik, ekoestetika, dizayn, texnika estetikasi, texnogen sivilizatsiya, badiiy tarbiya.*

Estetika yohud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtini o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi.

«Estetika» atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi **Aleksandr Gotlib Baumgarten** (*Baumgarten / 1714-1762*) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug' olmon faylasufi **Gotfrid Vilgelm Leybnis** (*Leibniz / 1646-1716*) ta'lomitidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi. Laybnis inson ma'naviy olamini uch sohaga – *aql-idrok, iroda-ixtiyor, his-*

tuyg‘uga bo‘ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aql-idrokni o‘rganadigan fan – mantiq, iroda-ixtiyorni o‘ganuvchi fan esa – axloqshunoslik (etika)ning falsafada ko‘pdan buyon o‘z o‘rnini bor edi. Biroq his-tuyg‘uni o‘rganadigan fan falsafiy maqomda o‘z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi hizmati shundaki, u «**this qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos – «oyestetikos» so‘zidan «estetika» (olmoncha «yestetik» – «eshtetik») iborasini olib, ana shu bo‘shliqni to‘ldirdi.**

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, ko‘p o‘tmay, u goh «go‘zallik falsafasi», goh «san’at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Estetika fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri **Georg Vilgelm Fridrix Hegel** (*Hegel / 1770-1831*) esa o‘z ma’ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo‘llashga urinishlar bo‘ldi. So‘zning o‘z-o‘zicha bizni qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz «estetika» nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. Shunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu – «san’at falsafasi» yoki yana ham aniqroq qilib aytganda – «badiiy ijod falsafasi».

Endi «Estetika» fanining mohiyatini anglatadigan **«san’at falsafasi» va «go‘zallik falsafasi»** iboralariga to‘xtalamiz. Estetika tarixida birinchi ibora tarafdarlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib o‘tganimizdek, san’at bu fanning yagona tadqiqot obyekti emas. **Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go‘zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fanimiz shug‘ullanadi**. Demak, uning qamrovini san’atning o‘zi bilangina chegaralab qo‘yishga haqqimiz yo‘q. Zero bugungi kunda inson o‘zini o‘rab turgan barcha narsa-hodisalarning go‘zal bo‘lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan tayyora, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabog‘lar – hammasidan nafis bir ruh ufurib turishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsak, «Go‘zallik falsafasi» degan ibora bu fani mohiyatiga ko‘proq mos keladi. Negaki, u faqat san’atdagi go‘zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go‘zallikni ham o‘rganadi. Shuningdek, go‘zallikdan boshqa ulug‘vorlik, fojiaviylik, kulgililik, mo‘jizaviylik, hayolilik uyg‘unlik, noziklik singari ko‘pdan-ko‘p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida. Lekin, bu o‘rinda, shuni unutmaslik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida go‘zallik, bir tomongan, unsur (element) sifatida ishtirot etsa, ikkinchi tomongan, ularning o‘zi go‘zallikka nisbatan unsur vazifasini o‘taydi. Ana shu xususiyatlarning voqelikda namoyon bo‘lishini biz **nafosat** deb ataymiz.

Go‘zallik, ko‘rganimizdek, nafosatning bosh, yetakchi xususiyati hisoblanadi. Shu bois u estetikaning mezoni tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero go‘zallikning ishtirotkisiz yuqoridagi xususiyatlarning birortasi estetik tabiatga ega bo‘lolmaydi. Masalan, ulug‘vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqyosga miqdorga asoslanadi: Buxorodagi «Arslonxon» minorasi yoxud «Minorai Kalon» ulug‘vorligi bilan kishini hayratga soladi. Unga tikilar ekansiz, qalbingizni nafosat zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi shunday balandlikdagi kimyoviy korxona mo‘risidan zavqlanolmaysiz. Yoki yonbag‘irdan turib, toqqa tikilsangiz, estetik zavq tuyasiz, ammo xuddi shunday balandlikdagi shahar chetida o‘sib chiqqan axlat «tog‘i»ga qarab zavqlanmaysiz. Chunki Arslonxon minorasi me’morlik san’ati asari sifatida go‘zallik qonuniyatları asosida bunyod etilgan; tog‘ esa tabiat yaratgan ulug‘vor go‘zallik. Zavod mo‘risida ham, axlat «tog‘ida ham hajm, miqdor boru, lekin bir narsa-go‘zallik yetishmaydi. Minoralar bilan tog‘dagi hajmni salobatga aylantiruvchi unsur, bu-go‘zallik. Fojiaviylik xususiyatida ham go‘zallikning ishtirotini ko‘rish mumkin. Misol sifatida **Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Austrlisda bo‘lib o‘tgan rus va fransuz qo‘shinlari to‘qnashuvidan so‘ng, jang maydonida yarador bo‘lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik:** bir qo‘lida bayroq dastasini ushlagancha ko‘m-ko‘k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit-bayroq dor zabitning tepasiga kelgan Napoleon uni o‘lgan deb o‘ylab, bu manzaradan hayratlanib: «**Mana bu – go‘zal o‘lim!**», deydi. Bu o‘rinda asar **qahramonining o‘limi – fojiaviylik, o‘limning qahramonlikka aylanishi – ulug‘vorlik; fojiaviylik bilan ulug‘vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa**

go'zal manzara, qayg'uli va ulug'vor go'zallik vujudga kelgan. Shuning uchun ham Napoleonning hayrotomuz xitobi bejiz emas. Demak, estetikaning asosiy tadqiqot obyekti – go'zallik, biroq, san'at ham o'z navbatida estetikaning go'zallik kabi keng qamrovli tadqiqot obyekti hisoblanadi.

San'at estetikaning obyekti sifatida o'ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar **bo'rtib** ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, uni **nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa** deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atning ko'makchisi, yetakchisi hisoblanadi. **Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvathlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lган barcha jarayonlarni o'rganadi.** Ikkinci tomondan, san'at uchun umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan, esa san'at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o'zgarishlarni nafosat nuqtai nazaridan tadqiq qiladi.

Shunday qilib, estetika san'atni to'la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga yetib borgunigacha bo'lган va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Zero «San'at falsafasi» iborasining siri ana shunda.

Estetika – falsafiy fanlardan biri. Falsafa esa fanlarning podshosidir. Darhaqiqat, u fanlar podshosi sifatida barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o'z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, shular asosida insoniyatni haqiqat tomon yetaklaydi. Shu bois tafakkurni falsafaning predmeti deb atash maqsadga muvofiq. Estetika esa falsafiy fan sifatida barcha san'atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga yesitshtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, estetika ishlab chiqqan qonun-qoidalarni barcha san'atshunoslik fanlari uchun umumiylilik xususiyatiga ega. Masalan, uslub, ritm, kompozitsiya v. h. borasidagi qonuniyatlar barcha san'at turlariga taalluqli. Hech bir alohida san'at turi haqidagi fan bunday imtiyozga ega emas. Masalan, adabiyotshunoslik ishlab chiqqan qofiya nazariyasini musiqa yoki me'morlik san'atiga tadbiq etib bo'lmaydi.

Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san'at asariga yondashuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir san'atshunoslik ilmi o'z **tadqiqot obyektiga uch tomonlama – nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi**. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bo'lган badiiy qonuniyatlarini, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy-badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham va boshqa san'at turlarida ham shunday. Estetikada esa tadqiqot obyektiga yondoshuv uch emas, birgina nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi. To'g'ri, «estetika tarixi» degan ibora va shu nomda kurslar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora shartli tarzda qo'llaniladi. Chunki, u fan tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetik nazariyalar tahlilidir.

Ma'lumki, san'at asarining mayjud bo'lishi uchun to'rt shart yoki unsur albatta zarur. Bular: ijodkor – badiiy asar –badiiy asarni idrok etuvchi – vositachi. Yuqorida misol nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak: yozuvchi – roman – kitobxon – tanqidchi. Adabiyotshunoslik bularning har birini odatda alohida-alohida o'rganadi. Deylik, yozuvchi Odil Yoqubov ijodiy faoliyati haqida adabiy portret alohida, uning «Ulug'bek xazinasi» romani to'g'risida tadqiqiy maqola alohida, «Ulug'bek xazinasi» romani va zamonaviy kitobxonning didi, savyasi va talablariga bag'ishlangan taqriz hamda unda kitob nashriga (nashriyotga) doir mulohazalar alohida yozilishi mumkin. Estetika fani hammasini bir yo'la, muayyan tizim sifatida tadqiq etadi va bu tadqiqot umumlashtiruvchilik, nazariylik xususiyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, estetikaning falsafiy mohiyatini ko'rib o'tdik. Endi uning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlariga to'xtalamiz.

Estetikaning ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi

Etika (Axloqshunoslik). Bu ikkala fan shu qadar bir–biriga yaqinki, hatto ba’zi davrlarda ular yetarli darajada o‘zaro chegaralanmagan. Chunki **insonning xatti–harakati va niyati ko‘pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo‘ladi**, ya’ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezhgulik, ham nafosat xususiyatlarini o‘zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli «Avesto», «Bibliyo» va «Qur’on» kabi muqaddas kitoblarda, **Suqrot, Aflatun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta’limotlarida axloqiylikni – ichki go‘zallik, nafosatni – tashqi go‘zallik tarzida** talqin etganlar. Bundan tashqari, ko‘rib o‘tganimizdek, san’at estetikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Har bir san’at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko‘tariladi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in’ikos ettiradi. Bu in’ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga oshsa, bilvosita salbiy voqeа–hodisalarga muallif nuqtai nazari orqali ro‘y berishi mumkin. Ya’ni, biror–bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar umuman bo‘lmaydi, lekin undagi voqeа–hodisalarga ijodkor o‘z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois axloqsiz badiiy asarning bo‘lishi mutlaqo mumkin emas. Demak, estetika o‘rganayotgan har bir badiiy asar ma’lum ma’noda axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo‘ladi. Biroq, bunday yaqinlik, yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi. Bu ikkala fanning tadqiqot obyektlari orasidagi farqni birinchi bo‘lib buyuk **Arastu** nazariy jihatdan isbotlab bergen edi; **u, ezhgulik faqat harakatda, go‘zallik esa harakatsiz ham namoyon bo‘ladi, degan fikrni bildiradi.**

Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning na yaxshilagini, na yomonligini bilamiz. Muayayn xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezhgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go‘zallik esa, o‘zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko‘kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go‘zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go‘zalligiga putur yetmaydi. Bundan tashqari, **axloqning qonun-qoidalari, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlilik xususiyatiga ega.** Estetika esa muayyanlikni, aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga–ayolga ham, erkakka ham, yoshu–qariga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Estetikada esa «**go‘zal odam**» tushunchasi yo‘q; yo «**go‘zal yigit**», yo «**go‘zal qiz**» degan tushunchalargina mavjud. Chunki, erkak kishidagi chiroli mo‘ylov faqat erkakning yuzida, ayol kishidagi husnlardan biri – ko‘krak faqat ayol kishi vujudida go‘zallikka ega. Endi mo‘ylov burab so‘zlayotgan ayolniyu, siynaband taqib yurgan erkakni tasavvur qiling! Boyagi go‘zalliklar xunuklikka aylanadi–qoladi. Shuningdek, go‘zallik bir vujudda ham faqat o‘z o‘rnini talab qiladigan «o‘ta injiqlik» xususiyatiga ega. Shu joyda olmon nafosatshunosi Fexner qo‘llagan misolni keltirish o‘rinlidir. Mutafakkirlarning fikricha, **qiz bola yuzidagi qizillik uning go‘zalligidan dalolat beradi.** Biroq, **qizillik uning burni ustiga ko‘chsa – xunuklikka aylanadi.** Demak, **axloq uchun–umumiylik, nafosat uchun esa–muayyanlik mavjudlik sharti hisoblanadi.**

Psixologiya (Ruhshunoslik). Ma’lumki, insonning ruhiy hayotini o‘rganar ekan, ruhshunoslik, hissiyotlar masalasiga katta o‘rin beradi. Go‘zallikni, san’at asarini yaratish va idrok etish ham ma’lum ma’noda hissiyotlar bilan bog‘liq. Masalan, **oddiy harsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg‘otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo‘l urganidan so‘ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufura boshlaydi.** Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg‘ularning jamlanganidadir. Boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o‘zi tomoshabinga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san’at asariga aylantiradi. Agar ijodkor–haykaltarosh ana shu hissiyotlarni o‘zi mo‘ljallagan darajada tomoshabinga yetkaza olsa va tomoshabinda o‘sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg‘ular uyg‘ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san’at asari hisoblanadi. Estetika haykaltaroshdan haykalga, haykaldan tomoshabinga o‘sha hissiyotlarning qay darajada o‘tgan–o‘tmaganligini, ya’ni, badiiy qiyofa qanchalik puxta yaratilganligini o‘rganadi va shu asosda asarni baholaydi. **Ruhshunoslik esa ana shu xissiyotlarning o‘zini o‘rganadi.** Bundan tashqari, ruhshunoslik asar g‘oyasidan tortib, to badiiy asar–estetik qadriyat vujudga kelgunga qadar bo‘lgan ijodkorning hissiyotlar olamini tadqiq etadi.

Albatta, bunday tadqiq va tahlillar o‘rganishlar alohida–alohida, muxtor holda emas, balki ikkala fanning bir–biri bilan hamkorligi, birining ikkinchisi hududiga o‘tib turishi vositasida ro‘y beradi. **Shu bois ruhshunoslikka ham, estetikaka ham teng aloqador bo‘lgan san’at ruhshunosligi va badiiy ijod ruhshunosligi deb atalgan yo‘nalishlar mavjud.**

Sotsiologiya (Ijtimoiyshunoslik) fani bilan aloqadorligi. Ma’lumki, har bir san’at asari alohida inson shaxsiga e’tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq etadi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham ijtimoiylik jamiyat a’zosi–muallif qarashlarining bilvosita in’ikosi bo‘lmish uslubda o‘zini ko‘rsatadi. **Zero asar muallifi hech qachon o‘zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo‘lib turolmaydi.** Shuningdek, yirik asarlar sotsiologik tadqiqotlar uchun o‘ziga xos material bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, **sotsiologiya jamiyat bilan san’atning o‘zaro aloqalarini, san’atning ijtimoiy vazifalarini o‘rganadi; san’atkorning jamiyatdagi o‘rni, mavqeい, o‘quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy–demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylashuvida san’atkor va san’at asarining ahamiyatini tahlil qiladi.** Bu muammolarни atroficha o‘rganish uchun **maxsus san’at sotsiologiyasi sohasi ham mavjud.** U ham ijtimoiyshunoslikka, ham estetikaka birday tegishlidir. Ayni zamonda, muayyan san’at asarlari, janrlari va turlarining jamiyatdagi mavqeini aniqlab beruvchi maxsus sotsiologik so‘rov usullari ham mavjudki, ular shubhasiz, san’at taraqqiyotiga, estetikaning san’at sohasida to‘g‘ri yo‘nalish tanlashiga ko‘maklashadi.

Dinshunoslik fani bilan aloqadorligi. Din va san’at doimo bir–birini to‘ldirib keladi va ko‘p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo‘lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o‘z tasarrufidagi» san’at turlari bor: **buddhachilik uchun–haykaltaroshlik, nasroniylik uchun–tasviriy san’at, musulmonchilik uchun–badiiy adabiyot.** Shuningdek, **barcha umumjahoniy dinlar o‘z ibodatxonalarini taqozo etadi.** **Ibodatxonalarning esa me’morlik san’ati bilan bog‘liqligi hammamizga ma’lum.** Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san’at turlari bilan aloqadorlikda ish ko‘radi. Asrlar mobaynida ana shu aloqalar natijasi o‘laroq, san’at asarining o‘ziga xos ko‘rinishi – diniy–badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», Shohizinda me’morlik majmui, Kyoln jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi–Xitoy mintaqasidagi Buddha ibodatxonalari ana shunday diniy–badiiy asarlardir. Ularda diniy g‘oyalalar badiiyat orqali ifoda topgan. Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo‘q: u o‘sha diniy g‘oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san’at oldiga qo‘ygan talablarini yaxshi bilmog‘i va hisobga olmog‘i lozim.

Pedagogika fani bilan aloqadorligi. Ularning aloqadorligi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. **Chunki pedagogika ham ma’lum ma’noda nafosat tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.** Lekin bu tarbiya alohida–alohida, muxtor qismlarga bo‘lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya’ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, mактабгача tarbiya, o‘quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi v. h. Pedagogika ana shu sohalar va yosh bo‘yicha olib borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o‘rganadi. **Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiyl qonun–qidalarini ishlab chiqadi, ya’ni, inson tug‘ilganidan boshlab to o‘lgunigacha bosib o‘tadigan bosqichlar uchun umumiyl bo‘lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko‘radi.** Demak, rus nafosatshunosi M. Kagan aytganidek, **pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo‘lsa, estetika uning strategiyasidir.**

Semiotika (belgililar va belgililar tizimi haqidagi fan) fani bilan aloqadorligi. Ma’lumki, san’at asarida **belgililar va badiiy ramzlar muhim ahamiyat kasb etadi.** Masalan, **harflar, notalar** v.h. Boshqacharoq qilib aytganda, bilish va baholash faoliyati natijalarini, ya’ni semantik va pragmatik axborotni o‘zida mujassam qilgan san’at asari o‘sha axborotni yetkazib berishga ham mo‘ljallangan. Ana shu san’atning belgi bilan bog‘liq tomonini, kommunikativ–vositachilik jihatini semiotika o‘rganadi. Ayni paytda, estetikada tuzilmali–semiotik estetika deb ataladigan nazariya ham mavjud. Unda san’at maxsus til yoki belgililar tizimi, alohida san’at asari esa ana shu tizim belgisi yoki o‘sha tizim belgilarining izchilligi sifatida olib qaraladi. Zero bunda belgi san’at asarini idrok etuvchiga uni yetkazib beruvchi hodisa tarzida o‘rganiladi.

Bundan tashqari, estetika *kibernetika*, *ekologiya* va yuqorida aytib o'tganimizdek, barcha *san'atshunoslik* fanlari bilan ham yaqin aloqadorlikda ish olib boradi. Chunonchi har bir san'at turining «o'z estetikasi» mavjud: so'z san'ati estetikasi, teatr estetikasi, musiqa estetikasi v.h.

Estetikaning amaliy ahamiyati

Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor: estetika ham bundan mustasno emas. Avvalo, **u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega**. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlari lozim. Haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviy chilik san'ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

Estetikaning, ayniqsa, badiiy asar ijodkorlari uchun amaliy ahamiyati katta. Chunonchi, biror bir san'at turida ijod qilayotgan san'atkor birinchi galda, ma'lum ma'noda, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak. Deylik, bastakor notani bilmasdan, musiqali asar yaratish qonun-qoidalarini, shu jumladan, musiqaga ham taalluqli bo'lgan estetikaning umumiyligini qonuniyatlaridan bexabar xolda tuzukroq asar yaratishi dargumon. Ba'zilar «Daho san'atkorlar qonun-qoidalarsiz ham ijod qilaveradilar» – degan noto'g'ri tasavvurga egalar. Vaholanki, daholarning o'zлари ko'p hollarda nafosat nazariyasi bilan shug'ullanganlar. Bu borada Abduruhmon Jomiy, Alisher Navoiy, Leonardo da Vinci, Fridrix Shiller kabi buyuklarning nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi.

Badiiy asarni tadqiq etuvchi olimlar, tanqidchilar–san'atshunoslari va adabiyotshunoslari uchun ham estetikani bilish zarur. Deylik, «sof teatr»ni – faqat sahna san'atinigina yaxshi bilgan san'atshunos u qanchalik iste'dodli bo'lmasin, yuksak talab darajasida tadqiqot olib borolmaydi, hatto e'tiborga molik maqola ham yoza olmaydi. Chunonchi, u dramaturgiyadan, musiqadan, uslub va kompozitsiya qonun-qoidalalaridan, bir so'z bilan aytganda, estetika qonuniyatlaridan xabardor emas. Natijada uning tadqiqoti, maqolasi yoki taqrizi bироqlama, falsafiy umumlashmalardan xoli, jo'n va sayoz jumlalar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi.

Estetikaning san'atni xalq orasida yoyadigan va targ'ib etadigan tashkilotlar rahbarlari uchun ahamiyati muhim. Ayniqsa, ma'naviyat va mafkura sohalariga matasaddi rahbarlarning estetikadan bexabar bo'lishlari mumkin emas. Aksincha ma'naviyat targ'ibotchilarining estetikaga e'tiborchizligi san'at uchun fojiali holatlarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, **dizaynchi-injenerlar, atrof-muhitni obodonlashtirish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatiga nafosat ilmining sezilarli ta'siri mavjud.** Shuningdek, korxona rahbarlari, sex boshliqlari mazkur korxona yoki sexda dastgohlar dizaynidan tortib, devorlar ranglari-yu, «ichki gulzor»larning joylashtirilishigacha nafosat qonun-qoidalari asosida bo'lishini ta'minlashlari lozim Zero o'shandagina ish joyida mehnat unumdorligining oshishi tabiiy. Buning uchun esa mazkur rahbarlar estetikadan albatta xabardor bo'lishlari shart.

Umuman olganda, estetika hamma uchun ham zarur. Chunki inson zoti baribir hayotda tez-tez san'at asarini idrok etuvchi sifatida maydonga chiqadi. Deylik, siz **Samarqandga «o'ynab kelgani» bordingiz.** Agar estetikadan bexabar bo'lsangiz, Go'ri Amir maqbarasining gumbazi, Registondagi madrasalar yonida qad ko'targan minoralar, peshtoqlardagi ko'hna arabiylar yozuvlar sizda qiziqish uyg'otmaydi. Bordi-yu, aksincha, nafosat ilmidan xabardor bo'lsangiz, u holda nafaqat ularning chiroylilagini, balki gumbaz shunchaki gumbaz emas, Xudo go'zalligining ramzi ekanini, u «jamol» deb atalishini, minoralar – Tangri qudratining timsoli o'laroq «jalol» deyilishini, peshtoqlardagi go'zal yozuvlar – oyatlar, Xudoning belgisi, «sifat» deb nomlanishini eslaysiz va olayotgan taassurotingiz bir necha barobar kuchayadi. Zero estetika orqali biz faqatgina ko'rganlarimizning shakliy go'zalligini emas, balki ayni paytda shakl bilan birga uning falsafiy mohiyatini ham idrok etamiz. Shu sababli, fermerga yoki temir yo'l ishchisiga, yoki tadbirkorga estetika haqida bosh qotirib o'tirish zarur kelibdimi, degan gaplar xato va zararlidir.

Yuqorida ko‘rib o‘tganlarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, bugungi kun estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Zotan biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a’zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo‘lmog‘i lozim. Qolaversa, hozirgi mashinasozlikni, aviasozlikni, umuman, sanoatni zamonaviy dizaynsiz tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bunda bevosita texnika estetikasining ahamiyati katta. Bularidan tashqari, ayniqsa yoshlarning nafosat tarbiyasiga alohida e’tibor berish–zamonning dolzarb talabi bo‘lib qarmoqda. Shu bois «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzlusiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri: «Ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish», deb aniq belgilab qo‘yilgani bejiz emas.

Nafosat tushunchasi va uning mohiyati

Nafosat. Nafosat bir tomonlama, real voqelikni, ikkinchi tomondan ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma’naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o‘z ichiga olgan eng yirik istiloh, ovro‘pacha ta’rifda *-metakategoriya*. Boshqacha qilib aytganidan bo‘lsak, nafosatning «hududi» nihoyatda keng, u obyektiv voqelik sifatida narsa-hodisalarining estetik xususiyatlarini anglatsa, subyektiv voqelik tarzida insonning ana shu estetik xususiyatlarini anglash va idrok etish borasidagi botiniy faoliyatidir.

Shu o‘rinda estetik xususiyatlar o‘zi nima, ularning mavjudlik shartlari nimalar bilan belgilanadi degan masalaga to‘xtalib o‘tish joiz.

Estetika kategoriyalarining tasnifi

Har bir fanning muayyan tadqiqot obyekti bo‘lib, bu obyekt tabiat, jamiyat va tafakkur haqida yangi bilimlar hosil qilishga qonun va kategoriyalar asosida olamni yangidan idrok etishga qaratilgan bo‘ladi. Ma’lumki, dialektikaning biror-bir kategoriyasini voqelikdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki, bu kategoriyalar (yaxlitlik, qism, zaruriyat, tasodif, mohiyat, sifat va h.k) insonni o‘rab turgan olamda sodir bo‘ladigan voqeа-hodisalar haqida aniq xulosalar chiqarishga, ularni to‘g‘ri tahlil etishga ko‘mak beradi. Estetika ham falsafiy fan sifatida o‘zining qonun va kategoriyalariga ega. Estetika kategoriyalari (go‘zallik, hunuklik, ulug‘vorlik, tubanlik, fojiaviylik, kulgilik va h.k.) inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va ijtimoiy borliq bilan doimo hamkorlikda vujudga keladi.

Estetika kategoriyalarining yaxlit tizimini ishlab chiqish muammosi ko‘p yillardan buyon olimlar e’tiborini jalb etib kelmoqda. Bu borada go‘zallik, ulug‘vorlik, fojiaviylik, kulgilik, xunuklik kabi an’anaviy ko‘rinish ko‘pgina adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Biroq, bizningcha, mazkur kategorial tasnifdagi ketma-ketlik va ular orasidagi bog‘liqlik o‘zini to‘laqonli ko‘rsatib bera olmaydi. Bugungi kunda *go‘zallik – ulug‘vorlik – fojiaviylik – kulgilik; estetik ideal – estetik did – estetik tuyg‘u; san’at – badiiy obraz – ijodkorlik* ko‘rinishdagi tizim estetika fanining kategoriyalar tasnifida kengroq qo‘llanilmoqda.

Go‘zallik - estetikaning markaziy kategoriyasi sifatida

«Go‘zallik»ning tugal ilmiy ta’rifi haqida biror-bir qat’iy fikr mavjud emas. Biroq, go‘zallikning idrok etilishi, tabiatda namoyon bo‘lishi, san’atda aks etishi hamda uning jamiyat rivojiga ta’siri haqida bildirilgan fikrlar, ilgari surilgan g‘oyalilar, yaratilgan ta’limotlar o‘zining salmog‘i bilan ahamiyatlidir. Inson va uning ruhiy-jismoni, axloqiy-estetik faoliyati, tabiat va undagi hodisalar, jamiyat va unda ro‘y berayotgan ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar go‘zallikka yondoshuvning tarixan tarkib topgan asosiy obektlaridir. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, go‘zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga «Go‘zallik nima?» degan savol qo‘yiladi-yu, ammo ularning aksariyatida «Nima go‘zal?» degan javobni ko‘ramiz. Shuning uchun ham odatda, go‘zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular: inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go‘zallik; inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog‘liq bo‘limgan

xolda yuzaga keladigan go‘zallik. Birinchisida *aql*, *ruh* va *xissiyot* ustuvor bo‘lsa, ikkinchisida *makon* va *zamon* salmoqli o‘rinni egallaydi.

Nafosat falsafasi go‘zallikni bilishning mahsuli deb biladi. Chunki, voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go‘zalligi uning ishonchlilik, haqqoniylit va realligi bilan belgilanadi. Zero inson nazari tushgan go‘zallikkina qadriyatga aylanadi. Bundan tashqari, inson go‘zallik haqidagi dastlabki ma‘lumotni 5 ta sezgining eng rivojlangan turi bo‘lmish ko‘rish sezgisi orqali o‘zlashtiradi, undan so‘ng eshitish, ta’m bilish, hid bilish va tana sezgisi natijasida go‘zallik anglanadi hamda xis etiladi. Masalan, harid qilmoqchi bo‘lgan kiyimingizni, iste’mol qilmoqchi bo‘lgan taomni, turmushingiz uchun zarur bo‘ladigan jihozni avvalo ko‘rasiz, o‘rganasiz, tomosha qilasiz, so‘ngra sifatiga, qulayligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin ehtiyojingiz uchun ishlatasiz... Yarashmagan kiyimni kiyish naqadar kulgili va hunukligini tasavvur qilish qiyin emas. Shunday ekan, go‘zallik xususiyatlarining namoyon bo‘lishida sezgilarning alohida ahamiyatga ega ekanligini e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Shuningdek, go‘zallik haqidagi qarashlar taxlili shundan dalolat beradiki, mazkur besh sezgi ham go‘zallikni to‘laqonli aks ettirish uchun yetarli emas.

Chunonchi, ko‘zga ko‘rinadigan hamda tafakkurning maxsuli sifatida real voqelikka aylangan narsalar o‘z-o‘zicha yuzaga kelmaydi va shakllanmaydi. Ularning asosi hamda shakli va mazmuni muayyan unsur (element)lardan tashkil topadi.

Go‘zallikning namoyon bo‘lishi, shakllanishi va xis etilishida muayyan unsurlar mezoniy vazifasini o‘taydi. Bular - me’yor, maqsadga muvofiqlik, tartiblilik, uyg‘unlik, hamoxanglik, moslik, yaxlitlik, birlik, mutanosiblik, tenglik va hokazo. Mazkur tushunchalar narsa-hodisalarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, undagi go‘zallikni namoyon ettiradi. Masalan, bahor faslining go‘zalligi tabiatning uyg‘onishi, ko‘klamning yuz ochishi bilan, qish fasli esa oppoq qor bilan o‘ziga xos go‘zallikni namoyon etadi. Tabiatning ikkala faslida ham go‘zallikning moslik va mutanosiblik unsuri muhim ahamiyat kasb etadi.

Go‘zallik sifatlari tug‘yoniylik, maftunkorlik, foydalilik, mo‘jizaviylik singari tushunchalar orqali izohlanadi. *Go‘zallikning xususiyatlari* esa qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik tushunchalari bilan belgilanadi. Unsurlar, sifatlar va xususiyatlar uyg‘un bo‘lgan narsa-hodisalarga chinakam go‘zallikni aks ettirishi mumkin. Zero, chiroylar narsaning sifati bizning manfaatimiz uchun hamoxang bo‘lmasa yoki bizning maqsadlarimizga mos kelmasa u har qancha maftunkor bo‘lmasin go‘zallik sifatida baxolanmaydi.

Shu o‘rinda go‘zallik tushunchasi «chiroyli», «ko‘rkam», «nafis», «jozibador», «maftunkor», «latofatli» kabi tushunchalarga nisbatan kengqamrovli va ustuvor ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Ayniqsa, go‘zallik bilan kundalik turmushimizda tez-tez tilga olinadigan «chiroylilik» tushunchasi orasida muayyan tafovutlar mavjud.

Chiroylilik – narsalarning tashqi ko‘rinishini, holatini, bajarilgan ish yoki qilingan harakatdagi o‘zaro hamohanglikni ifodalovchi tushuncha. Chiroylilik insonlarda yoqimli taassurot qoldiradi, ammo ayni bir paytda o‘sha chiroyli bo‘lgan narsa-hodisa yoqimsiz holatlarni ham vujudga keltiradi. Masalan, «Bangidevona» o‘simgilining guli oppoq, chiroyli bo‘ladi. Ammo, gulining hidi yoqimsiz, tanasidan sassiq xid chiqadi. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, chiroylilik narsa-hodisaning yoki shakl yoki mazmunidagi xususiyatni aks ettirishi bilan kishida yoqimli taassurot qoldiradi. Shuning uchun ham narsa-hodisalarning faqat shakl (tashqi) yoki faqat mazmun (ichki) mohiyatiga qarab unga go‘zallik iborasini ishlatish o‘rinli emas. Zero, go‘zallik narsa-hodisalarning faqat bir tomoninigina aks ettirmaydi, aksincha u mazmun bilan shaklning uyg‘unligi, mosligi, hamoxangligi, maqsadga muvofiqligi asosida shakllanadi. Shu ma’noda go‘zallik ham obektiv ham subektiv xususiyatga ega. Tabiat go‘zalligi obekt (inson) va subekt (o‘simgilik va hayvonot dunyosi)ning tartibi va uyg‘unligiga asoslanadi. Uyg‘unlik va tartibning buzilishi esa tabiat va inson uchun zararli oqibatlarga olib kelishini bugungi kundagi ekologik muammolar orqali ko‘rishimiz mumkin...

Inson go‘zalligi. Insondagi go‘zallik aksariyat xollarda uning xulqi, odobi, axloqi va fazilatlari bilan belgilab kelinadi. Avval ham bugun ham inson borliq – jamiyat – texnika o‘rtasidagi munosabat masalasi ko‘plab ilmiy sohalarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Nafosat falsafasi

inson go‘zalligining mohiyatiga doir muammolarni tadqiq etishni o‘zining muhim vazifasi qilib belgilaydi.

Estetik tafakkur tarixida inson go‘zalligi jism (tana) va ruhiyat masalalari bilan izohlangan. Bu boradagi fikr–mulohazalarning asosida insonning tashqi ko‘rinishi hamda axloqiy fazilatlariga bo‘lgan munosabat masalasi yotadi.

Inson go‘zalligiga bu tariqa yondashuvning muayyan sabablari bor. Birinchidan, go‘zallikning inson shaklidagi ko‘rinishida yagona, mutlaq va tugal timsol mavjud emas. Agar mavjud bo‘lganda edi, u barcha xalqlarga go‘zallik timsoli sifatida namuna qilib ko‘rsatilardi. Olaylik, ayol go‘zalligining mezonlari patriarchat va matriarchat davri odamlarining tasavvurida katta qorin, keng dumg‘aza hamda ko‘krakning bo‘rtib turishi bilan ifodalangan.

Ikkinchidan, insonlarning go‘zallik haqidagi qarashlari turlicha bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Kishilarning estetik xususan, go‘zallik haqidagi ideali ana shu o‘zgarishlarning birlamchi sababidir. Inson voqelikni estetik tarzda o‘zlashtirar ekan, unga dastlab o‘z estetik ideali va estetik dididan kelib chiqib munosabat bildiradi. Tabiat, jamiyat va insondagi go‘zallikni idrok etish ham bevosita

Insonning botiniy go‘zalligi uning odob, xulq va axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi. Buni nafosat ilmiy xulqiy go‘zallik deb nomlaydi.

Insonning amaliy xatti–harakati, axloqiyligi, nafosatga munosabati ayni paytda uning botiniy tuyg‘ulariga, qalb kechinmalariga bog‘liq. Bu kechinmalar, odatda shaxs faoliyatidagi yaxshi a‘mollarga qarab – *fazilatlar*, yomon qilmishlariga qarab – *illatlar* deb ataladi.

Inson xulqiy go‘zalligining takomillashuvida axloqdagi eng muhim mezoniy tushuncha hisoblangan *muhabbat* va *ezgulik* alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xulqiy go‘zallikda bevosita inson hatti–harakatining sababi bo‘lgan *niyat* muhim o‘ringa ega. Zero ezgu niyatli inson go‘zaldir. Niyatning reallikka aylanishi uchun insonda avvalo, istak, xohish, maqsad bo‘lishi shart. Chunki, kishi o‘ylagan har bir niyatiga erishishi uchun o‘z oldiga maqsad qo‘yadi. Shuningdek, niyat individuallik xususiyatiga ega. Shu jihatdan qaraganda, niyat ijobjiy va salbiy ma’noga ega bo‘ladi. Ijobiylik kasb etuvchi niyatning asosida go‘zallikka muhabbat, ezgulikka e’tiqod yotadi. Aksincha, salbiy ma’nodagi niyat mohiyatan yovuzlikka daxldordir. Shu bois insonning oriyatli, nomusli ekani uning qilgan qilmishlari bilangina emas, balki, ko‘nglidagi niyati qandayligiga qarab ham belgilanadi. Zotan, niyati buzuq odamlarning qilgan ishlari yaxshilik bo‘lib ko‘rinsa–da, mohiyatan yovuzlikka yo‘naltirilgan.

Bugungi kunga kelib hayotni faqat moddiy yoki ma’naviy tomoninigina o‘zgartirishga intilish, e’tiborni faqat bir sohaga qaratish bilan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmasligi oydinlashmoqda. Zotan, insonning faqat ma’naviy go‘zalligiga e’tibor berish, uning jismoniy go‘zalligiga putur yetkazadi. Ayni paytda, ma’naviy go‘zallik hisobiga jismoniy go‘zallikni ulug‘lash insoniyatni muqarrar tarzda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Biz hozirda insonning ma’naviy va jismoniy go‘zalligini uyg‘unlashtirish masalalari dolzarb bo‘lgan davrda yashayotganligimizni unutmasligimiz kerak. Ana shuni teran xis qilganimizdagina ko‘zlagan maqsadlarimizga yetishishimiz mumkin bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, *go‘zallik* – ma’naviy va moddiy xususiyatga ega bo‘lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa–hodisalarning uyg‘unligi, hamohangligi, mutanosibligi, maqsadga muvofiqligiga asoslangan qadriyatdir.

Go‘zallikka qarama-qarshi bo‘lgan *xunuklikni* go‘zallikning aksi deb yuritamiz. Biroq, bunday yondashuvda qisman noaniqlik bor. Chunki uyqash va bir–biriga yaqin, yoki bir–birining aksi bo‘lgan tushunchalardagi unsurlar u yoki bu ko‘rinishi har ikala tushunchada ham ishtirot etishi mumkin.

Gohida shakl va mazmun go‘zalligi bir–birini dialektik tarzda inkor etadi. Shunday bo‘lsa–da, buning ijobjiy tomonlari ham mavjud. Chunki, mazmun o‘z vaqtida shaklning kamchiliginini ko‘rsatib, uning go‘zallahuviga turtki berib turadi yoki aksincha: ko‘rinishi chiroyli bo‘lgan insonlarning hammasi ham ma’naviyati boy bo‘lamanidek, yuksak fazilat sohiblarining barchasi ham husn va chiroyda barkamol emaslar. Xunuklik bir paytning o‘zida ham go‘zallikning, ham nafosatdan lazzatlanishning ziddidir. Chunki, xunuklik lazzatlanish tuyg‘usi mayjud bo‘lgan

jarayondan uzoqroq joyda vujudga keladi; u insonga hayrat baxsh etishdan, uning vujudini forig‘lashdan mahrum.

Ulug‘vorlik va tubanlik tushunchasining mohiyati

Ingliz nafosatshunosi E.Byork go‘zallikni ulug‘vorlik bilan qiyoslaydi va ularni alohida tushunchalar sifatida tadqiq etadi. I.Kant esa go‘zallik va ulug‘vorlikni uyg‘unlikda rivojlanuvchi tushunchalar deb hisoblaydi. Ulardan farqli o‘laroq, **Hegel, ulug‘vorlikni go‘zallikning bir ko‘rinishi, ulug‘vorlik – zohiriy go‘zallikning botiniy go‘zallikkay aylanishi, deb tushuntiradi.**

Ulug‘vorlik – insonning narsa hodislarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg‘usini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmuidir. Ulug‘vorlikning ko‘lam go‘zallik ko‘lam kabi cheksizdir. Ulug‘vorlik o‘zida hajm, miqdor, ko‘lam va buyuklikni mujassam etadi. Shiller ulug‘vorlik tushunchasini dramatiklashtiradi: u qayg‘u va qo‘rkuvni yengish insonni qanchalik ulug‘lashi va chiroy baxsh etishini ko‘ratib beradi. Bu yerda u «axloqiy xavfsizlik» tushunchasini kiritadi. Qo‘rquv va dahshatga qarshi borish uchun ham xavfdan xoli bo‘lish lozim. Jismoniy xavfsizlik bevosita shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lib, insondagi qatiy ishonch bois xotirjam, xavfsiz. Biroq, dahshatli yo‘qotishlar va mudhish qotilliklar qarshisida insonning xotirjamligi yo‘qoladi. Agar xavf insonning o‘zigagina yaqinlashsa-yu, u o‘zini hotirjam xis qilsa, demakki, uning vijdoni xavfdan xoli; unga hech qanday havf taxdid solmaydi. Shu bois Shiller «axloqiy havfsizlik»ni din, e’tiqod va abadiylik bilan bog‘laydi. «Axloqiy xavfsizlik»ning zaminiy xususiyatini hayot va o‘lim masalalari bilan izohlash mumkin. Ulug‘vorlik muhokamasi yuksak darajada madaniyatni talab qiladiki, bu muhokama go‘zallik muhokamasidan ustuvorroqdir.

Tabiatdagi ulug‘vorlik cheksiz osmon, purviqor tog‘lar, yuksak cho‘qqilar, moviy dengizlar, ming yillik chinorlar, shuningdek, vulqon va chaqmoq singari tabiat hodisalarida namoyon bo‘ladi. Ular uzoqdan kishilarda hech qanday hayajonli taassurot qoldirmaydi. Biroq, ularga yaqinlashganimiz sari ruhiyatimizni hayajon, jo‘shqinlik egallay boshlaydi, ularni butunligicha ko‘z bilan qamrab ololmaslik darajsiga yetganda esa bu hayajon yanada ortadi. Tabiatdagi ulug‘vorlik matematik va dinamik xususiyatga ega. Matematik xususiyatida xajm, dinamik xususiyatida kuch ustuvor ahamiyatga kasb etadi. Biroq, ikkala xususiyat ham insonda kuchli hayrat va hayratlanish tuyg‘ularini paydo qiladi. Tog‘lar insonni yuksak fikrlashga, buyuk g‘oyalarga undaydi: Everestga O‘zbekiston bayrog‘ini tikib qaytishgan alpinistlarimizning taassurotlari nihoyatda hayajonlidir.

Jamiyatdagi ulug‘vorlik umuminsoniy qadriyatlar, qahramonlik, jasorat, xalqparvarlik, bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Davlatda barqarorlik, jamiyatda adolat ustuvorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug‘vorligini aks ettiradi.

San’atdagi ulug‘vorlik o‘zining har tomonlama ijodiy ifodasini topadi; san’atning barcha turlari uchun ulug‘vorlik asosiy mezon bo‘lib hizmat qiladi. Badiiy adabiyot va ifodali san’at turlari ulug‘vorlikni tasvirlashda xilma–xil vositalardan foydalanib hamda ulug‘vorlik mavzusini badiiy o‘zlashtirib, qahramonlik eposlarini liro–epik dostonlarni, qahramonlik fojialarini, mardonavor musiqa asarlarini (simfoniya, oratoriya)ni vujudga keltirdi. San’atdagi ulug‘vorlik teatr, kino, badiiy adabiyot fojaviylik bilan yonma–yon turadi: estetikaning bu ikki mezoniy tushunchasi o‘rtasida o‘ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lib, ular milliylik va umuminsoniylik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadilar. qochishga emas, unga xizmat qilishga da’vat etadi.

Me’morchilikdagi ulug‘vorlik yuksak ahamiyat kasb etadi: Samarqanddaggi Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi, Imom Buxoriy majmui, Buxorodagi Minorai Kalon, Xivadagi Kalta Minor, Shahrisabzdagi Bibixonim, Oqsaroy, Toshkentdagi Yevropa va Osiyo me’morchiligining yangi an’alarini uyg‘unlashtirgan Milliy Bank binosi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Misrdagi ehromlar, yunonlarning Parfenoni, rimliklarning Kolizeyi, o‘rta asr gotik bosh cherkovlari shular jumlasidandir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ulug‘vorlik tushunchasiga faqat miqyos, ko‘lam va o‘lchovining kattaligi bilan yondashish uning qamrovini chegaralab qo‘yadi. Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr ehromlari o‘zining keng miqyosliligi bilan kishilarni hayratga solsa,

Go‘ri amir, Shohizinda, Ichan qal‘a, Registon maydoni, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bolo hovuz machiti insonda yuksak darajada nafosat va go‘zallik tuyg‘ularni shaklantiradi.

Tubanlik – insonda kuchli nafratlanish tuyg‘ularini hosil qiluvchi estetik kategoriadir. Nafosatshunoslik kategoriyalari orasida xunuklik singari kishilarda salbiy his–tuyg‘u paydo qiladigan boshqa tushunchalar ham mavjud. *Tubanlik* ana shunday tushuncha: uni xunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Chunki, xunuklik kishilarda yengil noxushlik tuyg‘usini paydo qilsa, tubanlik esa kuchli nafratlanish hissini uyg‘otadi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib yetadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko‘ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Gohida muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo‘zg‘atib yuborishi natijasida insonni tubanlashtiradi. Ayniqsa, mamlakat boshiga og‘ir kulfat tushganda undan o‘z moddiy manfaatlari yo‘lida foydalanuvchi kimsalar (2001 yil 11 sentyabrda AQShda sodir bo‘lgan fojea sabab o‘g‘ri «tadbirkorlar» magazinlarni talashgan edi–H.B.) tubanlikka misol bo‘ladi.

Fojeaviylik va kulgililik tushunchalari

Fojeaviylik muammosi har doim falsafiy-estetik tafakkur sohiblarining e’tiborini jalg qilib kelgan. Deyarli barcha buyuk ijodkorlar yaratgan asarlarda *fojeali ohanglar* mavjud. Masalan, o‘zbek adibi Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug‘bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib turadi. Mazkur dramalar maxsus fojea asari sifatida yaratilmagan bo‘lsa ham, aslida, fojeali ohanglar ularda ustivor darajada ifodalangan. Shayxzoda kabi ijodkor fojealilik ruhida voqelikni idrok etishga moyildir. San’atning turi namoyon bo‘ladigan fojeali to‘qnashuvlar, qiyofalar, vaziyatlarni eng to‘la va chuqur badiiy in‘ikos etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Sofoklning fojeiy asarlari, Shekspirnikidan qanchalik farqlanmasin, ular o‘rtasida umumiylilik bari–bir mavjuddir. Har qanday fojea zaminida alohida fojiali to‘qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni ko‘lamlilik va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir.

Hegel fojealilikni mohiyatli kuchlar to‘qnashuvining natijasi, deb biladi. Chunki, bu to‘qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi pirovardida insoniyat istiqboli, taqdiri bilan bog‘lanib ketadi. Bu hol fojia san’atining falsafiy jihatdan eng hajmli turiga aylantiradiki, unda ijodkorga hayotning insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub masalalarni o‘z oldiga qo‘yib, hal qilish imkonini beradi. Fojea qahramoni ko‘pincha ijobiy tusda tasvirlanadi, u o‘z davrining ijobiy orzu–umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etadi. Lekin fojea to‘qimasida boshqa turdagil qahramonlar kam aks ettirilgan bo‘lib, o‘z taqdirlari bilan tomoshabinda o‘ta ziddiyatli his–tuyg‘ular qo‘zg‘aydi. Ularning mudhish kirdikorlari, sodir etayotgan yovuzliklari insonda qat’iy norozilik, hatto nafratlanishni vujudga keltirishi bilan bir qatorda ularning qilmishlariga achinasan, qabih, jirkanch sharoit ta’siriga tushib, ular o‘zlaridagi go‘zal insoniy fazilatlardan begonalashganligini anglaysan.

Fojeaviylikning san’atdagi ravnaqi Uyg‘onish davridan ko‘zga tashlana bordi. Bu vaqtida abadiy ko‘ringan feodal munosabatlar zamini yemirila boshlagan edi. Bu davrga kelib, insonga munosabat tubdan o‘zgardi, xissiyotli voqeа–hodisalarga nisbatan e’tibor bilan nazar tashlaydigan, insonni ulug‘laydigan, uning cheksiz imkoniyatlarini kuylaydigan insonparvarlik estetikasi qaror topdi... Uyg‘onish davriga kelib fojeiy asarlar yangi tarixiy vaziyatni, qadimgiga nisbatan boshqa shaxs mavqeini ifodalaydi. Agar avvallari fojeada shaxs hali o‘zini jamiyatdan ajratmagan va shuning uchun u yoki bu axloqiy g‘oya–ideal namoyondasi sifatida amal qilgan bo‘lsa, Uyg‘onish davri fojeasida shaxsiy ehtiros va iroda bosh ohang sifatida jaranglaydi: tarki dunyo azobidan, o‘rta asr tabaqaviy cheklanganligidan ozod bo‘lgan inson o‘z irodasini, o‘zligini o‘rnatishga unga hali ham qarshi turgan voqelik bilan to‘qnashadi, boshqa odamlarning orzu va intilishlari bilan muqarrar kurashga kirishadi. Bu yerda qismat va taqdirliga endi o‘rin qolmaydi, fojea manbai–insonning o‘zi, uning yer kurrasidagi hayoti, o‘z maqsadi sari intilayotgan odamlar to‘qnashuvi, ular boshqalarga va o‘zlariga nisbatan sodir qiladigan yovuzliklardir. Shunday ziddiyatli qarama–qarshiliklarga boy Uyg‘onish davri fojeasining eng to‘la, badiiy qudratli ifodasi Shekspir ijodida o‘z aksini topgan...

San’atda fojea va fojeiy qahramon obrazini ifodalash qo‘yidagi jihatlar bilan belgilanadi:

– fojeiy asar hayot va ijtimoiy aloqalarni qamrab olishi va real tasvirlashi;

- inson shaxsini to‘laqonli ravishda ifodalashi;
- davrining yorqin insonparvar orzulari bilan axloq qoidalari o‘rtasidagi to‘qnashuvning natijasini yoritishi;
- ma’naviy jasorat, g‘ururli, erkparvar inson timsolini yaratishi;
- insoniy idealga intilish va unga bo‘lgan ishonchning mustahkamligi.

San’atdagi fojeaviylik insoniyat va jamiyatning doimiy hamrohi va umr yo‘ldoshi bo‘lishi mumkin degan ilmiy taxminlar anchagina. Chunki u o‘z orzularini ro‘yobga chiqarish uchun intilishi, kurashi doimo obyektiv tarixiy zaruriyat bilan to‘qnashadi. Insoniyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichda uning muqarrar tarzda imkoniyatlari tarixiy cheklanganligi san’atda fojeali ohanglar tug‘ilishiga bitmas–tuganmas zamin vazifasini o‘taydi.

Shuning uchun ham ilg‘or tafakkur doim hayotni o‘zlashtirish, o‘lim havfini qisqartirish haqida o‘ylab kelgan. O‘lim qayg‘usidan farqli o‘laroq fojiiy qayg‘u–iztirobning maxsus bo‘lib, ulug‘vorlikning barbod bo‘lishi bilan bog‘liq: u–hayotning yo‘qolishi yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy voqelikning barbod bo‘lishidir. Estetik qayg‘urish esa bu yerda yo‘qotishning o‘ziga xos turi sifatida namoyon bo‘lib, u iztirobli qayg‘uning konkretlashuvidir.

Fojeaviylik estetika kategoriyalari orasida ulug‘vorlik bilan qator yaqinlikka ega. Haqiqiy ulug‘vorlik fojiaviylikning davomi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Shu bois estetikasida fojiaviylik kategoriyasining ulug‘vorlik kategoriyasidan keyin o‘rganilishi beziz emas. Ulug‘vorlikning barcha xususiyatlari fojiaviylikning ham u yoki bu ko‘rinishi orqali namoyon bo‘ladi. Fojeaviylik mezoniy tushunchasining estetikasidagi markaziy muammosi–insonning imkoniyatlarini har tomonlama kengaytirish (san’at, badiiy adabiyot, jamiyat va tabatga nisbatan munosabatda), qahramonlik, buyuklik tushunchalarining qat‘iy va o‘zgarmas chegaralarini buzib, uning mohiyatini yanada yaqinlashish, tashabbuskor va bunyodkorlikni rag‘batlantirish, hayotda umidvorlik va unga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirishdan iboratdir. Fojeiy qahramon kelajakka yo‘l tashlaydi, u eskirgan chegaralarni daf etadi. U doimo insoniyat kurashining oldida yuradi.

Fojeaviylikning yana bir *xususiyati* shundaki, u insonga borliqning mazmunini ochib berishda yaqindan ko‘mak beradi. Shaxs rivoji jamiyat va insoniyat o‘rtasidagi munosabatga bog‘liq ekanligini, jamiyat taraqqiyoti inson hisobiga emas, balki inson va inson orqali rivojlanishi zarurligi bevosita fojiaviylik tushunchasi orqali yanada konkretlashtiriladi. Bu esa pirovardida inson va insoniyat muammolarini insonparvarlik yo‘li bilan xal etishga olib keladi. Fojeaviylikda jamiyat va insoniyatning ezguligini himoya qiluvchi xususiyat mujassam. Mahmud Torobi y qo‘zg‘alonni natijasiz tugashi, uning o‘zi esa fitna qurboni bo‘lishi ajdodlarimiz qismatidagi fojiadir. Mahmud Torobi y g‘anim qo‘lida emas, o‘z qavmidan chiqqan–nurga emas, zulmatga talpingan kaltabin johil Olovxon Yusuf qo‘lida halok bo‘ladi. Biroq, Torobi y timsolidagi fofia xiyonat, sotqinlik, diyonatsizlik, zulm va zo‘ravonlik boshidan kechirgan va unga qarshi kurashgan millat, xalq va Vatan fojisidir. Yoki istiqlol muqaddas tutgan, o‘lkaning milliy, diniy zaminidagi taraqqiyot uchun kurashgan va xalq orasidagi g‘oyat katta mavqega ega bo‘lgan jadid ma‘rifatchilarining fojiasi ham jamiyatni to‘qimtabiat «muhabbat»dan xalos etishning natijasi edi.

Fojeaviylik kategoriyasining *falsafiyligi* shundaki, u:

- insoniy fazilatlardagi yo‘qotilgan narsalarning o‘rnini qoplab bo‘lmasligini ko‘rsatib beradi;
- abadiyatga daxldor shaxslarni tavsiflaydi va baxolaydi;
- sodir bo‘lgan voqeа–hodisaning yakuniga qarab qahramon xarakterining ochib beradi;
- dunyo manzarasi va inson hayotining mazmuni bo‘yicha falsafiy mushohada qilishga undaydi;
- man etilgan tarixiy zidditlarni fosh etadi;
- tushkunlik xolati va qayg‘u tuyg‘ularini paydo qilsa–da, Ayni paytda tantana va quvonch, hayotdan umidvorlik, hayotga muhabbat xislarini ham yuzaga keltiradi;
- odamlarni yovuzlik, qabohat va ma’naviyatsizlikdan forig‘ qiladi.

Kulgilik. Bu bordagi mavjud nazariyalar kulgililikning predmetini obyektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning subyektiv imkoniyatlari natijasi yohud subyekt va obyekt o‘zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi va mazkur metodologik yondoshuv kulgililikdagи ko‘pma’nolikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Estetik tafakkur tarixida kulgilik bir qadar keng o'rganilgan. Jumladan, Aflatun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, deydi. Nodonlik esa insonni kulgili qiladi. Biroq, kulgilikning mohiyati, uning kelib chiqishi sabablari haqida Aflatun biror-bir fikrni aytgan emas. Quldarlik tuzumi zodagonlarining namoyondasi bo'lgan Aflatun uchun kulgilikning demokratik mohiyati begona edi.

Arastu fikricha, kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor yetkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi. Insondagi jahldorlik, suskashlik, qizg'onchiqlik, subutsizlik, izzattalablik, shuhratparrastlik kabi illatlar kulgilik uchun obyekt bo'ladi. Arastu fikricha, kulgi-axloq hududlarini bezarar buzishdir. Arastu estetikasida kulgi inkor etilib, komediyaning xarakteri nazariy jihatdan asoslanadi. Arastuning fikriga ko'ra, har qanday ozod inson hazil bilan ro'baro' kelishi mumkin. Bu xolatda kulgi insonning shaxsiy ehtiyojini qondiradi. Qiziqli esa-boshqalarning ermag'i, ovunchog'idir.

Mumtozchilik (klassisizm) estetikasi komediyaga «*bebosh omma*», masharaboz va jozibador malay sifatida munosabat bildiradi. Ma'rifatparvarlik estetikasi esa kulgilikni estetik ideallarga qarama-qarshi yo'llar orqali ochib berishga, kulgilik kundalik ikir-chikirlar emas, balki oly darajadagi tuyg'u sifatida e'tirof etiladi. Lessingning fikriga ko'ra, kulgi kasallikni davolamaydi, lekin u sog'lom organizmni yanada mustahkamlaydi.

I.Kant kulgilikning tabiatini latifa misolida ochib berishga harakat qiladi, F.Shiller esa xajviyani voqelik bilan ideal orasidagi qarama-qarshilik orqali ko'rsatib o'tadi. G.Hegel kulgilikning asosini zohiriyl ishonch va botiniy to'laqonli bo'limganlik orasidagi qarama-qarshilik orqali ifodalaydi.

Kishilik jamiyatni fofja va kulgining haqiqiy hukumdori hisoblanadi. Inson kulishga va kuldirishga qodir bo'lgan yagona mohiyatdir. Kulgilik voqelikning obyektiv ijtimoiy qadriyati hisoblanishi barobarida tabiat bilan qisman aloqa bog'laydi. Bu aloqa to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita amalga oshadi. Ayniqsa, hayvonlarning tabiiy xususiyati insoniy hatti-harakatlar bilan yaqinlashadi va ular estetik baho obyektiga aylanadi. Masalan, tulkiga xos ayyorlik, quvlik, chaqqonlik inson faoliyatida kulgilik prizmasidan o'tib, estetik baxo oladi.

Kulgilik boshqa nafosatli hodisalar singari faqat obyektiv tomonga ega bo'lmay, subyektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. *Kulgilikning subyektiv tomoni* – keng ma'nodagi *hazil* (umor) tuyg'usidir. (Moler hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Hazil – insonlararo munosabatlarni tabiiy va erkin idrok etishi, turli beo'xshov ziddiyatlarni anglagan xolda ularga nisbatan oqilona kulgi bilan javob berish qobiliyatidir. Hazil tuyg'usi juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uda insonning his-tuyg'usi, aqliy madaniyati, orzu-umidlari va tabiatni aks etadi. Shuning uchun ham insonning nima uchun kulayotganligiga qarab, uning qanday illat va qanday fazilatga ega ekanligini bilish mumkin bo'ladi.

Kulgi o'z tabiatini jihatidan demokratik mazmunga ega bo'lib, barcha odamlarni bir-biriga qovushtirib baravarlashtiradi, chunki kulishayotgan odamlar o'zaro tenglashadilar. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vosisigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch-qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi beqiyos rango-ranglik, xilma-xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushfe'l hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi.

Kulgilik o'zining barcha xilma-xil ko'rinishlari boyligi bilan san'atning me'morchilikdan boshqa deyarli hamma turlarida namoyon bo'ladi. Biroq, u o'zining eng to'la bo'lgan estetik ifodasini komediyada topadi.

Komediya o'z mavzuini jamiyatdagi va insondagi beo'xshovliklar, nomutanosiblikdan oladi. Kulgilikning namoyon bo'lish shakllarining xilma-xilligi ularning san'atda rang-barang tarzda aks etilishini yuzaga keltiradi. Komediya bilan kulgi bir-biridan ajramaydigan egiz tushunchalardir. Kulgi komediyada tasvirlanayotgan voqe'a-hodisalar mohiyatini ochib berishning hal qiluvchi vosisasi, tasvirlanayotgan obyektga nisbatan estetik baholashning va muallif munosabati ifodasining asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Komediya san'atida kulgini asosiy estetik vosisa qilib ishga

solist uning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirmaydi, chunki kulgi dunyoning barkamol emasligini ta'kidlab qolmasdan, balki uni qayta qurib yangilashni ham ko'zda tutadi.

Kulgining komediyadagi o'rni ko'p jihatlardan uning o'ziga xos ijtimoiy burch-vazifalarida ifoda topadi. Komediya, birinchi navbatda, badiiy tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishning o'ziga xos shaklidir. Komediyalarning asosan tanqidiy yo'nalganligini ko'pincha o'ta soddalashtirib, komediya yomon xulq, yomon odam, yomon hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tuzatishga, yaxshilashga olib keladi deb tushunadilar va tushuntiradilar.

Obyektiv kulgiliklik kulgi quroli bevosita o'zlariga qarshi qaratilgan odamlarga, ular fahm-farosatiga yetib bormasligi haqida gapirganida Lessing haq fikrni aytgani shubhasizdir. Komediyaning bosh vazifasi utilitar-maishiy mohiyati emas, balki estetik yo'nalishdadir, ya'ni komediya axloq-odobdan saboq berib qolmay, hayotdagi kulgilikni ilg'ab olishdagi qobiliyatni o'stiradi, odamlarda hazil tuyg'usi kabi qimmatbaho fazilatni ham rivojlanadir.

Komediya asarlarining buyuk ijodkorlari nafosatli baholarining aniqligi va to'g'riliqi bilan ajralib turadilar. Ular hech mahal achchiq, savag'ich, istehzoli kulgini faqat mayin hazil va muruvvatli tabassumga loyiq hodisalarga nisbatan ishlatmaganlar va aksincha, ayovsiz, keskin qoralanishi lozim bo'lgan hodisalarni tasvirlayotganlarida mayin hazil va muruvvatli tabassumdan butunlay yuz o'girganlar.

Kulgining badiiy shakllari orasida *satira* alohida o'ringa ega. Umumnazariy ma'noda satira voqelikni badiiy tasvirlash turi bo'lib, unda hayotning salbiy hodisalari ustidan kulish-bunday hodisalar asosida yuksak insonning orzulariga zid ekanligini bo'rttirib ko'rsatish maqsadi yotadi. Satira har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Unga lirika ham, epos ham, drama ham begona emas. Satira markazida doim hayotning salbiy voqeа-hodisalari joylashgan bo'lib, butun fosh qilish kuchi ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun komediya san'atiga xos tanqidiylik, yo'nalganlik satirada eng to'la va eng aniq ifoda topadi. Satirani asosan kulgi fosh eitb qo'yadi, lekin kulgi bu jarayonda qahr-g'azabdan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Badiiy adabiyotda satira eng hajmli komediya turlaridan sanaladi. Atoqli yozuvchilar Gogol, Chexov, Saltikov-Shchedrin, Bulgakov, A.Qahhor, Sh.Boshbekovlarning ijodida mazkur janr umumbashariy muammolarni ko'tarish darajasiga chiqadi va bu bilan millat, xalq, ma'naviyat fojeasiga yaqinlashadi. Satira janri voqelikni anglashning barcha estetik shakllaridan unumli foydalanishni talab etadi. Dastlab, kulgilikning barcha turlari – zardali hazil tuyg'usi, achchiq kinoya, nozik hazil tuyg'usi kabilar ishga solinadi. Satira yengillik, o'tkir fikrlilik va hazildan istisno bo'lmay, ular bilan qo'shilib ketgan holda fosh qilish burchini og'ishmay amalga oshiraveradi.

Satira badiiy umumlashtirishning alohida turi sifatida mumkin qadar keng mushohada etiladi. Shu boisdan satira obyekti bo'lgan kimsalar gohida yirik ramziy umumlashmalar darajasiga ko'tariladi. Zero, sudho'r, ziqna, qizg'onchiq odamlarni ko'rganimizda «Qori ishkamba» nomini bejiz tilga olmaymiz. Chunki bu bilan o'sha tegishli odamning «Qori ishkamba»ga o'xshagan xislatlari borligiga ishora qilib, uni satirik jihatdan umumlashtirishga uringan bo'lamiz.

Satira mazmunining xususiyati uning *mubolag'a* (giperbola) va *g'aroyibot hajvi* (grotesk) kabi keskin bo'rttirish vositalaridan kelib chiqadi. Jamiyat rivojlanib borishi jarayonida satiraning obyekti bilan birga uning subyekti ham o'zgarib boradi. Hozirgi davrda umuminsoniy maqsad-manfaatlarning ustuvorligi umuminsoniy qadriyatlar vositasida jahon xalqlari hayotidan tobora mustahkam o'rin egallab borayotgan ekan, insoniyatning mana shu bosh taraqqiyot yo'lini to'sadigan barcha chirik, eskirib qolgan, dogmaga aylangan narsalar, xolatlar adabiyot va san'atning o'tkir va hayotchan satira obyekti bo'lib qolaveradi.

Kulgi-insoniy voqelik. Inson o'zining aqli yordamida kuladi. U, albatta, o'zining ahmoqligidan ham kulishi mumkin, biroq bu kulgi telbaning mazmunsiz kulgisi hisoblanadi. Kulgidagi lazzatning manbaida masxara, istehzo kabi obyektlarning ustidan afzallik tuyg'usi yotadi.

Kulgi – biror-bir bema'nilik bilan to'qnashuv natijasida yuzaga keluvchi yoqimsiz tuyg'ulardan halos bo'lishdir. Kulgilik botinining zohirga o'tishi, vosita va maqsadining nomuvofiqligidir. Kulgilik tabiatan insonparvarlikka borib taqaladi. U inson huquqlari hamda tajavuzkor (reaksion) kuchlarga qarshi kurashishdagi qadimiy qurol, hisoblanadi. Kulgi

ulug‘lantiradi va hotirjam qiladi; unda ko‘tarinkilik va sokinlik singari kuchli dushman yo‘q. Og‘ir vaziyatlarda hazil, askiya, mutoyiba, xushchaqchaqlik, quvnoq suhbat, hozirjavoblik inson ruxini yuksaltiradi. Inson boshqa insonda kulgini mutloqo bir–biriga o‘xshamaydigan ikkita uslub orqali paydo qiladi: bexosdan, ya’ni o‘zining noqulay hatti–harakati tufayli; to‘la onglangan xolatda, ya’ni o‘zining zukkoligi va gapga chechanligi bilan.

Hazil–mutoyiba. Kulgililikda hazilning o‘rni beqiyos. Hazil insonlarni fikrlashga, so‘zlarni o‘rinli qo‘llashga, qiziqarli iboralar bilan fikrni bayon etishga undaydi. Hazilning qo‘pol ko‘rinishi masxara hisoblanadi. Kinoya, piching, kesatiq so‘zni hazil orqali ifodalashda muhim vositalardir.

Kulgililik estetikaning murakkab mezoniylar tushunchalaridir. Agar go‘zallik, ulug‘vorlik va fojiaviylik ham tabiatda, ham jamiyatda, ham insonda namoyon bo‘lsa, kulgililik faqat inson va jamiyatga xosdir. Kulgi muayyan konkret shaxs yoki holatga yo‘naltirilgan bo‘ladi, u kishining eng og‘riq nuqtasiga, kamchiligiga boradi. Bundan tashqari, kulgi o‘zining samimiyligi, beg‘uborligi va demokratik xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kulgililik rassomlikda, adabiyotda, kino va teatrda oshkora, yaqqol ko‘rinadi. Musiqada esa kulgililik bir qadar kamroq namoyon bo‘ladi. Cholg‘u musiqasidagi kulgililikni idrok etish uchun tinglovchi tayyor bo‘lishi lozim.

Kulgililikni aks etirmaydigan yagona san’at turi bu–me’morchilikdir. Qiyshiq, besunaqay bino insonga xizmat qilmaydi. U tomoshabinga ham, u yerda yashaydiganga ham falokat olib kelishi mumkin. Me’morlik jamiyat ideallarini to‘g‘ridan–to‘g‘ri aks ettirar ekan, biror nimani tanqid ham inkor ham etolmaydi, bevosita kalaka ham qila olmaydi.

Kulgililik–yuksak taraqqiy etgan tanqidning ibtidosini o‘zida namoyon qiladi. Kulgi – *tanqidning estetik shaklidir*. Kulgi tabiatiga ko‘ra tabaqalanishga qarshi, mansab va amal oldida bo‘yin egmaydi. Kulgi tengsizlik, zo‘ravonlik, manmanlik, amalparastlik, nodonlikning barcha shakllariga qarshi ko‘rishuvchi buyuk kuch sifatida maydonga chiqadi. Abdulla Avloniying «Hajviyot»idagi «Ko‘rning uzri», «Bir munofiq tilidan», «Bilimsiz oliftalarga», «Haqiqiy ma’nosи», «Dangasaman», «Soqovraport» kabi maqolalarida asrimiz boshida xalqimiz ahvoli to‘g‘ridan–to‘g‘ri kulgi ostiga olinadi. Yoki buyuk adib Abdulla Qahhor ijodida shunga mos misollar talaygina Masalan, yaxshilikni bilmaydigan yozuvchilar to‘g‘risida «Bu odam» to‘nkarilib qolgan to‘ng‘izga o‘xshaydi, o‘nglab qo‘yadiganlarning qo‘lini sasitadi». Jurnal yoki gazetani o‘z saviyasiga moslab olgan muharrirlar to‘g‘risida bunday deydi: «Redaksiya eshigini o‘z bo‘yiga moslab qurib olgan, katta yozuvchilar bu eshikka sig‘maydi». Talantsiz yozuvchilar to‘g‘risida «Mana bu odam ko‘chadan o‘tib keta turib oyog‘i toyib soyuz eshigining ichkarisiga yiqilgan. Xaligacha chiqib ketmaydi.» va h.k.

Xajviya–jamiyat, inson faoliyatidagi illatlar va ularning oqibatlari, olam mukammalligi va inson ideallariga nomuwofiq kelishini ko‘rsatib beruvchi kulgi turidir. Lekin mashara, mazax kabi kulgi turlari ham borki, ular estetik tarbiya vositasi bo‘lolmaydi. Aksincha, ular mohiyatan insonni qoralashga, uni hafa qilishga, obro‘sizlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu kulgingining o‘ta ziddiyatli va g‘ayriaxloqiy ko‘rinishidir. Shu bois mashara fisqu–fasodning muqaddimasi sanaladi. Mazah qilish ibosiz so‘z bilan insonga daxl etmoq demakdir. Mazah qilish, kalaka qilish, o‘zganining ustidan, jismoniy kamchiligidan kulish masharaning real voqelikdagisi ko‘rinishlaridir.

Kulgililikning barcha shakllari ular qanchalik erkin namoyon bo‘lish imkoniyatlariga ega bo‘lib borsalar, shunchalik ko‘p ahamiyat kasb etadilar. Rivojlangan hazil tuyg‘usi, hayotning kulgili tomonlarini nozik ilg‘ab olish va fahmlash qobiliyati rivojlanib borgan sari shaxsning ma’naviy–ruhiy sog‘lomligi hamda barkamolligi yuksalib boraveradi.

Umuman olganda, estetikaning tushunchalari (kategoriyalari) doimiy hamkorlikda mustahkamlanib boradi. Ayniqsa, bu jarayonda go‘zallik kategoriyasi bog‘lovchilik vazifasini bajaradi. Shuning uchun fojiaviylikda, ulug‘vorlikda, hunuklikda ham go‘zallik unsurlarining uchrashi bejiz emas.

San’atning kelib chiqishi

San’at – estetik faoliyatning o‘ziga xos turi, sehrli ma’naviy ko‘zgu. Sehri shundaki, san’at asarini idrok etayotgan odam unda ham shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o‘z dunyosini

qadriyatlar prizmasi orqali ko‘radi; o‘zining qandayligini va qaerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlini va hissiyotlarini aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va zamondagi voqelik vositasida go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik, kulgililik, xunuklik, tubanlik v.b. estetik xususiyatlarni in’ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. San’at qadriyatlarning qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarni ko‘rsatib beradi, bir odam yoki bir necha odam timsolda odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg‘unligini ta’minlaydi. U kishini yashashga o‘rgatadi, go‘zallikka da’vat etadi, ma’naviy yuksaltiradi. Shu sababli insoniyat tarixida san’atsiz yashab o‘tilgan birorta ham davr yo‘q.

San’atning xususiyatlari:

- **Ma’jiziylit xususiyati.**
- **Demokratik xususiyati.**
- **Ijtimoiylik xususiyati.**
- **Tarixiylik xususiyati.**
- **Milliy va umumbashariylik xususiyati.**

San’atning tamoyillari:

- **Originallik (yangilik)-ijodiylik tamoyili.**
- **Haqqoniylik tamoyili.**
- **Xalqchillik tamoyili.**

San’atning asosiy vazifalari:

- **Insoniylashtirish vazifasi.**
- **Forig‘lantirish vazifasi.**
- **Bilimli, ma’rifatli qilish vazifasi.**
- **Tarbiyaviylik vazifasi.**
- **Ijtimoiy aloqachilik (kommunikativlik) vazifasi.**
- **Huzurbaxshlik vazifasi.**

San’at turlari

San’at – estetik tadqiqot obyektining umumiyl nomi, mushtarak tushuncha. Xususiy tushuncha sifatida u voqelikni go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik kabi qadriyatlar va aksilqadriyatlar orqali muayyan xil, tur hamda janrlar doirasida in’ikos ettiradigan badiiy ijod mahsulini anglatadi. Shu bois san’atni xil, tur va janrlarga bo‘lib, estetik tadqiq etish odat tusiga aylangan. Biroq ana shu «bo‘lib o‘rganish», ya’ni tasniflashtirish, turkumlashtirish bir qarashda osondek ko‘rinsa-da, aslida estetikadagi murakkab va chalkashliklarga to‘la muammo sanaladi. Bu borada o‘nlab nuqtai nazarlar bor.

Tasniflashtirish avvalo san’atni xillashdan boshlanadi. San’at an’anaviy tarzda uch xilga bo‘lib kelinadi: **1. Epos. 2. Lirika. 3. Drama.**

San’atning mavjudlik shartidan, ya’ni uning ma’naviy borliq sifatida namoyon bo‘lish holatidan kelib chiqib, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan **1) makon** (me’morlik, haykaltaroshlik v.h.), **2) zamon** (badiiy adabiyot, musiqa v.h.) va **3) makon-zamon** (teatr, sirk v.h.) bo‘yicha tasniflashtirishni ma’qul deb hisoblaymiz. Biroq san’at tarixiy hodisa ekanini, u qadimdan tadrijiy rivojlanib kelganini, taraqqiyoti mobaynida o‘zgarishlarga uchraganini va ma’lum bir tarixiy davrda muayyan san’at turi faol, yetakchi bo‘lganini nazarda tutib, ayni paytda yuqoridagi birgina turkumlashtirish hamma tomonni qamrab olomasligini hisobga olib, masalaga tarixiylik tamoyili asosida yondashuvni ham maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda, biz taklif etayotgan tasnif san’at turlarini uch turkumga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi. Bular:

1. Arxaik - endilikda tarixga aylangan, hozirga paytda real hayotda amalda bo‘lмаган.
2. An’anaviy - qadimdan hozirgi kungacha o‘z o‘rnini va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan.

3. Zamonaviy – ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan «texnikaviy», yangi san’at turlari.

Ushbu tasnifga ko’ra, arxaik san’at turlari –an’anaviy san’at turlari – badiiy adabiyot, baxshilik, me’morlik, ko’rgazmali amaliy san’at, haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, musiqa, teatr, raqs, qo’shiqchilik, estrada, sirk va askiyani; zamonaviy san’at turlari – fotosan’at (badiiy suratkashlik), kino, televidenieni o’z ichiga oladi.

Mazkur ikki yo‘nalishdagi turkumlashtirish ma’lum ma’noda san’at turlarini tasniflashtirishni estetik boshqotirmaga aylanib ketishdan saqlashga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Ekologiya va estetik madaniyat

Bundan 1000 yil burun ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy: «Agar insonlar tabiatga nisbatan zo‘ravonlik qilib, uning qonunlarini qo‘pollik bilan buzsalar, bir kun kelib tabiat ularning boshiga shunday kunlarni solishi mumkin, buni hech qanday kuch qaytarolmaydi», degan edi. Bugun biz buni Orol fojiasi misolida ko‘rib turibmiz.

Komil inson tarbiyasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g‘amxo‘riik hislarini uyg‘otish, ularga ekologik tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. Ularning ekologik va estetik madaniyatni shakllantirishda oiladagi sog‘lom muhit muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek oilalarida, odatga ko‘ra, ota-onalar yoshlarga «harom-halol», «uvol», «gunoh-savob» kabi pand-nasihatlar asosida dastlabki ekologik tushunchalar berib borganlar, Bolaning ongi, xulqi, madaniyati, yurish-turishi tabiat bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ekologik madaniyatni yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatimiz tabiatini hayvon va o‘simgiklarini muhofaza qilish, suvlarni ifloslantirmaslik, qushlarga ziyon yetkazmaslik, eng muhimi, ona zaminni bezavol asrashning aniq tuzilgan rejasи bo‘lishi lozim. Bu ezgu maqsadga erishish har bir insonning ekologik dunyoqarashiga va jamiyatimizning muhim tarbiya o‘chog‘i bo‘lgan oilada ushbu masala qanday hal etilishiga ham bog‘liq.

Yoshlarimizdagи estetik did, estetik faoliyat har tomonlama uyg‘un shakllana borgandagina ekologik qadriyatlar vujudga keladi. Insonlarning tabiat quchog‘ida bo‘lishi ularni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini yanada oshiradi.

Vatanni sevish - tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go‘zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg‘usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin yemas.

O‘zbekiston mustaqillikka erishmasidan avval Bo‘stonliq, Oqtosh, Parkent, Kumushkent kabi go‘zal tabiat maskanlarida ham sobiq SSSR markazining qarori bilan turli kimyo va texnika zavodlari qurilaverar, zaharli chiqindilari daryoga tashlanaverar, dalalarimizga turli zaharli kimyoviy moddalar, defoliantlar sepilaverardi. Mol-hollar, odamlar zaharlanib, o‘lib ketsa ham bu haqda yozish, gapirish man etilgan edi. To‘g‘ri, o‘sha vaqtarda ham tabiat musaffoligini asrash haqida qonunlar bor yedi, ammo ularga amal qilinmasdi.

Vatanimiz istiqlolga erishganidan so‘ng tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, musaffoligini asrash haqida bir qancha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ammo, gap shundaki, tevarak-atrof tabiatga mehr bilan qarash, avaylab-asrash qonun-qoidalardan ko‘ra odamlaraing ekologik ongi, tarbiyasi, tuyg‘ulari madaniyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Inson ongida va qalbida ona tabiatga mehr tuyg‘ulari jo‘sh urmas ekan, odamlar vaqtinchalik iqtisodiy, moddiy manfaatlarini vatan kelajagi, tabiatini asrashdan ustun qo‘yaveradi, atrof-muhit ifloslansa ham, odamlar zaharli chiqindilardan kasallansa ham, zavod, sex yoki firma egalari tabiatni zaharlashni davom ettirdveradilar. O‘zbekiston zamini, dalalari, tog‘laru o‘rmonlari daryolari va bog‘-rog‘larini avaylab-asrash barcha fuqarolaming insoniy burchi, vijdon, iymon talabidir. O‘zbekiston tabiatidan, yero suvlardan tejamkorlik bilan foydalanish zarurligini ko‘pchilik biladi. Ba’zi odamlar qanchalik moddiy boyliklarga ega bo‘lsa ham to‘ymaydilar, buning boisi -ularning tabiat go‘zalliklaridan, ruhiy olamning go‘zalliklaridan, ma’naviy, axloqiy musaffolikdan uzoqlashib, ma’naviy qashshoqlashib ketganligidir. Ariq, anhorlar, daryo suvini tiniq

va toza ekologik va iqtisodiy muammolar axloqiy muammolarga, axloqiy, ma'naviy go'zallik histuyg'ular musaffoligiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Orol dengizi o'z qirg'oqlaridan necha yuz kilometrlab uzoqlashgani, shuncha olis joylarda baliqlar o'lib ketganligi, o'sha mintaqada yashovchi xalqning sog'lik-salomatligi jiddiy yomonlashgani, bolalar o'limi, turli kasalliklarning ko'paygani jahon jamoatchilagini va ayniqsa, O'zbekiston xalqini tashvishga solgani tabiiydir. Alisher Navoiy «Sab'ai sayyor» dostonida shoh Bahromning sevgilisi Diloromdan ayrilganidan keyin mast-alastlikka, ko'ngilxushliklarga berilib, dashtda shikor-ov paytida minglab ohular, jayronlarni qirib tashlashi tasvirlanadi. Dasht, sahro o'q yegan jonzdolarning vujudidan oqqan qonlardan botqoqlikka aylanadi. Uning ustiga tinimsiz yomg'ir, jala quyib, shoh Bahromni ham, uning beklari, amirlarini ham yer yutib ketadi. Ovchilarni begunoh o'lgan kiyiklarning qoni tutadi.

Turmush estetikasi

Inson - ijtimoiy hodisa. Lekin u hamisha tabiat bilan aloqadorlikda shakllanadi. Shu tariqa insoniy madaniyat ham vujudga keladi. Madaniyat haqida gapirar ekanmiz, ichki va tashqi madaniyatni farqlash lozim. Ichki madaniyat - insoniyat ma'naviy boyligi, aqliy va axloqiy rivojlanganligi darajasi, dunyoqarashi, hissiyoti, vijdon, imon va diyonat, ezgulik va hamdardligidir. Tashqi madaniyat - axloq qoidalari, yurish-turish, xatti-harakat, odob normalariga rioya qilish. Shuningdek, shaxsning tashqi madaniyatiga so'zlashish, kiyinish madaniyati ham kiradi. Insonlarda ichki va tashqi madaniyat uzviy bog'liq holda rivojlansa, shaxs barqarorligi, insonning munosabatlari go'zalligi, yigit-qizlar munosabati, do'stlik va o'rtoqlik munosabatlari odoblilik doirasida tarkib topadi, Do'stlik, muhabbat umumiy manfaat xayrixohlikka asoslangan o'zaro bog'liqdir. Odob tuyg'usi rivojlangan insonlar go'zal xatti-harakat sohibiga aylanadilar. Tavoze, odob, ohistalik, ehtiyojkorlik, chiroysi muomala zohiriy jihat ekanligini ta'kidlash lozim. Insonning tashqi qiyoferi uning umumiyligi madaniyat va saviyasidan dalolat beradi. Odamlar orasida go'zal va zamona viy bo'lish istagi yoshlikning asosiy intilishidir. Lekin tashqi qiyofera go'zalligi uchun intilish yagona maqsad bo'lmasligi lozim. Shu bilan birga, insonning did bilan kiyinishi ham san'atdir.

Moda - ijtimoiy hodisa. U faqatgina kiyimda namoyon bo'lmaydi. Moda har doim kimgadir, nimagadir taqlid qilish ehtiyojidir. Moda bo'lgani uchun shu rangni tanlash, hamma kiygani uchun shu kostyumni kiyish, moda bo'lgani uchun uyni shunday mebellar bilan jihozlash, moda bo'lgani uchun shunday so'zlashish kishilar orasida urf bo'lgan.

Ma'lumki, har birimizni xilma-xil murakkab va jozibador go'zalliklar dunyosi qurshab olgan. Go'zallik tabiatda, mehnatda, insoniy munosabatlarda, san'atda namoyon bo'ladi. Go'zallik, ayniqsa, yoshlik, o'smirlik davrida, shaxsning ma'naviy dunyosi tarkib topishi jarayonida ko'proq maftun etadi. Shu tufayli ham teatr va kinoteatrлarda, konsert va ko'rgazmalarda ko'pincha yoshlarni uchratishimiz mumkin.

Insonning go'zalligi mehnati orqali namoyon bo'ladi. Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnika zimmasiga o'tgani sari, ularning ko'ngilli va ijodiy tabiat ortib boradi. Shu tariqa, mehnat estetik taibiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Chunki qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida mehnat turi insonga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir inson o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, bu mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Shaxs hayotida mehnatning estetik ta'sirini kuchaytirishda ishlab chiqarish jarayonlariga estetik texnika (dizaynni keng ravishda joriy qilish kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish muhitini nafosat qonunlariga mos tarzda qayta qurishni taqozo etadi. Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish omili insonni estetik kamol toptirish bilan birga, uning foydali-amaliy vazifalarini ham kengroq doirada bajarishga safarbar qiladi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdarligini, samaradorligi va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi.

Go'zallik hamisha insonga, jamiyat taraqqiyotiga ma'naviy foyda keltiradi. Estetik tarbiyada shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg'unligidan, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos usullaridan foydalilanilgandagina mo'ljaldagi samaralarga muvaffaqiyatlarga

erishish mumkin. Mustaqil O'zbekiston davlati fuqarolarining estetik ongini oshirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, u estetik madaniyatni yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi

Texnika estetikasi

Ishlab chiqarish muhitining estetik jihatlarini vujudga keltirish, unga «ma'naviy qadriyat» maqomini berish dizayn (sanoat estetikasi)ga oid rasm chizmalar, modellar, bezaklar vositasida ham amalga oshiriladi. Hozircha estetik adabiyotda dizaynning yagona hammabop yaxlit qoidaga aylangan ilmiy ta'rifi yaratilmagan. Lekin ko'pchilik tadqiqotlar dizayn badiiy-texnik faoliyat turidir, deb qarashga moyildirlar.

Texnik estetika o'zining tadbiqiy tomoni bilan bevosita texnika bilan qorishib ketadi. Dizayn dunyoqarashga ham taalluqli bo'lib, u umumiylar estetik nazariya oqimiga kelib quyiladi. Bu yerda dizaynning maxsus faoliyat turi sifatidagi xususiyatlarini, dizayn va san'atning o'zaro munosabatlari sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda badiiy ijod ishtiroki, ular o'rtasidagi umumiylilik va farqlar, texnikaning estetik jihozlanishi va estetik qiymati kabi muammolar tahlili estetik faoliyat uchun ko'p samaralar berishi mumkin. Dizayn muhandislik, ilmiy va badiiy faoliyat qorishiq holda namoyon bo'ladi, lekin dizayn ularning birontasiga aylanib qolmadi. Dizayn san'atdan bahra oladi. San'at bilan dizayn o'rtasidagi umumiylilik bo'lsa-da, ular estetik faoliyatning ikki xil turlaridir. Dizayn san'atdan qanday farq qiladi? Ayonki badiiy faoliyat u yoki bu ko'rinishida faqat g'oyalargina emas, balki narsalar ishlab chiqarish bilan bog'liq. San'at avvalo ma'naviy ishlab chiqarish turi, ong va bilish sohasidir. U san'atning tub mohiyatini ifodalaydi. San'at estetik qadriyati ma'lum darajada «foyda» qadriyatlariga ziddir, ya'ni san'at asari moddiylikdan ko'ra ko'proq ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Dizayn mahsulotlari mashinalar, binolar keng iste'mol, ya'ni moddiy «foyda» xususiyati bo'rtib turadi.

Bu yerda narsaning burch - vazifasi uning ijtimoiy ahamiyati, inson ehtiyojini qondirish qobiliyati bilan aniqlanadi. San'at bilan dizayn o'rtasidagi farq haqida gapirganda, san'at asari qaysi moddiy tizimga mansubligidan, qaysi muhitda vujudga kelganligidan qat'i nazar, mustaqil qiymatga ega ekanini ta'kidlash kerak. Dizayn mahsuloti esa narsalar tizimining ajralmas qismi bo'lib, undan tashqarida amal qila olmaydi. Uning estetik qiymati va muayyan narsalar «tizimi»ga qanchalik mos kelishi bilan o'lchanadi, ya'ni dizayn faoliyatining obyektini alohida olingen mashina emas, balki o'zining barcha jihozlari, tashqi va ichki bezaklari ko'rinishi va hokazo shakllari bilan birgalikda yaxlit olingen «mashinalar tizimi»ni tashkil etishi shart. Hozirgi sharoitda dizayn tobora umumbashariyat muammolari bo'lgan tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, inson salomatligini va uni qurshab turgan muhitni himoya qilish vazifalarini bajarishga faol ishtirok etmoqda.

Dizayn - estetik faoliyatning o'ziga xos turi sifatida

Dizayn zamonaviy madaniyatning eng yosh va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Shu munosabat bilan uning nazariyasini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bu o'z-o'zidan tushunarlidir, chunki shunday qilinganda uning oldiga zamonaviy amaliyot tomonidati qo'yilgan dolzarb muammolarni shunchalik tez hal etish mumkindir. Shu haqiqatni ochiq aytish lozim bizning mamlakatimizda dizayn imkoniyatlaridan to'la ravishda foydalanilayotgani yo'q. Bu borada vujudga kelgan muammoni tushunish mumkin; chunki birinchidan, dizaynerlik faoliyatining nihoyatda murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, uning fan-texnika, muhandislik-konstrukturlik, iqtisodiy faoliyati bilan bog'liqligidir, uchinchidan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'lanib ketganligidir. Shu boisdan, dizaynning nazariy muammolari ko'p qirrali bo'lib, u turli nazariy bosqichlarda o'zining o'rganib chiqilishini talab etadi. Madomiki, dizayn ommaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanilar ekan, uni moddiy ishlab chiqarish va islohatlar tizimida ro'y beradigan jarayonlar munosabati bilan ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Ayni zamonda dizayn muammosini nazariy jihatdan ishlab chiqishni uning zamonaviy madaniy hayot tizimida yetakchi o'rin tutishidan ayricha holatda hisobga olmasdan turib, hal etish mumkin emas, zero dizayn moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda, texnika va san'at o'rtasida o'ziga xos ko'priq vazifasini bajaradi.

Shu sababli texnik estetika masalani ishlab chiqarish va iste'molning texnika, ijtimoiy-iqtisodiy) ergonomik hamda estetik aspektlari bilan bog'liq holda sanoat mahsulotlarining shaklini vujudga keltirish, badiiy konstruksiyalashning asosiy tamoyillari va metodlari bilan bog'liq holda ko'p muammolar nuqtaiy nazaridan turib o'rganadi.

Siz bilan biz yashayotgan hozirgi kunlarda texnik estetika oyoqqa turish bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu sohada mehnat qilayotgan mutaxassislar favqulodda faollik ko'tsatayotganliklariga qaramasdan, dizayn muammolarini tushunishda hamon biron-bir to'la nazariya vujudga kelmagan. Dizaynning umumiy nazariyasi roliga da'vo qilayotgan bir qator taniqli konsepsiylar amalda uning mazmuni bilan bog'liq u yoxud bu jihatni aks ettirishdan o'zga narsa emas.

Hozirgi zamonga kelib, dizaynning bir necha ishchi definisiyalaridan foydalanilmoqda. Ayrim mualliflar «industrial dizayn», «sanoat san'ati», «sanoat estetikasi» tushunchalarini bir-biridan farqlasalar, boshqa mualliflar esa ularni sinonimlar deb da'vo qiladilar.

Dizaynning maqsadi - inson bilan uni qurshab turgan mehnatga, madaniyatga jalb etuvchi predmetli muhit bilan maksimum darajadagi uyg'unlikni vujudga keltirishdan iborat. Xo'sh, dizayn bu maqsadni qanday qilib amalgalashadi? Ko'p hollarda biz dizaynning ishi ilmiy-tadqiqot, muhandislik-texnik va badiiy faoliyat sifatida behoslanishiga o'rganib qolganmiz. Haqiqatan ham, dizaynning mazkur sohalar bo'yicha faoliyati nisbatini o'rganar ekanmiz, ular o'rtasida juda ko'p umumiy jihatlar ko'zga tashlanadi. Biroq uni jamiyatning u yoki bu sohasidagi o'ziga xos xususiyatlar olami bilan qorishtirib yuborish yoki ikki qo'shiluvchi umumiy so'mi sifatida namoyish etish yaramaydi. Afsuski, bunday amaliyot hayotda tez-tez uchrab turadi.

Dizaynerdan professional sifatida iste'dodning turli qirralarga ega bo'lishi talab qilinadiki, bu iste'dod birgina rassomning iste'dodi bilan yoxud mutaxassis sifatida faqatgina loyihalash tafakkuri bilan chegaralanishni tan olmaydi, uning uchun yuksak darajada rivojlangan keng tafakkur, jismoniy o'ziga xos xususiyatlar, materialning tabiiy go'zalliglari nozik fahmlovchi, yuqori darajada rivojlangan didni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi biluvchi sifatlar ham xos bo'lmog'i lozim. Dizaynerlik kasbi maqomi yuqori ixtisos, o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyati uchun mas'uliyatni his etish, sanoat mahsulotlari assortimentini optimallashtirish orqali xalq turmush darajasini oshirish natijasida shakllanadi. Dizayner kasbiga bo'lgan tajab maxsus o'quv adabiyotida ana shu tartibda qo'yilgan. Haqiqatan ham dizayner u yoxud bu ishlab chiqarish jamoasida muhandis, konstruktor, texnolog, ergonomic, muhandislik ruhiyati bo'yicha ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Shunday qitib, dizayn moddiy ishlab chiqarish ustidan keyingi o'rinda turuvchi ustqurmadir. U sanoatning hamma jabhasida ham loyihalashning alohida turi sifatida ajralib chiqmagan, Ko'p hollarda dizayner fan-texnika jamoasi bilan birga ishlaydi. Qisqacha ifodalaganimizda, mazkur jamoaning faoliyatini, asosan, quyidagicha ifodalash mumkin:

-Ixtirochilik, ya'ni yangi ish qurorollari, asboblar mashinalar va hokazo; hamisha yagona; inventarlarlilikni ixtiro etish;

-obyektlar o'rtasidagi yoki obyektlar qismi o'rtasidagi yangi aloqalarni o'rnatish bilan joylashtirish; bu faoliyat o'zining mohiyatiga ko'ra ko'p variantlidir,

-konstruksiyalash, ya'ni mavjud texnikani takomillashtirish uchun ma'lum dastur bo'yicha konstruksiyalash. Konstruktorlarni bejiz texnik taraqqiyotning askarlari demaydilar. Axir domna pechlarini, seriyali tayyoralash, nabor mashinalarini va hokazolarni shular loyihalaydilar-da? Xuddi shu yerda o'tmishda hunarmand sifatida maydonga chiqqan dizayner ichki mehnatning turlari - sanoat yoki muhandislik dizayni bilan yaqindan tanishadi.

Dizaynerning mehnat faoliyatini to'rtta bo'lakka bo'lish mumkin:

1) asos qilib olingan maqsadning mavjud bo'lishi;

2) asos qilib olingan maqsad yoxud prototipning mavjud bo'lishi;

3) asos qilib olingan topshiriqlarni kompanovka metodi ostida bajarish;

4) asos qilib olingan obyekt ishida yangi sifatga ega bo'lish yoxud yangi obyektlarni barpo etish.

Shuni ta'kidlash kerakki, texnika taraqqiyoti dizaynning ayrim namunalari umrini qisqartiradi, joylashtirishning ba'zi tamoyillari esa goho asrlar, hatto ming yillar davomida foydalaniladi. Dizayn tomonidan qo'yilgan maqsad ikki xil tabiatga ega bo'lib, u ham konkret-utilitar, ham ijtimoiy xarakterga raolikdir. Stixiyali dizaynerlik faoliyati XIX asrning oxiriga kelib o'z oldiga tanho utilitar maqsadlari qo'ydi. Faqt XX asr boshiga kelib dizayn stixiyali faoliyat maqomiga ega bo'la olgach uning predmeti komplekslariga bo'lgan munosabati aniqlashdi, bunda u yoxud buyumlar guruhining ijtimoiy oqibatlari ham aniq ajralib chiqdi. Buyumlar o'rtasida ishlab chiqaruvchilar bilan dizaynerlar o'rtasida aloqa mustahkamlandi. Keyinchalik dizayn maqsadi ham progressiv, ham konservativ, ham reaksiyon bo'lishi mumkinligini dizayneriar birinchi bo'lib belgilab berdilar. Keyinchalik amaliyot ularning dunyoqarashi to'g'ri ekanligini isbotladi.

Hayotda dizaynga bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda, chunki ishlab chiqarishda, transportda, maishiy turmushda va hokazo sohalarda yil sayin an'anaviy loyihamalar yaratishda uzilishi borgan sari oshib bormoqda. Shu narsa haqiqat bo'lib qoldiki, keyingi yillarga kelib, samolyotlarning, temir yo'l poyezdlarining va avtomobilarning tezligi oshishi natijasida mazkur transport vositalarida halokatlarning soni ko'paydi. Nega? Chunki uchuvchi, mashinist yoki haydovchi tezlikni oshirar ekan, texnikani boshqara olmaydi, vaziyatni to'g'ri baholay olmay, boshqarish uchun zarur bo'lgan operatsiyani boshqara olmay qoladi. Shuningdek, yana bir haqiqat yuzaga qalqib chiqdiki, stanok yoki murakkab texnik kompleks yonida band bo'lgan xodimning ko'p vaqtı aksar hollarda boshqaruv organlari - konstruksiyasining, axborot beruvchi priborlarning va hokazolarning yetarli darajada mukammal bo'lmaganini yengib o'tish uchun sarflanar ekan.

Bularning natijasi yangi tipdag'i dizaynerlik ixtisosining maydonga chiqishiga olib keldi.

Mazkur ixtisosning asosiy vazifasi muhandislik yo'li bilan ishlab chiqilgan u yoki bu texnik qurilma o'rtasida va ana shunday qurilmani boshqarishi lozim bo'lgan operator o'rtasida kelishuvga erishishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, dizaynerning oldiga qo'yilgan inson - operator, inson-haydovchi (qisqasi, iste'molchi) bevosita qaddi-qomati bilan aloqaga kirishadi, uni - obyektni bevosita his etadi). Xullas, dizaynerni loyihalash bo'yicha muhandislik konstruksiyalari bilan insoniste'molchi o'rtasidagi kelishtiruvchi halqa deb atash mumkin ekan.

Mashinalarning xarakteristikasi o'zgargan chog'da, inson omili, qat'iy qilib gapirganimizda, antropometriya, ergonomika, psixofiziologiya va hokazo bilan chegaralanadi.

Sport estetikasi

Sport estetikasi deganda, inson harakati go'zalligi va ulug'verligini estetik anglab yetish tushuniladi. Sport estetikasining rivojlanish jarayonlari insonning ma'naviy va jismoniy yetuklik uyg'unligining in'ikosidir. Bunda insonda jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy kamolot, jismoniy ta'lif, jismoniy madaniyat kabi bosqichlar kuzatiladi.

Jismoniy rivojlanish - kishi organizmi shakli va funksiyalarining o'zgarish jarayoni bo'lib, asosan, atropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi. Ya'ni, bo'y, gavda og'irligi, qaddi-qomati, o'pkalarning tiriklik sig'imi, shuningdek, tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, kuch-chidamlilik kabilarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy tayyorgarlik - bu harakat ko'nikmalari malakalari, jismoniy sifatlarining sport razryadlari va unvonlar, talab va me'yorlar bilan belgilanadigan rivojlanish darajasidir.

Jismoniy kamolot - bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darjasasi va sog'liqning, hayotga, mehnatga, vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning eng yuqori bosqichidir.

Sport - bu musobaqa jarayonida namoyon bo'ladigan u yoki bu jismoniy mashq turida eng yuqori natijaga erishishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatdir.

Jismoniy madaniyat - umumiylardan madaniyatning bir qismi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi moddiy va ma'naviy boyliklarining majmuiasidir. Moddiy boyliklarga sport inshootlari, stadionlar, sport zallari, basseyn, kortlar, jismoniy tarbiya jihozlari, maxsus kiyim, poyabzal, shuningdek, sport sohasida erishilgan yutuqlar, ya'ni kamolot darjasasi kiradi. Ma'naviy boyliklarga jismoniy tarbiya haqidagi fan, san'at asarlari, adabiyot, haykaltaroshlik, rang-tasvir, musiqa va boshqalar kiradi.

Shaxsning har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun sport turlarining ahamiyati katta. Sport, avvalo, chiniqtiradi, tarbiyalaydi, shu bilan birga, go‘zallikka va ezzulikka chorlaydi.

Championlar millionlab muxlislar oldida ajoyib kombinatsiyalar yaratadilar. Shu bilan birga, estetik zavq uyg‘otadilar. Sportning estetik turlari figurali uchish, badiiy gimnastika, sinxron suzish, ot sporti, qilichbozlik va boshqalardir.

Bu sport turlari mohiyati jihatidan san’at darajasida ijro etiladi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport ishlariga alohida ahamiyat berilmogda. Yoshlarimiz jahon arenalarida O‘zbekiston san’atini dunyoga ko‘z-ko‘z qilmoqda. O‘zbekiston bayrog‘i Yer sharining deyarli har yerida baland ko‘tarilmoqda.

Estetik tarbiya va uning asosiy vazifalari

Estetik tarbiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas va ayni paytda birdan to‘xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin–asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko‘nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Ikkinchidan, estetik tarbiya ijtimoiy taraqqiyotning muayyan jabhalarida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida ish olib boradi. Bundan tashqari tarbiyaning mazkur shakli ayrim kishilarning yoxud biror–bir guruhning turli xil faoliyatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Shaxsni estetik hamda badiiy jihatdan tarbiyalash favqulorra murakkab va serqirra jarayondir. Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning barchasi ana shu maqsadni to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan. «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»ni qabul qilishdan maqsad ham insonparvar jamiyat qurishdek ulug‘vor vazifani amalga oshirishga qaratilgan. Chunonchi, «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»da ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu o‘z navbatida, fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash bugungi kunning zaruriy talabi ekanligidan dalolat beradi.

Zamonning o‘zgarishi bilan insonning jamiyatga, tabiatga bo‘lgan munosabati ham o‘zgarib boradi. Bu esa shubhasiz, insonning tafakkuri bilan bog‘liq jarayondir. Zotan, insoniy munosabatlarga daxldor bo‘lgan biror–bir jarayon yo‘qliki, u yerda tafakkur ishtirot etmasa. Shunday ekan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashining voqelikka ko‘rsatadigan ta’siri bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib turgan milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishning sharti sifatida alohida e’tirof etilishi bejiz emas. Bu jarayonlarda estetika amaliy jihatdan o‘zini estetik tarbiya orqali namoyon qiladi. Zero, avval boshda uqtirib o‘tganimizdek, nafosat tarbiyasi insonda hayot va san’atdagi go‘zalliklardan bahramand bo‘lish, ularni baholay bilish hamda o‘zi ham go‘zalliklar yaratish tuyg‘ularini shakllantirishga ko‘mak beradi. Ammo, bu jarayon o‘z-o‘zicha emas, balki bir qator omillar va vositalar ishtirotida amalga oshiriladi.

Estetik tarbiya mohiyatan insoniy ideal bilan bog‘liq bo‘lib, estetik ideal egasi nafis didga, pokiza tuyg‘ularga egaligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, shaxs ijtimoiy taraqqiyotning turli xil jabhalarida bevosita va bilvosita ishtirot etadi va faoliyat olib boradi, shaxs bu bilan ijtimoiy taraqqiyotning estetik subyektiga aylanadi. Shunga ko‘ra, aytishimiz mumkinki, jamiyatda yashayotgan biror–bir shaxs estetik jarayonlardan chetda turmaydi, aksincha, o‘zining muayyan xatti–harakati bilan mazkur jarayonlarga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Estetik tarbiyaning maqsadi ana shunday ta’sirlarni go‘zallik, ulug‘vorlik, fojiaviylik, kulgililik asosida yo‘naltirishdan iborat.

Shuni ta’kidlash joizki, estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan doimiy tarzda aloqada bo‘lib keladi. Biroq, bu «estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan bir xil ma’no kasb etadi», degan gap emas. Negaki, badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang–barangliklar olamini inson tomonidan estetik tarzda anglash va o‘zlashtirishning bir qismi, xolos. Shu ma’noda *estetik tarbiya* – jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariiga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Tarbiyaning estetik shakli ijtimoiy jarayonlarda ishtirot etar ekan, u o‘z navbatida, kishilarga jamiyatda olib borilayotgan ijobiy ishlardan zavqlanish, demokratik munosabatlarga nisbatan

qiziqish tuyg‘usini uyg‘otishni o‘zining asosiy maqsadi deb biladi. Shuning uchun ham estetik tarbiyaning pirovard maqsadi inson ma‘naviy olamini boyitishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. U insonni yangiliklar yaratishga undabgina qolmay, ayni paytda uni nafosat tamoyillari, go‘zallik talablari asosida rivojlantirishga o‘rgatadi ham. Negaki, inson dunyoga estetik qarashi boy, tuyg‘ular va didi tarbiyalangan xolda kelmaydi. Aksincha, bu ko‘nikmalarini voqelikni kuzatishi, o‘rganishi va ulardan tegishli xulosalar olishi natijasida shakllantiradi. Inson ana shu tuyg‘ular ta’sirida o‘zi uchun mutlaqo yangi bo‘lgan olamni kashf etadi. Shunday ekan, o‘z-o‘zidan ma‘lumki, mazkur zaruriyatni teran anglagan inson jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga qo‘shilmaslikka, unga beparvo munosabatda bo‘lishga ma‘nan haqqi yo‘q.

Hozirda estetik tarbiyaning ko‘lami tobora kengaymoqda. Shunga ko‘ra, u o‘z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo‘yan. Bular:

- kishilarda san’at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o‘zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;
- jamiyat a’zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish;
- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg‘u bilan munosabatda bo‘lishga va ularni ravnaq toptirish yo‘lida astoydil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini xosil qilish;
- o‘tmish ma‘naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;
- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ‘ib qilishga undashdi.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, u o‘ziga xos ta’sirchanlik, tug‘yoniylik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko‘laming vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o‘stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. Shunga ko‘ra, estetik tarbiya vositalari ikki xil xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, ular voqelikda sodir bo‘layotgan hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni insonga tushunarli tarzda yetkazib beradi. Ikkinchidan, zamonaviy fanlarning estetik xususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida yetkazib berishi bilan diqqatga sazovordir. Shunga ko‘ra, estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san’at, informasion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.

San’at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko‘ra, ushbu jarayonni insonning o‘zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san’at mohiyatan shaxsning xis-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o‘ziga jalb etib kelgan. San’at insonning ehtiroslar va tuyg‘ular olamiga singib borib ularni yig‘latadi, kuldiradi, o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak san’at barcha davrlarda insonga hamroh bo‘lib kelgan.

Ma‘lumki, ehtiroslar, tuyg‘ular, kechinmalar insonning tirikligidan dalolat beradi. Chunonchi, ijobiy fazilatlar, badiiy-estetik ideallar inson hayotining mazmuniga ko‘rk bag‘ishlaydi. Tarbiyada ayniqsa, axloqiy va estetik tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo‘lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Pirovardida inson bunday maqsadlarning ta’siridan zarar ko‘radi. San’at shu ma’noda zamonaviy insonni estetik jihatdan tarbiyalashdagi asosiy vositaki, u insonning estetik tuyg‘ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo‘naltiradi, uning kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishiga ko‘mak beradi. Biroq, tuyg‘ulari xali shakllanib ulgurmagan, estetik didi risoladagidek darajaga ko‘tarilmagan odam mavjud hayotiy qiyinchilik va tashvishlar qarshisida ojizlik qiladi va natijada yot g‘oyalar ta’siriga tushib qoladi. Ana shunday salbiy holatlarning paydo bo‘imasligi uchun ham san’at o‘zini tobora insonga yaqinlashtirib boradi.

Ma'lumki, fuqarolarda yuksak did va idealni shakllantirish estetik tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifaning zalvorli yukini avval ham, hozir ham va bundan keyin ham chinakam san'at, adabiyot va ma'rifat ko'tarishiga shubha yo'q.

Demak, ko'rinish turibdiki, san'at voqelikka estetik munosabatning kengqamrovli sohasi bo'lib, u insonni nafosatli hamda badiiy didini shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. San'atning tarbiyaviy-g'oyaviy funksiyasi hayot haqiqatlarini qaytadan tiklash orqali namoyon bo'ladi. Estetik haqiqatning o'zi esa hayotni badiiy ijod qonunlari bilan aks ettirishi natijasida vujudga keladi.

Informasion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliv ta'lim muassasalari talabalariga «Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?», degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi.

Biroq, endilikda estetik tarbiyaning shunday vositalari mavjudki, uning ma'naviy jarayonlarga ko'rsatayotgan global ta'siriga befarq bo'lish aslo mumkin emas. Ana shunday ta'sirlardan biri - bu elektron axborot vositalardir. Bu borada «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida qayd etib o'tilganidek, «Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda.»

Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini xatto tashqi ko'rinishini ham tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televidenie 13 yilda, internet esa bor-yo'g'i 4 yilda egallab olar ekan. Shunisi hayratlanarligi, 1998 yilda internetdan 143 million kishi foydalangan bo'lsa, 2001 yilda ularning soni 700 millionga yetgan. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlnrddan oshib ketdi. Bu borada uyali telefon xizmatini aytmasa ham bo'ladi...

Biroq, elektron axborot vositalari qanday xususiyatga egaki, uning ta'sir doirasi bunchalik tez yoyilmoqda? Bu borada mutaxassislarning fikriga ko'ra, avvalo:

- *narxining arzonligi;*
- *asosiy mahsulot – bilim, axborot, moda va imidj;*
- *yangi iqtisodiyot - u axborotga ega bo'lishni xoxlaydigan odamlarga imtiyoz bag'ishlaydi;*
- *chinakam global xarakterga ega ekanligi.*

Ahamiyat berilsa, yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarning barchasi yoshlarning manfaatiga, tuyg'ulariga va dunyoqarishiga mos keladi. Bu xususiyatning barchasi birgina internetda jamlaganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, yoshlarning estetik tarbiyasidagi o'zgarishga bo'ladigan ta'sir san'at va adabiyotdanda ko'lamliroq ekanligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Mahalla - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Mahallaning shaxs estetik tarbiyasiga ta'siri nihoyatda katta. Modomiki, mahalla jamiyat ichidagi kichkina jamiyat bo'lib, u bugun shaxsnинг ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, uning ijtimoiy-huquqiy madaniyatini shakllantirishga ko'mak beruvchi makon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalla shaxs nafosatli tarbiyasiga yaqindan ta'sir ko'rsata olishi bilan boshqa omillardan ajralib turadi. Shu jihatdan mahalla o'z navbatida o'z oldigan qo'ygan ezgu maqsadlarni bajarishi bilan zamonaviy insonni nafosatli jihatdan tarbiyalaydi. Chunonchi mahalla;

- o'ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko'rkaligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlashi bilan;
- turmush nafosati va muomala estetikani shakllantirib, insonlar qalbida ijobiy tuyg'ular, yaxshi orzularni namoyon ettirishi bilan;
- mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo'l qo'ymasligi hamda qo'shnichilik madaniyatini kamol toptirishi bilan;
- san'at, madaniyat, ma'rifat arboblari, ilm ahllari ishtirokida bo'ladigan rang-barang mavzulardagi ma'ruzalarni, suhbatlarni uyuştira olishi bilan;

- isrofgarchilikka, dabdababozlikka yo‘l qo‘ymagan holda urf-odatlar, an’analar, marosimlar, tantanali shodiyonalarni tartibli, chiroyli o‘tishini ta’minlashi va hokazo shu kabilar bilan inson estetika tafakkurini shakllantirishda birlamchi maskan bo‘lib hisoblanadi.

Tabiat - estetik tarbiyaning zaruriy vositasi. Shuni maxsus ta’kidlash kerakki, zamonaviy inson tarbiyasini estetik jihatdan kamol toptirishda *oila* qanchalik ustuvor omil bo‘lib hisoblansa, bu jarayonda tabiat ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi. Chunki tabiat bilan ongli tarzda murosa qilmaslik shaxsni nafosatli jihatdan mukammal bo‘lib yetishishiga monelik ko‘rsatadi. Shuning uchun inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat inqiroz va halokat yoqasiga kelib qolgan hozirgi vaqtida bu muammoni chetlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Mehnatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati. Mehnat ham moddiy, hamda ma’naviy go‘zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy–foydalı mehnatning badiylik bilan aloqasi ta’sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma’naviy qiyo fasini belgilovchi omil hisoblanadi.

Sport – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi. Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e’tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog‘lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Hozirda yurtimizda sportni rivojlantirishga doir ko‘plab dasturlar ishlab chiqilgan va ular jamiyat munosabatlaridan amalda ishtirok qilmoqdalar. Keyingi kunlarda O‘bekiston ko‘plab sport turlari bo‘yicha jahon musobaqalarni uyuştiruvchi va o‘tkazuvchi mamlakat sifatida jahon hamjamiyatida ko‘zga ko‘rinib bormoqda. Ana shularning barchasi muayyan ma’noda inson nafosatli dunyoqarashini, tafakkurini sog‘lomlashtirishiga qaratilgan. Bir so‘z bilan aytganda, sport estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida «Farzandlari sog‘lom yurtning kelajagi porloq bo‘ladi» - degan maqsadni amalgaloshirishga muhim hissa qo‘shadi.

Estetik tarbiya juda keng ko‘lamga ega bo‘lib, insonni bir butun shaxs sifatida namoyon qiladi. Shuning uchun har qaysi davr, tuzum, jamiyat estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq, bu jarayon pedagoglar zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi. Ayniqsa, bugungi kunda oliv ta’lim muassasasida katta ehtiyojga aylanmoqda. Biroq, ko‘pgina oliv ta’lim muassasalarida bu fanga nihoyatda jo‘n va primitiv yondoshuv mavjudligini alohida e’tirof etish zurur. Fanning maqsadini noto‘g‘ri tushunish mavjud.

Estetik tarbiya ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma’naviy va jismoniy olaming uyg‘un tarzda rivojlanishiga ulkan xissa qo‘shadi. Estetik tarbiyada insonning tashqi ko‘rinishi, uning jamoat orasida o‘zini tutishi, jismoniy baquvvat bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma’lum darajada kishining estetik tarbiya ko‘rganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyatni yuksaltirishda estetik tarbiyaning zaruriyatini quyidagicha izoxlash mumkin.

- globallahuv jarayonida inson tabiatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni optimallashtiradi;
- ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida mavjud tahdidlarga qarshi inson go‘zalligini har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi;
- estetik tarbiyaning asosida insonning hayotga bo‘lgan ijodiy munosabati yotadi, bu ijodiylik fetish estetikaning avj olishiga monelik qiladi;
- insonning estetik didini tarbiyalash orqali uning g‘ayriestetik jarayonlarga munosabati shakllanadi.

Estetik tarbiyaga tahdidlar va «ommaviy madaniyat»

Milliy ma’naviyatga ta’sir o‘tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo‘naltirishni taqazo etmoqda. Ta’kidlash o‘rinlik, estetika niqobi ostida turli xil ko‘rinishdagi «sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotchilari», «ko‘ngilochar» va «musaffo tuyg‘u» baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog‘ida vampirizm estetikasi va uning targ‘iboti bilan bog‘liq saytlarning ko‘payib borayotganligi tashvishlanarli xoldir. Bu

targ‘ibot saytlarni oddiygina qidiruv buyrug‘i orqali topish mushkul emas. Bunday tahdidlarga qarshi go‘zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali kurashishni zamon talab etmoqdaki, bu yoshlarni ma’naviy jihatdan yuksaltirishda estetik tarbiyaga zaruriyat mavjudligidan dalolat beradi. Bu estetik tarbiyaga nisbatan tahdidlarning birinchi jihat.

Estetik tarbiyaga tahdidning ikkinchi jihatni insonning tashqi va ichki ko‘rinishidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bo‘lgan zaruriyat bilan belgilanadi. Bu ilm bugungi kunda biologiya va tibbiyotda fizionomiya nomi bilan mashhur. Vaholangki, o‘tmishda bu sohaga jiddiy e’tibor berilib, qator risolalar yaratilgan. Jumladan, olmon mumtoz faylasufi I.Kant bu ilmga «ichki olamni o‘rganuvchi ilm» deb ta’rif bergan bo‘lsa, sharq allomalari bu borada «Risolai fil farosa» (X asr), «Farosatnoma» (XYI asr) kabi asarlarni yozib qoldirganlar.

Odatda, farosat tushunchasi estetik baxo bilan belgilanadi. u ranjish, nomunosib xolat, ko‘ngilga xush yoqmagan ishlar qilganda munosabat bildiramiz. Shuning uchun bo‘lsa kerak, kamdan kam xollarda «farosatli kishi, farosati bor, farosatl» degan so‘zlarni ishlatalamiz. Biroq. did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli bo‘lib, fahm - haqiqatga, farosat – ezgulikka, did – go‘zallikka munosabat orqali namoyon bo‘ladi. Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Shu ma’noda fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did va farosat murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg‘unlashgan umumiyligidan iboratdir.

«Xo‘sish, bu ilmnинг estetik tarbiyaga nima daxli bor?» - degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Dahli shundaki, aynan didsizlik va farosatsizlik insonning asl qiyofasini bilishga, uning niyatini anglashga monelik qiladi. Zero, har qanday chiroyli ko‘ringan, istarali bo‘lishga intilgan, muomalali inson har doim ham go‘zal ishlarni qilavermasligini fahm, farosat, did yordamida ajratib olishimizga to‘g‘ri keladi. Inson ma’naviyatining yuksalishi uning fazilati bilan bog‘liq ekan, bu jarayon albatta, estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi.

Bir paytlar AQShda kishilarning ijtimoiy xolati bilan jinoyatchilik o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Yevropada esa kishi tug‘ilganida vujudida jinoyatga moyil xarakter yoki belgilar bo‘ladimi? - degan mavzuda izlanishlar bo‘lgan. Hozirda ham hunuk ko‘rinishli insonlar yomon bo‘ladi, deb ishonuvchilar uchrab turadi. Farosat ilmining bu nazariyasiga ishonish 1920 yillarda Germaniyada haddan tashqari kuchayib ketadi. Misol uchun 1929 yil Dusseldorf shahrida amalgalashgan jinoyatlar aholini dahshatga soladi. Politsiya guman qilgan kishini e’lon qilganida, hech kim ajablanmaydi ham: 21 yoshli aqli zaif Xans Shtausberg. Lekin xuddi shunday bir jinoyat yana qaytarilgandan keyin «Dusseldorfning haqiqiy qonxo‘ri» qo‘lga olinadi. U ochiq yuzli, juda beozor ko‘ringan, hech kimda shubha uyg‘otmaydigan Piter Kurten bo‘lgan.

Shuning uchun ham fiziologik jihatdan yomonlikka moyil shaxs estetik tarbiya ta’sirida xulqini o‘zgartirib, go‘zal axloqli kishiga aylanishi mumkin. Shuning uchun o‘zida mavjud yomon xislatlarni yaxshi tomonga o‘zgartirgan va ma’naviy kamolotga erishgan kishi haqida faqat yuziga qarab hukm chiqarish adolatdan emas.

Shu o‘rinda estetik tarbiyaga tahdidning uchinchi jihatni haqida fikr bildirish va bu borada alohida ta’kidlash shart bo‘lgan bir necha mulohazalar bor. Ular orasida insonning estetik tarbiyasiga ta’sir etishning psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Buni ong osti hodisasi orqali izoxlash mumkin.

1. *Sezgilar.* Aytish mumiknki, mana shu 5 ta sezgi ilg‘aman narsani ong osti ilg‘ash qobiliyatiga ega. Uzlusiz jarayonni tuyg‘ular hotiraga uzluksiz yozadi. Ammo biz ularning hammasini ajrata olmaymiz. Zero kamalakda millionlab, balki cheksiz miqdordagi rang bo‘lishiga qaramay bizlar ulardan faqatgina 7 tasinigina ajrata olamiz xolos.

2. *Kuzatish.* Bu borada reklama va uning estetik tabiatini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun ham mahsulot reklamalari odamlar gavjum bo‘ladigan joylar (bozorlar, ko‘chalar va hokazo)ga o‘rnataladiki, bunda bevosita kuzatish muhim omilga aylanishi bejiz emas. Ayni paytda mahsulotga bo‘lgan qiziqish reklamada ko‘rsatilgan shaxsga ixlos tufayli ortadi.

3. *Tashviqot*. Ongosti tashviqotga tabiiy xolda eshitilmaydigan ovozlar orqali ta'sir qilishni kiritish mumkin. Supermarket, kafe-bar, bozor hamda ko'ngilochar maskanlarda qo'yiladigan musiqalarda ham haridchlarni chorlash maqsadi ko'zlanadi.

4. *Yashirin kadr orqali ta'sir qilish*. Insonning ong osti xislariga yashirin ta'sir qilish xususan 25-kadr ko'pchilik davlatlar tomonidan ta'qib ostiga olingan. Mutaxassislarining fikricha bu turdag'i tashviqot har doim ham yaxshi yo'lda ishlatalavermasdan, aksar shum niyatli insonlarga qo'l kelishi mumkin. Misol uchun kino yoki seriallarda, «Agar bir insonga davomli ravishda «Qo'shningni o'ldir!» shaklidagi yashirin kadr bilan ta'sir qilinsa, u hech ikkilanmasdan qotillikka qo'l urishi mumkin ekanligini tibbiyot psixologiyasi isbotlab berdi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 ta jihatga e'tiborsizlik bugungi kunda tashvishli va tahdidli hodisa sifatida e'tirof etilayotgan «ommaviy madaniyat»ni avj olishiga olib keladi. Bu borada Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlarlarida «Tabiiyki «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'yaydi»- degan purma'no hikmat bor.

Endi ikki og'iz so'z «ommaviy madaniyat» haqida. Uning kelib chiqishi, ta'siri, tahdidi borasida mazkur anjuman ishtirokchilarining barchasi habardor, desam yanglishmagan bo'laman. Lekin, bir narsaga g'oyatda tahdidli, u ham bo'lsa, ommaviy madaniyat insonni «qiyo fasiz» oqimning bir qismiga aylantirib qo'yishidadir.

Bu illat aksariyat xollarda haqiqat, go'zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste'molchilik ehtiyoji bilan bog'lab, iste'mol va tovar sifatida haridorgir bo'lishiga qaratilgan maqsadni targ'ib qiladi. Bu esa pirovardida «bozor adabiyoti», «bozor san'ati» degan ma'naviyatga tahdid soluvchi hodisalarning «gullab-yashnashi» uchun imkon yaratadi. Bugun turli arzonbaho ishqiy yoki detektiv sarguzashtlarning bozori chaqqon. Didsiz, saviyasiz, «millati»ning tayini yo'q «badiiy» filmlar ham ko'payib ketgan. «Bozor san'ati» deganda, birinchi navbatda, anashunaqa filmlar va bayram sahnalarida qarsillatib aytildigan yangroq ashulalar esga tushadi.

XXI asr ommaviy madaniyati zamonaviy qiyofada go'yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish niqoblari ostida namoyon bo'lmoqda. Bu niqoblar ostidagi salbiy xolatlar va ular shakllantirish mumkin bo'lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglay bilish zamon talabidir. Ommaviy madaniyat eng avvalo, milliy axloqqa zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan hatarli ekanligini ham to'g'ri tushunish kerak. Xo'sh «ommaviy madaniyat»ning illat sifatida qanday namoyon bo'lishi mumkin?

1. «Ommaviy madaniyat» namoyondalarining amallari o'zлari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan: ular «noyob san'at» namunalari-g'oyalarini nafaqat targ'ib qiladi, balki pullaydi ham.

2. Faqat bugunni, yana ham aniqrog'i hozirni ko'radi va tan oladi.

3. Umuminsoniy madaniyatni bo'ysindirish va o'z ta'sir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi.

4. U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog'i bilan qarshi. Andozalashgan axborot-u mahsulotlar qurshovida qolgan odamlarning o'zi ham bora-bora bir o'lchamga tushadi: hammaning yurish-turishi, o'y-kechinmasi, fikrlash tarzi, bari bir xil.

5. Shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. U voqeа jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi.

6. «Ommaviy madaniyat» o'z navbatida mafkuraviy, informasion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan xolda «ma'rifatparast»lik g'oyalari asosida o'ziga xos muomala va muloqot madaniyatini ham targ'ib qiladi. Buni biz bugungi kunda yoshlar orasida ko'rishishdagi «boshni boshqa suqishtirish», imo-ishora, o'zaro muloqotning «kurakda turmaydigan so'zlar»ga tayanilishi orqali ko'rib guvohi bo'lmoqdamiz.

«Ommaviy madaniyat»ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo'lgan olomonni shakllantirish bo'lgani bois, u ma'naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o'quvchini mushohadaga

undab, tasavvur olamini kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo'latmaydi. Shuning uchun «ommaviy madaniyat» namunalari badiiy-estetik qimmatga ega emas.

Bu borada XX-asrning 70 yillarida amerikalik bir qator sotsiologlar, faylasuflar, san'atshunoslar «ommaviy madaniyat»ning ijtimoiy taraqqiyotga, ayniqsa umumadaniy jarayonlarga ta'siri haqida bir qator tadqiqotlarni olib borgan edilar. Xususan, sotsiolog Ch.Reych o'zining «Gullayotgan Amerika» kitobida «Isyonkor yoshlar o'zlarining shaxsiy «madaniyat»larini yaratmoqdalariki, bu madaniyatning asosini kiyim, musiqa va narkotiklar tashkil etmoqda. Yosh «isyonkorlar» madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq falsafiy, axloqiy, estetik ahamiyatidan hamda muomala va muloqot madaniyatidan yuz o'girgan xolda o'zlariga mos qadriyatlarni yaratmoqdalar va ularni himoya qilmoqdalar. Bu kabi «yangi odam» uchun mazkur qadriyatning asosi – bu o'zini mavjud tizimdan tashqarida xis qilishga bo'lgan layoqatidir.», degan fikrni bayon etgan edi.

Tayanch tushunchalar

Badiiy ijod - adabiyot va san'at fenomeni, ilhom bilan bog'liq ma'naviy hodisalardan biri, estetik ijod shakli.

Garmoniya (yun. Harmonia - aloqa, uyg'unlik) - ma'lum tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan davrida o'zaro muvofiq, mutanosib, uzviy bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha.

San'at - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati,aql idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulotidir.

Ulug'verlik - tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo'ladigan man'naviy axloqiy tushuncha. Ulug'verlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsa va hodisalarga xos umumiylig me'yoriy barkamollikdir.

Fojialilik - voqelikning eng muhim, chuqur ziddiyat va to'vnashuvlari hayot va o'lim,ozodlik va mutelik, aql va tuyg'u, qonun va burch shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda ifoda etuvchi falsafiy tushuncha.

Kulgilik haqidagi mavjud barcha nazariyalar kulgilikning predmetini obyektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning subyektiv imkoniyatlari natijasi yohud subyekt va obyekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko'rib chiqishadi.

Estetika - (yun.aistethikos - hissiy idrok, sezgi) 1) voqelikni hissiy ta'sirchan,emotsional o'zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniyatlari to'hriidagi fan, nafosatlik.

Estetik did - voqeа hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqiy yoki qoniqmaslik tuyg'usi, estetik mezon.

Estetik munosabat - subyekt bilan obyekt o'rtasidagi o'zaro harakat va o'zaro ta'sirning maxsus turini anglatuvchi falsafiy tushuncha.

Estetik ong - olamni estetik anglash, dunyoga inson munosabatining subyektiv tomoni. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida axloqiy ong, siyosiy ong, huquqiy ong, diniy ong, falsafiy ong kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi. Estetik ong ma'naviy ruhiy voqeа hodisalar bilan bir qatorda turadi.

Forig'lanish (katarsis) - bu tushunchani mohiyatan diniy ma'noda qo'llagan edi. Arastu esa uni san'atga nisbatan ishlatadi. Forig'lanish, Arastu talqiniga ko'ra, san'at o'z oldiga qo'ygan maqsad, xususan, fojea (tragediya)ning maqsadi. U mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig'lantiradi.

Nafosat - bir tomonlama, real voqelikni, ikkinchi tomonдан ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma'naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o'z ichiga olgan eng yirik istiloh, ovro'pacha ta'rifda-metakategoriya.

Estetik did - insondagi go'zallik, ulug'verlik, fojiaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. «Estetika» tushunchasi nimani anglatadi?
2. Nafosatshunoslikning axloqshunoslikka aloqadorligi va undan farqi nimalarda ko‘rinadi?
3. Nafosatshunoslik yana boshqa qaysi fanlar bilan o‘zaro aloqador?
4. Nafosatshunoslikning amaliy ahamiyati qay tarzda namoyon bo‘ladi?
5. Estetik ongning mazmun va mohiyati namalardan iborat?
6. Estetik ong shakllarini sanab o‘ting?
7. Estetik ehtiyoj nima?
8. Estetik bilishning o‘ziga xos xususiyatlari namalardan iborat?
9. Estetik munosabatning mazmuni va ahamiyati namalardan iborat?
10. Estetik faoliyat nama?
11. Estetiklik (nafosatlilik) kategoriyasini izohlang.
12. Go‘zallikning tabiat, jamiyat va insonda namoyon bo‘lishini misollar bilan izohlang.
13. Ulug‘vorlik nima? Tubanlikchi?
14. Fojaviylik va kulgulilikning o‘zaro bog‘liqligi nimada ifodalanadi?
15. Dizayn, texnika estetikasi masalalarining bugungi kundagi dolzarbligi nimalar bilan belgilanadi?
16. Texnika estetikasi deganda nimani tushunasiz?
17. Texnogen sivilizatsiyani izohlang?
18. San’atning vujudga kelishi va taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
19. Insonni estetik tarbiyalash muammolari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?
20. Estetik tarbiya va estetik madaniyatning ma’naviyat bilan qanday aloqasi bor?
21. Sport estetikasi mazmun va mohiyatini izohlang.
22. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli qanday?
23. Axborot estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
24. Reklama faoliyatiga estetik qonuniyatlarning ta’siri qanday?
25. Reklamalardagi g‘ayriestetik holatlar va ularning ko‘rinishlari haqida gapirib bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sod Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-sod, 70-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omoli. // «Xalq so'zi» gazetasi 2016 yil 31 dekabr.
8. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar. –T.: O'zbekiston, 1996- 2016.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr. –T.: Ma'naviyat, 2016.
10. Abduraxmanov A. Falsafa. –T.: Fan, 2009.
11. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. Darslik. –T.: O'FMJ, 2006.
12. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. –T.: Sharq, 2005.
13. Falsafa asoslari. Nazarov Q. Tahriri ostida. –T.: O'zbekiston, 2005.
14. Falsafa. Yusupov E. Tahriri ostida. –T.: Sharq, 1999.
15. Shermuhamedova N.A. Falsafa. –T.: Noshir, 2012.
16. Shermuhamedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –T.: Noshir, 2009.
17. Shermuhamedova N.A. Falsafaga kirish. –T.: Noshir, 2012.
18. Shermuhamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. –T.: Noshir, 2013.
19. Shermuhamedova N.A. Inson falsafasi. –T.: Noshir, 2017.
20. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-e, pererabotannoe, dopoln. /Pod red.M.A.Axmedovoy, V.S.Xana. –T.: Mehnat, 2004.
21. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. –T.: Sharqshunoslik, 2012.
22. Sharipov M., Fayzixo'jayeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma, –T.: 2004.
23. Sharipov M. Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –T.: Universitet, 2007.
24. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. –T.: O'qituvchi, 1993.
25. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O'FMJ, 2010.
26. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). Darslik. –T.: O'zbekiston, 1995.
27. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Cho'lpon, 2006.
28. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika. 2-nashr. /uslubiy qo'llanma. –T.: O'FMJ, 2010.
29. Gunnar Skirbekk, Nils Gilge. A history of Western Thought. Scandinavian University Press. II New Fetter Lane, London, EC4P 4EE. 2001. P-1-4
30. K.S.Guttenplan. J.Hornsby. C.Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341.
31. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77. (P - 19)
32. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2010.
33. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.
34. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: Yangi asr avlod, 2016.
35. J.Rumi. Ichingdagi ichingdadur. –T.: Yangi asr avlod, 2016.
36. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar. –S.: Zarafshon, 2015.
37. Arastu. Sochineniya V 4-x tomax. –M.: 1975. ch.1.
38. Asmus V. Antichnaya filosofiya. –M.: 1999.

39. Abu Ali ibn Sino tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. –T.: Fan nashriyoti, 1980.
40. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi. –T.: Universitet, 2011.
41. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Universitet, 2010.
42. Axborotlashuv va jamiyat ma’naviyati. Ilmiy maqolalar to‘plami. –T.: Iqtisodiyot, 2013.
43. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti –T.: Yangi asr avlod, 2004.
44. Xusanov B. G‘ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2010.
45. Bozarov D. Sinergetik paradigma. –T.: Tafakkur, 2010.
46. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –T.: Ma’naviyat, 2008.
47. Choriyev A. Inson falsafasi. –T.: O‘FMJ, 2007.
48. Falsafa qomusiy lug‘at. T. 2004.
49. Madayeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
50. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. –T.: Fan, 2009.
51. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2007.
52. Nazarov Q. Tahriri ostida. G‘arb falsafasi. –T.: Sharq, 2004.
53. Nazarov Q. Tahriri ostida. Jhon falsafasi tarixidan lavhalar. –T.: O‘FMJ, 2004
54. O‘zbekiston: dinlararo hamjihatlik – tinchlik garovi. –T.: 2005.
55. Ochildev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O‘zbekiston, 2004.
56. Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlod, 2008.
57. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlol, 2009.
58. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
59. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat-globallashuvning g‘oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
60. Qurbonova L. Borliq falsafasi. –Andijon: ADU, 2009
61. Qurbonova L. Inson falsafasi. –Andijon: ADU, 2009
62. Sharipov E., Raximbayeva D. Falsafa tarixidan lavxalar. Namangan, 2008.
63. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
64. Shermuhamedova N.A. Fan falsafasi. –T.: Noshir, 2017.
65. Shermuhamedova N.A. Texnika falsafasi. –T.: Universitet, 2017.
66. Soifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. –T.: TDIU, 2004.
67. Sirojiddinov I. Mirzo Ulugbek dunyosi. –T.: Sharq, 2015.
68. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
69. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Universitet, 2007.
70. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o‘rni. –T.: «Star - Poligraf», 2010.

M U N D A R I J A

Kirish	3
1-mavzu: Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq va G‘arb falsafasi	4
2-mavzu: Borliq – falsafa kategoriyasi. Bilish nazariyasi, yo‘nalishlari va asosiy muammolari	36
3-mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari	47
4-mavzu: Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma’naviy qadriyatlari. Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi). Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari	62
5-mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida. Mulohaza va xulosa chiqarish	87
6-mavzu: “Etika” fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati. Axloqiy tarbiya va madaniyat uyg‘unligi	121
7-mavzu: Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari. Estetik tarbiyaning turlari va yo‘nalishlari	144
Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati	173

